

U494-5
H20.

Xayrulla Hamidov

**TURK TILI
GRAMMATIKASI**

Morfologiya



КИТОБНИ КУЙИДА КУРСАТИЛГАН

муддатдан жечикгармай цайт&ринг

АЛ ТПК В-5М1-1 ми.—97 г.

**О'ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTTTUTI**

XAYRULLA HAMIDOV

TURK TILI GRAMMATIKASI

MORFOLOGIYA

(turk filologiyasi bo'limi 3-kurs talabalari uchun qoilanma)



TOSHKENT - 2006

Ushbu qo'llanma oliy o'quv yurtlari turk flologiyasi bo'limlarida tahsil oluvchi 3- kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida yozildi. Undan turk flologiyasi yo'nalishi bo'yicha turli bosqichlarda tahsil olayotgan talabalar, akademik litseylarda turk tilini o'rganayotgan o'quvchilar, shuningdek, turk tilini mustaqil ravishda o'rganayotgan har kim foydalanishi mumkin.

Ushbu qo'llanma Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutining Turkiyot kafedrasida tayyorlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlaridagi turk filologiyasi bo'limlarining bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan 3-kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, qo'llanmadan turk flologiyasi yo'nalishi bo'yicha turli bosqichlarda tahsil olayotgan talabalar, akademik litseylarda turk tilini o'rganayotgan o'quvchilar, qolaversa, turk tilini mustaqil ravishda o'rganayotgan har kim foydalanishi mumkin.

Ushbu qo'llanma Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutining Turkiyot kafedrasida tayyorlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlaridagi turk filologiyasi bo'limlarining bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan 3-kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, qo'llanmadan turk flologiyasi yo'nalishi bo'yicha turli bosqichlarda tahsil olayotgan talabalar, akademik litseylarda turk tilini o'rganayotgan o'quvchilar, qolaversa, turk tilini mustaqil ravishda o'rganayotgan har kim foydalanishi mumkin.

Mas'ui muharrir:

.Wologiyafanlandoktori, professor QR Sodikov

Taqrizchi:

fllohgiyafanlan mmizodi, dotsent A. Alimbekov

© «Фан ва технология» нашриёти, 2006.

SOI BOSHI

Ushbu qo'llanma Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutining Turkiyot kafedrasida tayyorlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlaridagi turk filologiyasi bo'limlarining bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan 3-kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, qo'llanmadan turk flologiyasi yo'nalishi bo'yicha turli bosqichlarda tahsil olayotgan talabalar, akademik litseylarda turk tilini o'rganayotgan o'quvchilar, qolaversa, turk tilini mustaqil ravishda o'rganayotgan har kim foydalanishi mumkin.

So'ngi 10-15 yil davomida kuzatilgan, o'rganilgan, amalda qo'llanilgan tajribalar asosida qalamga olingan va bugun sizning qo'lingizga tekkan ushbu qo'llanmada turk tilshunosligining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan morfologiyaga oid nazariy masalalar yoritishga harakat qilindi. Ushbu kitob turk tilidagi so'z turkumlan bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Grammatik materiallar bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak turk tili va adabiyoti mutaxassislari uchun mo'ljallab. 2004 yilda tuzilgan va oliy o'quv yurti ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan «Turk tili» fani namunaviy dasturining 3-kurslarga ajratilgan qismiga to'la mos keladi. Unda hozirgi zamon turk tilidagi so'z/turkumlari o'zbek tilshunosligida so'zlarning turkumlanishi tarnoyilari va tartibiga muvofiq ravishda berilgan.

Turk tili grammatikasini o'rganayotgan talabalarga oson bo'lishi uchun ba'zi o'rinlarda turk tili grammatikasini o'zbek tili grammatikasi bilan chog'ishtirishga harakat qilindi.

Shuningdek, kitobda so'z turkumi haqida ma'lumot berilgandan so'ng ushbu guruhga mansub so'zlarning yasalishi haqida qisqacha ma'lumot berilib, so'z yasovchi qo'shimchalar sanab o'tildi va misollar keltirildi. Barcha mavzu nomlari, muhim grammatik atamalarning o'zbekchasi keltirilib, ularning turkchasi qavs ichida ko'rsatildi.

Ma'lumki, hozirgi zamon turk tili va o'zbek tilida ayrim hodisalar har ikki tilda ham mavjud. Lekin bu grammatik hodisalar o'ziga xos xususiyatlari bilan farqliliklarga ham egadir. Qo'llanmada bun-

day farqli xususiyatlar qayd qilishga, sabablari, qonuniyatlari ta'kidlashga harakat qilindi. Shuningdek, o'zbek tili grammatikasida alohida so'z turkumi yoki kategoriya sifatida mavjud, ammo turk tili grammatikasida kategoriya sifatida olinmaydigan holatlar ham ko'rib chiqildi va buning ham sababini izohlashga urinib ko'rildi. Hatto ba'zi o'rinlarda bahsli holatlar rus grammatikasidagi o'xshash holatlar bilan isbotlashga harakat qilindi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentabrda qabul qilgan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq va 2005-2006 o'quv yilidan boshlab oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan talabalarning yangi, lotin alifbosida tahsil olayotganliklari, qolaversa, hozirgi turk tilining ham lotin alifbosiga asoslangan til bo'lgani va buning talabalar uchun tilni o'rganishda yanada qulay bo'lishini hisobga olib, qo'llanma lotin alifbosida yozildi.

Mazkur kitob turk tili grammatikasini o'rgatish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilgan dastlabki ishlardandir. Shu bois kitobda muallif nazaridan chetda qolgan ayrim xususlarning ham uchrashi tabiiydir. Shuni hisobga olib, muallif ushbu kitob va unda qalamga olingan mavzular yuzasidan bildirilgan har qanday samimiy maslahat, fikr-mulohazalarni chin dildan qabul qiladi va yaqin kelajakda bu borada davom ettiriladigan ishlarda, albatta, ularni hisobga oladi.

Ushbu kitobning yozilishida ma'naviy ko'mak bergan marhuma volidam Guiabza Hayit qiziga Oltohdan rahmatlar tilayman.

MUALLIF

ON SOZ

Elinizdeki bu kitob Taskent Devlet Sarkinaslik Enstitiisunun Turkoloji bdlumu'nde hazirlanmis olup, Uzbekistan Cumhuriyeti'ndeki Yuksek Egitim kurumlari, universitelerin Turk Filolojisi bolumlerinde Lisans egitimi gormekte olan 3. simf ogrencileri icin ders kitabi olarak kullanilabilir. Aynca, bu kitaptan Turk Filolojisi bolumlerinin diger simf ogrencileri, Yuksek Lisans egitimi gormekte olan ogrenciler, liselerde Turkce ogrenmekte olan ogrenciler ve Turkce'yle ilgilenen herkes yararlanabilir.

Son 10-15 yil i9inde karsjlasUgimiz, incelemeye 9aliŒtigimiz ve uyguladigimiz deneyimlerimiz sonucu olarak kaleme aldigimiz konulan i9eren ve ogrencilerimizin dikkatlerine sunulmakta olan bu kitapta **Turkce** DilbilimPnin en onemli kismmi oluŒturan "Kelime gruplan" ile ilgili turn teorik bilgilyer almaktadır. Kitaptan Turkce Bicimbilimi'ne ait sizi ilgilendiren her soruya yanit bulmak miimkun olacaktir, diye **duŒ**Uniiyoruz.

Kitaptaki turn gramer konulari Lisans egitimi gormekte olan ogrenciler icin 2004 yilmda hazirlanarak Yuksek Egitim Kurumunca onaylanrms ve uygulamaya sunulmus olan "Turk Dili" Ders Programma uygundur.

Tiirk^e'nin Dilbilgisini incelemekte olan ogrencilere kolaylik saglamak amaciyla bazi yerlerde Turk<?e'nin gramer konulan. bazi terimler Uzbek Dili'nin grameriyle karsilastinlmistir.

Turk9e'nin Grameriyle ilgili onemli konulan icermekte olan bu kitapta Cagdas Turkce'nin Kelime gruplan Turkce Dilbilgisi kitaplanndan farkh sekilde, Ozbekce Dilbilgisi kitaplannda uygulanan sistem ve kelimeleri siniflandirma temayullerine uygun Œekilde sirlanmi?, her kelime grubu sonunda bu gruba ait olan kelimelerin meydana gelmesini saglayan yapim ekleri orneklerle verilmi?, turn konu basliklan, gramer terimleri Ozbek9e ve Turk9e olarak iki dilde kitaptan yer almisUr.

Bilindigi gibi, bazi gramer kurallan C'agdas Turk?e*de de (,'agdas Ozbek9e'de de aynidir. Ancak, bu kurallar arasmda ba/i farkhhklar da bulunmaktadir. Kilabimizda bu farkhliklan belirtmeye. onlarin meydana gelmesinin nedenleri, kurallanm vurgulamaya cali-

silmistir. Ayrica, Ozbek Dili'nin Grameri'nde аъл grup ya da ^e\$it olarak var olan, ama TurkeVnin Grameri'nde аъл bir kelime grubu ya da ce\$idi olarak goriilmemekte olan olaylar, hususlar da ele alinip, nedenleri a^iklanmaya cali\$ilmi\$tir. Boyle bir durum meydana geldiginde, yazar ogrencilerin konuyu iyi anlamalan i9in Ozbekce ve Rus9a'daki benzeri konulara da basvurmustur.

Uzbekistan Cumhuriyeti'nin 2 Eylil 1993'te 9ikardigi Latin alfabesine ge9ilmesiyle ilgili Yasa geregi, 2005-2006 Egitim-ogretim yilindan itibaren Ozbekistan'daki universitelerde 1. sinif ogrencilerin yeni Latin alfabesinde egitime basjadiklan, ayrica, TiM^e'nin de Latin alfabesiyle yazilmakta olan bir dil oldugu, hem de bunun ogrenciler i9in bir avantaj oldugunu hesaba katarak, ishbu kitap Latin alfabesinde duzenlenmistir.

Bu ders kitabi Turk9e Dilbilgisiyle ilgili ulkemizde ger9eklestirilmis olan ilk galismalardan biridir. Dolayisiyla, kitapta yazann dikkati disinda kalmis bazi hususlann da bulunmasi dogaldir. Bunun i9in de yazar, kitapla ilgili bildirilecek samimi fikirleri kabul eder, verecekleri fikir ve onerilerinden dolayi herkese sukranlanni sunar, daha ileride yapılacak 9alismalannda bildirilen degerli fikir ve onerieri dikkate alacaktır.

lφu kitabin yazilifi sirasinda manevi destekte BuIIIInmuç olan merhume validem Gulabza Hayit qizt'na Allah'tan rah metier dil~ erim.

YAZAR

KIRISH

Turk tili (*Turk Dili, Tiirkce*) Turkiya Respublikasining davlat tili bo'lib, unda bugungi kunda 70 milliondan ortiq kishi gaplashadi.

Turkiy tillar oilasiga mansub hozirgi zamon turk tili (*lagda\$ Tiirkce*) o'g'uz lahjasining o'g'uz-saljuq kichik guruhiga mansub bo*lib, unga xos asosiy genetik va tipologik xususiyatlar, leksikada - asosiy so'z zahirasiining mushtarakligi, fonetikada - turkiy tillarga xos singarmonizm qonuni, morfologiyada - so'z yasalishi, o'zgarishi, so'z oxiriga qo'shimcha qo'shib yangi shakl va so'zlar yasalishi va nihoyat, sintaksisda - so'z birikmalari va gap bo'laklarining joylashish tartibida namoyon bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda turk tili boshqa turkiy tillardan, jumladan, o'g'uz guruhiga mansub tillardan ajralib turuvchi xususiyatlarga ham ega.

Hozirgi zamon turk tili X-XI asrlarda O'rta Osiyodan Onado'lu yarim oroliga ko'chgan va XII asrda Saljuqiylar davlati, keyinchalik, XIV asrning boshlaridan yirik Usmoniylar imperiyasini barpo etgan o'g'uz-saljuq qabilalari tilining ko'p asrlik taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan. Ana shu salkam 7 asrlik tarixiy davr mobaynida turk davlati, xalqi va turk tili shakllangan.

Turk tili o'zining butun tarixi davomida turli lizimdagi tillar, xususan, flektiv arab tili va analitik tillardan bin bo'lgan fors tili, XVIII asrdan boshlab esa Yevropa tillartning jiddiy ta'siriga uchragan. Sanab o'tilgan tillar, xususan, arab va fors tillari bilan o'zaro munosabatlar natijasida turk tiliga juda ko'p so'z va atamalar o/.lashibqolgan.

Hozirgi zamon turk tilida ham jiddiy miqdorda saqlanib qolgan arabcha leksik o'zlashmalar, asosan, diniy atamalar, ijtimoiy tushunchalar, ilmiy va maxsus atamashunoslikka oiddir.

Badiiy adabiyot, xususan, poeziya (Devon adabiyoti) orqali ham turk tiliga ko'plab arabcha va forscha so'zlar o'zlashgan. Shuningdek, ko'pchilik arabcha so'zlar turk tiliga fors tili vositasida kirib kelgan va turk tilining turli vazifadosh uslublariga singib ketgan. Bu so'zlarning salmoqli qismi hozirgi kungacha turk tilida saqlanib qolgan. Masalan, turkcha *gbz* 'ko'z' so'zi - arabcha *ayn' forscha

'chashm' dir; yoki turkcha *ak (beyaz)* ⁴oq* so'zi - arabcha ⁴beyaz*; turkcha *su* 'suv' so'zi - forsha 'ob' dir.

Turk tili leksikasining shakllanishiga saljuqiy turklari va usmoniy turklari Kichik Osiyoni istilo qilgan davrda ular tomonidan assimilatsiya qilingan xalqlarning tillari ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, o'tmishda yirik jahon sivilizatsiyalaridan biri sanalgan Vizantiya imperiyasining tili - yunon tilini alohida ta'kidlash joiz. Turk tilidagi yunonchadan o'ztashgan so'zlarni Kichik Osiyo va O'rta Yer dengizi mintaqalarining toponimlari va jo'g'rofiy nomlar, shuningdek, XI - XV asrlardagi yunon moddiy madaniyati - dehqonchilik, dengizchilik, baliqchilik va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari bilan bog'Hq so'zlar tashkil etgan (*lodos 'januhdan esuvchi kuchli shainol \ karfez 'ko 'rfaz \ firm 'pech'* va hok.).

Turk tilidagi so'zlarning bir qismini slavyan tillaridan o'zlashgan unsurlar tashkil etadi. Masalan, *puiluk plug'* so'zi turk tiliga eski slavyan tilidan, *masa 'stol'* rumin tilidan o'zlashgan. Shu qatorda vengerchadan *palaska 'portupeya'* (qilich osiladigan kamar) so'zi turkchaga kirib kelgan.

Turk tilidagi ilk o'zlashmalardan yana bir qismini arman, kurd, italyan va o'rta asrlarda turklar bilan turli sohalarda yaqin munosabatlarda bo'lgan boshqa xalqlarning tillaridan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi.

O'zlashish natijasida yuzaga kelgan so'zlar talaffuz gilinayotganda turk tilining fonetik qoidalari (turkiy singarmonizm qonuni) ko'pincha buziladi. Turkchaga xos bo'lmagan unli va undosh tovushlar ketma-ketligi va shunga o'xshash hodisalar tez-tez kuzatiladi.

Morfologik nuqtai nazardan, arab va fors tillarining jiddiy ta'siri turkchaga yot bo'lgan ba'zi grammatik kategoriyalar (bog'lovchilar, old qo'shimchalar, feT-masdarlar, sifatdoshlar) ning o'zlashganligida namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon turk tili, uning lug'at tarkibi o'ta murakkab tarixiy va ijtimoiy lingvistik jarayonning mahsuli bo'lib, bu jarayonda til taraqqiyoti jamiyatning ongli ishtiroki va hozirgi bosqichda faol so'z yasalishi jarayoni bilan uyg'unlashib ketgan.

Turk tilining shakllanishi tarixiga nazar tashlanganda, tilga tashqaridan ta'sir, asosan, XX asming 20-yil Uarigacha bo'lgan davrda kuzatilgan. Bu davrgacha juda ko'p sinovlar, turli islohatlarni o'z

boshidan kechirgan turk tili Turkiya Respublikasi tashkil etilgandan keyin jamiyatda amalga oshirilgan qator jiddiy islohatlar orasida muhim o'rin olgan «Til inqilobi» (*DU Devrimi*) natijasida yangi davrga qadam qo'ydi. Bu inqilobning asosiy maqsadi turk tilining lug'at zahirasi, uning funksional (vazifadosh) uslublarini qayta tiklash, grammatik va uslubiy me'yorlari, imlo qoidalarini tartibga solishdan iborat edi.

O'sha davrda Turkiyadagi yangi ijtimoiy munosabatlar adabiy tilning elitar mazmuniga barham berish, yozuv me'yorlarini demokratlashtirish va ularni xalq og'zaki nutqiga yaqinlashtirishni taqozo etar edi. Tilni isloh qilish tadbirlaridan eng muhimlari usmoniy turkchasi (*Osmanh Turkgesi*) ning turk tili (*Türkde*) deb o'zgartirilishi va arab yozuvidan lotin alfavitiga asoslangan, turk tilining tovush tarkibiga to'la mos keluvchi yangi turk yozuviga o'tilishi, shuningdek, 1929 yildan boshlab turk maktablarida arab va fors tili darslarining bekor qilinishi edi.

Til islohatining asosiy ilmiy va tashkiliy markazi bo'lgan Turk til tashkiloti (*Turk DU Kurumu*) tomonidan olib borilgan til islohatining maqsadi turk tili leksikasining ajnabiy unsurlar, birinchi navbatda, arabcha va forsha so'zlardan tozalab, yangi turk leksikasi va atamashunosligini barpo qilishdan iborat bo'lgan. Yangi turk leksikasi, bir tomondan, yozuvda keng qo'llanib kelayotgan arxaizmlarning o'rnini egallashi, ikkinchi tomondan, yangi tushunchalarni ifodalash uchun vosita bo'lishi va bu bilan turk tilining taraqqiy etgan zamonaviy dunyo tillari qatoridan o'z o'rnini egallashini ta'minlashi kerak edi. Shu tarzda til jamiyadari, keng jamoatchilik, yozuvchi, jurnalist va pedagoglar ushbu islohatlarga jalb etilib, turk tili leksikasi va atamashunosligini qayta yaratish, tilni begona unsurlardan tozalash (*oziesme*) yo'li bilan umummilliy adabiy til me'yorlarini ishlab chiqishga kirishildi. Bunda turk tili va qaradosh turkiy tillarning ichki zahiralardan keng ko'lamda foydalanildi.

Birinchi navbatda XIII asrdan keyingi turk yozma adabiy yodgorliklaridagi genetik turkiy leksika asos olindi. Agar bu jarayonni uchga bo'ladigan bo'lsak, bulardan birinchisi, neologizmlar sifatida olingan faol arxaik leksikaning bir qismi zamonaviy turk adabiy tilining lug'at tarkibiga kiritildi va ular arabcha, forsha so'zlarning muqobillari sifatida tildan o'rin oldi. Masalan: *konuk*

(or. *misafir*) *mehron*, tamk far. *sahit*) *guvoh*, *shohid*'. *oran* (ur. *nispetf* • *iisbat*', *kez* (at: *defa*) '*kez*, *da fa. marta*', *sonuc* (ar. *net ice*) *natija*' va hok. Ikkinchisi, turk tilining lahja va shevaiariga xos bo'lgan bir qator so'zlar lug'at tarkibiga kiritildi. Masalan: *cbmce yog och qoshiq*; *kichik cho'mich*', *divlek 'pishmagan qovun*'. *cekel "khhik omoch*' va hok. Uchinchisi, yangi so'zlar yaratishning eng samarali usuli bo'lgan sof turkiy affikslar yordamida va konversiya, ikki so'zning qo'shilishi kabi yo'llar bilan yangi leksik birliliklar yuzaga keltirildi. Masalan: *goz-IIIk 'ko'zoynak*'. *bgret-men o'qituvchi*', *bak-an 'vazir*', *yiiz-yd 'asr*, *yuz yd*', *ana-yasa ona* (asosiy) *qonun. konstitutsiya*' va hok.

Turk tili, uning leksikasi, grammatikasi va uslubshunosligini qayta qurish borasida olib borilgan tadbirlar natijasida til inqilobi oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlarga erishildi: adabiy til va og'zaki nutq me'yorlari orasida mavjud bo'lgan jiddiy farqlarga barham berildi. Sof turk leksikasi tubdan boyitildi, tilning ijtimoiy vazifasi yanada kengaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'sha davrda eshik qolgan (arxaik) deb hisoblangan arab va fors leksikasidan tamoman voz kechilmadi. Ular hozirgi zamon turk tilida ham sof turkiy so'zlarning uslubiy muqobillari sifatida qo'llanib kelinadi. Shuningdek, G⁴ arbiy Yevropa tillaridan o'zlashgan leksika bilan bog'liq muammolar ham bugungi kunda tilning dolzarb masalalaridan sanaladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun tilda yaxshi o'rnashib qolgan va endigina o'zlashgan yevropacha so'zlarning turkcha muqobillarini yaratish borasida ish olib borilmoqda. Masalan, turk tilida anchadan beri qo'llanib kelayotgan *kontrot*, *standart* so'zlarining *denetim*, *tekbiqim* kabi turkcha muqobillari, so'nggi yillarda o'zlashgan *komputir*, *faks* so'zlarining *bilgisayar*, *belgececer* kabi muqobillari yozma va og'zaki nutqda faol qo'llanilmoqda.

Bugungi kunga kelib hozirgi zamon turk adabiy tili to'la shakllandi va hozirda turk tilining uslubiy va atamashunoslik tizimlari me'yorlashtirilmoqda. Lekin shuncha samarali ishlar olib borilayotganiga qaramay, tilning ba'zi vazifadosh uslublarida, ayniqsa, professional uslublarda - tibbiyot, huquqshunoslik, harbiy va ilm-fanning boshqa bir qator sohalarida hozirgi zamon turk tiliga xos so'z va atamalar, baynalmilal atamalar bilan parallel shaklda juda

ko'p arxaik arabcha-forscha so'z va atamalarning ham qo'llanilayotgani ma'lum.

Yuqorida sanab o'tilgan dalil va xususlarning hisobga olinishi hozirgi zamon turk tilidagi so'z turkumlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

SO'Z BOYLIGI (Keime dagarcigi)

Har til o'zining asosiy so'z boyligiga ega. Vaqt o'tishi bilan bu boyluk yangi so'zlarning yasalishi va boshqa tillardan so'zlar kirib kelish yo'li bilan yanada boyiydi.

Til tirik organizm kabi vaqt taqozosi bilan o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda va, yuqorida ta'kidlanganidek, so'z yasalishi, hamda so'z o'zlashtirish yo'li bilan o'z zahirasini boyitib borar ekan, boshqa tomondan ba'zi so'zlar eskirib, iste'moldan chiqib boradi. Shu nuqtai nazardan so'z boyligi bir, tomondan ortib boruvchi, ikkincht tomondan esa o'zgarib, yangilanib boruvchi ma'naviy xazina hisoblanadi.

Eski turkiy til. Ba'zi tillarning asosiy so'z xazinasini qadimdan turli xil manbalar evaziga shakllanib, yashab kelgan (fransuz, ingiiz tillari). Ba'zi tillarda esa bunday holat kam uchraydi, ya'ni til o'z sofligini saqlab qolgan bo'ladi (nemis tili, turkiy tillar). Bu tillarning grammatikasida uchraydigan bunday farq bu xalqlarning tarixda o'z boshidan kechirgan til hodisalari bilan bog'liqdir.

Eski turk tili xorijiy tillardan juda oz miqdorda so'zlar o'zlashtirish bilan birga sof til sifatida o'z so'z boyligiga ega bo'lib kelgan. Bu tilning yangi so'z hosil qilish kuchi ham hech kamaymagan. Turkiar tarix mobaynida har doim mustaqil xalq sifatida hech qachon boshqa bir hokim tilning tazyiqiga uchramagan va so'zlashuvda o'z tillarining sofligi va so'z boyligini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Tilga xorijiy so'zlar doim o'ziga xos so'zlar, shuningdek, ilg'or texnikaviy va madaniy atamalar ko'rinishida kirib kelgan va ularning ko'pi adabiy tilda saqlanib qolgan.

Xunlardan kelib chiqqan xalqlar Yevropa va Osiyo qil'alari bo'ylab yoyilib ketganliklari uchun ham turk (xun) tillariga boshqa tillar o'z ta'sirini o'tkazgan. Turkiar islom dinini qabul qilmaslaridan

oldin Xitoy va Hind-Evropa tillaridan ko'p so'zlarni o'zlashtirganlar. Faqat eski turkchada sharqiy turkcha ta'sirida ko'pgina din va davlat boshqaruviga oid ajnabiy so'zlarning kichik bir qismi eski o'g'uzchaga o'tgan ko'rinadi.

Turk tilida bular cng eski, o'zlashgan so'zlardan qolgan xotiralar hisoblanadi. Bizga ma'lum bo'lishicha, bular: turkchaga sanskritchadan o'zlashgan *bat (ami, bot)*, yunonchadan o'zlashgan *bez (bu'z, latta)*, xitoychadan o'zlashgan *inci (inju)*, o'rta eronchadan o'zlashgan *seker (shakar)*, o'rta forschadan o'zlashgan *bag (bog')*, *kamu (jamiyat)*, sog'dchadan o'zlashgan *kadin (ayol, xotin)*. *kagit (qog'oz)* vahok.

Sharqiy turkcha ko'pincha Sharqdan, xitoy tili ta'sirida qolgan bo'lsa, g'arb turkchasining qadimdan g'arb tillaridan so'zlar o'zlashtirganligi ko'zga tashlanadi. XI asrda o'g'uz tilining ma'lum darajada fors tilining ta'siriga uchraganligi ma'lum. O'sha davrda ikki lahja orasidagi farqli so'zlarning bir qanchasi qadimda hind-yevropa tillaridan o'g'uzchaga kirib qolgan bo'lishi mumkin: *bal/ari yagi (boi\ari yogi)*, *getuk/mus (kedi) (mushuk)*, *kent/bah κ (baliq)*, *pamuk/yün (paxta\jun)*, *aftabi/kumgan (qftoba\qumg'on)* kabi.

O'rta turkcha. Turklar boshqalardan ancha keyin, forslar bilan yaqin aloqada bo'lgan holda musulmonlikni qabul qilgan va keyinchalik Eronda o'z davlatlarini barpo qilgan. Shu bois islom dini, musulmonchilikka oid ilk tushunchalardan ko'pchiligi forsha so'zlar orqali o'rganilgan. Bunday so'zlardan ba'zilar turk tilida hozirgacha saqlanib qolgan: *abdest (tahorat)*, *namaz (namoz)*, *oruq (ro'za)*, *paygamber (payg'ambar)*, *giinah (gunoh)*, kabi. Keyinchalik din tili sifatida arabchani ta'siri ortib borgan.

Yuqorida g'arbiy turkchani rivojlanish tarixi haqida so'z yuritdik. Onado'lu va Rum elida joylashgan va tomir otgan turk xalqi va tilining arabcha va forschadan so'zlarni o'zlashtirishi va bu so'zlarning yozma nutqda katta o'rin olganligini, faqat ularning soni og'zaki nutqda chegaralanganligini ta'kidlash joiz.

Turk tili yana ikki madaniy til - rumcha va italyancha bilan yaqin munosabatda bo'lgan, faqat ularning, bir tomondan, boshqa yozuvda yozganligi va undan ham muhimrog'i, xristianlik e'tiqodida bo'lganliklari uchun turkchada faqat quloqqa chalingan so'zlarni berishgan: *temel (tamai, asos, poydevor)*. *takoz (yog'och pona)*,

noyraz (shimoldan esuvchi shamol), *firm (duxovka. tatldir)*, *kaptan (kapitan. sardor)*, *gumriik (bojxona)*, *manivela(dasiak, richag)* kabi.

Boshqa mahalliy tiilardan turkchaga o'zlashgan so'zlar hozirgi paytda ko'proq turk tilining shevalarida saqlanib qolgan.

Yangi turkcha. Turklar XIX asrning boshlarida G'arbga ochila boshlagan. Shunda fransuz tili orqali g'arbcha tushuncha va atamalar to'g'ridan-to'g'ri turkchaga kirib kelgan. Adabiy til bo'lgan usmonli bir asr davomida u so'zlarga yangi arabcha ekvivalentlar topib. shunday katta so'z oqimini oldini to'sishga uringan. Biroq, zamonaviy milliy til sifatiga ega bo'lmagan usmonli turkchasi inqirozga yuz tutgan. Yangi turkcha zamonaviy tilning butun so'z boyligini o'z manbalaridan yetishtirishni da'vo qilib, maydonga kelgan.

SO'ZLARNING TUZILISHI (Kelimelerin yapisi)

So'zlar bir yoki bir necha bo'g'indan yuzaga kelgan ma'no birliklaridir. So'zlar lug'atdagi boshlang'ich shakllariga ko'ra lug'at so'zlari deyiladi (*tas (tosh)*, *nine (buv)*, *toprak (tuproq)*. *getirmek (keltirmoq)* va hok. Gap ichida ularga so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar qo'shib, boshqa so'zlar bilan munosabatlar o'rnatiladi (*AU-nin, nine-den, topra%-a, getir-di*). Bular grammatik shakllar deyiladi.

Lug'at so'zlaridan bir qanchasi bo'linmas ma'no unsurlaridir. Ko'pchiligi bir bo'g'inli bo'lgan bu tovush guruhlarining yanada sodda parchalarga bo'lish mumkin emas: *bas (bosh)*, *su (suv)*, *ak (oq)*, *bos (bo'sh)*, *kirk (qirq)*, *sevmek (sevmoq)*, *deve (tuya)*, *sakiz (saqich)*, *uyumak (uxlamoq)* va hok. Bular so'zning o'zak qismidir. Ba'zilar esa ma'no o'zgartiruvchi, ma'no yasovchi qo'shimchalar bilan uzaytirilgan so'zlardir: *bas-hk, su-tu, bos-a-, sev-dir-, deve-ci, uyu-t-* kabi. Bular so'zning negizidir. Qo'shma so'zlar va ajnabiy so'zlardan ham xuddi o'zaklardan yasalgan so'zlar kabi yasovchi qo'shimchalar qo'shib negizlar yasalgan: *can-siz (jonsiz)*, *din-das (dindosh)*, *hasta-hk (xastalik)*, *ayakkabt-ci (etikdo'z)* kabi.

Qo'shma va o'zlashgan so'zlardan ham xuddi o'zaklardan yasalgan so'zlar kabi yasovchi qo'shimchalar qo'shib negizlar

yasalgan. Har uchala holda ham negizlar qayladan yasovchi qo'shimchalar olib o'z ma'nolarini o'zgartirgan bo'lishi mumkin: *su-lu-luk (suvlilik), bos-a-n-mak (ajralmoq), ayakkabi-ci-itk (etikdo'zlik), diisiin-ce-siz-ce (o'ybsiz)* kabi.

Yuqoridagi har so'zda asosiy ma'no unsuri mavjud va uning bo'linmasligi ko'rinib turibdi.

SO'Z YASALISHI (Kellme yapimi)

Hozirgi zamon turk tilida qo'llanib kelinayotgan so'z va atamalar uch xil yo'l bilan yuzaga kelgan. Bulardan birinchisi faollashtirilgan neologizmlar sifatida zamonaviy turk tiliga kirgan arab, fors va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning ekvivalentlaridir. Masalan: *konuk -misafir (tnehmon), tamk -sahit (guvoh), oran - nispet (nis-hat), kusku - suphe (shubha, hadik), alan - saha (dala, mavdon)* va hok.

Ikkinchisi, yuqorida ham aytib o'tilganidek, turk tilidagi dialektlardan tanlash yo'li bilan yuzaga kelgan: *deke (kichik omoch), diviek (pishmagan qovun), cbmce (yog'och qoshiq, cho'mich)* va hok. Bu so'zlar badiiy asarlar orqali shevadan adabiy tilga o'tgan. Ularning deyarli barchasi turk tilining dialektlar lug'atiga kiritilgan.

Uchinchisi, turk tilining so'z yasash vositalaridan foydalanish yo'li bilan yangi so'zlar, neologizmlarning yaratilishidir. Bu har qanday tilda so'z yasashining eng sermahsul yo'li hisoblanadi. Bunda mahsuldor affikslarning o'mi salmoqli: -//, -яг, -tik, -ce va hok.

Yana bir guruh affikslar borki, ular unchalik sermahsul emas, bu: *~ak, -men, -c//* affikslari va boshqa tillardan o'zlashtirilib, turkchallashtirilgan *-set, -tay, -ev* affikslaridir.

Shuningdek, turk tilida so'z yasashida konversiya usuli ham keng qo'llanadi: *yazar (yozuvchi), bakan (vazir)* kabi. So'zlarni qo'shish yo'li bilan ham qator so'zlar yasalgan: *agirbash (og'ir-vazmin), dedikodu (g'iybat), postane (pochta), pekiyi (juda yaxshi, a III, yuzyd (asr), onsdz (so 'z boshi), bastmevi (bosmaxona)* kabi.

So'z yasovchi qo'shimchalar va o'zaklarning to'rttadan turi mavjud. Aslida o'zak so'z yasashining mahsulidir. Shu boisdan uni

so'z yasalishi mavzusiga tegishli deymiz, ammo bu atama ancha sodda o'zaklarga nisbatan qo'llanadi. Yasalish deb esa har turli so'z negizidan, o'zlashma so'zlardan yasalganlariga aytiladi. Bu yerda to'rt xil yasalishni qisqacha ko'rib chiqishga harakat qilamiz:

1. Otdan (ot yasovchi qo'shimchalar qo'shilib) ot yasalishi: *yamaci (yamoqchi), iscilik (ishchilik), avukatlik (advokatlik)* kabi.

2. Otga fe'l yasovchi qo'shimchalar qo'shilib fe'l yasalishi: *iziemek (orqasidan bormoq, tomosha qilmoq), bicaklamak (pichoqlamoq), hazirlamak (tayyorlamoq)* kabi.

3. Fe'lga ot yasovchi qo'shimchalar qo'shilib (fe'ldan) ot yasalishi: *satta (sotuvchi), susturucu (jim qiluvchi), uyusturucu (gi-yohvandlik moddasi, narkotik)* kabi.

4. Fe'lga fe'l yasovchi qo'shimchalar qo'shilib (fe'ldan) fe'l yasalishi: *sezdirmek (sezdirmoq), gbrusturmek (ko'rishirmoq)* kabi.

So'zning o'zak va qo'shimchalaridagi o'zgarishlar xususida shuni aytish kerakki, turk titida so'zning yasash vaqti juda muhim. Chunki so'zning o'zagi ham, qo'shimcha ham jonli unsurlardir va shu bois vaqt o'tishi bilan o'z shakli va ma'nosini o'zgartirishi mumkin. Qolaversa, tilda qo'llanmay qolgan va eskirgan o'zak va qo'shimchalar ham talaygina. Shu bilan birga, birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan o'zak va qo'shimchalarning qaysi ma'noda ko'rib chiqilayotganini yaxshi bilish kerak, chunki so'z shundan kelib chiqqan holda ma'no kasb etadi *{yaslik, yasarmak, yasit, yaslanmak}*.

Turk tilida asl fe'llar fe'l o'zagining ma'nosini o'zgartiruvchi bir qancha qo'shimchalar vositasida yuzaga keladi. Grammatika nuqtai nazaridan bu o'zgarish fe'l nisbat qo'shimchalari vositasida yuz bermoqdaki, bular so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar hisoblanadi. Lug'aviy ma'noda mustahkam o'zgarish yuzaga keltirgan va yangi so'zlar yaratuvchi fe'l qo'shimchalari ham borki, ulami so'z yasovchi qo'shimchalar deb atash o'rinli.

Quyida, asosan, oxirgisi haqida so'z yuritiladi. Fe'l nisbat qo'shimchalari fe'l o'zagi ma'nosini o'zgartirgan holda yangi so'zlar yasagan. Faqat bo'lishsiz fe'l negizlari yangi so'z ma'nosida rivojlanmaydi. Shu bois nisbat (?ati) qo'shimchalari ham ko'zdan kechiriladi. Bu so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar orasida tarixiy kirishuv juda ko'p bo'lganligini ko'ramiz. Bugungi kunda

yasovchi qo'shimcha o'laroq bilangan qo'shimchalardan ko'pchiligining qadimda nisbat qo'shimchalari yoki qo'shma shakllar ekanligini sezish mumkin. Bir qator otlardan fe'l yasagan ikki qo'shimchani qo'shib, farqli ma'no tashuvchi qo'shma so'zlarni yuzaga keltirganligini ham ko'rish mumkin.

Turk tilida fe'ldan fe'l yasovchi qo'shimchalar ham turli xil. Ular aslida busiz ham boy bo'lgan fe'l qo'shimchalarini ranglashtirib, turk tili lug'atining fe'l boyligini yanada orttirgan.

Ushbu kitobda har so'z turkumi so'ngida o'sha turkumga kiruvchi so'zlarning yasalishi haqida qisqacha ma'lumot berilib, so'z yasovchi qo'shimchalar alfavit tartibida beriladi.

SO'Z TURKUMLARI

Hozirgi zamon turk tilidagi so'z turkumlari tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo'lgan «Morfologiya» bo'limida o'rganiladi. Morfologiya turk tilshunosligida *Morfoloji*, yoki *Bigimbilimi* deb nomlanadi. Ba'zi turk tilshunoslari uni *Yapibilimi*, yoki *Yapibitgisi* deb ham atashadi. So'z turkumlari esa turk tilida *kelime gruplari* (so'z guruhlari) deb nomlangan. So'z turkumlari turk tilshunosligida «morfologiya»ga sinonim bo'lgan grammatik atama sifatida ham qabul qilingan, chunki tilshunoslikning ushbu bo'limi so'zlarning grammatik turkumlarga bo'linishi, morfologik kategoriyalari, shakllar tizimi, so'z shaklining yasalish yo'llari va vositalarini o'rganuvchi morfologiya bilan shu ma'noda vazifadosh hisoblanadi.

Tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo'lgan morfologiya tushunchasi, «so'z turkumlari» dan ancha keng grammatik tushuncha bo'lib, unda so'zning yasalishi, uning o'zagi, negizi va oladigan qo'shimchalariga doir qator mavzular ko'rib chiqiladi.

Yer yuzidagi barcha tillar morfologik nuqtai nazardan tadqiq etilib, ularning manbalari va boshqa tillar bilan qardoshligi xususida to'xtalib o'tiladi. Turk tilining morfologiyasiga kelsak, u agglutinativ til, ya'ni so'z oxiriga qo'shimcha qo'shib so'z va shakl yasaluvchi til bo'lgani uchun so'z yasalishi va uning o'zgarishida o'zak, negiz, qo'shimcha va ularning birlashishi boshqa tillarga ko'ra ancha farqli va o'ziga xosdir.

Ma'lumki, bugungi kungacha turk tili grammatikasi boshqa tillar qolipida o'rganib kelingan, hatto tilning grammatik xususiyattari to'g'ri-noto'g'ri shaklda o'sha g'arb tillari grammatik qoidalarga taqlidan tadqiq etilgan. Buni Turkiyada chop etilgan hozirgi zamon turk tili grammatikasiga oid ko'pgina kitoblar misolida tasdiqlash mumkin. Holbuki, hozirgi zamon turk tilini o'rganish, bugungi kunga kelib, alohida o'ziga xos ilmiy yondoshuvni talab etadi.

So'zning grammatik ma'nosi va grammatik shakli

So'z turkumlari o'rganilayotganda muayyan bir so'zning u yoki bu turkumga mansubligini ko'rsatuvchi, shuningdek, so'zning ma'lum bir grammatik shakli ifodalaydigan ma'noning qanday ma'no ekanini belgilash uchun so'zning *grammatik ma'nosi vz grammatik shakli* masalasiga alohida e'tibor beriladi. Masalan, turk tilidagi *kalem (qalam), su (suv), tas (tosh), elma (olma), ev (uy), bag (bog)* so'zlari uchun umumiy bo'lgan ma'no, ya'ni predmet ma'nosi grammatik ma'no hisoblanadi. Xuddi shu umumiy grammatik ma'no ularning bir turkumga (ot turkumiga) birlashtiradi. Shuningdek, *iyi (yaxshi), tatli (totli, shirinlik, shirin), küçük (kichik, kichkina), yuksek (yuhak, baland), beyaz (oq), yesil (yashil), gorkemli (ko'rkam)* so'zlari uchun umumiy bo'lgan belgi ma'nosi va *gahs- (ishta~)† ogren- (o'rgan-j, firla- (sakra-), gel- (BI-), yedir- (yedir), yakala- (ushla-)* so'zlari uchun umumiy bo'lgan harakat ma'nosi (fe'lga xos) grammatik ma'no hisoblanadi.

So'zning leksik ma'nosidagi qo'shimcha ma'no (yoki ma'nolar) ham grammatik ma'nodir. Bunday ma'no (yoki ma'nolar) so'zning maxsus shakllari orqali ifodalanadi. Masalan, *kaiem-im (qalam-im), kalem-in (qatam-ing), kalem-i, (qalam-i), kalem-de (qalam-da), kalem-den (qalam-dan)* so'zlarida egalik va kelishik shakllari yordamida ifodalanayotgan ma'no, yoki *oku-du-m (o'qi-di-m), oku-yorum (o'qi-yap-man), oku-r-um (o'qi-y-man)* so'zlarida zamon va shaxs-son shakllari vositasida ifodalanayotgan ma'nolar grammatik ma'nolardir.

So'zning ma'lum bir grammatik ma'no ifodalovchi ko'rinishi so'zning grammatik shakli deyiladi. Masalan, *kitap-lar (kitob-lar)* SO'zida aniq bir predmetning *lgksik mfl'nrttiHan taslraari*. shu pred-

metning ko'plik ma'nosi ham ifodalanadi. Ko'plik ma'nosi leksi ma'noga qo'shiluvchi grammatik ma'no bo'lib, turk tilida *-ler (-lar)* affiksi vositasida ifodalanadi. Shunga ko'ra, *kitap* so'zining ko'plik shakli bo'lgan *kitaplar* so'zi grammatik ko'plik ma'nosini anglatadi.

Boshqa tillarda bo'lgani kabi turk tilida ham so'zda bir yoki un dan ortiq grammatik ko'rsatkich bo'lishi mumkin. Grammatik ma'noni ifodalovchi har bir morfema grammatik ko'rsatkich hisoblanadi. Masalan: *kitap* - bosh kelishik, birlik shakli; *kitap-lar* bosh kelishik, ko'plik shakli; *kitap-lar-im* - bosh kelishik, ko'plik birinchi shaxs shakli; *kitap-lar-im-i* - ko'plik, birinchi shaxs, shum kelishigi shakli va hok.

So'zlar o'ziga xos ishlov (turlanish va tuslanish qo'shimchal olib o'zgarish) natijasida o'zaro munosabatga kirishadi, ya'n so'zlardan birikmalar va jumlar yasaladi.

So'z turkumlari orasidagi o'zaro bog'liqlik

Turk tilida so'z turkumlari orasida bog'liqlik, sizuvchanli mavjud. So'zning qaysi so'z turkumiga mansubligini faqat ga ichida egallab turgan o'raiga ko'ra aniqlash mumkin. Bu xususiya bilan turk tili boshqa tillardan ajralib turadi. Bir so'z bir nechta so'z turkumiga mansub bo'la olishini quyidagi misolda ko'rish mumkin. Tilda sifat deb hisoblangan *iyi* (yaxshi), *kotii* (yomon), *giizel* (go'zal chiroyli, yaxshi), *cirkin* (xunuk, chirkin), *biyiik* (katta), *kiiciik* (kichik, kichkina) so'zlari nutqda bajaradigan vazifasiga ko'ra ot, rav ish, undov so'z bo'lishi ham mumkin. Gap ichida bir otdan oldi kelmagan va uning belgisini bildirmagan so'zni sifat deb ata bo'lmaydi. Masalan, *iyi* so'zining sifat bo'lishi uchun uning /) *cocuk* (yaxshi bola), *iyi gun* (yaxshi kun), *iyi kitap* (yaxshi kitob) ko'rinishida birikma ichida bir otning belgisini bildirib, uni aniqla kelishi kerak bo'ladi.

Masalan, turkcha *giizel* (go'zal chiroyli, yaxshi) so'zining qaysi so'z turkumiga mansubligini aniqlash uchun uni birikma yoki gap ichida ko'rib chiqish kerak bo'ladi:

Dun partide bir giizel He tamsttm. (*giizel* - ot turkumiga mansub)

Kecha ziyofat (kecha)da bir go'zal (qiz, ayol) bilan tanishdim.

O qecmiste guzel giinler yasamis (*giizel* - sifat turkumiga

\lgariyaxshi (go'zal, baxtli) kunlami boshidan kechirgan.

Avse Rusca'yi giizel konusuyor (*guzel* - ravish turkumiga

mansub)

Oysha nischani yaxshi gapiradt.

Bak, burasim neogizel! (*giizel* - undov so'z) - *Qara, bu yer qan-*

\dav go'zal!

imm. sen cok giizelsin (*giizel* - ot - kesim) - *Ishon. sen juda o'zalsan* kabi.

ICo'pchilik tillarda bo'lgani singari turk tilida ham otlar so'z turkumlaridan eng kattasidir. So'z yasalishida ham eng ko'p yasaluvchilar otlardir (buni otdan ot yasalganda ham, fe'ldan ot yasalganda ham kuzatish mumkin): *dis-ci* (*tish doktori*), *siit-cii* (*sut so'uvchi*), *\bn-liik* (*oldlik, fartuk*), *yasa-m* (*hayot*), *yasa-n-tt* (*hayot, boshdan kechirilgan narsalar*), *yat-ak* (*yotoq, krovat*), *dur-ak* (*bekat*), *yuz-gec* (*suzgich*), *bil-gi* (*bilim. ma'lumot*) kabi.

Turk tilining yana bir xususiyati shunda namoyon bo'ladiki, kelishik qo'shimchalari o'zining asosiy vazifasidan tashqari yordamchi vazifalarni ham bajaradi. Masalan, *-den (-dan)* chiqish kelishigi qo'shimchasi *Ahmet okuldan cikh'* (*qaerdan chiqdi?*) (*Ahmad mak-oldii* (*Ahmad saraton (rak)dan o'ldi*) gapida sababni bildiradi (*qaysi kasahian* yoki *nima sababdan oldi?*) kabi. Yoki *Ankara? ya gide-cegim* (*Anqaraga ketaman*) gapida *-ya* qo'shimchasi (*qayoqqa?*) bevosita yo'nalishni ifodalab kelgan bo'lsa, *Haflaya gelecegim* gapida *-ya* qo'shimchasi (*qachon?*) savoliga javob bo'lib, *kelasi hafta keluman'* ma'nosida qo'llanadi.

Ba'zi qo'shimchalar ham shakl yasovchi, ham so'z yasovchi bo'lishi mumkin. Masalan, fe'lning kelasi zamonini ifodalovchi *-ecek (-acak)* qo'shimchasi *Ayse bugiin donecek* (*Oysha bugun qaytadi*) gapida fe'l zamonini ifodalab kelgan bo'lsa, *Kendine yiyecek bir seyler aldm mi?* (*O zinga yegulik biron narsa oldingmi?*) gapida bu qo'shimcha yasovchi vazifasini bajargan (*-ecek* qo'shimchasi turk tilida kelasi zamon sifatdoshi yasovchi qo'shimcha ham hisoblanadi).

Turk tilining yana bir muhim morfologik xususiyati - so'; o'zagining o'zgarmasligidir. So'z yasalayotganda ham o' qo'shimcha qo'shilib, yangi so'z hosil qilinadi, ma'no o'zgartiriladi. Shu tarzda bir negizdan bir nechta so'z yasalishi mumkin. O'zakning o'zgarmasligi natijasida so'z yuz y IIIar o'tsa-da o'z ma'nosini saqlal qolgan. Buni besh yuz yil oldin turkiy tilda yozilgan bir asarni hozirgi vaqtda ham qiyinchiliksiz o'qib, tushunilishi mumkinligi ko'ramiz.

Turk tilshunosligida so'zlarning turkumlanishi

Turk tilshunosligida so'zlar ma'no va vazifasiga ko'ra, asosa; uch katta guruhga to'planadi (*otlar, fe'llar va yordamchi so'zlar*) Qofaversa, ot turkumining o'zi uch kichik guruhni o'z ichiga oladi (ot, sifat, olmosh, ravish).

Turk tili grammatikasi kitoblarida bu uch yirik turkumdan otlar va fe'llarning ma'noli so'zlar hisoblanishi, yordamchi so'z turkumlariga kiruvchi so'zlarning esa ma'no ifodalaymaydigan, faqat muayyan vazifa bajaruvchi so'zlar ekanligi ta'kidlanadi. Bunga ko'ra, tilidagi *kalem (ruchka), ev (uy), gige (gul), elbise (kostyum), ayoll ko ylagi* so'zlari ot so'z turkumiga oid, ma'noga ega so'zlar, *gelt (kelyapti), uzandi (cho'zilib yotdi), kosacak (yuguradi), bilmeli (bilishimiz kerak)* kabi so'zlar muayyan ma'no tashiydigan, har bin alohida ish-harakatni ifodalovchi so'zlar, ya'ni fe'llar, *icin (uchun), gibi (kabi), He (bilan)* so'zlari esa alohida holda hech qanday ma'no kasb etmaydigan, mustaqil so'zlar bilan birga qo'llanib, nutqda ma'lum vazifani ado etuvchi yordamchi so'zlar hisoblanadi.

Yordamchi so'zlar na bir predmet yoki hodisani, na bir ish-harakatni ifodalaydi. Ular faqat *senin icin geldim (sen uchun keldim), ates gibi yakiyor (olovday yondiradi), bicak gibi kesti (pichoq kabi kesdi)* kabi gaplar ichida muayyan vazifani bajaradi, so'z yoki birikmalarni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi.

Otlar barcha jonli va jonsiz predmetlar, tushunchalar, makon va zamon ichida, inson miyasida to'plangan butun moddiy va ma'naviy borliq, mavjudotlarning nomlarini bildiradi. Sifatlar va uning tarkibiy qismi hisoblanuvchi sonlar esa shu otlarning belgi, alomati va

miqdorini bildiradi. Fe'llar predmetlarning makon va zamon ichidagi harakati va hoiyatini bildiradi.

Ma'lumki, dunyoda bir predmet va bir harakat mavjud. Predmet mavjud narsa bo'lsa, ularning makon va zamon ichida o'z joyini o'zgartirishi, siljishi ish-harakatdir.

Turk tilshunosligida so'zlarni turkumlarga bo'lishda turli xil nuqtai nazarlar mavjud, lekin shunga qaramay, ularni o'zbek va rus tilshunosligi prinsiplariga ko'ra 10 guruh (6 mustaqil so'z turkumi va 4 yordamchi so'z turkumi) ga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Chunki talabalarning so'z turkumlarini o'z ona tillari tamoyillariga uyg'un shaklda ko'rib chiqishlari ishni osonlashtiradi. Shunga ko'ra quyida 6 ta mustaqil va 4 ta yordamchi so'z turkumini ko'rib chiqamiz, bu: *ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama va undov so'zlar*.

OT {AD}

Ot va uning turlari (ad ve cesitleri)

Yuqorida ta'kidlangani kabi, turk tilshunosligida otning keng ma'noda, bir nechta turkum (*ot, sifat, son, olmosh va ravish*) ni o'z ichiga oluvchi umumiy so'z turkumi hisoblanishi aytiladi. Bulaming ichidan ot turkumiga kiruvchi so'zlar predmet yoki hodisatarning asl nomlaridir. *masa (stol), kapt (eshik), araba (avtomobil), isik (yorug'lik, chiroq)* kabi. Sifatlar predmetning o'z nomi emas, ularning belgi nomlaridir: *biyyik (masa) - katta (stol), demir (kapt) - temir (eshik), yeni (araba) - yangi (avtomobil), ktrmm (isik) - qizil (chiroq)* kabi. Sonlar predmetning miqdorini bildiruvchi nomlaridir: *bir (bir), iki (ikki), otuz (o'ttiz), sekizinci (sakkizinchi), yizde elli (yuzda ellik), birer (bittadan), onar (o'ntadan)* kabi. Olmoshlar predmetlarni atash, ko'rsatish, belgilash va boshqa yo'llar bilan ifodalovchi otlardir: *ben (men), sen (sen), bu (bu), su (shu), o (u), kirn (kirn), kimi (kimni, ba zi)* va hok. Ravishlar makon, zamon, hoi nomlaridir: *Ueri (ilgari, ilgariga, oldin. oldinga), asagi (past, quyi), dun (kecha), simdi (hozir, endi), boyle (bunday. bunaqa), dok (kop. juda)* kabi.

Demak, turk tili grammatikasi nuqtai nazaridan ot deb nomlangan umumiy so'z turkumining besh xil turi (*ot. sifat. son. olmosh. ravish*) mavjud ekan. Quyida bu turkum ustida batafsil to'xtalamiz.

Asl otlar. Typk Tilshunosligida «ot» atamasining fe'l atamasiga teskari turuvchi tushuncha demakligi ta'kidlanadi. Bu ma'noda «ot» deyilganda, otlardan tashqari sifatlar, sonlar, ravishlar va olmoshlar ham tushuniladi. Sintaktik qurshovda fe'l bilan yonma-yon keluvchi ot umumiy ma'nodagi ot, sifat, son, ravish va olmosh bilan yonma-yon keluvchi ot esa asl ot bo'ladi.

Asl otlar jonli, jonsiz barcha mavjudot va tushunchalarning nomidir: *cocuk (hola). cicek (gul), ev (uy), Istanbul* va hok. Shu bois turk tilida dunyodagi barcha jonli va jonsiz mavjudotlar, voqeahodisalarni bildiruvchi so'zlar otlar deb nomladi. Bu mavjudotlar, predmetlar, narsa va hodisalarni ko'rish, qo'l bilan tegish, hidlash mumkin: *ařac (daraxt, yog'och), su (suv). cocuk (bola), ev (uy), gok (osmon), yagmur (yomg'ir), kitap (kitob)* va hok. Lekin, tilda *giinul (ko'ngil), sevgi (sevgi, muhabbat), ozgiirliik (ozodlik. erkinlik). akd (aql)* kabi so'zlar borki, ularni ko'rish, qo'l bilan tegishning iloji yo'q. Hatto, koinotda shunday narsalar ham mavjudki, ular yagona, tengsizdir (ular haqida quyida batafsil so'z yuritiladi). Shundan kelib chiqqan holda otlarni bir nechta guruhga bo'lamiz:

Aniq otlar (*somut adlar*)

Mavhum otlar (*soyut adlar*)

Atoqli otlar (*bzel adlar*)

Turdosh otlar (*cins adlan*)

Birlik otlari (*tekil adlar*)

Ko*pplik otlari (*cogul adlar*)

Guruh otlari (*topluluk adlart*)

Aniq otlar (*somut adlar*). Turk tilining grammatika kitoblarida otlarga quyidagicha ta'rif beriladi: «Voqelikda yoki tasavvurda bir borliqning ism (nom)i bo'lgan so'zlarga ot deyiladi". Masalan: *Turgtti, Ayse, Fehmi, tas (tosh), kavak (terak), giivercin (kaptar), seref (sharaf), ask (ishq, muhabbat). nefret (nafrat), dusunce (fikr, tushuncha), akd (aql)* va hok. Bulardan bir guruhi aniq (konkrci) narsalarning nomlari bo'lib, ularni ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan tutish mumkin. Bular aniq (konkret) otlar (*somut adlar*) dir: *tas (tosh), kavak (terak), giivercin (kaptar). qicek (gul) sandalye (slid)* va hok.

Mavhum otlar (*soyut adlar*). Insonning ongida mavjud bo'lgan, qo'l bilan tutib, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan tushunchalami bildiruvchi so'zlarni mavhum (abstrakt) otlar deymiz. Ular turk tilshunosligida *soyut adlar* deyiladi. Turk tili grammatikasiga doir kitoblarda mavhum otlarning *yalin adlar* deb atalganini ham uchratish mumkin. Bular turk tilidagi *duygu (tuyg'u). akd (aql). seref (sharaf). ask (ishq, muhabbat). nefret (nafrat). dusunce (fikr, tushuncha). akd (aql). diismanltk (dushmanlik), siiphe (shubha)* kabi so'zlardir.

Ma'lumki, otlar o'z (asosiy) ma'nosidan tashqari ko'chma ma'nolarda ham qo'llanadi. Masalan, *"staining oyog'i", "kemaning burnt"* kabi. Agar *"odamning oyog'i"* birikmasini olsak, *"staining oyog'i"* birikmasidagi *"oyoq"* so'zining ma'nosi paydo qilingan ma'no bo'ladi. Gap shundaki, ma'no kengayishi yo'li bilan, ko'pincha, aniq ot mavhum ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, turkcha *yiirek (yurak. qalh)* so'zi o'z ma'nosida qo'Hanganda inson tanasining muhim a'zosini bildiruvchi aniq ot bo'lsa, ko'chma ma'noda jasorat, qahramonlik, ko'rqqmaslikni ifodalab, mavhum otga aylanadi.

Otlar asl va ko'chma ma'nolaridan tashqari munosabat va o'xshashlik yo'li bilan bir tushunchani anglatgan holda, majoziy ma'no tashishi mumkin. Masalan, turkcha *yuva* so'zi "uya"(qush uyasi) va "uy"(insonlar yashaydigan joy) ma'nosida, *ekmek* so'zi "non" (inson ozig'i) va "kun kechirish uchun ishlab topiladigan mablag"\ yoki *koltuk* - "o'tiradigan uy jihozi" (mebel turi) va "lavozim" ma'nosida qo'llanadi. Bu misollardagi majoziy ma'no to'g'ridan-to'g'ri predmetning nomini bildirmaydi, nutqda ilodaviylikni oshirish, ma'noni kuchaytirish, rangbaranglashtirish maqsadida qo'llanadi.

Aniq (konkret) otlardan bir guruhi faqatgina bir borliq yoki muayyan bir guruhni ko'rsatishga xizmat qiladi: *Turgut, Sarman* (mushukning oti). *Adana, Istanbul. Rize* va hok. Bular atoqli otlar (*bzel adlar*) dir.

Atoqli otlar (*bzel adlar*). Atoqli otlar jonli mavjudotlar, predmet va narsalarning dunyoga kelgandan keyin olgan xususiy nomlaridir. Atoqli otlar dunyoda yagona, o'xshashi bo'lmagan mavjudot va predmetlarni bildiruvchi so'zlar, odatda, inson, hayvon va joy nom-

laridir. Boshqa bir shaklda ulami laqib qo'yiladigan narsa ma'nosida "yorliq otlar" ham deyishadi: *Ahmet, Fehmi, Ibrahim, Erol, Tiirkan, Ydmaz, Tolga, Ankara, Almanya* kabi.

Atoqli otlar, aslida, ma'nosiz so'zlardir, chimki bir predmetga qarab, uning nomini aytish mumkin (masalan: *kitap (kitob), canta (sumka), tetevizyon (televizor)*), lekin bir insonga qarab, uning ismini aytish mumkin emas. Masalan, turdosh ot bo'lgan bir meva (olma) ga qarab turib, uning qanday meva (olma) ligini darrov aytish mumkin, lekin ismi *Ahmet* bo'lgan kishiga qarab uning ismini aytishning iloji yo'q. Shu bois atoqli otlar ko'p ma'noli ham bo'la olmaydi. Masalaning boshqa tomoni ham bor. Agar atoqli ot turdosh otdan o'zlashgan boisa, ma'noga ega bo'ladi, lekin bu o'sha atoqli otning ma'nosi emas, u o'zlashgan turdosh otning ma'nosi hisoblanadi. Masalan, turk tilidagi *Yildinm* (erkak kishining ismi) - «chaqmoq», *Deniz* (qiz bolaning ismi) - «dengiz». *Mert* (erkak kishining ismi) - «mard». *Ozgur* (erkak kishining ismi) - «ozod» va hok. Turdosh otligida ma'noga ega bo'lgan bu so'zlar turdosh atoqli otga aylangan. Bir kishi (*Mert*) ga qarab turib, uning otini aytish mumkin emas, chunki so'z asl ma'nosini yo'qotgan, turdoshlikdan chiqib, atoqli bo'lgan. Albatta, atoqli ot o'zlashtirilayotganda, turdosh otligidagi ma'no ko'zda tutilgan. Ya'ni inson o'z farzandiga *Mert* (mard) yoki *Ozgur* (ozod) ismini qo'yayotganda bu otlarning turdosh ot paytidagi ma'nosidan kelib chiqqani aniq.

Atoqli ot deganda inson, hayvon, mamlakat, shahar, joy, tashkilot, asar nomlari tushuniladi. Turk tilida atoqli otlar turdosh otlar bilan araiashib ketmasligi uchun har doim katta harf bilan yoziladi: *Oguz, Tahsin, Ugur, Istanbul, Turkiye. Atatiirk, Pamuk* (hayvon oti), *Caltkusu* (roman) va hok. Hatto, so'z birikmasi shaklida bo'lgan tashkilot va muassasa nomlari, turli nashr va asar nomlari tarkibidagi so'zlar ham bosh harf bilan yoziladi, masalan: *Istanbul Universitesi Edebiyat Fakultesi, Tashkent Devlet Sharkshinaslik Enstitusii. Turk DU Kurumu, Edebiyat Fakultesi, Hiirriyet Gazetesi, Adalet Menzili romam* kabi.

Shuningdek, millat, til, din, mazhab nomlari ham atoqli otlar hisoblanib, jumladagi o'rnidan qat'iy nazar ularning bosh harflari katta yoziladi: *Uzbek, Turk, Ingiliz, Arap, Ozbekce. Turkce. Miisumanlik, Mevlevilik* kabi.

Turdosh otlar (*cins adlan*). Turdosh otlar. asosan, har xil dmetlarning nomlaridir. Boshqacha aytganda, turdosh otlar birdan ortiq turga ega bo'lgan predmet, narsa yoki hodisalar nomidir. Turdosh otlar har tilda ot so'z turkumiga oid so'zlarning asosiy qismini tashkil etadi. Ular asl ma'noga ega va nutqda shu ma'nolari bilan qo'llanadi: *kitap (kitob), eser (asar), tas (tosh), dag (tog), at (ot), gemi (kema)* kabi.

Turdosh otlarda, atoqli otlardan farqli o'laroq, so'z bilan uning ma'nosi orasida uzviy bog'liqlik, munosabat mavjud. Tilning qadimidan kelgan tabiiy ma'noli so'zlari bo'lgan turdosh otlar predmetlarning ajralmas nomlaridir va ular o'sha tilni biluvchi kishilarga juda yaxshi tanishdir.

Turdosh otlar birlik va ko'plik otlari o'laroq ikkiga bo'linadi:

Birlik otlari (*tekU adlar*) faqat bir narsaga nom bo'lib kelgan so'zlardir: *bal (asal, bol), seker (shakar), elma (olma), cicek (gul), kent (shahar, kent), ev (uy), kus (qush), yol (yo V)* kabi.

Ko'plik otlari (*cogul adlar*) bir xil jinsda va birdan ortiq bo'lgan narsalarga nom bo'lib kelgan so'zlardir: *okullar (maktab-Icu), kuslar (qushlar), kalemler (qalamlar, ruchkalar), kitaplar (kitoblar), ma sail ar (ertaklar, masallar)* kabi. Ko'plik otlari birlik otlariga ko'plik qo'shimchasi {-ler, -lar} qo'shib yasaladi.

Guruh otlari (*topluluk adlan*). Ba'zi otlar ko'plik qo'shimchasi olmasdan ko'plikni ifodalaydi: *ordu (armiya), bbliik (bo'linma), takun (jamoat, guruh, yig'im), alay (diviziya), siiru (suruv), dizi (tizim, serial), genclik (yoshlik, yoshiar)* kabi. Bunday otlarga guruh otlari (*topluluk adlan*) deyiladi. Turk tilida guruh otlariga ko'plik qo'shimchasi qo'shilib, bir nechta guruh anglashilishi ham mumkin: *ordular, bolukler, takimtar, siiruler* kabi.

Yuqorida sanab o'tilgan ot turlaridan faqat atoqli otlar ko'plik qo'shimchasi olmaydi. Lekin, ba'zan bir shaxs yoki narsaning o'xshashlarini anglatish uchun ularga ko'plik qo'shimchasi qo'shilishi mumkin, ya'ni ko'plik qo'shimchasi mashhur shaxs yoki asar qahramonlarining nomlariga qo'shilganda "ko'plik o'xshashlik" ma'nosini ifodalaydi: *Bugun Oguzlar sizde misafir olacak (Bugun O'guzlar siznikida mehmon bo'lishadi), Alisir Nevai'ler, Ulugbey'ler yasanus bizim zeminde (Alisher Navoivtar, Vlug'beklaryashagan bizningzaminida)* va hok.

Otlarning turianishi (*adlann gekimi*)

Otlaming nutqda boshqa so'zlar bilan munosabat o'rnatilgan uchun kelishik, egalik, ko'plik, so'roq qo'shimchalari olgan hoi o'zgarishiga otlarning turianishi (*isim (ad) cekimi*) deyiladi.

Bir ot qo'shimchasiz holda bir predmet, mavjudot, hodisa yo tushunchani ifodalaydi: *agag (daraxt, yog och), lamba (lampa, chi roq), yer (yer, joy, o'rin), dag (tog)* kabi. Otlarning bunday shakl birlik (*teklik*) shakli bo'ladi. Buni maktablarda *tekil* deb atashad' Ularning ko'plik shakli esa *gokluk (gogul)* atamasi bilan nomlanadi Ko'plik qo'shimchasi so'zlar orasida munosabat o'ratmaydi, faqa o'sha narsaning ko'pligini anglatadi: *agag - agaglar, dag - daglar kuzm - kuzuiar*. Shu tarzda otlarga qo'shiladigan ko'pli qo'shimchasini bir ichki munosabat qo'shimchasi deyish o'rin bo'ladi.

Turk tilidagi singarmonizm (tovush uyg'unligi) qonuniga ko' ko'plik qo'shimchasi *-lar, -ler* shaklida bo'ladi: *kus-lar, kiz-lar araba-lar, kuzu-lar, biyyik-ler, dere-ler, fikir-ler* va hok. Ko'pi qo'shimchasi har doim otning birlik shaklidan keyin qo'shiladi Egalik qo'shimchasi olgan otlardan keyin kelishi istisno hollarda* biridir: *baba-m-tar, anne-m-ler* kabi. Turk tilida so'z urg'usi o' larga qo'shilgan ko'plik qo'shimchasiga tushadi.

Egalik kategoriyasi (*iyelik ekleri*)

Egalik qo'shimchalari ot ifodalayotgan predmetning bir s yoki predmetga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Zotan *iyelik* (hozirgi zamon o'zbek tilida qo'llanayotgan "egalik" so'zi bilan ha kelib chiqish, ham ma'no jihatdan bir xil) so'zining o'zi ham tu tilida *"sahiplik"* so'zining sinonimidir. Demak, egali" qo'shimchalari predmetni predmetga, ya'ni otning otga bog'lovchi, ikki ot orasida munosabat o'rnatuvchi qo'shimchalardir. Ular egali qo'shimchasi qo'shilgan otga boshqa bir otning bog'liq, to ekanligini ko'rsatadi.

Egalik qo'shimchalari shaxslarga ko'ra o'zgaradi. Bunda ot qo'shilayotganda turkiy singarmonizm qonuniga amal qilinadi:

Shaxs		Qo'shimcha
Birlik:	1-shaxs	-m (<i>Am, -im, -urn, -urn</i>)
	2-shaxs	-n (<i>-in, m, -ww, -un</i>)
	3-shaxs	-/, -/, -w, -w, -si, -si, -su, su
Ko'plik	1-shaxs	-miz, -nuz, -miiz, -muz, (<i>imiz, -untz, iimuz, -umuz</i>)
	2-shaxs	-niz, -mz, -nuz, -nuz (<i>-iniz, -imz, iiniiz -unuz</i>)
	3-shaxs	-leri, -lart

Masalan:

<i>anne - m</i>	<i>baba - m</i>	<i>ev-i-m</i>	<i>soz - u - m</i>
<i>anne - n</i>	<i>baba - n</i>	<i>ev - i - n</i>	<i>soz-ü - n</i>
<i>anne - si</i>	<i>baba- si</i>	<i>ev - i</i>	<i>soz - ii</i>
<i>anne - miz</i>	<i>baba - miz</i>	<i>ev - i - miz</i>	<i>soz - ii - muz</i>
<i>anne - niz</i>	<i>baba - mz</i>	<i>ev - iniz</i>	<i>soz - iiniiz</i>
<i>anne - leri</i>	<i>baba - lan</i>	<i>ev - leri</i>	<i>soz - leri</i>

kabi.

Egalik qo'shimchalaining ikkinchi shaxslaridagi *-n* tovushi hozirda ham turk tilining shevalarida jarangsiz (*sa&r*) *-n (-ng)* shaklida mavjud: *baba-ng, ev-i-ng, ana-ngiz, sbz-'unguz* kabi.

Birlik 3-shaxs egalik qo'shimchalari, ta'kidlanganidek, undoshlar bilan tugagan so'zlarda *-i, -f, -ii, -w*, unii bilan tugagan so'zlarda esa *-si, -si, -stf, -SH* dir. *el - i, bas -1, gbz - ii, boynuz - u, tepe - si, baba - si, koprii - sit, korku-su* kabi.

Turk tilidagi *su* va *ne* so'zlarining egalik qo'shimchasini olishi istisno holatdir. Bu yerda egalik qo'shimchasidan oldin >' undoshi orttiriladi:

<i>su-y-u-m</i>	<i>ne-y-i-m</i>
<i>su-y-u-n</i>	<i>ne-y-i-n</i>
<i>su-y-u</i>	<i>ne-y-i</i>
<i>su-y-u-muz</i>	<i>ne-y-i-miz</i>
<i>su-y-u-nuz</i>	<i>ne-y-i-niz</i>
<i>su - lar -1</i>	<i>ne-ler - i</i>

Bu so'zlarda y tovushidan keyin **-u-** unlisi ham qo'shiladi. Biroq, turk tili grammatikasi kitoblarida **ne** so'zining odatdagi she shakllari ham mavjudligi aytib o'tiladi: **ne - m, ne - n, ne - si, ne mitt ne-niZt ne-leri** (faqat bulardan faol qo'llanadigan **ne si ne-leri** shakllaridir).

Ko'plik 3-shaxs egalik qo'shimchasi, aslida **-ier, -lar** ko'pH qo'shimchasi bilan **i**, **i** birlik 3-shaxs egalik qo'shimchasidan tashki topgan. Bu ko'plik shakli egalik qo'shimchasi bo'lgan otni-ko'pligini ifodalab keladi. Shaxs birlikda ham, ko'plikda ha: bo'lishi mumkin: **Onun is - leri, on/arm is - leri** kabi.

Egalik qo'shimchasining ba'zan ketna-ket kelganligini h ko'rish mumki: **bir - i - si, kirn - i - si, cog - u - su, hep - i - fhepsi** kabi. Bularda birinchi qo'shimchaning egalik xususiyat yo'qolgan va ikkinchi qo'shimcha bilan kuchaytirilgan. 3-shaxsli egalik qo'shimchasi faqat shaxslarni emas, ayni paytda otlarni ham ko'rsatadi: **onun kapm, bahqe - nin kapt - si, bahce kapt - si, onun iistii, deniz - in iistii** kabi.

Uchinchi shaxs egalik qo'shimchalari o'zidan keyin bir yordamchi **-w-** tovushi olib, boshqa qo'shimchalarga bog'lanadi: **el-i-n de, orta-si-n-dan** kabi.

Turk tilida so'zga egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovus' o'zgarishlari vujudga kelishi mumkin. Bu hoi jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda kuzatiladi, ya'ni so'z oxiridagi jarangsiz undosh tovush o'zining jarangli juftiga ayh nadi: **c - c, p - b, κ - % (g)**. Masalan. **agac- agacm, kitap - k' tabtmiZy bilek - bilegin, renk - rengi** va hok.

Turk tilida egalik qo'shimchalari urg'u oladi.

Egalik qo'shimchalari bilan qaratqich kelishigi qo'shimchalarining munosabatlari va qo'llanishlari xususida !;cyin-roq to'xtalamiz.

Bu yerda yana shuni aytish joizki, turk tilida egalik qo'shimchalarisiz ham egalik ma'nosini Hodalash imkoniyati mavjud. Masalan: **benim ev, senin araba, sizin hanim** va hok.

Oidlik qo'shimchasi (*aittik eki*)

Turk tilshunosligida oidlik qo'shimchasi alohida kategoriya sifa-tida eualik qo'shimchalaridan ajratiladi. Bu qo'shimcha otdan ot yasovchi qo'shimchalar sifatida turk tilshunoslig.n.ng «So/vasalishi» bo'limida batafsil ko'rib chiqiladi.

Turk tilidagi oidlik qo'shimchasining shakl yasovchi ao'shimcha ekanligi ham ta'kidlanadi. Oidlikni ifodalovchi **-ki** qo'shimchasi, haqiqatan ham, shakl yasovchi qo'sh.mchalardan keyin kelish, egalik qo'shimchasi singari yordamchi **-n-** tovushi olish va oidlik kabi yana bir egalik vazifasini bajarish xossasiga egadir. Shu nuqtai nazardan uni ham yana bir egalik qo'shimchasi sifatida qabul qilish mumkin: **benim - ki, burada - ki, yerde -ki-n- den, Alinin - ki, kimin - ki, senin- ki - n- de. bizim - ki - si. ortada -ki-n- i. yerde -ki-n-e** kabi.

Oidlikni ifodalovchi **-ki** qo'shimchasi urg'usiz bo'lib, lurk tili-dagi unlilar singlarmoniyasi qonuniga amal qilmaydi. U qaratqich kelishigi shaklida bo'lgan ot, otlashgan so'z va olmoshlar bilan birikib, mavhum oidlikni ifodalaydi.

-ki oidlik qo'shimchasining egalik olmoshlari bilan birikishiga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Birlik

- | | |
|--------------------------|-------------------------|
| 1. Benim 'mening' | benimki 'meniki' |
| 2. Senin 'sening' | seninki 'seniki' |
| 3. Onun 'uning' | onunki 'uniki' |

Ko'plik

- | | |
|------------------------------|----------------------------|
| 1. Bizim 'bizning' | bizimki 'bizniki' |
| 2. Sizin 'sizning' | sizinki 'sizniki' |
| 3. Onlartn 'ularning' | onlarinki 'ulamiki' |

-ki oidlik qo'shimchasining ot va boshqa otlashgan so'zlar bilan birikishiga quyidagi misollarni keltirish mumkin: **Kemalinki (Kanwlniki), dolaptaki (shkafdagi). karsimizdaki (ro'parumizdugi). Istanbul'daki (Istanbuldagi)** va hok.

Kelishik qo'shimchalari (*ad durum ekleri*)

Kelishik qo'shimchalari turk tilida *ad durum ekleri* deb ataladi. Ba'zi grammatika kitoblarida kelishik qo'shimchalari *hal ekleri* deb ham beriladi. Kelishik qo'shimchalari otni otga, ko'pincha esa, otni fe'lga bog'lovchi qo'shimchalardir. Kelishik qo'shimchalari otni yordamchi so'zlarga ham bog'laydi, faqat bunda ham asosiy maqsad otni yordamchi so'z (masalan, bog'lovchi) orqali fe'lga bog'lashdir. Shundan kelib chiqib, kelishik qo'shimchalarini ot va fe'l orasida munosabat o'rnatuvchi vositalar ekanini aytish mumkin: *ka/emini ucu (ruchkaning uchi), evin duvari (uyning devori), senin He (sen bilan), carsi-da gezdi (bozorda kezdi). ev-e gidiyor (uyga ketyapti). bize karsi (bizga qarshi, bizga nisbatan). Ankara-dan gelecek (Anqaradan keladi), tepeden sonra (tepadan keyin)* va hok. Demak, otning har qanday ko'rinishida muayyan tobelik, bog'liqlik munosabati ifodalanar ekan.

Turk tilshunosligida kelishiklar, asosan, oltita va o'zbek tilidagi olti kelishik shakliga to'g'ri keladi, bu:

1. Bosh kelishik (*yalmhal*)
2. Qaratqich kelishigi (*ilgi kali*)
3. Jo'nalish kelishigi (*yaklasma halt*)
4. Tushum kelishigi (*yapma hali*)
5. O'rin-payt kelishigi (*bulunma hali*)
6. Chiqish kelishigi (*uzaklasma hali*)

Undan tashqari, ba'zi turk olimlari kelishiklarning yettita, hatto to'qqizta shakli borligini ta'kidlaydilar (qarang: *Ergin M., Universitetler icin Turk Dili, Bayrak Basimevi, Istanbul, 2000.*). Bunga ko'ra, hozirgi zamon turk tili grammatikasi kitoblarida qo'shimcha uchta kelishik shaklini ham ajratilganini ko'rish mumkin:

1. *Vasita halt (vosita shakli)*
2. *Esitlikhali (tenglik shakli)*
3. *Yon gbsterme hali (yo 'nalishni ko'rsatuvchi shakl)*

Demak, otlar so'z birikmasi yoki gaplar ichida ana shu kelishik shakllaridan birini olgan bo'ladi. Quyida kelishik shakllaridan har birini alohida ko'rib chiqamiz:

1. Bosh kelishik (*yalm hal*). Bu kelishik ba'zi turk tili grammatikasi kitoblarida *yalm hal*, ba'zilarida *yalm durum*, ba'zilarida esa *nominatif halt* deb beriladi. Ushbu kelishik shakli o'zbek tilidagi bosh kelishik shakliga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, bosh kelishik ko'pchilik tillarda otning boshqa bir so'zga tobe emasligini ko'rsatadi. Otning birlik, ko'plik va egalik shakllari ham bosh kelishikda bo'ladi. Birlik va ko'plikda tashqi munosabat bo'lmaydi, egalik shaklida esa bog'liqlik holati mavjud bo'ladi: *tas (tosh), yol (yo'l), taslar (toshlar), yollar (yo'liar), tasim (toshim), yollanmz (yo 'llaringiz)* kabi.

Tas, yol kabi so'zlar bosh kelishik, birlik son shaklida bo'lsa, *taslar, yollar* bosh kelishik, ko'plik shaklidadir; *tasim, yollanmiz* egalikni ifodalab kelgan bosh kelishik shaklidir. Demak, bosh kelishik otlarning kelishik qo'shimchalari ola oladigan boshlang'ich shaklidir.

2. Qaratqich kelishigi (*ilgi hali*). Bu kelishik shakli turk tilshunosligida *ilgi hali*, ba'zan *tamlayan durumu*, ba'zi kitoblarda *genetif* ham deyiladi. Qaratqich kelishigi otning boshqa bir ot bilan munosabatda ekanligini ko'rsatuvchi kelishik bo'lib, unda ot o'zidan keyin keluvchi bir otga tobe bo'ladi. Qaratqich kelishigi ba'zan qo'shimchali, ba'zan qo'shimchasiz bo'lishi mumkin: *bahce kapm (bog' eshigi), bahcenin kاپisi (bog'chaning eshigi), ogrenci cantasi (o'quvchi sumkasi), ogrencinin cantasi (o'quvchining sumkasi)* kabi. Ot yoki ot vazifasini bajarayotgan so'zning *-nin* qo'shimchasi olgan bunday shakli *belirtili ad tamlamasi* (belgili qaratqich shakli yoki qaratqichli aniqlovchi birikmasi) deyiladi: *okulun bahcesi. ogrencinin cantasi*. Qo'shimcha olmagan shakli esa *belirtisiz ad tamlamasi* (belgisiz qaratqich shakli) deyiladi: *okul bahgesi, ogrenci cantasi* va hok. Misollardagi *-nin (-in)* qaratqich kelishigi shakli Turkiyadagi maktablarning o'quv dasturlarida «*in hali*» ham deb yuritiladi.

Qaratqich kelishigining qo'shimchasi, asosan, **-in** bo'lib, undosh (*konsonant*) bilan tugagan so'zlarga **-in, -in,-iin, -un (el -in, agac-m, yokus-un. goz-iin)**, unli (*vokal*) bilan tugaganlarga esa **-nin, -mn, -nun, -nun** shaklida qo'shiladi. Bunda qaratqich qo'shimchasi (**-in**) dan oldin **-n** ayiruvchisi orttiriladi: (*anne-nin, arpa-nin, titti -nun, duygu-nun*) kabi.

Turk tilidagi **su** va **ne** so'zlarining qaratqich kelishigida turlanish shakli istisno holatdir. Bunda ikki unli o'rtasida **-y-** undoshi orttiriladi: **su-y-un** va **ne-y-in** kabi. Shuningdek, og'zaki nutqda **ne** so'zining **ne - nin** qaratqich kelishik shaklida qo'llanganini ham ko'rish mumkin.

Gap ichida qaratqich kelishigida turgan so'zni topish uchun gapning kesimiga **kimin? neyin?** savollari berilishi mumkin:

Bu kalem kimin? (Bu qalam kimniki?)

Bu kalem Ayse 'nin (Bu qalam Oyshaniki).

Bu neyin tekerlegidir? (Bu nimaningg'ildiragi?)

Buarabamntekerlegidir (Bu mashinaning'ildiragi).

3. Jo'nalish kelishigi (yaklasma hall). Bu kelishik turk tilida yaqinlashish va yo'nalishni ifodalagani, ma'kon, joyni ko'rsatgani uchun **yonelme durumu** (yo'nalish holi) deyiladi. Ba'zi kitoblarda ushbu kelishik shakli **Datif** ham deyiladi. Jo'nalish kelishigi shakli otlarning yaqinlashishni ifoda etgan fe'larga bog'lanish uchun olgan qo'shimchasidir.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **-e, -a** bo'lib, unli (*vokal*) bilan tugagan so'zlarga **-e, -a** dan oldin **-y-** ayiruvchisi orttirilib, **-ye, -ya** shaklida qo'llanadi: *anne-ye (onaga), arpa-ya (arpaga), iitii -ye (dazmolga), duygu-ya (tuyg'uga)* kabi. Bu kelishikda turgan ot har doim qo'shimcha oladi. Turkiyadagi maktab dasturlarida jo'nalish kelishigi «**e halh** ham deyiladi.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi izofalarga qo'shilganda **-ne, -na** shaklida bo'ladi: *Ali'nin annesine (Alining onasiga), arabamn tekerlegine (mashinaning g'ildiragiga), Ayse 'nin kitabma (Oyshaning kitobiga), simf kapisina (sinfning eshigiga), pmann gozine (buloqning ko'ziga), kapi koluna (eshikning tutqichiga)* kabi.

Gap ichida jo'nalish kelishigi shaklida turgan so'zni topish uchun gapning kesimiga **kime? nereye? (neye?)** savollari berilishi mumkin:

Kime verdiniz? (Kimga berdingiz?)

S el ma'ya verdim (Salmoga berdim).

Nereye gidiyorsun? (Qayoqqa ketyapsan?)

Muzeye gidiyorum (Muzeyga ketyapman).

Nereye dbnecek ? (Qayoqqa qaytadi?)

Tiirkiye'ye dbnecek (Turkiyaga qaytadi).

4. Tushum kelishigi (yapma hali). Turk tilshunosligida tushum kelishigi **yapma hali** deyiladi. Uning ba'zi grammatika kitoblarida **belirtme durumu**, ba'zilarida esa **akkuzatif** deb berilganini ham ko'rish mumkin. Tushum kelishigi otning o'timli fe'l ta'siri ostida bo'lishini ko'rsatuvchi shaklidir. Bu shaklda ot fe'ldan bevosita ta'sir oladi. Tushum kelishigi ham turk tilida qaratqich kelishigi singari qo'shimcha olgan yoki olmagan shaklda bo'lishi mumkin: **defter aldim (daftar oldim) - defied aldim (daftarni oldim), su icti (suv ichdi) - suyu icti (suvni ichdi).**

Tushum kelishigidagi so'z cumla ichida fe'l bilan birikadi.

Tushum kelishigida turgan ot yoki otlashgan so'z qo'shimcha (**-i, -i, -u, -u**) olganda **betgili (belirli)**, olmaganida esa belgisiz (**belirsiz**) bo'ladi.

Gap ichida tushum kelishigida turgan ot atoqli ot yoki vositali to'ldiruvchi vazifasida kelgan (turdosh) ot , otlashgan so'z, egalik affiksini olgan bo'lsa, har doim **belgili** bo'ladi: *Sibel'i gordiigiim zaman kendimi kaybederdim (Sibelni ko'rgan paytim o'zimni yo'qotib qo'yar edim). Git. biraz kafayi dinlendir (Bar, mi vani ozgina dam oldir) kabi.*

Gap ichida tushum kelishigida turgan ot bir turdagi predmetni bildirib kelganda **belgisiz** qo'llanishi ham mumkin: *Serdar butiin gece kitap okudu (Sardor butun tun kitob o qidi). Gel og lum. ye/nek ye, coy ic (kel o 'g lim ovqatye, choy ich) kabi.*

Tushum kelishigining qo'shimchasi **-i** bo'lib, undosh (*konsonant*) bilan tugagan so'zlarga ***,!,-«,-« (el -i, agac-i. yokus-u. goz-ii)**, unli (*vokal*) bilan tugaganlarga esa, **-i** dan oldin ayiruvchi **-Y-** undoshi orttirilib, **-yi, -yt,-yu, -yu** shaklida qo'llanadi: *anne-yi.*

arpa-yt, IIIü -yii, duygu-yu. Turkiyadagi o'rta maktab dasturlarida tushum kelishigini «i hali» ham deb atashadi.

Tushum kelishigi qo'shimchasi ba'zi olmoshlarga qo'shilganda, undan oldin *-n-* orttiriladi: *bunu, sunu, onu* kabi.

Tushum kelishigining qo'shimchasi izofalarga qo'shilganda ham o'zidan oldin *-n* - tovushi orttirib, *-ni, -m, -nü, -nu* shaklini oladi: *AH'nin annesini (Alining onasini), arabam tekerlegini (mashinaning'ildiragini), Ayse'nin kitabim (Oyshaning kitobini), simf kapi-sint (sinfeshigini), ptmann goziinii (buloqning ko'zini), kapi kolunu (eshik tutqichini)* kabi.

Tushum kelishigining ancha oldin unutilib ketgan va hozirgi vaqtda faqat tilning ba'zi shevalarida saqlanib qolgan qo'shimchasi ham bor. Bu egalik qo'shimchadan keyin qo'llangan *-n* ayiruvchisidir: *el-i-n (bptu), sac-t-n (cekti), yüz-ii-n (acti), gdz-ii-n (stizdii)* kabi. Bu *-n* qo'shimchasi adabiy tilda yaqin-yaqinlargacha qo'llanib kelingan, hatto hozirgi paytda ham o'z jonliligini yo'qotmagan bu qo'shimchani badiiy adabiyotda, xususan, she'riyatda uchratish mumkin.

Gap ichida tushum kelishigi shaklida turgan so'zni topish uchun gapning kesimiga *kimi? neyi?* savollari berilishi mumkin:

Kimni seviyorsun? (Kimni sevaman?)

Berna 'yi seviyorum (Bernani sevaman).

Neyi goruyorsun? (Kimni ko'ryapsan?)

Ormam ve daglari goruyorum (O'rmonni va tog la mi ko'ryapman).

Ne yiyorsun? (Nima yeyapsan?)

Dondurmayiyorum (Muzqaymoq yeyapman) kabi.

5. *O'rin-payt kelishigi (bulunma hali).* Bu kelishik shakli tur tilida bir makon, joyda bo'lishni ifoda etganligi uchun *bulunma halt bulunma durumu* (bo'lish holi), yoki *kalma durumu* (qolish holi) ham deyiladi. Bu kelishik shaklini ba'zi tilshunoslar Yevropa tilshunosligiga taqlidan *Lokatif hali* ham deb atashadi. Maktab darsliklarida ushbu kelishikning nomi soddalashtirilib, «*de halb* de" beriladi.

O'rin-payt kelishigi otini fe'lga bog'lab, bo'lish ma'nosini ifodalaydi. Bu kelishikning qo'shimchasi unli va jarangli undosh

tovushlardan keyin *-de, -da,* jarangsiz undosh tovushlardan keyin esa *4e, -ta* (izofalarda *-nde^t -nda*) bo'ladi: *evde oturuyor (uyda o'tiradi), masada yatiyor (stolda yotibdi), bizde kaliyor (biznikida qoladi. yashaydi), Taskent'te cahsti (Toshkentda ishladi), kitaptayok (kitobda yo'q), elinde kalmis (qo'lida qolibdi). kapmnda asih (eshigida osig'liq)* kabi.

Gap ichida o'rin-payt kelishigida turgan so'zni topish uchun gapning kesimiga *kimde? neredede? ne zaman* savollari berilishi mumkin:

Kimde silah var? (Kimda qurol bor?)

Osman 'da silah var (Usmonda qurol bor).

Neredede oturuyorsunuz? (Qayerda yashaysiz?)

Istanbul 'da oturuyorum (Istanbulda yashayman).

Ne zaman kalkiyorsunuz? (Qachon turasiz?)

Sabah saat 7'de kalkiyorum (Ertalab soat 7 da turaman) kabi.

6. *Chiqish kelishigi (uzaklasma hali).* Bu kelishik turk tilida bir makondan uzoqlashish, chiqishni ifoda etganligi uchun *uzaklasma hali* (uzoqlashish holi), *cikma durumu* (chiqish holi), ba'zan esa *uzaklasma durumu* deyiladi. Ba'zi grammatika kitoblarida ushbu kelishik shaklining yevropa atamashunosligiga taqlidan *Ablatif hali* deb ham qo'Uanganini ko'rish mumkin. Chiqish kelishigi otning o'zidan uzoqlashishni ifodalovchi fe'llar bilan munosabatini bildiradi. Bu kelishikning qo'shimchasi ham unli va jarangli undosh tovushlardan keyin *-den, -dan,* jarangsiz undosh tovushlardan keyin esa *-ten, -tan[^]* fizofalarda *-nden, -ndan*) bo'ladi: *elden gitti (qo'ldan keldi; qo'ldan chiqdi), istanbul'dan ctktik (Istanbuldan chiqdik). sizden soma (sizdan keyin). Taskent'ten donecek (Toshkentdan qaytadi), kitaptan okudu (kitobdan o'qidi). evinden kovmus (tyidan quvibdi), basindan belli (boshidan malum)* kabi. Maktab dasturlarida chiqish kelishigi «*den hali*» deb ham ataladi.

Endi turk tili grammatikasiga oid ba'zi kitoblarda otlarning kelishik shakllari sifatida ajratilgan grammatik shakillarni ko'rib chiqamiz. Yuqorida ta'kidlangani kabi, bu shakllarning uch turi ajratiladi:

- /. *Vasitahati (vosita shakli)*
2. *Esitlik hali (tenglik shakli)*
3. *Yon glister me hali (yo 'nalishni ko 'rsatuvchi shakl)*

1. *Vasita hali (vosita shakli)*. Turk tilida kelishik deb nomlangan ushbu shakl otning fe'lga bir vosita ekanligini ko'rsatadi va vosita, zamon ma'nolarini ifodalaydi. Bu shaklni ba'zi tilshunoslar *Instrumental hali* deb ham qo'llaydilar. Vosita shaklinin qo'shimchasi eski turkchada *-n* bo'lgan, lekin bu eskirgan qo'shimcha hozirgi zamon turk tilida faqat bir necha so'zga qo'shiladi (undosh tovush bilan tugagan so'zlarga *-i-* ayiruvchisi yordamida qo'shiladi) va zamoni ifodalaydi: *yaz-i-n (yozda)*, *kis-t-n (qishda)*, *ogle-n (tush paytida)*, *ansiz-i-n (to'satdan)* kabi. Hozirgi zamon turk tili grammatikasi kitoblarida bu qo'shimchani *-meksizin, (-maksizin)* ravishdosh qo'shimchasi shaklida qolganligi ham la'kidlanadi: *durmaksiz-t-n (to'xtamasdan)*. *gormeksiztn (ko 'rmasdan)* kabi.

Ba'zi hollarda ushbu kelishik shaklida hech qanday vositalik holati yo'qligini ham ko'rish mumkin.

-n qo'shimchasi nutqda sekin-asta qo'llanishdan chiqishi bilan uning o'rnini *He (bilan)* bog'lovchisi egallagan. Hozirgi vaqtda *He* va uning alohida kelishik qo'shimchasiga aylangan *-le, -la* shakllari vosita ma'nosini ifodalab keladi: *dille (til bilan)*, *gozle (ko'z bilan)*, *basla (bosh bilan)*, *kolla (qo'l bilan)* kabi. Agar so'z unli tovush bilan tugagan bo'lsa, u holda vosita qo'shimchasidan oldin *-y-* ayiruvchisi orttiriladi: *diisiince -y -le (fikr bilan)*, *tabanca-y-Aa (to 'pponcha bilan)*, *Leyla-y-la (Laylo bilan)* kabi.

Vosita shakli *He* ko'rinishida bo'lgani uchun uni vosita kelishigi emas, bir bog'lovchi sifatida ko'rib chiqish to'g'ri bo'lar edi. Ammo, qachonki *He* bog'lovchisi *-le, -la* shaklida so'zga qo'shib yozilganda, bu fikmi ilgari surgan olimlar haq bo'lishlari mumkin.

Misol tariqasida turk tilidagi *dolaytsi He (shu sababdan, shu tufayli, shu boisdan, binobarin)* so'zini olsak, uning nutq * qo'llanadigan shakli uch xil: *dolaytstyle, dolayistyla, dolayisiyle* Bularning ichidan *dolayistyla* shaklini turk tilshunoslari to'g'ri de hisoblashadi (qarang: imla Kilavuzu, Yeni Baski, "Sabah", Eskis hir, 1997, s.71).

2. *Esitlik hali (tenglik shakli)*. Turk tilshunosligida turk tilida 7 ta kelishik borligini ta'kidlovchi olimlar ushbu kelishik shakli (tenglik shakli)ni 7-kelishik deyishadi, tilda 9 ta kelishikni ajratganlar tilshunoslar esa bu shaklni 8-sirada ko'rsatishadi. Ammo olimlarning umumiy fikriga ko'ra, bu shakl qanday nomlanmasin u tenglik, o'xshashlikni ifodalovchi shakl hisoblanadi.

Esitlik hali (tenglik shakli) ham otni fe'lga bog'lash vazifasini bajaradi. Tenglik qo'shimchasi *~ce (-ce, -ca, -ca) dir. heme (menimcha), iyice (yaxshilab). insanca (insonday). yavasca (sekingina)* va hok. Ushbu shaklni ba'zi tilshunoslar Yevropa tilshunosligiga taqlidan *Ekvatifhali* ham deb atashadi.

Turk tilida *esitlik hali*, ba'zan esa *esitlik durumu* deb atalib kelinayotgan ushbu grammatik shakl besh xil vazifani bajaradi:

1. tenglik, o'xshashlikni ifodalaydi: *insanca yasamak (insonday yashamoq), vafisice saldinnak (vahshiyona tashlanmoq). cocukca davranmak (bola kabi harakat qilmoq), guzelce anlatmak (chiroyli qilib so zlab bermog)* va hok.

2. «ko'ra» so'ziga to'g'ri keluvchi nisbat, yaqinlik. bir dalil. fikrga asoslanish ma'nosini ifodalaydi: *bence bu boyledir (menimcha bu shunday), gonliimce yasiyorum (ko nglimdagiday yashayapinan), kanaatimce bu sozyanlistir (menimcha bu so 'z noto g'ri)* va hok.

3. «qadar» so'ziga to'g'ri keluvchi miqdor ma'nosini ifodalaydi: *binlerce sayfa (minglarcha sahifa), devece Buyumu (tuyaday kattaribdi), diinyalarca sevmek (juda sevmog)* va hok.

4. «o'laroq» so'ziga to'g'ri keluvchi ravish holi ma'nosini ifodalaydi: *guzelce cahstim (yaxshilab ishladim), iyice dinledi (yaxshilab tingladi), aqikca gbnilyor (ochiq-oydin ko 'rinib turibdi)* va hok.

5. Vaqt, davomiylik va muddatni ifodalaydi: *yillarcu bekledim (yillab kutdim). once o konussun (oldin u gapirsin), evvelce boyle degildi (avval bunuqu emas edi), aklmca beni kandiracak (nwni al-dayman deb o ylaydi)* va hok.

Tenglik shakli (*insanca, hence, devece, ardinca*) o'mida turk tilida *gibi, gore, kadar, sira* singari yordamchi so'zlar ham qo'llanadi: *insan gibi (inson kabi). bana gore (menimcha). deve ka-*

dar (tuyaday), ardi sira (ortidan) va hok. Turk tilida ushbu shakl o'rniga *olarak (o'laroq. sifatida)* so'zi ham muqobil hisoblanadi: *giizel olarak (giizelce), yavas olarak (yavasca)* kabi.

Hozirgi zamon turk tilida ushbu grammatik shaklning egalik va jo'nalish kelishigi qo'shimchalari olib kengaygan shakllari ham qo'llanadi: *delicesine (devonalardek), alqakcasina (pastkashlik bilan). aptalcasma (ahmoqona tarzda), bilmisqesine (bilganday), suriiklercesine (sudraganday), bogazlaniyorcasina (xuddi ho'g'izlanayotgandek)* kabi. Bu shakllarning o'z navbatida ravishdosh shakllari hisoblanishini ham ta'kidlash joiz.

Yana bir tenglik qo'shimchasi turk tilining shevalarida qo'llanib kelayotgan *-cek (cak)* qo'shimchasidir: *ev-cek, cabu-cak (qabuk-cak)*. kabi. Adabiy tilda bu kamdan-kam qo'llanadi. Zotan turk tilida tenglik qo'shimchalarining barchasi deyarli so'z yasovchi qo'shimchalarga aylangan.

-cek (-cak) qo'shimchasining muhim bir xususiyati uning urg'u olmasligi va so'z urg'usining ushbu qo'shimchadan oldin turgan bo'g'ingatushishidir.

3. Yon gosterme hali (yo'nalishni ko'rsatuvchi shakl). Ushbu shakl turk tilshunosligida yo'nalishni ifodalovchi kelishik sifatida olingan. Shuningdek, olimlar ushbu shaklni *Direktifhali* deb nomlab, uni bugungi kunda shakl yasovchi qo'shimchalik vazifasini ado etib bo'lganligi, iste'moldan chiqqanligini ta'kidlashadi. Hozirgi paytda ushbu shaklning faqat bir nechta turkcha so'zning oxirida qo'llanayotganini ko'rish mumkin. Bu: *-re (-ra)* va *-eri (-an)* qo'shimchalaridir: *son-ra, ic-re, iize-re(iizre). tas-ra («disan»), dis-ari, iq-eri, il-eri, yuk-ari.*

Hozirgi zamon turk tilida ushbu eskirgan qo'shimcha o'rnini *dogru (sart), karsi (qarshi, qarab. tomon. sari)* kabi yo'nalishni ifodalovchi yordamchi so'zlar egallagan: *eve dogru, daga karst, ona dog*ru, sabaha karsi* kabi.

Bu qo'shimchalardan *-re (-ra)* ba'zan urg'usiz bo'ladi, *-eri (-an)* qo'shimchalari esa har doim urg'u oladi.

Otlar bilan so'roq yuklamasining qo'llanishi (soru eki)

So'roq yuklamasi otning so'roq shaklini yasaydi va shu yo'sinda har doim alohida shakida yoziladi. So'roq yuklamasi turk tilshunosligida *soru eki* (so'roq qo'shimchasi) deb ataladi. Uning vazifasi ham otni fe'lga bog'lashdir.

So'roq qo'shimchasi har doim otlardan va shakl yasovchi qo'shimcha olgan boshqa so'zlardan keyin kelib, ulaming so'roq shaklini yasaydi.

Turk tilidagi so'roq qo'shimchasi *mi (mt, ntii, mu)* dir: *is mi? balik mi? gozmii? oyun mu?*

Turk tilida so'roq qo'shimchasi imloda boshqa o'xshash (*~m*) shakllar bilan aralashib ketmasligi uchun o'zidan oldin kelgan otdan keyin alohida yozilmoqda. So'roq qo'shimchasi har doim urg'usiz bo'ladi. So'z urg'usi har doim ushbu qo'shimchadan oldin keluvchi bo'g'inga tushadi.

Otlarda jins kategoriyasi

Turk tilida ham otlarda, xuddi o'zbek tili kabi grammatik jins kategoriyasi mavjud emas, ammo otlar turli jins vakilini anglatishiga ko'ra qarama-qarshi leksemalarga ajraladi. Tilda jinlar tabiiy ravishda farqlanadi va bu hoi ikki xil yo'l bilan voqelanadi:

1. Jins alohida so'z yordamida ifodalanadi. Bunda so'zlarning qaysi jinsga oidligiga ishora qilinadi. Bu usul:

a) aqrabolik atamalarida, kishilarning erkak va ayol jinsiga bo'linishi nomlarida uchraydi:

<i>baba (ota)</i>	<i>anne (ona)</i>
<i>ogul (o'g'il)</i>	<i>kiz (qiz)</i>
<i>dayi (tog'a)</i>	<i>teyze (xola)</i>
<i>amca (amaki)</i>	<i>hala (amma)</i>
<i>erkek (erkak)</i>	<i>kadin (ayol)</i>

bay' (janob) bayan (xonim)

b) xo'jalik ishlarida keng qo'llanadigan ba'zi hayvonlarning nomlarida uchraydi. Hayvonlar kabi ularning bolalari nomi ham umumiy jinsni tashkil etgan holda umumlashgan nom ostida birlashadi, masalan:

<i>at (erkak ot)</i>	<i>kisrak (urg'ochi ot)</i>	<i>tay (toy)</i>
<i>horoz(xo'roz)</i>	<i>tavuk(товуq)</i>	<i>civciv (pilig) (joja)</i>
<i>bkiiz (ho kiz)</i>	<i>inek (sigir)</i>	<i>buzagi (dana) (buzoq)</i>
<i>kođ (qo 'chqor)</i>	<i>koyun (qo 'y)</i>	<i>kuzu (qo 'zichoq)</i>

2. Boshqa hollarda, ya'ni u yoki bu jins vakillarining nomi va ularni aniqlash imkoni boimagan holatlarda semantikasi muayyan jinsga munosabatni ko'rsatuvchi maxsus leksemalarga murojaat etiladi. Jinsi umumiy otlardan oldin kelib, ularning jinsini belgilay oladigan leksema sifatida *erkek (erkak), kadin (ayol), kiz (qiz). dist (urg'ochi)* so'zlarini olish mumkin, masalan:

erkek isgi (erkak ishchi); kadin isgi (ishchi ayol); kiz isgi (is hchi qiz);

*erkek doktor (vrach); kadin doktor (vrach ayol);
erkek kurt (erkak bo 'ri); disikurt (urg'ochi bo 'ri) va hok.*

Otlarning yasalishi

Turk tilida otlarning salmoqli qismi so'z yasovchi qo'shimchalar vositasida yuzaga kelgan. Bunday so'zlar otlarga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi (*addan yapdan adlar*) va fe'llarga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi (*fiilden yapdan adlar*) natijasida yuzaga kelgan. So'z yasovchi qo'shimchalar turk tilshunosligida *yaptm ekleri* deyiladi.

¹ 1934 yildan keyin qo'llana boshlangan ncologizm. Bu davrgacha "bay" so'/ming o'rniga *efendi* (canob). "bayan" so'zining o'rniga esa *hamm* (xonim) qo'llanilgan.

Otdan ot yasalishi

Otdan ot yasovchi qo'shimchalar so'zning o'zak yoki negiziga qo'shilib yangi so'z yasash uchun xizmat qiladi. Qo'shimchalar qo'shilishi natijasida yasalgan so'zlarning ma'nolari ularning qo'shimchasiz shakldagi ma'nosiga yaqin bo'ladi. Odatda, ulardan ot bilan bog'liq joy, kasb - hunar, oidlik va tegishlilikni ifodalovchi otlar yasaladi. Ularning soni unchalik ko'p emas, lekin aksariyat qismi o'ta faol va samaradordir. Otdan ot yasovchi qo'shimchalar quyidagilardir:

-ac (-ce). Turk tilida munosabat va o'xshatishni ifodalagan ushbu qo'shimcha vositasida juda kam so'z yasalgan: *top-ađ, kir-ag boz'ag, bak-ag* kabi.

-ak (-«k). O'xshatish ma'nosini ifodalovchi bu qo'shimchani ham hozirgi zamon turk tilida bir nechta so'zdagina uchratish mumkin: *top-ak, sol-ak, bas-ak, ben-ek, dur-ak* kabi.

-ay (-ey). Bu qo'shimchani turk tilidagi *giin-ey, kuz-ey*, shuningdek, keyinchalik yasalgan *bir-ey* va fe'ldan yasalgan *dik-ey, yat-ay, diis-ey* so'zlarida uchratish mumkin.

-ca (-ce, -ca, -ce). Bu qo'shimcha, aslida, shakl yasovchidir (*insan-ca, yavas-đa*), ammo keyinchalik u o'z vazifasini o'zgartirib, so'z yasovchi qo'shimchaga aylangan. U so'z yasovchi qo'shimcha sifatida turk tilida til nomlarini yasagan: *Alman-ca, Ingiliz-ce' Arap-cl, bransiz-ca, Ozbek-đe, Tiirk-ge, Fars-ga* kabi.

Ba'zan bu qo'shimcha qoliplashgan holda alohida otlar yasagan: *ula-ca. kara-ca, ak-ga, ak-ge* kabi.

Bunday qoliplashgan shakl ko'pincha Turkiyadagi joy nomlarida kuzatiladi: *Sutlii-ce. Kanli-ca. (^ekme-ce. Tuzlit-ca. Qumh-ca. Yanm-ca, Derin-ce, Yeni-ce* kabi.

-cagiz (-cegiz). Bu qo'shimcha bundan oldingi **-ca (-ce)** qo'shimchasining sinonimi bo'lib, u bilan bir xil vazifani bajaradi,

ammo u kuchsizlik, o'jizlikni ifodalash nuqtai nazaridan tilde oldingisidan ko'ra ancha faol qo'llanadi: *kiz-cagiz, hayvan-cagiz, kadin-cagiz, cocuk-cagiz, adam-cagiz, kedi-cegiz, e\ cegiz, koy-cegiz* kabi.

-cak (-cek). Bu qo'shimcha ham kichraytirish va erkalash] qo'shimchalari bo'lib, bundan oldin ko'rib chiqilgan qo'shimchagi sinonim hisoblanadi. Biroq hozirgi kunda uning qo'llanishi sustlashib, uni faqat sanoqli so'zlardagina uchratish mumkin: *kuzu-cak, yumur-cak (yumnt-cak), yavru-cak, huyu-cek (biyyiik-cek), demin-cek, sevdı-cek (sevdik-cek)* kabi.

Turk tilida *kuzn-cug-i-m, sevdı-ceg-i-m* kabi misollarda ushbt qo'shimchani eski ko'rinishiga duch kelish mumkin. Qo'shimchani *oyun-cak* so'zida o'z vazifasidan tashqariga chiqib, predmet nomi yasovchi qo'shimchaga aylanganini ko'rish mumkin.

Bu qo'shimcha **-ca, -ce** o'rnida qo'llanuvchi shakl yasovchi] qo'shimcha vazifasini ham bajaradi: *ev-cek, aile-cek* kabi.

-cigaz (-cigez, -cugaz, -cugez). Bu qo'shimcha ham kichraytirish qo'shimchasidir, lekin kichraytirish va erkalash bilan bir qatorda ular o'jizlik, achinish, rahm- shafqat ma'nosini ham ifodj etadi- *hamm-cigaz. bey- cigez. yavrti- cugaz, kiz-cigaz, goz- cugez* kabi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunga kelib bu qo'shimchani] so'z yasash samaradorligi kuzatilmaydi va uni, asosan, turk tilini] shevalarida uchratish mumkin.

-ci (-ci, -cu, -cu, -ci, -ci, -cu, cu) qo'shimchasi turk tilidagi eng samarador otdan ot yasovchi qo'shimchalardan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi har qanday otning oxiriga kelib, kasb-hunar, mashg'ulot va ish bajaruvchi predmet otlari yasashdir: *av-ci, eski-cfi bek-qi, araba-ct, soz-cii, koltuk-cu, as-gi, cop-cii, oyun-cu, iifiriik-f*«, *simit-ci, sill-qu* kabi.

Ushbu qo'shimcha yordamida yasalgan kasb-hunar, mashg'ulot] nomlarini bildiruvchi otlarning oxiriga mavhum ot yasovchi **-lika -lik, -luk, -luk** qo'shimchasi qo'shilishi natijasida yangi otlar]

vasaladi: *av-ci-hk, kitap-ci-Uk, teneke-ci-lik, bek-ci-lik, pul-cu-luk* yogurt-cu-luk, goz-cii-luk, siit-cii-luk* kabi.

Bu qo'shimcha yordamida yasalgan va turk tilida qadimdan ishlatib kelingan **el-ci** ga o'xshash ba'zi so'zlar ham uchraydi (undosh uyg'unligi qoidasiga ko'ra ushbu so'zda // / dan keyin **-ci** qo'shimchasi kelishi, ya'ni **elci** bo'lishi kerak edi).

-ci qo'shimchasi yordamida predmet yoki narsa bilan bogiiq shaxsni ko'rsatuvchi otlar ham yasaladi: *yol-cu, goz-cii. diiniir-cii. kira-ct. dava-ct, konusma-a, yaban-ct* kabi.

-ci qo'shimchasi ot va ba'zi sifatlariga qo'shilib, shaxsning bir narsaga odatlanib qolganini bildiruvchi odat otlari yasaydi: *yalan-ci, saka-a, kavga-ci. dedikodu- cu. inal-gi, dalga-ci, dogm-cu, uyku-cu* kabi.

-ci qo'shimchasi bir tushuncha, fikr, ishonch-e'tiqod tarafdorini bildiruvchi otlar yasaydi: *akd-ci. tilkii-cu. milliyet-ci. Ueri-ci. halk-ci, Ataliirk-cü* kabi.

Turk tilida **-ci** qo'shimchasi bilan tugaydigan joy nomlari ham talaygina: *Bostanci. Kazanci. Avcdar. Yagalar, Akinmdat. Dogancdar, Tuzlukcu. Suteiler* kabi.

-ci qo'shimchasi hozirgi zamon turk adabiy tilidagi arab va fors tillaridan o'zlashgan bir talay so'zlarning turkchallashtirilishiga ham xizmat qilgan: *kitapci, kahveci* kabi.

a) **-ci** qo'shimchasi hozirgi zamon turk tilida forschadagi **-get, -kar** ish bajaruvchi ot qo'shimchasining o'rnini bosib kelmoqda: *bestekar - bested, sanalkar - sanatci, kimyager - kimyact. nagemer sarkici* kabi.

b) **-ci** qo'shimchasi forschadagi **-dar** egalik oti qo'shimchasining o'rnini ham bosib kelmoqda: *veznedar - vezneci. pisdar - oneü, kindar - kind* kabi.

v) **-ci** qo'shimchasi vositasida bir qancha arabcha so'z turkchallashtirilgan: *imtkallit - taklitci, mumessil - temsilci, miiddet - davaci, nasir ~ yayuna* kabi.

-cik (-cik, -cuk, -cuk). Ba'zi tilshunoslar tomonidan shakl yasovchi qo'shimcha ham deb qaralayotgan **-cik** qo'shimchasi turk tilida ko'p uchraydigan kichraytirish va erkalashni ifodalovchi otlar yasaydi. Qo'shimchani] bu ikki vazifasi ba'zan birgalikda. ba'zan

esa alohida namoyon bo'ladi: *baba-cik, MehmeUqik, kdprii-c*" *anne-cik, gol-ciik, kimse-cik, tosun-cuk, yavru-cuk, kuzu-cuk* kabi.

Bu qo'shimchani erkalash va mehrni ifodalash vazifasi muhim bo'lib, bu vazifani bajarayotganda unga egalik qo'shimchi qo'shilib keladi: *anne-cig-i-m, yavru - cug-u-m, kardes - cig-i-baba- cig-i-m, Ahmet- cig-i-m, Gontil - ciig-ii-m* kabi. Ko'rinib turganidek, singarmonizm qoidasiga ko'ra so'zlar oxiridagi tovushi unli tovush bilan boslanuvchi qo'shimcha qo'shilishi bilan g ga aylanadi.

Turk tilidagi ba'zi kasallik nomlari ham -cik qo'shimchasi vositasida yasalgan: *arpacik. kizamikecik, kabarcik, htyarcik* kabi.

Muhimi, bu qo'shimcha inson ismiga qo'shilganda, asos kichraytirish va erkalash ma'nosini ifodalaydi: *Osmanc Mehmetcik* (turk askari), *Aysecik* kabi.

Turk tilida joy nomlarining ba'zilarida ham kichraytirish va erkalashni ifodalovchi -cik qo'shimchasini uchratish mumkin *Ovacik, Qnarctk, Kalecik, Golcuk, Pazarctk* kabi.

Turk tilida -cik qo'shimchasi fransuzchadan arabchaga tarjima qilingan usmonlarcha kichraytirish va erkalash otlarining o'rnini bosadi: *granule - hubeybe = tanecik, corpushde = ciiseym cisimcik. cerverlet = muheyh = beyincik* kabi.

-cik qo'shimchasi sifatlarga qo'shilganda o'ta kichraytirish ma'nosini ifodalaydi va urg'usi tushadi: *kisa-ctk*. Xuddi shu yo'nalishda boshqa so'zlarga ham qo'shilib, kichraytiruvchi ma'nosi qo'llanadi: *ince-cik, ufa-ctk, kuqu-cük, dar-a-ctk. az-a-ctk, bir-i-ci mini-cik, hoppa-cik* kabi.

-c. Turk tilida juda kam ishlatiladigan qo'shimchalardan . olib uni faqat *ana-q, ata-c, baba-c* so'zlarida ko'rish mumkin. Bu qo'shimcha ham kuchaytiruvchi vazifasini bajaradi.

-das (-tas). Bu qo'shimcha ham juda samarador bo'lib, uning asosiy vazifasi birgalik, sheriklik, oidlik va bog'liqlikni ifodalovchi. Bu qo'shimchani hozirgi paytda faqat qalin shaklida saqlanib qolgan. Faqat ma'lum so'zlarda, cheklangan sohalarda ishlatiladi: *irk-tas, din-das, sir-das, arka-das, soy-das, meslek-tas,*

farm-das, yol-das, yiut-tas, vatan-das, sag-das, sinir-das, ad-das (qisqargan shakli *adaj*) kabi.

Bu qo'shimchani ingichka shakli ba'zi otlardagina kuzaliladi: *kardes. beydes. giindes* kabi.

-dink (-dirik, -duruk, -duruk) Ko'p ishlatilmaydigan qo'shimcha bo'lib, ayrim so'zlarga qo'shiladi va predmetning nomini bildiradi: *boyun-duruk, qigin-dirik, burun-duruk. egin-dirik* kabi.

—ez. Turk tilida bu qo'shimchani qalin shaklini birgina *ayat* so'zida uchratish mumkin (*beyaz* so'zi turkchaga arabchadan kirgan bolib, uning bu guruhga aloqasi yo'q).

-gil (-gil> -gel. - gul. -kil, -kil, -kul, -kul). Bu qo'shimcha turk tilida *kir-kil, iq-kil, dort-gul* so'zlarida uchraydi. Uning -gil shakli, ayniqsa, shevalarda oila, jamoa va xonadon nomlarini yasagan: *Ali-git. Veli-gil. Usakh-gil. Oguz-gil. annem-gil. babam-gil. ablam-gil* kabi. Shuningdek, hozirgi zamon turk tilida -gil (-ler) qo'shimchasi o'simlik va hayvonot dunyosiga oidlikni bildiruvchi ilmiy atamalarni ham yasagan: *qanqiqegigiller. buklagiller* va hok.

-gil qo'shimchasi -tar, -ler kabi ko'plik va hurmatni ifodalovchi shakl yasovchi qo'shimcha o'rnida keladi. Hozirgi zamon turk adabiy tilida faqat -*Jaz, -ler* ko'rinishi ishlatiladi. *Ali-ter, Veli-ler. annem-ler. ablam-lar* kabi.

-z. Juda kam uchraydigan bu qo'shimcha bog'liqlik va o'xshashlikni ifodalaydi: top-u-z.

-k (a), -k (e). O'xshatish ma'nosini ifodalovchi bu qo'shimcha ham bor-yo'g'i bir nechta so'zdgagina uchraydi: *top- u-k. bala-k, bebe-k* kabi.

-ka, -ge qo'shimchasi ham juda kam ishlatiladi. Uni bir xil ma'no anglatgan qadimgi turkiy tilga oid ikki so'zda ko'rish mumkin: *bas-ka, oz-ge*.

-I (-il, il). Eski turkchadagi *-sd, -sil* qo'shimchasidan yuza kelgan bu qo'shimcha rang, tusni ifodalaydi va kam uchraydi: *yes-i (yas-i-l), kiz-i-l*.

-la, -le. Turk tilida *kis-la* va *yay-la* so'zlaridagina uchraydig bu qo'shimcha eskirgan *kts-la-g, yay-ia-g* so'zlaridagi *la* qo'shimchasining keyinchalik qisqargan shaklidir. Bu yerdagi *-* qo'shimchasi aslida fe'l yasovchi qo'shimcha bo'lib, keyinchalik yasovchiga aylangan.

-hk, -Hk, -luk, - luk. Bu qo'shimcha turk tilida qadimdan ken qo'llanib kelinadi va uning asosiy vazifasi joy, predmet, n; mehnat quroli, mavhum otlar va sifatlar yasashdir:

a) bu qo'shimcha vositasida joy nomlari yasalgan va ul predmetning makonini yoki ular juda ko'p uchraydigan jo ifodalaydi: *tas-hk, zeytin-lik, aga-q-hk, ot-luk, orman-hk. odun-lu qimen-lik, ekin-lik, giil-liik, bos-luk, qukur-luk. komur-liik. mey lik, qop-liik* va hok. Bu guruhdagi ba'zi so'zlar joy nomlarig aylangan: *Arnavutluk. Ayvalik, Susurluk. Zeytinlik* kabi.

b) predmet, narsa otlari yasaydi va ular predmet bilan bog'liq bi asbob yoki ashyoni bildiradi: *bas-lik, korku-luk, kulak-hk, burun luk, giines-lik. goz-liik, gece-lik, kul-liik, seker-lik, soz-liik, pannak hk, qaydan-ltk* va hok.

c) ma'lum inson guruhi va jamoa nomlari yasaydi. Yang? yasalgan so'z otning boshlang'ich shaklda ifodalagan ma'nosi bila bog'liq bo'lgan guruh, jamoa ma'nosini ifodalaydi:

genq-lik - yoshlar, butun yoshlar, yoshlar jamoasi

IIIek-Gük - turkiar, turkiy xalqlar

insan-hk - insoniyat, butun insonlar

-lik otlari, xususan, turk adabiy tilining milliy lashuvida muni ahamiyat kasb etgan. Arabcha *-i* nisbiy sifat qo'shimchasi bilan u otlashtirgan *-at* jins qo'shimchasining birlashishi natijasida yuza kelgan *-iyyat*, ya'ni *iyet* qo'shimchasi bilan yasalgan otl (*asabiyet, insaniyet, milliyet. cinsiyet*) turkcha *-lik* qo'shimchasi mos keladi. *islamiyet - iniisliimanlik, ziddiyet - zitlk. katiyet kesinlik, sahsiyet - kisilik* kabi.

d) **-lik** qo'shimchasi ko'proq mavhum otlar yasaydi: *giizcl-lik, Vaktm-lik, hasta-ltk, genq-lik, iyi-lik, tiirk-luk, kotii-luk. kadm-ltk. aq-hk. durgun-luk, kiiquk-liik. beyaz-hk, bagh-ltk, yolcu-luk, temiz-lik* kabi. Bu qo'shimchaning sifatdan ot yasash vazifasi ham shu yerda yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek. bu qo'shimcha vosita-sida kasb-hunar, mansab-lavozim nomlari ham yasaladi: *qobon-iik. Jukior-luk, muhtar-lik, asker-lik. kitapqi-tik. balikqi-lik, bakan-lik. miidur-liik, albay-hk* kabi.

Qolaversa, bu qo'shimcha o'zining asosiy vazifasidan tashqari boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin. Albatta, bu har qanday qo'shimchaga xos holdir. Shunday ekan, yuqoridagi qo'shimcha ham shakli bir xil, ammo ma'nosi biroz farqli so'zlar yasay oladi: *insan-hk* (odamgarchilik) - *insan-hk* (insoniyat), *genq-lik* (yoshlik chog'i) - *genq-lik* (yoshlar, yoshlar guruhi), *gece-lik* (tungi kiyim. pijama) - *gece-lik* (*kechki. bir kechalik*). *giines-lik* (*quyoshli joy*) - *giines-lik* (*soyabon*), *pazar-lik* (*bozorlik mol*) - *pazar-Uk* (*savdolashish*) kabi.

Bu qo'shimchaning yana bir xususiyati kelishik qo'shimchasidan keyin kelib, ot yasay olishidir: *gun-de-lik, on-da-hk* kabi.

-Iik qo'shimchasi yordamida yasalgan so'zlarning aksariyati predmetning belgisini bildirmagani uchun sifat vazifasida kela olmaydi: *iyilik, beyazlik. dalginlik. genqlik* kabi.

-man (-men). Bu qo'shimcha ancha murakkab. Uning vositasida sifatlar, qolaversa, fe'llardan ham ot yasaladi. Mubolag'a va o'xshashlikni ifodalab, amalda kam qo'llanadigan ushbu qo'shimchani *koca-man, kara-man, ak-man, kole-men, kiiqii-men* (*kuqiik-men*), *kose-men* so'zlarida ko'rish mumkin. Turk tilidagi *az-man, gdq-men, sis-man* misollarida o'zakni tashkil etuvchi *gee* va *sis* so'zlari ot turkumiga oid. Lekin ushbu so'zlar *gocmek, sismek* ma'nosida kelganda fe'l hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu yasalishni otdan ot yasalishiga ham, fe'ldan ot yasalishiga ham kiiitish mumkin.

-sal. Bu qo'shimchani hozirgi zamon turk tilida otdan ot yasovchi qo'shimcha sifatida *kwn-sal* so'zida qo'rish mumkin.

-t lenglikni ifodalovchi bu qo'shimchani lurk tilidagi *yas-ia es-i-t* va fe'ldan yasalgan transport vositasini ifodalovchi *torn* so'zida ko'rish mumkin.

-ti, -ti, -tu, -tifi. Bu qo'shimcha tabiat hodisalariga taqlii so'zlarda uchraydi. Bu guruhdagi so'zlarning soni hozirgi zam^o turk tilida talaygina: *panl-ti, zangir-tt, sangir-tt, guriil-tii, c/v//kiiit-tUt suil-ti, gumbur-tii, isil-ti, patu-ti, fokur-tu* kabi.

Fe'ldan ot yasalishi

Turk tilida ko'pchilik otlar fe'llardan yasaladi. Fe'ldan yasovchi qo'shimchalar quyidagilardir:

-9 (-e). Ushbu fe'ldan ot yasovchi qo'shimchani hozirgi zamc turk tilida faqat bir-ikki so'zdagina kuzatish mumkin: *yar-a, sap-a, ot-e, oy-a* kabi.

-agan (-egen). Qo'llanilishi cheklangan bu qo'shimcha ham orttirish, davomiylik, mubolag'ani ifodalaydi: *ol-agan, vur-agan, gez-egen. yal-agan, kes-egen, qal-ajgan* kabi. Ushbu qo'shimcha ilgari - *agan, - egen* deb talaffuz qilingan: *ol-agan, gez-egen* kabi. Bu qo'shimcha vositasida yasalgan so'zlardan ba'zilarini otlashgan sifatlar jumlasiga ham kiritish mumkin. Xuddi shu qo'shimcha (*-ag'on*) yordamida o'zbek tilida ham fe'llardan otlashgan sifatlar yasalgan: *bilag'on, topug'on, chopag'on* va hok.

-ak (-ek). Ko'p ishlatiladigan bu qo'shimcha fe'l ta'sirida qolgan turli predmet nomlarini yasaydi: *don-ek, kac-ak, dur-ak, sanc-ak, yed-ek, tapm-ak, dayan-ak, kork-ak. kon-ak, bann-ak, stir-ek, at-ak, yat-ak, biq-ak, okun-ak* kabi.

-amak (-emek). Bu qo'shimcha vositasida turk tilida fe'ldan bor-yo'g'i uchta so'z yasagan: *kaq-amak, tut-amak, bas-amak.*

-anak (-enek). Bu yasovchi qo'shimchani ham faqat eskirgan *sag-anak, bog-anak, gor-enek, gel-enek, deg-enek (degnek). yig-anak, tak-anak* so'zlarida kuzatish mumkin.

-c. Bu qo'shimcha vositasida ham turk tilida fe'ldan ot va sifatlar yasalgan. U faqat *-n* bilan tugagan fe'l negizlariga qo'shilib ot yasaydi: *kiskan-d, korkun-d, inan-q, igren-q, guliin-q.*

sevin-q, vtan-q, giiven-q, odtin-q, kivan-q, kakm-q, kazan-q. ilen-q kabi. Birgina *tika-q* so'zi bu yerda istisnoni tashkil etadi.

-ga (-ge). Hozirgi turk tilida bu qo'shimcha bilan yasalgan otlar kam uchraydi: *bil-ge, dal-ga, yon-ga, bol-ge, supiiir-ge. kavur-ga* kabi.

-gac (-geci -kac, -kec). Bu qo'shimcha yuqorida keltirilgan *-gig (~8^{ic}* ~8^U?)* qo'shimchasining sinonimi bo'lib, turk tilida bir nechta so'zdagina uchraydi: *yiiz-geg, siiz-geg. kis-kag. uian-gag* kabi.

-gi (-gi> -gu* -gu\ -ki, -ki, -ku, -kii). Bu qo'shimcha vositasida ham turk tilida azaldan, asosan, bir bo'g'inli fe'llardan otlar yasalgan: *say-gi. d-gi, duy-gu, biq-kt, sar-gt, bil-gi, bur-gu, has-ki, cal-gi. sev-gi, sor-gu, at-fu, ser-gi, ver-gi, gdr-gii, iq-ki, qiz-gi, uy-ku (uyu-ku), kes-ki* va hok.

-gin (-gin, -gun, -gun, -kin, -kin, -kun, -kun). Tilda faol qo'llanilayotgan bu qo'shimcha ham, asosan, bir bo'g'inli fe'llarga qo'shilib, otlar va sifatlar yasaydi va kuchaytirish, orttirish, mubolag'a ma'nosini ifodalaydi: *bas-kin, qap-kin, hil-gin, siir-giin. yetis-kin. tut-kun* kabi.

-g*c (gl^c» -g^{u9}» -gu?)- Bu qo'shimcha yordamida yasalgan otlar turk tilida kamchilikni tashkil etadi. Kuchaytirishni ifodalovchi bu qo'shimchani *dal-gig, bd-gig, ba\$lan-gig* so'zlarida uchratish mumkin.

-l (-i, -u, -u). Hozirgi zamon turk tilida fe'ldan ot va ba'zan otlashgan sifatlar yasovchi faol qo'shimchaga aylangan, nisbatan yangi qo'shimchadir. Uning eski turkchadagi shakli farqli bo'lgan. Misollar: *yaz-i, qat-t. tart-i. qek-i, sik-i. yal-i. say-i. kork-u, yap-i, bat-i, yak i, dog-u, ayr-t (ayir-i). sas-i, diz-i, dl-ii, kos-u, kok-u, dil-ü, olq-ii, astr-i, dikil-i, ekil-i. takil-i, gvmiil-u, fnikiit-ii, astl-i. seril-i* kabi.

-ici (-ici, -ucu, -ucu) Bu qo'shimcha fe'ldan ot, kasb-hunar nomlari, ba'zan esa sifatlar yasaydi: *al-ta, oyala-y-ta. gor-ücü, yap-Kt, ver-ici, ku-ucu, yuz-iicü, sat-m. besle-y-ici, oku-y-ucu. donditr-acu, kal-ict, dinle-y-ici, uq-ucu, dusutulur-iicü* kabi.

-k (ka), -k (ke). Fe'ldan ot yasovchi eng faol qo'shimcha bo'lib, harakatdan yuzaga kelgan yoki harakatni bajargan turli

predmet nomlarini yasaydi: *del-i-k, tiktir-ii-k, dus-ii-k, saq-i-k. ya i-k. burus-u-k, qatla-k, bulas-i-k, iifiir-ii-k, ele-k, dile-k, dose-k kab -m (-im)*. Bu qo'shimcha fe'lga aloqador turli predmetlarni nomini yasaydi: *al-i-m, gec-i-m, kuc-a-m, ver-i-m, giy-i-m. tcik-t-sat-i-m, biq-i-m. 61-ii-m, uqur-u-m. dog-u-m. yud-u-m (yui-u-m kabi.*

-mik (-mik, -muk, тйк). Hozirgi zamon turk tili qo'llanayotgan bu ot yasovchi qo'shimcha yordamida fe'l uchtagina ot yasalgani bizga ma'lum: *kiy-mik, U-mik, kus-muk.*

-n (-in). Bu qo'shimcha ham turk tilidagi juda fa yasovchilardan bin hisoblanadi. Qadimgi turk tilida ham qo'llang bu qo'shimcha hozirgi zamon turk tilida muhim o'rin tutadi: *tiit-ti-yig-i-n, ak-i-n, ek-i-n, biq-i-n, tala-n, gei-i-n, kos-u-n kabi.*

-t. Ilgari bu qo'shimcha bilan juda ko'p otlar yasalgan lekin hozirgi zamon turk tilida bu qo'shimcha bilan so yasalmaydi: *og-ii-t. ayir-t, um-u-t, geq-i-t. kuru-t, yogur-t kab*

-ti (-ti, -tu, -tu). Fe'ldan ot yasovchi faol qo'shimchalardan biri bo'lib, asosan, «n» bilan tugagan fe'l o'zaklariga qo'shiladigan *aktn-ti, kesin-ti, sikm-ti, dokiin-tii. sa/lan-ti, ilin-ti, iizun-tii, bu/angirin-ti, kurun-tu. supriin-tu, qalkan-ti. silkin-ti. bozun-tu, ozen-oden-ti. qokiin-tu. goriin-tii kabi.*

Shu bilan birga bu qo'shimcha, kamdan-kam hollar o'zagi " o" bilan tugamagan ba'zi fe'llarga ham qo'shilib yasaydi: *karal-U, ogiir-tu. sizil-ti, morar-ti, bagir-tt. kurarktzar-U, qagir-ti, iirper-ti, belir-ti, dogrul-tu kabi.*

Shuningdek, turk tilida fe'ldan ot yasovchi **-aq (-"** qo'shimchasi bilan *gul-eq. tik-ac, -em* qo'shimchasi bilan *tut-abur-am. -al (-el)* qo'shimchasi bilan *qat-al* so'zi, **-alak >-ele** qo'shimchasi bilan *yat-alak, qok-elek, as-alak, sas-alak* so'zlari, **an (-eri)** qo'shimchasi yordamida *uq-ari, gdq-eri, -arak (-ere)* qo'shimchasi yordamida *tut-arak* so'zi, **-amac (-em)** qo'shimchasi bilan *don-emeq* so'zi, **-mac (-mec)** qo'shimchasi bilan *bula-maq. bazla-maq, (ut-maq, kiy-maq, yut-maq, qtgirt-maq, -b (-bee)* qo'shimchasi yordamida *dolan-baq (dohun-baq), saklan-' (saklam-baq), -sal (-sel)* qo'shimchasi bilan birgina *uy-sal* so'

^man (-men) qo'shimchasi² yordamida *az-man, sis-man, gaq-men* so'zlariga **_sak (-sek)** qo'shimchasi bilan birgina *lut-sak* so'zi, **-pak (-pek)** qo'shimchasi yordamida birgina *kay-pak* so'zi, **-van (-ven)** qo'shimchasi bilan *yay-van* so'zi, **-mur (-mur)** qo'shimchasi bilan *vaq-mur* so'zi, **-ca (-ce)** qo'shimchasi bilan *eglen-ce, diisi'm-ce sakm-ca. guven-ce* so'zlari, **-cama (-ceme)** qo'shimchasi bilan *siiriin-ceme* so'zi, **-maca (-mece)** qo'shimchasi bilan *bul-maca. biddur-ntaca. bil-mece, kos-maca, kostur-maca, at-maca* kabi so'zlar yasalgan.

Turk tilida harakat nomidan yasalgan ba'zi otlar ham bor. Masalan: *opu-cuk (opiis-ciik), giilii-cuk (giilus-ciik)* kabi.

SIFAT (SIFAT)

Sifat va uning turlari (sifat ve qesitleri)

Sifatlar turk tilshunosligida ko'pincha otning bir turi o'laroq ko'rib chiqiladi, ya'ni sifatlariga predmetning belgi nomi deya qaraladi. Masalan: *agaq, ev, qiqek* kabi *kirmw, biyyuk, giizel* so'zlari ham bir belgi nomlari sanaladi: *giizel ev, biyyuk agaq, kirmiv qiqek* kabi.

Turk tilida sifatlar nutqda ot vazifasida ham keladi (otlashgan sifatlar):

Kiikiik kiiklugunu hissetmeli (Kichik kichikligini his qilishi kerak).

Su guzele bir bakin! (Shu go 'zalga bir qarang).

Okuma giizel bir seydir (O qish qanday yaxshi) kabi.

Demak, bu yerda so'zning yakka holda sifat bo'lishi emas, sifat kabi qo'llanishi xususida bahs yuritish kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, turk tilshunosligida sifatning faqat aniqlovchi vazifasini bajarayotganda haqiqiy sifat bo'la olishi, yakka holda uning haqiqiy sifat hisoblanmasligi, uning ot bo'lishi ta'kidlanadi.

¹ Hozirgi zamon turk tilidagi *seg-men, say-man. ogret-men* so'zlari ham «hbu qo'shimcha yordamida yasalgan. Shuningdek, nutqda kam qo'llanuvchi *delif-men* so'zida ham bu qo'shimchani o'z ta'kidlanadi.

Shu bois turk tilida sifatlar otlar kabi qollana oladi va predmet ning belgisini bildirgan har qanday ot sifat kabi qollana oladi.

Shundan kelib chiqqan holda, turk olimlari har sifatni bir belgini ifodalovchi har otni esa bir sifat deb qaraydilar, ammo bun har qanday otning sifat bo'la olmasligi ta'kidlanadi³.

Ma'lumki, sifat predmetnig ichki belgisi yoki tashqi belgisi bildiradi. Sifatning ichki belgisi unga yopishgan, ajralmas bel xususiyatdir, tashqi belgi esa unga bog'liq bo'lmagan ikkilamc xususiyatdir. Masalan, *beyaz elbise*, *bu elbise* kabi sifat birikmalar dagi *beyaz* va *bu* ishora (ko'rsatish) sifatleri o'sha *elbise* (*kiyin kostyum*, *ayolar ko'ylagi*) ning belgisidir, lekin *beyaz elbise* nin ichki, ajralmas bir qismi ichki sifatdir va *bu elbise* dagi *bu* unin ajralmas qismi emas. Chunki *o elbise* deganda *elbise* nin so'zlovchidan ancha uzoqda ekanligi anglashiladi, ya'ni bu unin tashqi belgisi hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan sifatlar ikkiga ajratiladi: asl sifatlar (*w»i landirma sifatleri*), nisbiy sifatlar (*nitelendirme sifatleri*). Quyi ularni batafsil ko'rib chiqamiz.

¹ Otlar sintaksis qoidalariga ko'ra, asosan, ega va to'ldiruvchi. ba'zan qaratqichli aniqlovchi vazifasini bajaradi. Sifatlar morfologik nuqtai nazardan otlardan hech qanday farq qilmaydi (*III -mtrak, -msi, -si, -at, -sal* afllksi olgan so'zlar bundan mustasno). Shuningdek, turk tilida arabchadan o'zlashgan *tarilii, milli* singari sifatlar ham turk tilida istisno so'zlar hisoblanadi.

Turk tilidagi ot turkumlari tahlil ctilyotganda ot va sifatlar orasidag .o'z yasalishi va sintaktik munosabatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Otlar va sifatlarni kontekst ichida alohida ajratish mumkin. Boshqa so'zlar qurshovisiz, ko'p hol- larda 01 turkumiga oid so'zning ot yoki sifatligini ajratish mumkin emas. Boshqa tomondan, sifat o'laroq ko'p qo'llanadigan bir so'z harakal tar/mi ham ifodalab kelishi mumkin. Masalan: *iyi qocuk iyi okuyor* (yaxshi bola yaxshi o'qiydi). Bu gapdagi *iyi* (yaxshi) so'zi ham sifat, ham ravishdir.

Yuqorida kcllirilganlardan kelib chiqib, so'zlar ot va sifat (ba'zan ravish) o'laroq turkumga ajratilyotganda quyidagi murakkab mezonlarga amal qilish kerak bo'ladi. bu: 1. Morfologik ko'rsatkichlar: 2. Semantika (qaysi so'z lurkumi sifatida ko'proq qo'llanishi); 3. Sintaktik qo'llanishi (izofa yoki izoi'a emashk); 4. Turk tilida so -iashuvchilarmng jonli til lafakkuri

Asl sifatlar (*vasiflandirma sifatleri*)

Asl sifatlar turk tilshunosligida *vasiflandirma sifatleri* yoki *va- siflama sifatleri* deyiladi. Asl sifatlar predmetning ichki belgi (xususiyat) larini ko'rsatadi, shu sababdan ularning soni ko'pchilikni tashkil etadi: *beyaz (elbise)*, *altin (yiiziik)*. *dogru (soz)*, *ac (hayvan)*. *eski (hah)*, *cetin (ceviz)*, *gegen (ay)*, *demir (kapi)*, *sayisiz (fayda)* va hok.

Asl sifatlar ikkiga ajratiladi: predmetning belgisini ko'rsatuvi si- fatlar va harakatning belgisini ko'rsatuvchi sifatlar.

Predmetning belgilari doimiydir: *beyaz*, *eski*, *pasli*, *dogru* va *hok*.

Harakat belgilari doimiy emas (*hizlt*, *qahuk*, *yavas*). Ular pred- metlarning vaqtinchalik harakat belgisini ifodalaydi. Harakatni ifoda etuvchi boshqa so'zlar (ravishlar) ham bor (*cabuk*, *hizli*, *kosucu*). Ular doimiy asl sifatlardir.

Harakat sifatleri turk tilshunosligida *partisipler* ham deyiladi.

Nisbiy sifatlar (*nitelendirme sifatleri*)

Nisbiy sifatlar turk tilshunosligida *nitelendirme sifatleri* yoki *niteleme sifatleri* deyiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, nisbiy sifatlar predmetlarning ichki belgisini emas, faqat uning tashqi xossasini bildiradi. Predmetlarning tashqi belgilari ularning joyi, soni, so'roq shakllari, noaniqlik holatlaridir. Nisbiy sifatlar shakllariga ko'ra uchga bo'linadi: *ko'rsatish sifatiari (isaret sifatleri)*, *so'roq sifatleri (soru sifatleri)*, *noaniq sifatlar (belirsizlik sifatleri)*,

Ko'rsatish sifatleri (isaret sifatleri). Ko'rsatish sifatleri pred- metlarning o'rnini ko'rsatuvchi, ishora etuvchi so'zlardir. Ularning shakli ko'rsatish olmoshlari bilan bir xil: *bu*, *su*, *o*, *ol*, *sol*, *isbu*.

Hozirgi zamon turk tilida ko'rsatish sifatleri *bu*, *su*, *o* dir.

"01" va *"so!"* eskirgan shakllar bo'lib, eski turkiy matnlarda uchraydi. Hozirgi turk tilidagi *"o"* ko'rsatish sifati eski *"V;/"* dan yuzaga kelgan, *"sol"* ko'rsatish sifati esa eski *"u"* ko'rsatish ko'makchisi bilan *"ol"* olmoshining birikuvidan tashkil topgan *"U40I"* dan yuzaga kelgan.

Isbu ko'rsatish sifati turk tilida kam qo'llanadi. Bu ko'rsatish sifati "*bu*" ning kuchaytirilgan shaklidir, ya'ni "*us*" va "*bu*" da yuzaga kelgan. Oldin "*usbu*", keyinchalik "*isbu*" shakliga kirgan. Bu "*i*" lashuv hodisasi turk tilidagi «*usda*» ning «*iste*» (o'zbekchas «mana») ga aylanishi natijasida ro'y bergan.

Sifatlar ko'plik qo'shimchasi olmaydi. Bu yerda shun ta'kidlash joizki, turk tilidagi *bunlar*, *suntar* va *onlar* so'zlar ko'rsatish sifati emas, ko'rsatish olmoshi bo'lgan *bu*, *su* va *o* nin ko'plik shakllaridir.

So'roq sifatlari (soru sifatlari). So'roq sifatlari predmetlarni so'roq shaklida ifodalovchi sifatlar bo'lib, ular quyidagilardir: *kac hangi*, *ne*, *nasil*, *nice*, *nerede* va hok.

Kac so'roq sifati predmetning miqdorini so'roq shaklida ifodalaydi: *kac (kisi)*, *kac (giin)*, *kac (tiirlii)*, *kac (kurus)* kabi.

Hangi so'roq sifati predmetning qaysi predmet ekanligini, baxtdagi predmetlar ichidan aynan qaysinisi ekanligini so'rovchi sifatlardir: *hangi (giin)*, *hangi (kizk hangi (is))* kabi.

Ne so'roq sifati predmetning holatini so'rovchi sifat bo'lib *hangi* ma'nosida keladi: *ne (giin)*, *ne (zatnan)*. *ne (vakit)*, *ne (is)* kabi.

Ba'zan esa so'roq ma'nosida kuchaytiruvni ifodalab keladi: *n (giizel)*, *ne (cabuk)*, *ne (mutlu)*, *ne (iyi)* kabi. Bu yerda *ne* so'roq sifatida *nasil vacok* ifodasi bor.

Undan tashqari *ne* qatnashgan birikmalar ham so'roq sifati o'laroq qo'llanadi: *ne kadar (insan)*. *ne gibi (is)* kabi. Bu yerda ham so'roq ma'nosida oslida kuchaytiruv ifodalanadi: *ne kadar (giizel)*. *ne kadar (cabuk)* kabi. Albatta, bu yerda *ne* sifat emas, so'roq omoshidir.

Nasil so'roq sifati predmetning mohiyatini so'rovchi, *ne* va *asil* so'zlarining qo'shilishidan yuzaga kelgan so'roq sifatidir: *nasil (adam)*, *nasil (yer)* kabi.

Nice so'roq sifati qadimdan bugungacha yetib kelgan, hozirda *kac* va *hangi* ma'nosida, asosan, shevalarda saqlanib qolgan so'zdir: *nice yd (kaq yd)*, *nice Ahmet (hangi Ahmet)* kabi.

Nice so'roq sifati hozirgi paytda turk adabiy tilida juda kam qo'llanadigan belgisiz sifat holiga kelgan: *nice yiliar*, *nice dernier*,

nice mutlu yiliar kabi. Hatto bunday qollanishda «ko'p». «qancha qancha» ma'nosini tashuvchi tilak ham ifodalanadi: *nice bayramlar*, *nice mutlu yillara* kabi.

Nerede so'roq sifati predmetning joyi, o'rnini so'rash uchun qo'llanadi: *nerede (yol)*. *nerede (kiz)* kabi. Bu so'roq sifatining o'rin-payt kelishigi ko'rinishi oidlik shaklida ekanligi ma'lum.

Noaniq sifatlar (helirsizlik sifatlari). Belgisiz sifatlar predmetlarni belgisiz shaklda ifodalovchi sifatlardir: *bir (gun)*, *her (giin)* kabi. Ular predmetlarning soni, miqdorini, bir necha predmet ichidan kaysinisi ekanligini taxminan bildiradi. Turk tilidagi belgisiz (noaniq) sifatlar quyidagilardir: *bir*, *biitiin*, *baska*, *bazi*, *her*, *kimi*, *cogu*, *cok*, *hic*, *falan*, *filan*, *falanca*, *filanca*, *azjazla* kabi.

Ko'rinib turibdiki, bularning orasida qoliplashgan egalik shakllari ham bor: *kimi (insanlar)*, *cogu (zatnan)* kabi. Undan tashqari *iiteki*, *beriki*, *simdiki*, *buradaki*, *bizdeki* kabi oidlik shakllari ham bu guruhga ilova qilinishi mumkin: *bteki* (i\$), *beriki* (cv) kabi. Ularda belgisizlik (noma'lumlik) dan ko'ra ko'proq aniqlik ma'nosi borgan o'xshaydi. Faqat noma'lumlik va aniqlik sifatlarining turlari o'laroq ayni kategoriyaga kiradi. Shu bois ularning barchasini noma'lumlik (belgisiz) sifatlari deymiz. Ushbu guruhga turk tilidagi *obiir* va *diger* sifatlarni ham kiritgan ma'qul.

Sifatlarning yasalishi

Turk tilida sifat yasovchi qo'shimchalar ot yasovchi qo'shimchalar guruhiga kiritiladi, lekin biz ularni alohida guruh holida ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Bular, asosan, quyidagilardir:

-cik (-cik, -cuk, -cuk). Ba'zi tilshunoslar tomonidan shakl yasovchi qo'shimcha ham deb qaralayotgan **-cik** qo'shimchasi turk tilida ko'p uchraydigan kichraytirish va erkalashni ifodalovchi otlar yasash bilan birga bir qator sifatlar ham yasaydi. Bu qo'shimcha so'zlarga qo'shib o'zidan oldin kelgan undoshni tushishiga sabab bo'ladi. Bunda, odatda sifatlardan sifatlar yasaladi: *ufa-cik*

(*tijak-cik*), *kiicii-cuk* (*kiiciik-cük*). *yumusa-cik* (*yumusak-cik*) kabi. Ba'zan esa u o'zidan oldin bir vokal (unli) orttiradi: *az-i-ctm az-a-cik*, *dar-a-cik* kabi.

Bu qo'shimchani qo'llashning yana bir o'ziga xos shakli uning *-ca*, *-ce*, *-ca*, *-ce* qo'shimchasidan keyin kelishidir: *usul-ca-cik*, *yavas-ca-cik*, *demin-ce-cik*, *ufa-ca-cik* kabi.

Bu qo'shimcha hozirda vokal garmoniyasiga bog'liq o'laroq to'rt shaklga ega. Ularda *-c* qo'llanganda talaffuz qo'pol ("quloqni tirmalovchi") bo'lgani uchun, deyarli qo'llanmaydi. Uning erkalash va mehr-sevgini ifodalash vazifasi juda samarador bo'lib, bu vazifasi bilan unga ko'pincha egalik qo'shimchasi qo'shilib juda ko'p otlar yasalishini "Ot" bobida ko'rib chiqdik.

-cik qo'shimchasi sifatlarga qo'shilganda o'ta kichraytirish ma'nosini ifodalaydi va urg'usi tushadi: *kisa-ak*, *ince-cik*. Xuddi shu yo'nalishda boshqa so'zlarga ham qo'shilib, kichraytiruv ma'nosida qo'llanadi: *uja-ak*, *kiicii-cuk*, *dar-a-cik*, *az-a-cik*, *mini-cik* kabi.

-eil (*-cil*, *-cul*, *-cul*, *-cil*, *-cul*, *-cul*). Bu qo'shimcha ham juda kam ishlatiladi va o'xshatish, mubolag'ani ifodalaydi: *ev-cil*, *ben-cil*, *bahk-qd*, *tavsan-cd*, *oliim-cul*, *kir-cd*, *ak-cd*, *insan-cd*, *av-cd*, *adam-cd* kabi.

-к (*ka*), *-k* (*ke*). Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimcha bo'lib, harakatdan yuzaga kelgan yoki harakat belgisini ifodalovchi sifatlarni yasaydi: *ac-i-k*, *yat-i-k*, *sac-i-k*, *yan-i-k*. *hiirus-u-k*. *diis-ii-k*. *son-ii-k*. *yuyarla-k*, *cek-i-k*, *curii-k*, *cok-u-k*, *yuiii-k*, *biiku-k*. *donii-k* kabi.

Shuningdek, turk tilida ushbu qo'shimcha bilan yasalgan otlarni ham uchratish mumkin: *del-i-k*, *tikiir-u-k*, *yan-i-k*, *catla-k*, *bulas-i-k*, *ijur-ii-k*, *ele-k*, *dile-k*, *dose-k* kabi.

-gin (*-gin*, *-gun*, *-gun*, *-kin*, *-kin*, *-kun*, *-kun*). Tilda faol qo'llanilayotgan bu qo'shimcha ham, asosan, bir bo'g'inli fe'llarga qo'shilib sifatlarni yasaydi. Bunday sifatlarni kuchaytirish, orttirish, mubolag'a ma'nolarini ifodalaydi: *dal-gm*, *sal-gm*, *ol-gun*, *duz-giin*, *az-gin*, *bay-gin*, *dur-gun*, *bas-km*, *dar-gin*, *gir-gin*, *iiz-gun*, *kir-gin*. *as-kin*, *yetis-kin*, *gec-kin*, *kes-kin*, *cos-kun*, *kiis-kiin*, *diis-kiin*, *pis-kin*, *alis-ktm*, *eris-kin* kabi. Shuningdek, turk tilida ushbu

qo'shimcha vositasida qator otlashgan sifatlarni ham yasalgan: *bas-lun*, *cap-kin*, *bil-gin*. *siir-giin*, *tul-kun* kabi.

-gan (*-gen*, *-kan*, *-ken*). Bu qo'shimcha bir bo'g'inli fe'llarga qo'shilmaydi: *alm-gan*, *sokitl-gan*. *yapis-kan*. *sikil-gan*. *ekin-gen*. *sirit-kan*. *konus-kan*, *giris-ken*, *unut-kan*, *davits-ken*, *somurt-kan*, *tlog">' -H^{an} ^au* -

-I. Hozirgi zamon turk tilida bu qo'shimchani faqat *isi-l* so'zida uchratish mumkin. Aslida bu ham turk tilidagi *civi-t*. *sin-l*, *pari-l*. *pin-l* so'zlari kabi tabiat hodisalariga taqlid bo'lishi mumkin. Qadimgi turkchada bu qo'shimcha *ina-l*, *tiike-l* kabi so'zlarda bo'lgan.

-II. Bu qo'shimchani samaradorlik darajasi shakl yasovchi qo'shimchalarga yaqin bo'lib, vokal qoidasiga ko'ra 4 ko'rinishga ega: *-ii*, *-li*, *-lu*, *-li*. Qo'shimchani vazifasi, asosan, sifat o'mida keluvchi otlarni yasashdir. Shuning uchun uni sifat qo'shimchasi deb yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yo'l bilan yasalgan ba'zi so'zlar ot xususiyatiga ega bo'ladi va egalik yoki tegishlilik ma'nolarini ifodalaydi.

Egalikni ifodalaganda: *bas-li*, *kilit-li*, *toz-lu*, *kan-li*, *diisiince-li*, *kopiik-lu*, *boya-ll*, *sti-lu*, *iiziintii-lii*, *giines-li*, *korku-lu*, *oliim-lii* kabi.

Tegishlilik, qarashlilik (bog'liqlik)ni ifodalaganda: *ankara-h*, *lise-li*, *koy-lii*, *amerika-li*, *Karahan-h*, *dogu-lu*, *Osman-li*, *istanhid-lu*, *sehir-li*, *Selcuk-lu*, *yunan-lt* kabi.

Ilgari bu qo'shimchani faqat yumaloq shakllari bo'lgan. Shuning uchun ba'zi misollarda o'sha dawning izlarini ko'rish mumkin: *devlet-lii*, *has met-lit*, *izzet-lii* kabi.

-si (*-si*, *-su*, *-s0*). Bu qo'shimcha turk tilida faqat bir nechta so'gagina qo'shilib, o'xshashlik ma'nosini ifodalaydi: *kadin-я*, *si-fut-si*, *zampir-si*, *cocuk-su* kabi.

-msi (*-msi*, *-msu*, *-msu*). Bu qo'shimcha ham o'xshashlik, rang va mazani ifoda etib, ko'p ishlatiladi: *agac-i-msi*, *lath- msi*, *mor-u-msu*, *tepe- msi*, *act- msi*, *hrmizi- msi*, *eksi- msi*, *yesil- i-msi*, *duvar-i-insi* kabi.

-mtirak. Bu qo'shimcha ham o'xshashlik ma'nosini ifodalaydi. <-kin uning qo'llanish sohasi oldingisidan torroq. Undosh bilan ^{tu}gagan o'zaklarga qo'shilgan ushbu qo'shimchadan oldin ayiruvchi ' (*i.uji*) unlisi orttiriladi. Ushbu qo'shimcha yordamida maza-ta'm

va rangni ifodalovchi sifatlar yasaladi: *act- mtirak, beyaz- i-mtir kirmizi -mtirak, eksi- mtirak, sari- mtirak, yesil- i- mtirak* kabi.

-rak (-rek). Turk tilida kam uchraydigan bu qo'shimch qiyoslovchi qo'shimcha bo'lib, u ko'proq kuchaytiruv ma'nosi ifodalaydi: *ufa-rak (ufak-rak), kucü-rek fkiiciik-rek). yeg-rek ("dah iyi"*, ya'ni «yanada yaxshi») kabi.

-li (-li, -lu, -lii). Juft holda ishlatiluvchi bu qo'shimch mavjudlik ma'nosini ifodalaydi. Bu qo'shimcha turk tilida "va ma'nosida qo'llanadi. U hozirgi paytda -li, -li qo'shimchasi⁴ bil aralashib ketgan, lekin ilgari -lig, -lig sifat qo'shimchasi ko'rinishi bo'lgan bu qo'shimcha -li, -li edi. U sifatlarga qo'shilganda «v ma'nosi yaqqol namoyon bo'ladi: /77- ti, ufak-li, gece- li, giindiiz-1 ana- li, baba- li, ince- li, kalin- li, sag- It, soi- tu, biyuk- lii, kite lii kabi.

-siz (-siz, -suz, -suz) qo'shimchasi -li,-li,-lu,- qo'shimchasining bo'lishsiz shaklidir. Shu boisdan | grammatikasida manfiy ot yoki manfiy sifat qo'shimchalari deb ha ataladi. -h qo'shimchasi, asosan, biron bir predmetda bi : nursaning mavjudligini, -siz qo'shimchasi esa mavjud emaslig : bildiradi: *tas-siz, ev-siz, kol-suz, ana-siz, is-siz, gorgii-suz, corap-s. sit-suz, dlcii-siiz, icki-s'iZy duygu-suz, siit-siiz* kabi. U kamdan-ka hollarda egalik qo'shimchasidan keyin kelishi mumkin: *annem-s' babam-siz* kabi.

-ki qo'shimchasi oidlikni ifodalaydi. Uning asosiy vazifa bog'liqlik, oidlik ma'nosini ifodalash bo'lib, asosan, sifat yo' olmosh yasaydi: *simdi-ki, once-ki, ote-ki, dun-ku, demin-ki, sonr ki, beri-ki, bttgun-kii, karsi-ki, aksam-ki, yann-ki, sabah-ki, asag ki, evvel-ki, gece-ki* kabi.

Ko'rinib turibdiki, bu qo'shimcha ko'proq joy va payt nomlari bildiruvchi so'zlarga ko'shiladi va ularga kamdan-kam due kelinadi. Shuningdek, -ki qo'shimchasi -da, -de, -ta, -te kelishi qo'shimchalaridan keyin qo'shiladi. Uning ko'p uchraydig' ko'rinishi shunday: *bende-ki, yerde-ki, asagtda-ki, sende-ki, gdkt ki, yitkartda-ki, allla-ki, masada-ki, kitapta-ki, iistte-ki, evde-k iiniversitede-ki* kabi.

⁴ -h (-li, -lu, -lu) qosn.rpchasi biron bir narsaning mavjudligini bildiradi.

Keyingi uchinchisi qaratqich kelishigi qo'shimchalari (-in,-m, -iin.-un, -nin,-nin, -nun, -nun) dan keyin qo'llangan ko'rinishidir: *henim-ki, yolnmun-ki, evin-ki, senin-ki, adamtn-ki, cicegin- ki, oiuin-ki, agactn-ki, arkadastmtn-ki, komsunun-ki. siiyinn-ki, ogltt nit ti-ki* kabi.

-ki qo'shimchasi ham so'z yasovchi, ham shakl yasovchi qo'shimcha vazifasini bajaradi. Uch ko'rinishning birinchisida qo'shimcha to'g'ridan to'g'ri so'z (ot)ga qo'shilgani uchun so'z yasovchi qo'shimchadir, ammo keyingi ikki ko'rinishda so'z yasovchidan keyin kelgani uchun shakl yasovchi qo'shimcha xarakteriga ega deyish mumkin. Ilgari qo'shimchaning qalin va ingichka varianllari bo'lgan, Hozirda ham ba'zi shevalarda qalin variantini uchratish mumkin: *yann-ki, onun-ki, burada-ki* kabi. Keyinchalik bu qo'shimchaning qalin varianti yo'q bo'lib ketgan va fakal ingichka -ki variant! qolgan. Shu bois bugungi kunda -ki qo'shimchasi turkcha singarmonizm qonunidagi istisnolardan biri hisoblanadi.

So'nggi paytlarda ba'zi-ba'zida -ki qo'shimchasining -ku ko'rimshini ham uchratish mumkin: *diin-ku, bugiin-kü, gdmilliin-ku* kabi.

-Mi (-йк, -luk, -luk). Otdan ot yasovchi ushbu qo'shimcha turk tilida otdan sifatlar ham yasaydi: *kira-hk, ytl-ltk, oda-lik' dolma-lik, kts-hk, hedrye-lik, odim-hk, yudum-luk, kesim-lik, gitn-luk, yemek-4k, ay-hk* kabi.

-laym (-leyin). Bu qo'shimcha ilgari o'xshashlik* tenglikni ifodalagan shakl yasovchi qo'shimcha vazifasini bajargan: *su- laym ("su gibi", ya'ni "suv kabi"), deniz-leyin ("deniz gibi", ya'ni "dengiz kabi*").* Hozirda yasovchi qo'shimcha vazifasini bajaradi. ammo kamdan-kam uchraydi. Ba'zi vaqtni bildiruvchi so'ziarda uchraydi: *sabah-leyin, gece-leyin, aksam-leyin, ogle-leyin (uglcvin.i* kabi.

Qo'shimchaning, bugungi kunga kelib, faqat ingichka ko'rinishi saqlanib qolgan. Bunga sabab «u» tovushining ta'siri bo'lishi mumkin. Shu tarzda, bu qo'shimcha ham hozirda turkiy singarmonizm Roidasidan istisno holatdir.

-cilaym (-cileyin). Bu qp'shuncha ham ilgari tenglikni bildiruv-^ch' shakl yasovchi qo'shimcha edi. Hozirda u yasovchi qo'shimcha

kabi qoliqlashib qolgan va ayrim olmoshlarga qo'shiladi: />eil *cileyin. sen-cileyin. bu-n-cilayin* kabi.

-an (-en). Bu qo'shimcha juda noyob va faqatgina *er-en* so'/ie uchraydi.

-kek. Bu qo'shimcha ham kam uchraydi. Uni turk tilida birgfl *er-kek* so'zida kuzatish mumkin.

-kan. Bu qo'shimchani ham turk tilida faqat *calts-kan. konu kan* so'zida uchratish mumkin (*bas-kan* so'zi ot turkumiga kiradfl

—si (-si, -su, -su). Bu qo'shimchani ham hozirda faqat *yat-i sin-si. yas-si. tiit-sii* so'zlarida uchratish mumkin.

-sin (-sin). Rangni bildiruvchi so'zlardagina uchraydigan fa] qo'shimcha yaqinlik hamda o'xshashlikni ifodalaydi: *sari-sin. kam sin. mavi-sin* (qisqartirilgan shakli *mavis*), *ak-stn. gdk-sin* kabi.

Yevropa va boshqa tillardan kirib kelgan **-al, -el** qo'shimcha yordamida ham turk tiliga otlardan bir qator sifatlar yasalgan: *sosl at. kiiltiir-el, ulus-al, yer-el* kabi. Turk tilidagi singannonij qonuniga ko'ra unli bilan tugagan so'zlarga va hatto ba'zi undfl bilan tugagan so'zlarga **-el** yasovchisidan oldin **-s** undoe orttiriladi: *bolge-sel, bilgi-sel. duygu-sal, gelenek-set, siya-sal* 1 hok.

SON (SAYI SIFATI)

Son va uning turlari (sayt sifati ve cesitleri)

Sonlar turk tilshunosligida sifatning bir turi (qismi) sifatii olinib, nisbiy sifatlar jumlasiga kiritiladi. Sonlar predmetlarnifl miqdorini bildiruvchi so'zlar bo'lib, gapda sifatlar kabi predrra nomlaridan oldin kelgani uchun turk tilshunosligida *sayt ifaM (son sifatlari)* deb yuritiladi. Sonlar gap ichida aniqlovchi vazifae bajaruvchi sifatlar kabi qo'llanadi. Sonlar turk tilida besh tunj bo'linadi: *sanoq sonlar, tartib sonlar, ulashtiruv sonlari, jaim sonlari, kasr sonlar.*

Sanoq sonlar (*asil sap sifatlari*). Sanoq sonlar asl sonlar sifi tida predmetlarning miqdorini ko'rsatadi: *bir (karpuz), iki (dem* kabi. Sanoq sonlaming o'zi ham uchga bo'linadi: so'z **shakj**

bo'lgan sonlar, so'z birikmasi shaklida bo'lgan o'nlik. yuzlik. minglik sonlar, sonli birikma shaklidagi aralash sonlar:

1. So'z shaklida bo'lgan sonlar: *bir, iki, yedi, on, otuz, kirk. (I o k san. yiiz, bin* va hok. Bunga qadimda qo'l lan ilgan *tit men (on bin)*, keyinchalik g'arb tillaridan o'zlashgan *milyon, milyar* kabi sonlarni ham qo'shish mumkin.

Nutqda *yiiz* va *bin* dan oldin *bir* qo'llanilmaydi (*yiiz elli dart, bin dokuzyiiz altmts tic*), lekin *milyon, milyar* dan oldin *bir* qo'shib qo'llanadi: *bir milyon sekiz yiiz bin, bir milyar iki yiiz altmts tic milyon* kabi.

2. So'z/ birikmasi shaklida bo'lgan o'nli, yuzli, mingli sonlar katta sonlar orasidagi o'nlik, yuzlik sonlar uchun qo'llaniladi: *iki yiiz* bes yiiz, altt yiiz bin, bir milyon, dokuz yiiz milyar* va hok. Bu son birikmalarida kichik son oldin, katta son keyin keladi.

3. Sonli birikmasi shaklidagi aralash sonlar. Bu guruhga *on bir, altmts altt, yiiz doksan, bin bes yiiz, tic milyar bes yiiz milyon* kabi butun sonlar kiradi. Bu yerda katta son oldin, kichik son keyin keladi.

Turk tilidagi *seksen, doksan* kabi sonlar aslida *sekiz on, dokuz on* birikmalaridan yuzaga kelgan. Shuningdek, *yirmi* soni aslida *yigirme* bo'lgan. So'ngra, *yigirmi, yigirmi* va *yirmi* shaklida o'zgaraborgan va bir bo'g'in tushishi bilan adabiy tildan *yirmi* bo'lib o'z joyini olgan. Hozirgi paytda turk tili shevalarida ushbu sonning *yigirmi* deb qo'llanayotganini ham ko'rish mumkin.

Miqdorni ifodalovchi sonlar (*bir* sonidan boshqa) ko'plik ma'nosiga ega. Shuning uchun ulardan keyin kelgan otga ko'plik qo'shimchasi (-lar, -ler) qo'shilmaydi: *bes elma, on sekiz cocuk, yiiz lira* kabi. Albatta, bu yerda istisno holatlar ham mavjud: *kirk hara-miler, dart btiyiikler, tic ahbap cavuslar* va hok.

Tartib sonlar (*sua sayt sifatlari*). Tartib sonlar predmetlarning sirasini ko'rsatadi. Ular **-inci** qo'shimchasi yordamida asl sonlardan yasaladi: *bir - inci, dokuz - uncu, besyiiz kirk tic - iincti* kabi

turk tilidagi *sonuncu, kacma, fdanci, ortanci* kabi so'zlami ham tartib sonlar jumlasiga kiritish mumkin.

Shuningdek, turk tilidagi *ikindi* so'zi aslida *ikinci* dir. faqat keyinchalik u faqat kun vaqtini ko'rsatadigan bo'lgan. Ertalabgi

(bomdod) namoz quyosh chiqmasdan o'qilgan. *Ikinci namazi* e quyosh chiqqandan keyin o'qilgan ikkinchi namozdir, shu bois u ikkinchi, ya'ni *ikinci namazi* nomini olgan.

Tartib sonlardan keyin keluvchi otlar ko'plik qo'shimchasini olishi mumkin: *birinci simflar, iiguncii sahisiar* va hok.

Turk tilida yana bir guruh sonlar borki, ular *iilepirme sayt sifat-lari (ulashtiruv sonlari)* deyiladi. Bu sonlar predmetlarnin-miqdorini guruh-guruh qilib ko'rsatuvchi sonlardir. Ular ayiruv bo'luv, baham ko'ruv, tarqatuv ma'noiarini ifodalaydi. Ular asl sonlarga otdan ot yasovchi qo'shimchalar (-er, -er, -Ser, -sar) qo'shish yo'li bilan yasaladi: *bir-er (bittadan yoki bitta-bitta), uq-er (uchtadan yoki uchta-uchta), iokuz-ar (to qqiztadan yoki to'qqizta-to'qqizta); on-ar (o'ntadan yoki o'nta-o'nta), iki-ser (ikkitadan yoki ikkita-ikkita), yedi-ser (yettitadan yoki yettita-yettita). alti-sar (oititadan yoki oliita-oliita)* kabi.

So'z birikmasi shaklidagi sonlarning ulashtiruv shakllari ikki xil tarzda yasaladi: *on biner -onar bin, bes yuzer - beset yiz* kabi. Og'zaki nutqda ikkinchi shakl faolroq qo'llanadi. Ayniqsa. minglik sonlarda *otuzar bin, ettiser bin* shakllari *otuz biner, eili bitter* shakllaridan ko'ra ko'proq qo'llanadi.

Xuddi shu qo'shimcha bilan yasalgan *teker (teker teker - bitta-dan yoki bitta-bitta), azar (ozgina-ozginadan), kacar (nechtadan)* so'zlari ham ulashtiruvni ifodalaydi. Faqat ulardan *kacar* so'zi son sifatida qo'llanishi mumkin: *kacar giin (necha kundun)* kabi. Bunday sonlardan keyin keluvchi otlar ko'plik qo'shimchasi olmaydi, ehunki ular ko'plik ma'nosini o'zida aks ettirgan.

Jamlik sonlari (*topluluk sayt sifat-lari*). Bu sonlar yaqinlikka asoslangan predmetlar to'plami, guruh narsalarni ifodalaydi: *ikili, tiiclii, dbrtlii (takun elbise). ikiz (qocuk), iiquz (yavndar)* kabi. Ular asl sonlardan yasalgan va miqdori ko'p emas. Ular tug'ilish, qarindoshlik kabi ma'nolarni ifodalaydi. Jamlik sonlari tilda ko'proq o'tirafot sifatida qo'llanadi: *ikizler, iiquzler, dordiuzler* kabi. Shuningdek, *chift* ('juft' ya'ni 'er-xotin*) so'zmi ham ushbu guruhga kiritish mumkin: *Qllerler qifti (Chillerlarjufi)* kabi.

Kasr sonlar (kesir sayt sifat-lari). Bu sonlar pretetlarning qism, parchalarini belgilaydi. Ular asl sonlar asosida so'z birikmasi

shaklida yasaladi: *iiqte bir. dbrtte iiq, yizde alti, iiquyizde bir, binde yedi* kabi.

Kasr sonlari ham nutqda kam qo'llanadi. Ular hamisha otlar bilan birga qo'llanadi: *iiqte bir (elma), dortte iiq (eknwk)* o'rnida *el-inanin iiqte biri. ekmegin dortte iiqui, paranin yizde yirmisi, niifusun yizde best* kabi. Shuningdek, og'zaki nutqda kasr sonlar *2.3 (iki nokta iiq), 80.8 (seksen nokta sekiz)* shaklida ham keng qo'llanadi.

Son yasovchi qo'shimchalar

Turk tilida son yasovchi qo'shimchalar, asosan, quyidagilardir:

-nci, -nci, -ncu, -ncu. Bu qo'shimcha turk tilida eng samarador son yasovchilardan bo'lib, sanoq sonlardan tartib va daraja sonlari yasashda qo'llanadi: *bir-i-nci, dord-ii-ncii, yedi-nci, iki-nci, hes-i-nci, on-u-ncu, iiq-u-ncü, alti-nct, yiz-u-ncu* kabi.

Bu qo'shimcha sonlardan tashqari tartibni bildiruvchi boshqa so'zlar yasashda ham qo'llanadi: *kag-i-nci, orta-nci (cocuk). son-u-ncu* kabi.

-ar, -er, -sar, -ser. Bu qo'shimcha ham samarador son yasovchi qo'shimcha bo'lib, uning vazifasi asl sanoq sonlardan taqsim, bo'luv, ayiruv sonlarini yasashdir: *bir-er, bes-er, dokuz-ar, iki-ser, alti-sar, on-ar, iiq-er, yedi-ser, elli-ser, dord-er, sekiz-er, yuz-er* kabi. Unli (vokal) bilan tugagan so'zlarga qo'shimchani -sar, -ser shakli, undosh (konsonant) bilan tugagan so'zlarga esa -ar, -er shakli qo'shiladi. Bu qo'shimchani asl -ar, -er bo'lgan. lekin keyinchalik beser so'zining bo'g'inlarga ajralishidan -sar, -ser shakli yuzaga kelgan.

-z. Bu qo'shimcha sanoq son yasovchi qo'shimchalardan biri, ammo faqat ma'lum sonlarga qo'shib kelgani uchun uning 4°llanish miqyosi boshqalariga qaraganda torroq. U, ko'proq, birdan o'ngacha bo'lgan sonlarga qo'shiladi. Uning asosiy vazifasi yaqinlik, tenglikni ifodalovchi guruh nomlari yasashdir: *iki-z, dord"-2, alti-z, iiq-ii-z, bes-i-z, yedi-z* kabi.

OLMOSH (ZAMIRLER)

Olmosh va uning turlari (zamid va gesitleri)

Olmoshlar turk tilshunosligida *zamidler* yoki *adillar* deb norlanib kelinayotgan, otga o'xshash, lekin ot, sifat va ravishlardakifarqli va o'ziga xos so'z turkumidir. Bu farqlarni olmoshlar egbo'lgan quyidagi olti xususiyatga ko'ra ajratish mumkin. Bu: /
1. ma'no; 2. kenglik; 3. so'z yasash; 4. egalik; 5. turlanish; 6. yordamchi so'zlarga boglanish xususiyatlaridir.

1. Ma'no jihatdan olmoshlarining ot so'z turkumlaridan farqunung alohida so'z turkumi sifatida olinganda ma'noga ega emasligidir. Olmoshlar, masalan, *kalem (ruchka, qalam), defter (daftar) su (suv), toprak (tuproq)* kabi bir predmetning nomlari emas. IIIso'/ sifatida ham bir borliq, narsani bildirmaydi. Olmoshlar predmetlaming o'zini bildirmasdan, faqatgina ularga ishora etuvchi ko'rsatuvchi so'zlardir. Turk tilshunoslari qisqa va obrazli qilib **ol**moshlarni «aktyor» so'zlar deya ta'kidlashadi. Aktyorlar haqiqiqahramon emas, uni sahnada jonlantiruvchi shaxs bo'lgani kabi, **ol**moshlar ham predmetlarning haqiqiy nomlari emas, u ko'rsatuvchi so'zlar hisoblanadi. Olmoshlar bu rolni ikki shakl«bajaradi»: predmet yoki saxsning o'rnida qo'llanadi, yoki ko'rsatadi. Masalan, *sen* olmoshi *Ahmed* ni, *Ayse* ni, *Fatma* ni *ogrenci* ni bildirib keladi, *o* olmoshi *kitap* ning o'rnida keladi, tanishtiradi, ko'rsatadi. Yoki, *bu* olmoshi shaxs yoki predmet ishora qilib, ulami anglatadi. Demak, olmoshlar ot emas, ot o'rnikelib, uning o'rnini bosa oladigan so'zlar ekan.

2. Olmoshlar har shaxs va har predmetning o'rnini bosa ohda, o'zlari so'z sifatida mustaqil ma'noga ega bo'lmasdan turikatta imkoniyatlarga ega so'zlar ekan. Birgina *o* olmoshi yoki olmoshi yuzlab va hatto minglab predmetlarni ko'rsata oladi. Masalan, *kitap* mustaqil ma'noga ega bo'lgan bir otdir. Ammo u **bor**vo'g'i bitta predmetni ifodalay oladi. Lekin *bu* olmoshi ma'nosizbo'la turib, *kitap* ni ham, *defter* ni ham, yoki boshqa yuzlab predmetlarni ham ifodalash, ko'rsatish qobiliyatiga ega.

3. Olmoshlarining boshqa ot turkumlaridan yana bir farqiturkumlari singari so'z yasalishi uchun qulay emasligidir. Ulard

bor-yo'g'i *ben* va *sen* asosida bir-ikkita so'z yasalishi mumkin: *ben-tik, sen-H, ben-siz, ben-cil, benimsemek (fe T)* kabi. Ammo, ushbu yasovchi qo'shimchalarni boshqa olmoshlarga qo'shib yangi so'z yasashning imkoni yo'q. Shu tarzda olmoshlardan (*ben* va *sen* bundan mustasno) yangi so'z yasalmaydi.

4. Olmoshlarining ot so'z turkumlaridan yana bir farqi egalik qo'shimchalarini olmasligidir. Albatta, bunda ba'zi istisno holatlar uchrashi mumkin. Olmoshlarining ot so'z turkumlaridan muhim farqi turlanishlarda o'zakning o'zgarishidir: *ben - bona, sen - sana* kabi (holbuki turk tili qo'shimcha qo'shilib, so'z va shakl yasaluvchi til bo'lgani uchun turlanishlar asnosida o'zak o'zgarmasligi kerak. Bu horada so'z turkumlari ichida olmoshlar eng ko'p istisnoga ega bo'lgan so'z turkumidir).

5. Olmoshlarining ot so'z turkumlaridan yana bir farqi uning yordamchi so'z turkumlariga bog'lanayotganda qo'shimcha olishidir. Masalan: *tas gibi. su icin* deymiz, lekin *ben gibi, o icin* demaymiz, *benim gibi, benim icin* deymiz.

Sanab o'tilgan bu xususiyatlar olmoshlarining ot so'z turkumlari ichida (ot, sifat va son) o'ziga xos o'rnini borligini ko'rsatadi. Ammo, qanchalik farq bo'lmasin, olmoshlar ot jinsidagi so'z turkumi hisoblanadi. Chunki:

1. Ko'rsatadimi, ot turkumidagi so'zning o'rnida keladimi, baribir, olmoshlar barcha ot so'z turkumlari kabi ma'lum bir predmetni bildiradi;

2. Olmoshlar otlar kabi turlanadi: *ben-den, bu-nu* kabi.

3. Olmoshlar so'z birikmalari va gapda ot kabi turlangan shaklda keladi, ot kabi vazifa bajaradi.

Turk tilida olmoshlarining quyidagi turlari ajratiladi: *kishilik olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, so'roq olmoshlari. gumon olmosh-tori, bog'lovchi olmoshlar.*

Kishilik olmoshlari (sahis zamirleri)

Kishilik olmoshlari shaxslarni bildiruvchi so'zlardir. Turk til-nosligida kishilik olmoshlarining uchta ta'kidlanadi: ^u ^{^o z} ^{OV} *hi. ting/ovchi. ismi tilga olingan shaxs.* Grammatikada ular *nchi shaxs. ikkinchi shaxs. uchinchi shaxs* deb ataladi. Shaxslar

biriikda va ko'plikda bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra uchta birlik uchta ko'plik, jami oltita shaxs ajratiladi:

So'zlovchi -	Birlik	1- shaxs
Tinglovchi -		2- shaxs
Ismi tilga olingan -		3- shaxs
So'zlovchilar -	Ko'plik	1-shaxs
Tinglovchiilar -		2- shaxs
Ismi tilga olinganlar -		3- shaxs

Kishilik olmoshlari quyidagi shaxslarni bildirib keladi:

Birlik	/- shaxs	ben
	2- shaxs	sen
	3- shaxs	o
Ko'plik	1-shaxs	biz
	2- shaxs	siz
	3- shaxs	onlar

Ko'plik 3-shaxsda *n* tovushi orttiriladi (o-n-lar).

Olmoshlarning turlanishi

Turlanish chog'ida olmoshlarda o'zaklar o'zgarishi mumkin:

Bosh kelishik	Ben	sen	o	biz	siz	onla
Qaratqich kel.	benim	senin	onun	bizim	sizin	onlarin
Jo'nalish kel.	bona	sana	ona	bize	size	on/ara
Tushum kel.	beni	seni	onu	bizi	sizi	onlari
O'rin-p. kel.	bende	sende	onda	bizde	sizde	onlarda
Chiqish kel.	benden	senden	ondan	bizden	sizden	onlat dun
Tenglik shakli	hence	sence	onca	bizce	si	zee onlarea

Qaratqich kelishigida **benim** va **bizim** shakllari istisno hoi tashkil etadi. Bu kelishikning qo'shimchasi **-in, -in** bo'lsa-da, va **biz** olmoshlari qaratqich kelishigida **benim** va **bizim** bo'ladi. holat 1-shaxs egalik qo'shimchasi **-m** ning ta'sirida yuz bergan. Bi lik va ko'plik 3-shaxslardagi **-n** esa **ben** va **sen** olmoshlaridagi ning ularga ko'chib o'tishi natijasida yuzaga kelgan. Bu **-n** tovus

eualik qo'shimchalaridan keyingi **-n** tovushining ham asosiy man-baidir.

Jo'nalish kelishigida ham olmoshning o'zagi o'zgargan. 1- va 2-shaxslar 3-shaxsga **-n** tovushini bergan, bunga muqobil ravishda 3-shaxs ham 1- va 2-shaxsda undoshni qalinlashtirgan. Bu turlanish bugungi kunda shevalarda xuddi ilgari bo'lganidek jarangsiz (**sagir**) **-n (ng)** olgan: **banga, sanga, onga**. Buning sababi bugungi jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **-a, -e** ning aslida **ga, ge** shaklida bo'lganidir. G'arb turkchasiga o'tish choq'ida jo'nalish kelishigi shaklining **gt, g** tovushlari tushgan. Faqat olmoshlarda bu lushish yuz hermasdan л v a ; birlashib, jarangsiz и (ng)ga aylangan, ya'ni **banga, sanga** eski **ben-ge, sen-ge** dan yuzaga kelgan.

O'rin-payt kelishigida ham 3- shaxslarda ortiqcha **-n** tovushi ko'/ga tashlanadi.

Shuningdek, ortiqcha **-n** tovushini chiqish kelishigi va tenglik shakllarida ham (3-shaxslar) ko'rish mumkin.

Kishilik olmoshlarining yordamchi so'zlarga bog'lanishi.

Kishilik olmoshlari otlardan farqli o'laroq, hozirgi zamon turk tilida **He, icin, gibi, kadar** kabi yordamchi so'zlarga qaratqich shaklida bog'lanadi: **benimle (benim He), seninle, onunla, bizimle, sizinle, onlarla** kabi.

Og'zaki nutqda uchrab qoladigan **benle, bizle, senle, side** kabi shakllar noto'g'ri va hozirgi paytda turk tilining shevalarida qo'tlanib kelinadi va adabiy til me'yorlariga zid hisoblanadi.

Bu olmoshlarni quyidagicha qo'llash maqsadga muvofiq: **benim gibi, senin gibi, onun gibi, bizim gibi, sizin gibi, onlar gibi** kabi. Og'zaki nutqda ko'p uchraydigan **ben gibi, sen gibi** kabi shakllar ham nutq me'yorlariga zid hisoblanadi. Ilgari nutqda ora-sira qo'llanilgan **benle, senle, ben gibi, sen gibi** singari qo'llanishlarga e'tihor berilmasltgi kerak. Ularni quyidagicha qo'llash maqsadga muvofiq: **benim icin, senin icin, onun icin, bizim iqin, sizin icin, onlar icin** kabi.

Hozirgi zamon turk tilida **benim kadar, senin kadar, onun ka-dar, bizim kadar, sizin kadar, onlar kadar** kabi shakllarning 4o'llanitishida xatoga duch kelinmaydi.

Ko'rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan shakllarning barchasi faqat ko'plik 3-shaxs shakli qaratqich kelishigi qo'shimchasi olgan.

Turk tilining shevalarida ayrim istisno holatlarga duch kelini mumkin. Yuqorida keltirilgan shakllar adabiy til me'yorlariga to mos bo'lib, qolgan shakllar xato hisoblanadi.

O'zlik olmoshlari (iyelik zamirleri)

Turk tilshunosligida o'zlik olmoshlari kishilik olmoshlarini boshqa bir shakli sifatida qabul qilingan. Ular asl kishilik olmoshlaridan kuchliroq ifodaviylikka ega. Ular yakka holda asl kishilik olmoshlarining o'rnini ham bosa oladi. Undan tashqari, o'zlik : olmoshlari kishilik olmoshlari bilan birgalikda qo'llanishi ham mumkin: *ben yaptim (men qddim), kendim yaptim (o'zim qddim), be kendim yaptim (men o'zim qddim)* kabi.

Og'zaki nutqda *benim kendim yaptim (mening o'zim qddim)* kabi shakllar ham keng qo'llanadi. Faqat bu yerda *kendim* so* o'zlik olmoshi bo'lishdan ko'proq, ot (ega) vazifasini bajarib keladi.

Turk tilida o'zlik olmoshlari *kendi* so'zining egali qo'shimchasi olgan shakllaridan iboratdir: *kendim, kendin, kendi kendi miz, kendiniz, kendileri* kabi. *Kendi* so'zi yakka holda «o' ma'nosida keluvchi bir otdir: *kendi elim (o'z qo'Urn), kendi gbzii (o'z ko'zing)* misollarida bo'lgani kabi.

Birlik 3-shaxsning to'g'ri shakli *kendisi* dir. *Kendi* so'zini oxiridagi -/ tovushi egalik qo'shimchasi deb faraz qilinib, so'zning ozgina qisqartirish (tejjash) maqsadida *onun kendi, kendi kendi:* kabi shakllar ham qo'llanadi. Faqat uning to'g'ri shakli *nu kendisi, kendi kendisine* dir.

Ko'rsatish olmoshlari (Isaret zamirleri)

Ko'rsatish olmoshlari predmetlarning joylashgan yeri, o'rni ko'rsatadi, ularga ishora qiladi. Turk tilidagi ko'rsatish olmoshi quyidagilardir: *bu, su, o, bunlar, sunlar, onlar.*

Bu (bunlar) yaqinni, *su (sunlar)* o'rtacha yaqinlikni, *o (onlar)* esa uz.oqni ishora qiladi, ko'rsatadi.

Ko'plik shakllarida olmoshning *-n* - tovushi orttirilgan.

Ko'rsatish olmoshlarining kelishik shakllari quyidagicha:

(Bosh kel.	<i>bu</i>	<i>su</i>	<i>o</i>	<i>bunlar</i>	<i>\$unlar</i>	<i>onlar</i>
Qaratq. kel.	<i>bunun</i>	<i>sunun</i>	<i>onun</i>	<i>bunlann</i>	<i>^unlar in on</i>	<i>Ian n</i>
Jo'nalish kel.	<i>buna</i>	<i>suna</i>	<i>ona</i>	<i>bunlara</i>	<i>sunlara</i>	<i>onlara</i>
Tushum kel.	<i>bunu</i>	<i>sunu</i>	<i>onu</i>	<i>bunlari</i>	<i>sunlan</i>	<i>onlan</i>
O'r.-pay. kel.	<i>bunda</i>	<i>sunda</i>	<i>onda</i>	<i>bunlarda</i>	<i>sitlarda</i>	<i>onlarda</i>
Chiqish kel.	<i>bundan</i>	<i>sundan</i>	<i>ondan</i>	<i>bunlardan</i>	<i>sunlardan</i>	<i>onlardan</i>
Tengl.shakli	<i>bunco</i>	<i>sunca</i>	<i>onca</i>	<i>bunlarca</i>	<i>sunlarca</i>	<i>onlarca</i>

Tushum kelishigida birlik *~nu* qo'shimchasi (*bunu, sunu, onu*), ko'plik -i (*bunlari, sunlan, onlari*) qo'shimchasi mavjud.

Turk tilining shevalarida birlik shaxslaridagi *-n* jarangsiz (*sagir -n - ng*) dir. Bu birlik shakllari *bunga, sunga, onga* dan yuzaga kelgan. Ularda ham kishilik olmoshlaridan o'tgan yasama *-n* ga duch kelinadi. Aks holda ular *buya, suya, oya* bo'lishi mumkin edi.

O'rin-payt, chiqish va tenglik shakllarida ham *-n* tovushiga duch kelinadi. Ko'rsatish olmoshlarining tenglik shakllari hozirgi /anion turk tilida ko'p qo'llanilmaydi. Ulardan eng ko'p qo'llanadigani *bunco* dir. Tenglikni ifodalash uchun *gore, kadar* kabi yordamchi so'zlar qo'llanadi: *buna gore, bu kadar, suna gore, su kadar* kabi.

Ko'rsatish olmoshlarining *bura, sura, ora* shakllari yo'nalishni ifodalovchi shakllar kabi ko'rinadi, lekin bu aniq xulosa emas va ulaming *bu ara, su ara, o ara* kabi birlashmalardan yuzaga kelganligi faraz qilinadi. Albatta, bunga yo'nalish qo'shimchasining ta'sin borligiga hech shubha yo'q.

Ko'rsatish olmoshlarining yordamchi so'zlarga bog'lanishi.

Ko'rsatish olmoshlari ham *He, icin, gibi* singari yordamchi so'zlarga 4^a ratqich kelishigi qo'shimchasi yordamida bog'lanadi: *bununla (bunun He), sununla, onunla, bunlarla, sunlarla, onlarla, bunun* ⁱ*'in, sunun icin, onun icin, bunlar icin, sunlar icin, onlar icin, bunun gibi, sunun gibi, onun gibi, bunlar gibi, sunlar gibi, onlar Kibi* kabi.

Og'zaki nutqda *bu gibi, su gibi, o gibi* singari qaratqich kelishigi qo'shimchasi olmagan shakllar ham keng qo'llanadi. Faqatj bunday shakllar *bbyle, sbyie, byle* so'zlarining o'rnida va biroz farqli; ma'noda qo'llanadi.

Ko'rsatish olmoshlari *kadar* so'ziga ikki shaklda bog'lanadi- *bunun kadar, sunun kadar, onun kadar* yoki *bu kadar, su kadar o kadar* kabi.

So'roq olmoshlari (soru zamirlari)

So'roq olmoshlari predmetlarni so'roq ma'nosida ko'rsatuvchi shakllardir. Predmetlarni so'rash uchun ikki xil so'roq olmoshi qo'llanadi: *kim, ne (kinder, neler)*. *Kim* so'roq olmoshi turk tilida insonga nisbatan qo'llanadi: *kim geldi? kimi seviyor?* kabi.

Kim so'roq olmoshi ham *He, icin, gibi* kabi yordamchi so'zlarga^ qaratqich kelishigi qo'shimchasi yordamida bog'lanadi: *kiminle (kimin He), kimin icin, kimin gibi* kabi. *Kimie* shakli noto'g'ri, ba'zan uchraydigan *kim* icw shakli to'g'ri emas. Turk tilida hozirgi paytda; ham *kim gibi* shakli *kimin gibi* kabi qo'Hanilmoqda va har ikki shakl ham noto'g'ri hisoblanmaydi.

Ne so'roq olmoshi turk tilida insondan tashqari barcha jonli (jumladan, hayvon va hasharotlar) va jonsiz predmetlarga nisbatan qo'llanadi: *siitu ne icti? neyi gbturdun?* kabi.

Ne olmoshining egalik va qaratqich shakllarida bir istisno h latining mavjudligini yuqoridagi mavzularimizda ta'kidlagan edik: *ne-y-i-m, ne-m* (egalik) va *ne-y-i-n, ne-nin* (qaratqich) kabi. Egalikda *nesi* shaklidan ko'ra *neyi* shakli afzal koriladi. Qolgan shakllar aralash qo'llanaveradi.

Ne olmoshining jo'nalish kelishigi shakli *neye* dir. lining asosida yuzaga kelgan *niye* so'zi esa yordamchi so'z, bir so'roq *ravj* ishidir. Ushbu so'roq olmoshining chiqish kelishigi shakli *neden dir*. Uning *neden (nicin)* shakliga ega bo'lgan ikkinchi ko'rinishi so'; olmoshi emas, yordamchi so'zdir.

Ne olmoshi yuqorida ko'rilgani kabi so'roq sifati o'laroq b qancha qo'shma shakllar yasaydi: *ne kadar, niqin (ne icin) nasd I asd* kabi. Bu olmosh o'zidan keyin keluvchi fe'ilarning yonida ha *nasd* ravishi kabi qo'llanadi: *neyapayim* kabi. Undan tashqari, JI

tovush bilan boshlangan so'zlar bilan ham oson birlashadi: *nicin, itolur, nideyim* kabi.

Kim va *ne* olmoshlarining ko'plik shakllari ham mavjud: *kinder geldi? Neler oldu?* kabi.

Asl so'roq olmoshlari bo'lgan *kim* va *ne* dan boshqa so'roq sifatlarning egalik shakllari ham so'roq olmoshi sifatida qo'llanishlari mumkin: *hangisi, kact, kacincm* kabi.

-ki qo'shimchasi olgan so'roq sifatlari ham yakka holda so'roq olmoshlari bo'ladi: *neredeki (qayerdagi), kimdeki (kimdagi), nedeki (nimadagi), kiminki (kimniki), neyinki (nimaniki)* kabi.

Gumon olmoshlari (belirsizlik zamirlari)

Gumon olmoshlari predmetlarni noaniq shaklda ko'rsatuvchi ko'rinishdir. Asl gumon olmoshlarining hozirgi zamon turk tilidagi miqdori juda kam. Bu: *kimse, herkes*.

Gumon ma'nosi turk tilida gumon olmoshi kabi qo'llanayotgan egalik shakllari orqali ham ifodalanadi: *biri (biri), baskasi (bosh-cjasi), hepsi (hammasi), bazisi (bazisi), kimi (ba 'zi, ba 'zi biri), kimisi (ba zisi, ba 'zi biri), birisi (biri), hepimiz (hammamiz), bir kaci (bir nechtasi), bir cogu (bir qanchasi, bir nechtasi), her biri (har biri), hie biri (hech biri, hech qaysisi), bir cogumuz (bir qanchamiz, ko'pcliiligimiz)* kabi. *Falan (falon), filan (pismadon), falanca (falonchi), fdanca (pismadonchi), (bir) sey (bir narsa, haligi), seyi, sey-III* so'zlari ham yakka holda qo'llanganda gumon olmoshi vazifasini bajaradi.

-ki sifat va olmosh yasovchi qo'shimcha bilan yasalgan so'zlar ham gumon olmoshlari singari qo'llanadi: *oteki (boshqa, narigi), beriki (berigi), deminki (haligi), altaki (pastdagi, quyidagi), dag-daki (tog dagi), benimki (meniki), seninki (seniki)* va hok.

Bog'lovchi olmoshlar (baglama zamirlari)

Bog'lovchi olmoshlar ikki unsur, ikki so'zni ko'rsatish Jtta'nosida bog'lovchi so'zlardir. Eski turk tilida faqat *kim* ^lovchi olmoshi qo'llangan. Buni quyidagi misollarida ko'rish Mumkin:

Sen kim gelesin meclise bir yer mi bulunmaz? (Sen ki kelursan majlisga, joy topilmaydimi?)

Oyle bir nam atn kim dag tas yankdandi (Shunday bir na ra tortdi ki, toq u-tosh aks-sado berdi).

Turk tilidagi *kim* so'roq olmoshi keyinchalik o'z o'rnini ~*ki* qo'shimchasiga bo'shatib bergan:

Bir soz dedi canan ki, keramet var iqinde (Bir so z dedi jonun ki. karomat bor ichinda).

Ki bog'lovchi olmoshi turk tilida yakka holda qo'llanmaydi va ma'noga ega bo'lmaydi. Bu boq'lovchi hozirgi paytda ham bog'lovchi, ham bogiovchi olmosh vazifasini bajarib keladi:

Bir eseryazdt ki, gormeyin (Bir asaryozdi ki, hech ko rmang). I

Bir ses ki, hayran kahrstn (Bir ovoz ki, hayron qolasan).

Oyle giizel ki, insant buyuluyor (Shundayin go zal ki, insonn sehrlab qo yadi).

Insan ki, yasamaya mecburdur (inson ki, yashashga majbu kabi.

ki bog'lovchi olmoshi o'zidan oldin kelgan unsur, otni ko'rsati ishora qiladi va uning o'rnini egallaydi:

Bir yer ki seventer sevilenlerden eser yok (Bir joyki sevganl va sevdganlardan asar ham yo 'q). Bu gapdan *ki* ni olib tashlaydig bo'lsak, birikma *sevenler sevilenlerden eser olmayan bir yer (s ganlar va sevdganlardan asar ham bo'lmagan bir joy)* shaklida sifatdosh oborot yuzaga keladi.

RAVISH (ZARF)

Ravish va uning turlari (zarfve cesitleri)

Gapda fe'llar va sifatlardan oldin kelib, ular ifodalagan is harakat yoki predmet belgisini izohlovchi, o'zgartiruvchi so'zlar t tilshunosligida ravishlar (*zarflar*) deyiladi. Turk tili grammatik kitoblarida ravishlar *belirteqler* deb ham tilga olinadi. Turk t shunosligida ravishlarning joy, vaqt (zamon), holat va miqdor no lari ekanligi aytiladi (*geq kalmak, pek qirkin, az tuzJu*).

Turk tilshunosligida sifatlar yakka holda bir ot deb qaralgan kabi, ravishlar ham alohida olinganda bir ot bo'lishi, faqat boshqa so'zlar bilan munosabat holatidagina u ot yoki sifat emas. ravish

o'laroq namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Buning boisi. ravishlarning ot yoki fe'l kabi nutqda alohida qo'llanmasligidir. Turk tilida *hemen (hainon, darrov), simdi (hozir. endi), qok (ko'p, juda), az (oz), az qok (oz-ko'p), en qok (eng ko'p), biraz (biroz). son derece (so'ng dara-jada). sabaha karsi (erta long), once (oldin, ilgari), so lira (so ngra. keyin), qabuk (lez), hizli (lez, jadal). yavas (sekin, asta), ileri (oldin. olg a), geri (orqa. orqaga), birden bire (birdaniga), ansizin (kutilmaganda, tasodifan)* va boshqa bir qancha so'zlar ravishlar hisoblanadi.

Ravishlarning birikmalarda sifat va ravishlardan oldin kelib, ularning ma'nosini o'zgartirishi aslida sifatga xos xususiyat, vazifa hisoblanadi. Masalan, *qok giizel yazi, pek qok giizel* birikmalaridagi *qok* va *pek* so'zlarini ba'zi olimlar ravish deb, ba'zilari esa sifat deb atashgan.

So'z birikmasi ichida ravishlar fe'l (*yukari cikmak*) yoki sifat (*pek giizel*) ning ta'siri ostida bo'ladi. Ravishlar asl fe'ldan oldin kelib, unga ta'sir etuvchi va ma'nosini o'zgartiruvchi joy, vaqt, miqdor nomlarini bildiradi. Ular fe'l bilan munosabat o'rnatishda tuslanmaydi yoki turlanmaydi. Masalan: *ileri gitmek* birikmasida *ileri* so'zi ravish bo'lsa, *ileriye gitmek* birikmasida *ileriye* so'zi ravish emas, kelishik qo'shimchasi olgan ot hisoblanadi.

Turk tilshunosligida ravishlarning, asosan, to'rt turi ajratiladi: O'rin ravishlari (*yer, yon zarflari*), payt ravishlari (*zaman zarflart*), holat ravishlari (*hal zarflart*), miqdor ravishlari (*azlik-qokluk zarflari*). Undan tashqari, ba'zi turk tilshunostari ravishlarning beshinchi turi - so'roq ravishlari (*soru zarflart*) ni ham ajratadilar.

Ravishlarning turlari quyida birma-bir ko'rib chiqiladi.

O'rin ravishlari (*yer, yon zarflart*)

O'rin ravishlari joy, makonni ifodalovchi so'zlar bo'lib. ko'pincha fe'llar (ish-harakal)ning yo'nalishini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, o'rin ravishlari fe'llarga makon. yo'nalish Ma'nosida ta'sir etib, ish-harakat, holatning makon ichidagi o'rnini bildiradi va *nere-de? (qaerda?), nereye? (qaerga?, qayoqqa?), nere-den? (qaerdan?, qayoqdan?), neresi? (qaer?, qayoq?)* so'roqlariga javob beradi.

Ravishlarning ko'pchiligi eski va yangi jo'nalish. o'rin-payt vaJ chiqish kelishigi shaklida bo'lgan ba'zi (soni unchalik ko'p bo'lmagan) otlar, olmosh va ravishdoshlardir: *iteri. geri. asagi. ym kan, beri, iceri, dtsart, dte, ah, iist, yon, karsi. uzak, yaktn. tin. urka, sag, sol. bura, sura, ora* kabi.

Bularning ichida eng faol qo'llanadiganlari: *iləri geri. asagi, yukart. beri. iceri; disart* ravishlaridir.

dte ravishi ilgari (eski turkchada) ravish sifatida qo'llanib keliibgan: *dte geqti* kabi. Bu hozirda faqat turk tilining ba'zi shevalaridagina saqlanib kolgan.

Alt, yen, karsi, uzak, yakm ravishlari kam qo'llanadi: *alt etmek, yan gelip yatmak, karsi gelmek. karsi qtkmak* kabi.

Uzak, yaktn so'zlarida ham ba'zan bir o'rin ravishi ifodas namoyon bo'ladi: *uzak durmak, yaktn gelmek* kabi.

Ayse iceri girdi (Oysha ichkariga kirdi). Araba geri yiiriitai (Mashina orqaga yurdi). Annem beni dtsanda bekliyordu (Ona meni tashqarida kutardi). Kalabahkta bnumde ve arkamda co insan vardi (Tiqilinchda oldimda va oixfamda juda ko'p odam be edi). Ucak kentin iistiinden geqti (Samolyot shahar ustidan uch' o tdi) va hok.

Payt ravishlari (zaman zarflan)

Payt ravishlari turli xildagi vaqt, zamon nomlaridir: *dun (geldi) yann (gidecek). simdi (yiiriyor), kisin (dinlendi)* kabi. Payt ravishlari ish-harakat va uning yuz berishini zamon ichida ko'rsatadi. Payt ravishlari sirasiga, asosan, quyidagilar kiradi: *dun (kecha). bugii (bugun). yann (ertaga). simdi (hozir). simdicek (hozirginth ge (tun. kecha). gunduz (kunduz). yazin (yozda), dentin (halt, boyal once (oldin, ilgari), sonra (songra. keyin), demincek (boyagina). e (erta). geq (kech). erken (erta). daha (hali, yana). kisin (sluia gene, yine (yana), aksam (oqshom), sabah (ertulab), sabahleyin (talablari), geceleyin (kechasi, kechalab). gunduzun (kunduzlari aksamleyin (oqshom, oqshomlari). simdilik (hozircha), arttk (endi sonra (so'ngra). bgleyin. bgleleyin (tush payti). ilkin (ilk. dastlab) eskiden (eskidan. qadimdan, ilgarilaii. oldin)* va hok.

Bu so'zlarga o'xshash o'nlaracha boshqa so'z turkumlariga oid so'zlar ham gap ichida payt ravishlari vazifasini bajarib kelishi mumkin.

Ravishlardan *daha (yana, hali)* aslida miqdor ravishidir, lekin u turk tilida payt ravishi sifatida ham *heniiz (hanuz. hali)* ravishi o'rnida qo'llanishi mumkin.

Turk tilida *sabahlart, gecelen, aksamlari, onceleri, sonralan* kabi ko'plik qo'shimchasi olgan shakllar ham vaqt ravishlari sifatida qo'llanadi.

Onceden, sonradan, eskiden, qoktan kabi chiqish kelishigi qo'shimchasi olgan shakllar ushbu kelishik shaklining qolipiashgan holda payt ravishiga aylanganligini ko'rsatadi.

Turk tilida, asosan, arab tilidan o'zlashgan quyidagi so'zlar nutqda keng qo'llanib kelinayotgan payt ravishlaridir: *evvela, daitna, hep. henii, hula, hemen, derhal, bazi, bazen, nihayet, ahir, ekseriye. ha/en, miitemadiyen* va hok.

Turk tilida fe'llarning ma'nosiga payt, zamon nuqtai nazaridan ta'sir etuvchi boshqa o'nlab so'zlar ham ravishlar vazifasini bajarishi mumkin. Bunday gaplarda ravish vazifasini bajaruvchi so'z yoki birikmani topish uchun *ne zaman? (qachon?), ne zamana kadar? (qachongacha?), ne kadar? (qancha (vaqt)?), ne za man dan beri?, ne zamandtr? (qachondan beri?)* kabi savollarni berish kerak:

Ahmet ne zaman dondii? (Ahmed qachon qaytdi?)
Ahmet dun gece dondii (Ahmed kecha kechqurun qaytdi).
Bit ne zamana kadar siirecek? (Bu qachongacha davom etadi?)
Bu yd sonuna kadar siirecek (Bu yil oxirigacha davom etadi).
Almanya'da ne kadar kalacaksm? (Germaniyada qancha qolasan?)
Almanya da iki hafta kalacagtm (Germaniyada ikki hafta qolanian).

Holat ravishlari (hal zarflan)

Holat ravishlari holat, tarz, ish-harakatning qanday, qay tarzda yuz berganligini, sabablarini, oqibat-natijalarini ifodalaydi. Shuning u chundir, holat ravishlarining soni boshqa turdagi ravishlardan ancha b'pdir. Barcha sifat nomlari, tenglik, o'xshashlik va vosita

shakllariga ega bo'lgan otlar turk tilida holat ravishi sifatida qo'liana I oladi: *iyi (yapmak), yavas (gitmek), giizel (yazmak), bir (kalkmak), 1 kardedqe (geeinmek), dostqa (konusmak), cahilcesine (hareket mek), durmaksiztn (ilerlemek)* kabi. Holat ravishlari, asosan, *nasd? 1 (qanday?), ne sekilde? (qay tarzda?, qanday shaklda?, qanday?)* j so'roqlariga javob beradi.

Holat ravishlari ish-harakatning yuz berish sabablari, oqibat-Я natijalarini ifodalaganligi uchun *nasd, niye, niqin* kabi so'roq ol-fl moshlari ham hozirgi zamon turk tilida payt ravishlari sifatida I qo'llanib kelinadi.

Aslida holat ravishlari deyilganda, dastawal xayolga *bbyle, syle, oyle* so'zlari keladi. Ular qolgan ravishlarning ham o'rnini osongina I bosa olgani uchun nutqda ko'p qo'llanadi:

Qocuk diisiinduklerini giizel anlatiyor.

(Sola o 'yiaganini chiroyli so 'zlab berayapti).

Aksarn yemegini birlikte yedik (Kechki ovqatni birga yedik).

Kadin yalniz yasiyordu (Ayol yolg iz yashardi).

Bu is artik bbyle gitmez (Bu ish endi bunday davom etmaydi) I va hok.

Miqdor ravishlari (azltk-qokluk zarflart)

Miqdor ravishlari ish-harakatning miqdorini, darajasini, ozlik-| ko'pligini ifodalaydi va *qancha?, nechta?, qay darajada?* I so'roqlariga javob bo'ladi. Ularning ham soni chegaralangan: *enM daha, pek cok, az, biraz, eksik, fazla, gayet, asm, hep, fevkaludeM miithis, kismen, azqok* kabi.

Miqdor ravishlaridan eng ko'p qo'llanadigani *en (eng)* rav* ishidir. Bu ravish yakka holda hech qanday ma'no ifodalamaydi vaj nutqda mustaqil qo'llanmaydi. U fe'ldan emas, faqat sifat va iavish-l lardan oldin keladi. *En* ravishi, sifat kabi qo'llanib, ma'noni kuchay-J tiradi. Uning so'z birikmasi va gap ichidagi o'rni yordamchi so'a kabidir: *en (giizel soz), en (cok calisan), en (iyi bilmek)* kabi.

Daha ravishi qiyos ma'nosini ifodalaydi. Bu ravish fe'ldan oldin kelib, payt ravishi kabi vazifa bajaradi, shuningdek, miqdorni haitil ifodalaydi: *daha (doymadim), daha (bitmedi), daha (gelmeyecem)* kabi. Bu ravish sifat va ravishlardan oldin kelib, sifat vazifasini ba-j

jaradi: *daha (hiyyuk ayakkabi), daha (qok qalismak), daha (net konusmak)* kabi.

Bunga *eksik, seyrek, sik, bol* kabi so'zlami ham ilova qilish mumkin: *eksik (vermek), seyrek (gormek), sik (goriismek), bol (su iqmek)* kabi.

lurk tilida *ziyadesiyle, fazlasiyle, cokca, hadsiz, hesapstz* kabi shakllar ham ozlik-ko'plik, ya'ni miqdorni ifodalaydi:

Hakan cok qalisti. ama qok az maas aldi.

(Hakan ko p ishladi, ammo juda kam maosh oldi).

Dunkii macta bizim takimimiz pek guzel oynadi.

(Kechagi machda bizningjamoamizjuda yaxshi o 'ynadi).

Ogretmen konuyu daha ktsa an/atti.

(() qituvchi mavmni yanada qisqa tushuntirdi).

So'roq ravishlari (soru zarflart)

Fe'llar va sifatlarning ma'nolarini so'roq yo'li bilan belgilab keluvchi *ne, nasd, nereden, niqin, neden, hani, ne biqim, ne kadar* kabi so'roq olmoshlari ba'zi turk tilshunoslari tomonidan so'roq ravishlari (*soru zarflart*) deb alohida guruhga ajratiladi:

Seme ben simdi neyapmaliyun? (Seningcha men endi nima qili-shim kerak?)

Anne bunlari nasd anlatacagiz? (Ona, bularni qanday tushitnti-ramiz?)

Seden basini egiyorsun? (Nimaga boshingni egasan?)

Bu Selime dedikleri ne biqim kiz? (Bu Salima deganlari qanaqa qizo'zi?) kabi.

Ravishlarda qiyos, kuchaytiruv va kichraytiruv

Ravishlar bilan sifatlar vazifalari o'xshash ikki alohida so'z turkumidir. Agar sifatlar otlarning belgisini bildirsa, ravishlar fe'l va s^s,fatlarni aniqlab, belgilab keladi. Shu sababdan bu ikki so'z lu rkumining «eshiklari» bir-biriga ochiq va ular bir xilda shakllanib, darajalanadi. Sifatlarda bo'lgani kabi ravishlarda ham qiyos, kuchay-tiruv va kichraytiruv shakllari mavjud.

Ravishlarda qiyos. Ravishlar va ravish sifatida qo'llanadigan so'zlar o'zlari ifoda etgan belgi-xususiyat yoki ish-harakatning avjiga ko'ra uch darajada sanab o'tiladi: *ileri gitmek, daha Heri gitmek, en ileri gitmek; koyu yesil, daha koyu yesil, en koyu yesil* kabi.

Bu shakllarga turk tilshunosligida qiyos ravishlari deyiladi. Ularning darajalari ham sifatlarda bo'lgani kabi *tenglik* (o'xshashlik) *darajasi, orttirma daraja* va *ustunlik darajasi* hisoblanadi.

Qiyos ravishlari qiyos sifatlariga o'xshaydi. Tenglik darajasini yuzaga keltiruvchi *kadar* va *gibi* yordamchi so'zlarini keltiramiz. Bulardan birinchisi miqdor, ikkinchisi xususiyatga ko'ra qiyoslaydi:

Osman bir at kadar hizh yüriir (Osman bir ot qadar tez yuradi).

Osman bir at gibi htzli yüriir (Osman bir ot kabi tez yuradi).

Ravishning bunday shakllari sifat darajalariga o'xshab yasaladi:

Ozgiir yemegini en once bitirir, Selma en sonra.

(O 'zgur ovqatini eng oldin tugatadi, Salmo eng oxirida).

Ravishlarda kuchaytiruv. Fe'l va sifatlardan oldin kelib. ish-harakat yoki belgini kuchaytiruvchi ravish shakliga ravishlarda kuchaytiruv deyiladi. Ular shaklan sifatning orttirma darajasiga moskeladi. Hatto bunday shakllarni sifat darajasidan boshqa narsa emas, deyish ham mumkin: *biisbutiin haksiz (to la nohaq), giipegundiiz soy mak (kuppa-kunduz o'g'irlab ketmoq), dosdogru konusmak (to ppa-to g 'ri gapirmoq)* kabi.

Xuddi sifatlarda bo'lgani kabi ravishlarda ham kuchaytiruv ravishlarning ikkilanishi yo'li bilan yasaladi: *az az, erken erken, yavas yavas, giizel giizel* kabi.

Shuningdek, turk tilida otlar ham ikkilanish yo'li bilan kuchaytiruv ravishlariga aylanishi mumkin: *adim adim (izlemek), diikka dukkan (dolasmak), tone tone (saymak)* kabi.

Ravishlarda kichraytiruv. Fe'l va sifatlardan oldin kelib. ish-harakat yoki belgining kichraytirib, ozaytirib ko'rsatilishiga kichraytiruv deyiladi. Ravishning bunday shakllari xuddi kichraytiruv sifatlari kabi so'z negiziga *-ee, -rek, -cik, -cek* yasovchi qo'shimchalar qo'shilib yasaladi.

Kichraytiruv shakllari, sifatlar kabi darajalanadi:

Kisaca = biraz kisa = oldukca kisa = pek kisa. Masalan: *Oturup. kisaca anlatti (O tirib. qisqacha so zlab berdi). Biraz kisa yapabilir misin? (Biroz qisqa qila olasanmi?) Ogrenci komtyu oldukca kisa anlatmis (Talaha mavzuni ancha qisqa aytib beribdi). Pek kisa olmasin (Juda ham qisqa bo Imasin).*

Sifatlardan darajalangan kichraytiruv ravishlari, ko'proq *-ce* qo'shimchasi yordamida yasaladi. Uning sifat yasovchi *-ce* qo'shimchasidan farqi faqat urg'udadir. Ravish yasovchi *-ce* qo'shimchasi har doim urg'uli bo'ladi: *uzunca konusmak. erkence kalkmak, luzlica vuriimek. fazlaca yemek* va hok.

-cek yasovchi qo'shimcha vositasida yasalgan kichraytiruv ravish shakllari ham *-ce* kabi vazifa bajaradi: *simdicek, demincek, cabucak, tezcek* kabi.

-cik yasovchi qo'shimchasi vositasida yasalgan kichraytiruv ravish shakllari turk tilida juda kam qo'llanadi: *incecik, ufacik, kiiciicik, azactk* kabi.

-rek yasovchi qo'shimchasi olib yasalgan kichraytiruv ravish shakllari juda nodir. Uni bor-yo'g'i bir necha so'zda uchratish mumkin: *ufarak, eksirek* kabi. Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, hozirgi zamon o'zbek tilida *-roq* yasovchisi vositasida yasalgan ravish kichraytiruv shakllari juda faoldir: *yaxshiroq o'ylab ko'rmoq (daha iyi, iyice diisftnmek), qisqaroq tushunirmoq (kisaca anlatmak. kisa aciklamak), chiroyiiroq kiyinmoq (daha giizel giyinmek)* kabi.

FE'L (FUL)

Turk tilshunosligida ish-harakat, holat, umuman, bajarilgan ish, bo'lib o'tishni anglatuvchi so'zga *fe'l (fiil)* deyiladi: *gitmek, vcrmek, buynmek, yapmak, kdmak, oturmak, durmak, uyuniak, esmek* va hok. 1-e^{liar} turk tilida *eylemeler* ham deyiladi. *Eylem* atamasining lug'aviy ma'nosi «ish-harakat» (harakat) dir. Aslida. **JKf** atamasi turk hliga arab tilidan o'zlashgan bo'lib, hozirgi zamon turk tilidagi *eylem* grammatik atamasiga sinonim hisoblanadi. Bu yerda yana sbum^{la} kidlash joizki, turk tilidagi fe'llarning asosiy qismi, boshqa so'z turkumlaridan farqli o'laroq, deyarli sof turkiy so'zlardir.

Harakatlar butun jonh mavjudotlar va predmetlammg makon va^{2a} mon ichida o'z joymi o*zgartirishi, siljishidir- Boshqacha ayt-

ganda, fe'llar jonli mavjudot va predmetlarning harakati, holati, bo'lishi, ish bajarishi, qisqasi, ularning barcha faoliyatini ifodalovchi so'zlardir. Harakat yoki holat, yuz berishning xarakteriga ko'ra fe'llar quyidagicha nomlanadi:

Harakat fe'llari: *gelmek. almak. tasimak.*

Holat fe'llar i vat mak, susmak, beklemek;

Bo'lishli fe'llar: *doymak, uzamak, kararmak (Bo'lishsizi: d mamak. uzamamak, kararmamak);*

Fe'llar, turk til bilimida umumiy qilib, bildirilgan tushunl chalarga ko'ra lo'rt asosiy guruhga bo'lib ko'rib chiqiladi, bu: ishl (*yemek. iqmek, yxkamak, ezherlemek, okumak*), bo'lish (yuz berishu (*güzel I es mek, btiyiimek, kuqulmek, asagilanmak*), harakat (*gitmek,} kaqmak. cikmak. girmek. yiizmek, firlamak*) va holat (*oturmak, uyuk-l lamak, sevinmek, ayaklanmak, bulunmak*) kabi.

Shuningdek, fe'llarni umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan. engj katta so'z zahirasiga ega bo'lgan mustaqil so'z turkumi sifatida, olinib, ma'no xususiyatlariga ko'ra quyidagi semantik belgilarga ko'ra guruhlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Faol va aniq ish-harakatni ifodalovchi fe'llar: ***gitmek. gelmekM cikmak, yiiriimek, gezmek, kosmak, atmak, vurmak, yapmak;***

2. Jismoniy holatni ifodalovchi fe'llar: ***uzanmak, yatmak. uyiA mak, durmak, oturmak;***

3. Ruhiy holatni ifodalovchi fe'llar: ***uziimek, kizmak. acimalck korkmak. sevmek, sinirlenmek;***

4. Fikrlashni ifodalovchi fe'llar: ***dusiimek. anlamak, unit t mak, planlamak. tasarlamak, haiirlamak;***

5. So'zlash, nutqni ifodalovchi fe'llar: ***konusmak, demek, soylek mek;***

6. Tovush, ovoz chiqarishni ifodalovchi fe'llar: ***Ba&zmaII qagirmek, haykumak, seslenmek, mirildanmak;***

6. Yashash, bor bo'lish, kun kechirishni ifodalovchi fe'llar: ***ol-l mak. yasamak. bulunmak. bartmak. kalmak, geqinmek;***

7. Munosabatni ifodalovchi fe'llar: ***davrunmak, onemsemem horlamak, hafifsemek, kibirlenmek, evlenmek, ayrdmak;***

8. O'zini tutish, hatti-harakat manerasini ifodalovchi fe'llar: ***cm saretenmek. kandirmek. dolandirmek;***

10. Belgi, alomat, ko'rinish (namoyon bolishi)ni ifodalovchi fe'llar: ***starmak. nazlanmak. gbziimek. gdhinmek;***

11. Faoliyat turi, mashg'ulotni ifodalovchi fe'llar: ***qahsmak. korumak. okutmak, egitmek. ogretmek;***

12. Bir narsani qila olish, amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish, bilishni ifodalovchi fe'llar: ***yapabilmek. ogrenebilmek;***

13. Olish, topish, bir narsaga ega bo'lishni ifodalovchi fe'llar: ***almak. bulmak, sahiplenmek. benimsemek;***

14. Modal fe'llar: ***istemek. dilemek;***

Turk tilida fe'llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) ***mustaqil fe'liar;*** 2) ***yordamchi fe'liar;***

Mustaqil fe'llar mustaqil ma'noga ega bo'lib, ish-harakat, holatni to'la ifodalaydi va gap ichida uning bo'lagi sifatida boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishgan holda ularni boshqaradi: ***gezmek. kosmak. dusiimek, anlamak. konusmak*** kabi.

Shuningdek. mustaqil fe'llar grammatik kategoriyalar. vazifadosh shakllarga egadir.

Yordamchi fe'llar mustaqil ma'noga ega bo'lmaydi va shu sabbdan ish-harakat, holatni mustaqil ravishda ifodalay olmaydi. Ular turli grammatik ma'nolarni ifodalash, xususan, so'z yasash uchun xizmat qiladi va bog'lash vazifasini bajaradi: ***et-, ol-, kd-, eyte-. Tesekkiir etmek, mullu olmak, gerekli kdmak, rahmet eylemek*** kabi. Yordamchi fe'llar fe'l va fe'l bo'lmagan so'zlar bilan birgalikda qo'llanib, qo'shimcha ma'no ifodalaydi, fe'llaming analitik shakllarini yasaydi.

Fe'llarning tuzilishi
(*fillerin yapisi*)

I'e'lning noaniq shakli turk tilida ***mastar*** yoki ***infinitifdeb*** ataladi. Bu shakl o'zak (yoki negiz) va ***-mek (mak)*** qo'shimchasidan borat: ***bilmek. bilinmek, dusiimek, diisiindiirmek. kalmak, kaldir-Hu k. tutmak. tatlandirmek*** kabi. Turk tilida fe'lning o'zagi b'linmasdir (***yap-***), ammo negizi kichik ma'no birliklariga b*linishi mumkin (***vap-tir-t-d-mak. vap-tir-t- mak. vap-tir- mak. Y<*P-mak***).

Fe'ning ko'rinishlari (*filin catisi*)

Ma'lumki, gap ichida ish-harakatning amalga oshishida ot turiicha ko'rinishga ega bo'ladi: ta'sir ko'rsatadi, ta'sirlanadi yoki bo'lishsiz munosabatda bo'ladi. Bunga mutanosib ravishda fe'l nel gizi turli ko'rinishlarga kirib, otning gap ichidagi vaziyatini belgi-j laydi: *Ahmet dbv-dii*, *Ahmet dov-iil-dii*, *Ahmet dbv-me-di* va hok.

Fe'l o'zagining tuslanishdan oldin olgan bunday shakllari uning *ko'rinishi (aspekt yoki can)* deyiladi. Turk tilida fe'lning oiganj bunday ko'rinishlari turiicha (6 xil) bo'lib, ularning har biri maxsud qo'shimchalarga ega bo'ladi va birgalikda *filin catisi* deyiladi! Boshqacha aytganda, fe'llarning vositasiz to'ldiruvchi (*nesne*) olishij yoki olmasligi, yoki bo'lmasa, gap egasining holatiga ko'ra qo'shimchalarning fe'l o'zak va negiziga qo'shilib, yangi fel yasalishiga can yoki *goruniis* deyiladi.

Fe'llar vositasiz to'ldiruvchi (*nesne*) olishiga ko'ra 1. *otimlil (gecikli)* va 2. *o'timsiz (gecissiz)* ga bo'linadi.

Fe'llar gapning egasiga ko'ra ham quyidagi olti turga bo'linadi 1. *bo'lishli ko'rinish (yalm gdrunus) - dov-mek;* 2. *bo'lishsiz ko'finish (olumsuz gdrunus) - dov-me- mek;* 3. *o'zlik nisbati ko rinishi (edilen gdriinii) - dov-iil-mek;* 4. *majhul nisbat ko rinishi (ddniislu goruniis) - dov-iin-mek;* 5. *birgalik nisbati ko 'rinishi (karstlikli gdrunus) - dov-us-mek;* 6. *orttirma nisbat ko'rinishi (ettirf gbriniisii) - dov - dur - mek* kabi.

Fndi yuqorida sanab o'tilgan ko'rinishlami birma-bir ko' chiqamiz.

O'timli va o'timsiz fe'llar (*gecikli ftil, gecissiz fid*)

Fe'l tuslanishida ish-harakat o'zak yoki negizda ifodalanadil Fe'ldan anglashilgan harakat yo tashqariga, yo ichkariga yo'nalgaij bo'ladi, ya'ni predmetga harakat tashqaridagi harakatni amalga oshiruvchiga yo'nalgan bo'ladi. Fe'l ot(ega), yoki bo'lmasa boshqi so'zga ta'sir etadi. Shu nuqtai nazardan fe'llar ikki asosiy guruhga

bo'linadi: *o'timli* fe'llar va *o'timsiz* fe'llar. Bunga fe'lning ma'no phatdan ham bo'linishi deyiladi. Sodaroq aytganda. ba'zi fe'llar vositasiz to'ldiruvchi oladi, ba'zisi esa olmaydi. Vositasiz to'ldiruvchi oluvchi fe'llar *o'timli*, vositasiz to'ldiruvchi olmaydigan fe'llar esa *o'timsiz* fe'llar bo'ladi. Masalan: *Bans Bey kitabi aciyor (Barish Bey kitobni ochyapti)* gapida *Bans Bey* ning qilgan ishi *kitap* ga ta'sir etmoqda. Shu bois *aciyor* fe'li *o'timli* dir. Bu gapdagi *kitap* so'zi ega amalga oshirgan ishni belgilagan va fe'lning ma'nosini toldirib kelgan.

O'tindi fe'llar. Harakati boshqasiga qaytgan, ya'ni gap ichida bir predmetga (borliqqa) ta'siri bo'ladigan fe'llarga *o'timli fe'llar (gecikli fuller)* deyiladi: *kir-, cek-, ara-, bul-* kabi. *O c ami kirdi. kapiyi cekti, birisini aradi, babasini buldu (Uoynani sindirdi, eshikni tortdi, birini qidirdi, otasini topdi)* va hok.

Ta'sirni qabul qiluvchi borliqning nomi ko'pincha *kimni? (kind?) kim? (kim?)*, ba'zan esa *kinga? (kime?)* savollariga javob bo'ladi va gapda vositasiz to'ldiruvchi (*nesne*) vazifasini bajaradi: *AH motoru getirdi (AH motorni keltirdi). Birlikte corba iceriz (Birga sho rva icliamiz). Qok paraya kiymissuuz (Juda ko 'p pul ishlatibsiz)* va hok.

Bu misollarda fe'llarning otlarga ta'siri ko'rinib turibdi. O'timli fe'llarda harakat bilan o'sha harakatni amalga oshiruvchi (ega)dan boshqa bir predmet ham mavjud. Bu vositasiz to'ldiruvchi (*nesne*) dir. Harakat o'sha predmetga qaratilgan va uni o'z ta'siri ostiga olgan, ya'ni harakat o'sha predmet ustida amalga oshiriladi. O'timsiz fe'llarda esa harakat va uni bajaruvchisi (ega)dan boshqa uchinchi unsur, ya'ni ega va u amalga oshiradigan ish-harakatdan boshqa narsa (predmet) yo'q. O'timsiz fe'llarda ot (ega) harakat bilan yak-kama-yakka holatda bo'ladi, ish-harakat vositasiz to'ldiruvchiga o'tmaydi, uning o'ziga qaytadi.

O'timsiz fe'llar. Harakat gapning egasiga yo'nalgan fe'llarga *o'timsiz fe'llar (gecissiz filler)* deyiladi (*yat-, kalk-, dur-*). *O yatti. balkti, durdu (V yotdi. turdi, to'xtadi)* misollarida ish-harakatning boshqasiga o'tmaganligi va faqat egaga yo'nalgan ekanligi aniq ko'rinib turibdi. Demak, o'timli fe'llarda harakat boshqa predmetga o'tmaydi, o'timsiz fe'llarda o'tmaydi. cganing o'zida qoladi. Fe'llarning

gap ichida biror bir borliq, predmetga ta'siri bo'lmaydi. Ular ga ichida vositali to'ldiruvchi (tumlec) bo'ladi: *Arkadasnn Konya'da geldi (O'rtog'im Konyadan keldi). Yann evde oturalun (firm uyda o' tiraylik). Biz Osktidar 'a geqecemiz (Biz Uskudarga o (am va hok.*

Holat va boTishni ifodalovchi fe'llar, ko'pincha, o'tinr bo'ladi: *Her giin yazihanede bulunurum (Har kitni yozuvxona bo'laman). Yemek pisti (Ovqat pishdi). Biraz daha biyiyimelisi (Yana ozgina katta bo lishingiz kerak)* va hok.

Qo'llanish o'rni va ma'no farqiga ko'ra ham fe'llar o'timli o'timsizga ajratiladi: *Ktrlarda qiçek topladik (Qirlarda gitar le dik). Yazin biraz dinlenmissin (Yozda bir oz dam olibsan). Eve b kat qikacagiz (uyga bir qavat chiqamiz). Yann Uludag'a qikaca" (Ertaga Vludoqqa chiqamiz)* va hok.

Bunday fe'llar turk tilida o'rtoq fe'llar deyiladi. Fe'lning o'~ va negizi ish-harakatni boshlang'ich shaklda ifodalaydi va bu hola qo'lanish sohasiga chiqmaydi. Shuning uchun ularning boshlang' holatlari *yap-, kes-, ot-, git-, ver-, otur-, uyu-* shaklida yoziladi.

Xulosa shuki, o'timli fe'llar ish-xarakatning bajarilishi o'timsiz fe'llar esa yuz berishi (bo'lishi)ni ifodalaydi. Fe'l boshlang'ich shaklda xoh o'timli, xoh o'timsiz bo'lsin, ma'lum ish bajaruvchi shaxsni talab qiladi. Shu bois passiv ko'rinish qarshi ida faol ko'rinish namoyon bo'ladi: *kirdmak* emas *kirmak*.

Turk tilida o'timsiz fe'llarga *-dir (-tir)* qo'shimchal qo'shilganda ular o'timli fe'llarga aylanishi mumkin. Masalan: *An besigin uzerinde uyudu (o'timsiz); Anne qocugunu uyuttu (o'tind* Yoki *Kiz delikanhya guldii (o'timsiz); Kiz delikanliyi gitldii (o'timli).*

Fe'larda bo'lishilik va bo'lishsizlik

Yuqorida fe'llarning gap egasiga ko'ra olti turga bo'lini ta'kidlandi va undan birinchisi *bo'lishli ko'rinish (yaln goriin olumlu goriinus)* va ikkinchisi *bo'lishsiz ko'rinish (olums goriinus)* ekani aytib o'tildi.

MaTumki, fe'llar boshqa so'z turkumlariga nisbatan boy va murakkab grammatik kategoriyalarga ega. Shu nuqtai nazardan, fe'llarga bir nechta grammatik kategoriyalar xosdir.

Fe'l o'zagining qo'shimchalar olmagan holatiga boshlang'ich ko'rinish (fe'lning noaniq shakli) deyiladi. Ular bir bo'g'snli o'zak yoki turli yasovchi qo'shimchalar bilan otdan yoki fe'ldan yasalgan fe'l negizlari bo'lishi mumkin: *geq-mek, dene-mek, yat-utak, ut-tttak, qarp-mak, ara-mak* kabi.

Fe'lning noaniq shakli, bo'lib o'tgan ish-harakatni tasdiqlaydi, ma'qullaydi va *bo'lishli, bo'lishsiz* ko'rinishlarga ega bo'ladi. Noaniq shakl tugal ma'noni ifodalash uchun muayyan ish bajaruvchi shaxsni talab etadi.

Fe'lning bo'lishsiz shakli (*olumsuz goriinus*). Fe'lning bo'lishsiz shakli fe'l o'zak yoki negiziga *-me, -ma* qo'shimchasi qo'shish orqali yasaladi. Bu qo'shimcha urg'usizligi bilan harakat nomlarida uchraydigan *-me* qo'shimchasidan farqlanadi (*gel-me-di; gel-me, oku-ma-di*). Fe'lning barcha ko'rinishlari ushbu qo'shimcha yordamida bo'lishsiz ko'rinish olishi mumkin: *tepmek - tepmemek, tepilmemek, tepinmemek, tepismemek, tepindirmemek* kabi.

Shu tarzda bo'lishsiz negiz fe'l ifodalagan ish-harakatning amalga oshmaganligi, yuz bermaganligi, bo'lmaganligini bildiradi: *Diigiine gitmeyeregiz (To'yg'a hormaymiz). Kapt aqilmtyor (Eshik ochilmayqpti). Has/a olmadim (Kasal bo Imadim)* kabi.

Yana shuni aytish kerakki, turk tilida *degil* so'zi ham bo'lishsizlikni ifodalashi mumkin: *degil-im, degil-diniz, degil-sek* kabi.

Fe'l nisbatlari. Fe'lning passiv (nisbat) shakli (*fillerin pasif sekileri - edilen goriinus*)

Fe'lning passiv shakli fe'l o'zak yoki negiziga *-il* qo'shimchasi 4o'shilishi orqali yasaladi: *O Sivas'a gonderilecek (U Sivasga Jo'natiladi). Arabamn cami kinlmis (Mashinaning oynasi sinibdi)* kabi. Bu yerda bir ot ma'lum yoki noma'lum boshqa bir ot vositasida fe'lning ta'siriga uchraydi: *O Sivas'a* (biri tomonidan)*gonderilecek. A'ubanin cam* (biri tomonidan) *kinlmis* kabi.

Mantiqan egasi noma'lum bir olmosh bo'lgan gapni ham passiv ko'rinishdagi fe'llar yordamida yasash mumkin: *Oradan eve gidilir (U yerdan uyga ketdadi). Bir haber gonderilir (Bir xabar yuboriladi)* kabi.

Unli yoki -/- tovushi bilan tugagan negizlar passiv ko'rinishda -*in* qo'shimchasi oladi (*bil-in-mek, basla-n-mak*). Shu bois ba'zi fe'l negizlaridan kelgan passiv va majhul nisbat ko'rinishlari adash bo'lishi mumkin: *sil-in-mek* (birov tomonidan o'chirilmoq) va *sil-in-mek* (artilmoq, o'zini o'zi (ro'yxatdan) o'chirmoq); *koru-n-mak* (bin tomonidan muhofaza qilinmoq, qo'riqlanmoq); *koru-n-mak* (o'zini o'zi muhofaza qiimoq). Bir bo'g'indan iborat ba'zi fe'l o'zaklari passiv ko'rinishda ustma-ust -*in* va -*ii* qo'shimchalarini olishi mumkin: *de-n-il-mek* (deyilmoq), *ko-n-ul-mak* (qo'yilmoq), *ye-n-il-mek* (yeyilmoq), *ye-n-il-mek* (yengilmoq) kabi. Buni istisno holat deyish ham mumkin.

Majhul nisbat (*donuslii gbriinus*)

Fe'lning majhul nisbat shakli fe'l o'zak yoki negiziga -*in* qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasaladi va shu tarzda fe'lning ta'siri otga qaytgan bo'ladi: *Ayse yikandi. tarandi. giyindi (Oysha yttvindi, tarandi, kiyindi). Gripten korunmalism (Gripdan himoyalanishing lozim)* kabi.

Fe'lning ta'siri otga to'g'ridan-to'g'ri yoki vositali ravishda qayladi. Birinchi holatda ot gapning vositasiz to'ldiruvchisi bo'ladi: *Aid met doviindii. = Ahmet kendini dovdii (Ahmad o'zini o'zi wdi). Yt4 kanacak mismiz? = Kendinizi yikayacak misimz? (Yuvinasizmi? U O'zingizniyuvasizmi?)* kabi. Bu turdagi majhul nisbat fe'llar nutqda faol qo'llanadi va o'timli fe'l deyiladi. Ikkinchi holatda fe'lning ta'siri otga qaytgan bo'lish bilan birgalikda gapning boshqa bin vositasiz to'ldiruvchisi bo'ladi, lekin u otning o'zi emas: *Sibel bin elbise dikinmis. - Sibel kendisine bir elbise dikmis (Sibel o'zii>a bin ko'ylak tikibdi). Bavulu yuiklendim. = Bavulu kendime yuikledim (Katta sumkani ustimga yukladim)* kabi. Bular o'timli fe'llar* hisoblanadi.

Turk tilida fe'lning majhul nibati va o'zlik olmoshlari orasida ifoda o'xshashligi (tenglik) mavjud: *Evde kapanmayin.j. Kendinizi.*

eye kapamayimz (Uyda bekinib olmag). Qok seyleryapinmissm. Kendine cok seyler yapmtssin (O'zingizga juda ko'p narsa qilibsiz) kabi.

Turk tilida fe'lning majhul nibatlari ma'no jihatdan boy va ular lug'atlardan keng o'rin olgan: *edinmek, kacinmak, goriinmek* va hok.

Birgalik nisbati (*karsdikli gbriinus, istes sekil*)

Fe'lning birgalik nisbati fe'l o'zak yoki negiziga -*is* qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasaladigan shaklidir. Bunda ikki shaxs yoki predmet birgalikda ish-harakatni amalga oshiradi, shuning uchun ham bu shaklning nomi *istes sekil*, ya'ni "ishdosh"dir: *AH He Veli gdrisstiler (AH bilan Vali ko rishdilar). O giin iki aile lamsacakii (O'sha kuni ikki oila tanishishi kerak edi). Seninle dovusmus (Sen bilan do pposlashibdi)* kabi.

Bu yerda fe'lning ta'siri har ikki shaxsga qaytgan. Bu qaytish ham to'g'ridan-to'g'ri yoki vositali ravishda yuz beradi. Birinchi holatda ikki shaxs ham bir-biriga ob'ekt bo'lib xizmat qiladi: *All He Veli goriistiler. = AH Veliyi, Veli Aliyi gordii. O giin iki aile tamsacakti. = O giin birinci aile ikincisini, ikinci aile de birincisini tamyacakti* kabi.

Bu yerda fe'llar o'timsiz, lekin mantiqan ikki tomonli o'timli bo'ladi.

Ba'zi hollarda gap ichida vositasiz to'ldiruvchi qatnashadi: *Oguz He Serdar bit tarlayi bolustiiler. = Ikisi aralarinda bolduler (O'guz bilan Sardor bu dalani bo'lishdilar Ikkalalah o'zaiv bo'lishib oldilar). Onlar yazistyorlar. = Birbirlerine (mektup) yaziyorlar (Ular yozishadilar. = Ular bir-birlariga inaktub yozadilar)* kabi.

-*is* qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasalgan birgalik nisbatining Y^ana bir ko'rinishi turk tilshunosligida *isbirligi goruniisii*, ya'ni *nanikoiik ko'rinishi* deyiladi. Bu yerda ham ega ko'plikda ikkidan o'niq bo'lish bilan birga, ish-harakat birgalikda amalga oshiriladi: *Socuklar guliisuyorlardi. Kuslar ucusuyorlar* kabi.

Shuni unutmaslik kerakki, hozirgi zamon turk tilida -*is* yasovchi Ro'shimchasi yordamida boshqa shakllar ham yasalgan va ularni bir-

galik nisbati shakli bilan aralashtirib yubormaslik kerak: *qahsmak, hansmak, yakismak, yanltsmak. konusmak* va hok.

Orttirma nisbat (*ettiren goruniis*)

Fe'ning orttirma nisbati fe'l o'zak yoki negiziga *-dir-, -it-, -ir-* qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasaladi. Bunda gapning egasi g bevosita ish-harakatning bajaruvchisi bo'lmaydi va boshqa otni ish-1 harakatning bajaruvchisiga aylantiradi: *Sacini kestirmissini (Sochingni kesdiribsan). Komsum ustaya bir cardak yaptirdi I (Qo shnim ustaga bir chordoq yasadtdi). O mektubu size okutucugtm I (U maktubni sizga o qitaman). Zeynep cocuga sutii icirdi (Zaynab I bolaga sutni ichirdi)* kabi.

Bu yerda qatnashishi yoki qatnashmasligidan qat'iy nazar. ikki | ot(ega) bor. Biri grammatik nuqtai nazardan ot-ega, ishni bajartiru-i vchi (yuqoridagi gapdagi *komsu* va *Zeynep*), ikkinchisi mantiqan ot-i ega (*usta, cocuk*). Ko'pincha jo'nalish kelishigida kelgan va gap J ichida grammatik jihatdan eganing mantiqan to'ldiruvchisi bo'lgani mantiqiy ega ta'kidlanmagan bo'lsa, bir savol bilan yuzaga chiqadi: |

- *Saqtmi kestirdim.* - kimga? - *Berbera (sartaroshga).*
- *Sit tit icirdi.* -kimga? - *Qocuga (bolaga).*

Albatta, bunday gaplarda har doim grammatik vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etadi.

Undan tashqari, orttirma nisbatda faqat ish bajarish emas, bir] narsa, voqea-hodisaning bo'lishi, ro'y berishi ham mumkin: *Kaawk onu guldirdii (Ayol uni kuldirdi). Sqfor arabayi durdurdu (Shofyoti mashinani to'xtatdi). Bekqi isiklart sondiirdu (Qorovul chiroqlarinn o 'chirdi). Firsati kacirmayimz (Fursatni qo 'Idan boy bermang). Bu yolu kisaltacaklar (Bu yo Ini qisqartiradilar)* kabi.

Turk tilida orttirma nisbat, asosan, *-tir-* qo'shimchasi yordamidaj yasaladi (*dbndiirmek, sevdirmek, saldtirmek*) Bu qo'shimcha eskij turkchadagi *-it-* va *-ir-* fe'l orttirma nisbati qo'shimchalarinifni ustma-ust kel ishi natijasida yuzaga kelgan.

-it- qo'shimchasi unli bilan tugagan fe'l negizlariga, shuningdek, *-r* va / sonor undosh tovushlar bilan tugagan fe'l negizlarigflf qo'shiladi. Ushbu qo'shimcha undosh tovushlar bilan tugagan fe'J

negizlariga qo'shilganda *-it-* qo'shimchasidan *-i-* unlisi tushib qoladi: *helir-t-mek, olur-t-mak, kisal-t-mak, bunal-t-muk. iisii-t-mek. aci-t-mak, anla-t-mak* kabi.

Turk tilida ba'zi qattiq undoshlar bilan tugagan o'zaklarga ham *-BI-* qo'shimchasi qo'shilishi mumkin (*ak-U-mak. kork-ut-mak*).

Turk tilida fe'lning orttirma nisbat shakllari ma'no jihatdan boy va ularga lug'atlardan keng o'rin berilgan.

-ir- (*-tr-, -iir-, -ur-*) qo'shimchasi ba'zi bir bo'g'inli fe'l o'zaklariga qo'shilib keladi: *pis-ir-mek, gec-ir-mek, yat-tr-mak, uc-ur-mak, sis-ir-mek. kac-tr-mak, doy-ur-mak, dog-ur-mak* kabi.

Orttirma nisbati shakli gap egasining bir ishni boshqa shaxsga bevosita qildirishi va uning bir ishni boshqa shaxslarga vositali rav- ishda qildirishi, bajartirishiga ko'ra ikki darajali bo'lishi ham mum- kin: *yaptirtmak. gecirtmek* kabi. Bunday holatda gap ichida uchta ot bo'ladi (*Ayakkabtni yaptirttim*): *Ben - hizmetci - ayakkabict.* Bunda qo'shimchalar ketma-ket *-tir-* va *-ir-* + *-it-* + *-tir* shaklida keladi (*kes-tir-t-mek, dog-ur-t-mak, ktsal-t-tir-mak*). Ushbu shakl murak- kab orttirma daraja (*katmerli ettirgen eylem*) deyiladi.

Bebek uyudu (chaqaloq o 'zidan o 'zi uxlab qolgan);

Anne bebegi uyuttu (chaqaloqni onasi uxlatgan)

Anne bebegi dadiya uyutturdu (onasi chaqalog'ini enagaga ttx- lattirgan).

Ikkinchi gapda ona (gapning egasi) ishni bevosita chaqaloqqa bajartirgan. Uchinchi gapda esa, ona (gapning egasi) ishni boshqa shaxs (masalan, cnaga) vositasida amalga oshirgan. Shu sababdan murakkab orttirma daraja turk tilini o'rganuvchilar uchun qiyin- chiliklar tug'diradi. Lekin shu bilan birga faqat turkiy tillardagina uchraydigan bunday fe'l shakli nutqni yanada ixchamtashtiradi. so'zlar tcjaladi\

Agar turk tilidagi ushbu shaklni rus tilidagi muqobili bilan qiyesiyadigan Isak ushbu shaklning turk tilida nechog'li **samarali** ekanligiga amin lamiz. Masalan: *6g/eiinen ogrencilere kompozisyon yazdirdi* gapini >аца shundav uirjima qilish mumkin: Учитель заставил студентов нали- Пj! сочинение (*Ogretmen ogrencileii kompozisyon yavnaya mejbur etti*) iu'! ^u _'cr^c brch 4^{an} day majburlash yo'q. Faqat rus ulida ushbu b"apni rkt' hada bcnlgani singari ixcham ifoda etishqiyin.

Ko'p vazifa bajaruvchi fe'l nisbat qo'shimchalari

Turk tilida ba'zi qo'shimchalar birdan ortiq vazifalarni ham bajarishi mumkin. Masalan, *-/, -n* qo'shimchalari ham o'zlik, ham majhul, hani orttirma nisbat shakli yasashda qo'llanishi mumkin: ***Kapi atddi - Arabayikandi; Ahmetyoruldu - Ayseytkandt*** kabi.

Turk tilida ba'/an fe'llar bir necha turli ko'rinish qo'shimchalar bo'lishi mumkin. Bunday shakllar ***cok catdi eylemler*** (ko'p nisbatli fe'llar) deyiladi. Bunga quyidagi misollarni berish mumkin:

Mustafa Bey dekanla tamstmlidi. (*tarn -s-t ir-d - di*)

(Mustafa Bey dekan bilan tanishtirildi).

Ahmet Beyablasiylagorusturildi. (*gbrii -s- tiir-id -dii*) j

(Ahmad Beyopasi bilan uchrastirildi).

FE'LLARNING TUSLANISHI

(Fiillerin cekimi)

Fe'lning o'zak va negiziga shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida o'zgarishiga ***tuslanish (fil cekimi)*** deyiladi. Bunda fe'l o'zak va negizi ifoda etgan ish-harakat predmetlarga bog'langan holda nutqda qo'llanadi. Fe'lning zamon qo'shimchalari olgan va shaxs-son qo'shimchalari olishga tayyor shakliga fe'lning negizi ***(filin govdesi)*** deyiladi. Fe'l tuslanishida zamon kategoriyasi asosdir. Fe'llar tuslangan shaklda gapda kesim bo'ladi va fikmi tutilgallaydi. Aslida fe'l negizi turk tilida fe'lning boshlang'ich shakli o'laroq faqat buyruq maylining 2-shaxsida namoyon bo'ladi: ***kd-f kes-, dur-, ol~, buyii-*** kabi.

Shu tarzda fe'llarning qo'llanish sohasiga chiqqan shakllar tuslangan shakllar deymiz. Shu bois fe'l so'z sifatida olinganda faqat uning tuslangan shakli tushuniladi: ***yazytor, goturecegim, guvenme* yiniz*** kabi.

Fe'l tuslanishida kamida uch unsur mavjud bo'lishi kerak: 1. o'zak yoki negiz; 2. Shakl va zamon qo'shimchasi; 3. Shaxs-son qo'shimchasi. ***Gel-di-m, gecir-mis-sin*** misollarida bu uch unurni ko'rish mumkin. Boshqacha aytganda, fe'l tuslanishi kamida to'rt narsa (ma'no)ni ifodalaydi: 1. harakat; 2. shakl; 3. zamon; 4. shaxs-

Masalan, ***gel-di-m*** fe'lida *#tf/~* amalga oshgan harakat shakli. zamon va shaxs ifodalari mavjud.

Qisqasi, tuslanuvchi fe'l shakliga. zamonga, shaxsga bog'langan bir harakat yoki holatni anglatuvchi so'zdir. Fe'l shakllari yasovchi qo'shimchalar deganda, birinchi navbatda. shaxs-son qo'shimchalari. keyin shakl va zamon yasovchi qo'shimchalarni tushunish kerak. Umumiy qilib aytganda, fe'l o'zagiga qo'shiladigan tuslanish qo'shimchalari fe'lga ***zamon, shaxs, mayl, nisbat, son, so'roq, bo'lishlilik va bo'lishsizlikm*** ifodalovchi yangi-yangi ma'nolar qoshadi. Ularni quyidagi tartibda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Fe'llarda shaxs-son qo'shimchalari

Shaxs-son qo'shimchalari fe'llarda ish-harakatni bajaruvchi shaxsni ifoda etadi. Boshqacha aytganda. shaxs-son qo'shimchalart so'zning oxirida turadigan egalik qo'shimchalaridir. Tugallangan bir fe'lning yasalishi uchun zamon affiksidan so'ngra shaxs qo'shimchasi qo'shiladi. Avval fe'lning o'zak yoki negizi, keyin shakl va zamon qo'shimchasi, uning kelidan esa shaxs-son qo'shimchasi keladi: ***gel-mis-sin, gor-miis-sun, yap-mis-sm*** kabi. Ular faqat izohlash va ta'kidlash uchun ikkinchi marta kishilik olmoshlaridan shaxslar oladi: ***sen gel mis-sin, biz gbrmus-üz, ben yapmis-im*** kabi.

Turk tilida uch xil shaxs-son qo'shimchalari mavjud: 1. Kelib chiqish jihatdan olmosh bo'lgan shaxs-son qo'shimchalari; 2. Kelib chiqish jihatdan egalik bo'lgan shaxs qo'shimchalari; 3. Kelib chiqish jihatdan buyruq mayliga oid bo'lgan shaxs qo'shimchalari. Quyida ular alohida olib ko'rib chiqiladi:

1. Kelib chiqish jihatdan olmosh bo'lgan shaxs-son qo'shimchalari. Bir fe'lida bir yoki birlikda ish bajaruvchi bir nechta shaxs ifodasining borligi fe'llarda shaxs-son kategoriyasi deyiladi. Bu

qo'shimchalar aslida kishilik olmoshlari bo'lib, keyinchalik 9°shimcha olib, bugungi kunda qo'llanilayotgan shaxs-son qo'shimchalariga aylangan. Turk tilida otlarda bo'lgani kabi fe'l tuslanishida ham ikki turli son shakli qo'llanadi: ***birlik va ko'plik.***

Birlik va ko'plikda tuslanayotganda fe'llar qo'yidag qo'shimchalarni oladi:

Birlik	1- shaxs: -im (-;m, -urn, -um) 2 - shaxs: -sin (-sin, -sun, -sun) 3 - shaxs: -
Ko'plik	1-shaxs: -iz (-iz, -uz, -uz) 2 - shaxs: -siniz (-siniz, -siintiz, -sunuz) 3 - shaxs: -ler (-lar)

Hozirgi zamon turk tilida 9 xil fe'l tuslanishi shaklidan 6 tasida yuqorida keltirilgan shaxs qo'shimchalari keladi: *gelifir-im*, *geliyoi sun*, *geJecek*, *gelmis-iz*, *gelmeli-siniz*, *gele-ler* kabi. Turk tilida 3-shaxs birlik shakli qo'shimcha olmaydi. Shaxs-son qo'shimchalari urg'usiz talafluz qilinadi, bunda so'z urqusi shaxs-son qo'shimchalaridan oldingi bo'g'inga tushadi.

3-shaxslar, odatda, shaxs-son qo'shimchasi olmaydi va ular oldindan izohtalab bo'lsa. bir tugailangan ma'no kasb etish uchun alohida shaxs qo'shimchasi olishi lozim bo'ladi: *Kardesim gelifir* (*Ukam keladi*). *Banka vereckmis* (*Bank berar emish*). *Ogrenciler cikiyorlar* (*Talabalar chiqayptdar*) kabi.

1-shaxs egalik qo'shimchasi **-im** dir. Sharqiy Onado'luda ba'zi joylarda -«m shakli keng tarqalgan (*bil-iir-em*, *bil-mis-em*, *hil-meli-y-em*, *bil-em*). O'tgan zamon va istak mayli 1-shaxs ko'plik shakli birlik shaxs qo'shimchasi o'rniga ko'pincha tushib qoluvchi **4k** qo'shimchasi qo'shilib yasalganini kuzatish mumkin: *hil-di-k*, *hd-se-k* (eski turkchada *hil-di-miz*).

Sharqiy Onado'ludagi ba'zi viloyatlarda 2-shaxs qo'shimchasi **-sen** kishilik olmoshidir (*bd-iir-sen* > *bd-ir-sin*).

-sin fe'l tuslanishida yana bir xususni ta'kidlash joiz: Onado'lu shevalarida fe'lning 2-shaxs o'rniga **-in** egalik qo'shimchasi olganin ham ko'rish mumkin: *bd-iyon'*, *bil-mis-in'*, *bil-ece-in'*, *hil-ir-in'*, *bil-meli-n* kabi.

2-shaxs ko'plikda birlik shakliga **-iz** qo'shimchasi qo'shiladi (*bd-di-n-iz*, *bd-se-n-iz*). Onado'lu shevalarida ba'zan birlik qo'shimchasining tushishi natijasida yuzaga kelgan *bil-di-z*, *bd-se-z* shakllariga ham duch kelish mumkin.

2. Kelib chiqish jihatdan egalik bo'lgan shaxs qo'shimchalari. Quyida so'z yuritiladigan qo'shimchalar aslida egalik qo'shimchalari bo'lib, vaqt o'tishi bilan fe'l shaxs-son qo'shimchalariga aylangan:

Birlik	1-shaxs: -m 2 - shaxs: -n 3 - shaxs:
Ko'plik	1-shaxs: -k(e) , -k(a) 2 - shaxs: -niz (-niz , -nuz , -muz) 3 - shaxs: -ler (-lar)

Bu yerda ham 3- shaxs birlik shakli qo'shimchasiz bo'ladi.

Ko'plik birinchi shaxs qo'shimchasi ilgari (eski turkchada) kelishik qo'shimchasiga parallel holda **-miz** (**-miz**, **-muz**, **-muz**) shaklida edi. Keyinchalik uning o'rniga **-diik** (**-duk**) sifatdoshi ta'sirida **-k** (ke), **-k** (ka) qo'llana boshlagan. Bugungi kunda fe'llar 1- shaxs ko'plikda shu qo'shimchalar bilan tuslanmoqda: *geldi-m*, *geldi-n*, *gelse-k*, *gehe-niz* kabi.

Ikkinchi shaxslardagi **-n**- turk tilining shevalarida jarangsiz (ng) shaklda qo'llanadi.

Bu qo'shimcha, dastavval, faqat fe'l tuslanishidagina qo'llanilar edi. Keyinchalik kelib chiqishiga ko'ra olmosh shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanadigan yana bir qo'shimcha olgan. Bugungi kunda ham ulardan ba'zilari boshqa fe'l qo'shimchalariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda: *gelmis-iz* o'rniga *gelmis-i-k* kabi.

Shaxs qo'shimchalari urg'usiz bo'lgani uchun bu qo'shimchalar ham urg'u olmaydi. So'z urg'usi shaxs qo'shimchasidan oldingi bo'g'inga tushadi.

3. Buyruq mayli qo'shimchalari. Turk tilida fe'lning buyruq mayli shakli ushbu maylga xos qo'shimchalar vositasida yasaladi. Fe'lning buyruq shaklini yasaydigan qo'shimchalar faqat shaxs-son 4^oshimchalari emas, buyruq shakli yasovchi o'ziga xos qo'shimchalar ham hisoblanadi. Aslida shakl yasovchi bo'lgan bu Ro'shimchalar ayni paytda shaxs-son qo'shimchalari sifatida ham Ro'llaniladi: *gel-sin*, *gel-in* (**-iz**), *gel-sinler*. Buyruq mayli haqida batafsil ma'lumot bundan keyingi sahifalarda berilgan.

Shakl va zamon qo'shimchalari

Shakl (mayl) va zamon qo'shimchalari fe'l o'zak va negizi anglatgan ish-harakatni shakl va zamonga bog'lovchi qo'shimchalardir. Bu demak, shakl va zamonni ifodalovchi qo'shimchalarning barchasida shakl ifodasi mavjud. Faqat ularning bir qismidagina zamon ifodasi mavjuddir. Boshqacha aytganda, qo'shimchalardan bir qismi faqat shakl, yana bir qismi esa ham shakl, ham zamonni ifoda etadi. Shaklni fe'lning qo'llanish chog'ida solinadigan qolip deyish mumkin.

Fe'l (shaxs)lar qo'llanilish, bog'lanish uchun ikki turli qolipga kiradi. Bulardan biri «bildiruv qolipi», ya'ni xabar mayli, ikkinchisi esa «qabul qiluv qolipi», ya'ni shart-istak shakli (*sort kipi*) dir. **Bu** qolip (mayl)lar turk tili grammatikasida *kip* deb ataladi. Shuningdek, *kip* laming fe'l ifodalagan ish-harakatning qanday, qachon va qay tarzda bajarilganini ifodalovchi shakl ekanligi ta'kidlanadi. Fe'l bildirayotgan ish-harakatning qachon bajarilganligi juda muhimdir. Shundan, turk tilida barcha *kip* larda zamon asosiy unsur sifatida qabul qilingan. Boshqacha aytganda, bu fe'llaming tuslanish qolipi, pidir. Turk tili grammatikasida to'qqizta tuslanish qolipi, to'qqiz shakl (zamon va mayl) ajratiladi. Ana shu to'qqiz qolipni ikki guruhga to'plash maqsadga muvofiq. Bu: bildiruv (xabar) va qabul qiluv (*shaft*).

Bildiruv (xabar mayli)

Bildiruv shakli (xabar mayli) ro'y bergan, amalga oshirilgan ish-harakatdan darak beradi: *geldi, geiyyor* kabi. Yuqorida aytilgan to'qqiz xil fe'l tuslanishidan beshtasi bildiruv shakllaridir. Ular orqali ro'y bergan, ro'y berayotgan yoki ro'y berishi kerak bo'lgan bir ish-harakatdan xabar beriladi. Bu turk tili grammatikasida *haber kipleri* ham deyiladi. Bu «xabar»ning ichida zamon ma'nosi ham mujassam. Bu demak, bildiruv qoliplari ham xabar, ham zamonni ifodalaydi. Bir ish-harakatning ichida o'tgan zamon parchasiga fe'l zamoni deyiladi. Tuslanish chog'ida zamon fe'lning negiziga qo'shiluvchi birinchi qo'shimcha bilan ko'rsatiladi. Bu zamonlarning soni 5 ta. Shu tarzda tuslovchi qo'shimchalar shakl o'laroq xabar,

bildiruvni: zamon o'laroq esa 5 xil zamonni ifodalaydi, bu: *simdiki zaman* (hozirgi zamon), *gbrulen gecmis zaman* (yaqin olgan zamon). *ogrenilen geqmis zaman* (uzoq o'tgan zamon). *gelecek zaman* (kelasi zamon) va *geniszaman* (hozirgi-kelasi zamon).

Shart-istak shakllari (*\$art, emir ve istek kipleri*)

Shart shakllari haqiqiy bo'lmagan, faqat amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, o'ylangan. tasavvur qilingan ish-harakatni ifodalash uchun qo'llaniladi: *gelse, gel, gelmeli* kabi. Ularga shart-istak mayli ham deyiladi. Bularda zamon ifodasi mavjud emas. faqat shakl ifodasi bor deyilsa-da, bajarilishi o'ylangan ish-harakatning kelasi zamonda amalga oshishi yaqqol anglashilib turadi. Turk tilida shart shakli to'rtta: *shart (sort, kosul), bnyruq (emir), istak (istek), keraklilik (gerekldik)*.

Shu tarzda hozirgi zamon turk tilida 5 ta zamon va 4 ta shart-istak shakli birlashtirilib, fe'lning jami 9 ta shakli (qolipi), tuslanishi xili ajratiladi:

- *simdiki zaman (hozirgi zamon);*
- *gbrulen gecmis zaman (yaqin o'tgan zamon);*
- *ogrenilen geqmis zaman (uzoq o'tgan zamon);*
- *gelecek zaman (kelasi zamon);*
- *genis zaman (hozirgi - kelasi zamon);*
- *sari kipi (shart mayli);*
- *emir kipi (buyruq mayli);*
- *istek kipi (istak mayli);*
- *gerekldik kipi (keraklilik).*

Yuqorida so'z yuritilgan shakl va zamon qo'shimchalarining barchasi urg'uli talaffuz qilinadi.

FE'L ZAMONLARI (füllerde zaman)

Hozirgi zamon (simdiki zaman)

Fe'ning hozirgi zamon shakli ifodalanayotgan ish-harakatning so'zlashuv paytida bajarilayotganini bildiradi va 3-shaxs birlikda *ne yapiyor?* (*nima qilyapti?*) so'rog'iga javob beradi. Hozirgi zamon qo'shimchalari fe'lni hozirgi zamonda tuslaydi va shaklan darak (*bddirish*), zamon jihatdan esa hozirgi zamonni ifodalaydi. Shu bilan birga hozirgi zamonning ish-harakatning davomiyligini ifodalovchi vazifasi ham bor. Masalan: *oku-yor-um* (*o'qiyapman, o'qiyman, ya'ni har doim o'qiyman*). Fe'ning hozirgi zamon shakli ish-harakatni hozirgi kelasi zamonda ham ifoda eta oladi.

Turk tilida hozirgi zamon qo'shimchasi *-yor* dir. Bu qo'shimcha aslida *yorir "yiiriir"* yordamchi fe'lidan yuzaga kelgan yangi qo'shimcha hisoblanadi: *geli yorir* (*geliyor*), *gide yorir* (*gidiyor*) kabi. Hozirgi paytda bu qo'shimchaning turkiy singarmonizm va boshqa turli tovush o'zgarishi bilan bog'liq qoidalariga bo'ysunmasligining asl sababi ham uning musiuqil o'zak shakliga ega bo'lganligidir.

Bu qo'shimcha boshqa yasovchi qo'shimchalar kabi yordamchi tovush bilan birlashadi: *basli-yor* (*basla-yor*) *gel-i-yor* kabi. Lekin bu qo'shimchaning hozirda yordamchi tovushga aylangan unli tovushi aslida ravishdosh qo'shimchasi, qo'shma fe'l yasovchi qo'shimcha bo'lgan.

Hozirgi zamon qo'shimchasidagi *u* tovushi fe'llarning tekis keng o'rla bo'g'in unllarini o'zgartiradi: *bekli-yor* (*bekie-yor*) *hekl emi-yor* (*bekleme-yor*) kabi.

Hozirgi zamon tuslanishi ham olmosh aslli qo'shimchalar oil? amalga oshiriladi:

<i>al-i-yor-um</i>	<i>oku-yor-um</i>	<i>bilmi-yor-um</i>
<i>al-t-yor-sun</i>	<i>oku-yor-sun</i>	<i>bilmi-yor-sun</i>
<i>al-i-yor</i>	<i>oku-yor</i>	<i>bilmi-yor</i>
<i>al-i-yor-uz</i>	<i>oku-yor-uz</i>	<i>bilmi-yor-uz</i>
<i>al-t-yor-sunuz</i>	<i>oku-yor-sunuz</i>	<i>bilmi-yor-sunuz</i>
<i>al-i-yor-lar</i>	<i>oku-yor-lar</i>	<i>bilmi-yor-lar</i>

Turk tilida *-iyor* hozirgi zamon qo'shimchasi singarmonizm qonuniga ko'ra *-iyor, -iiyor, -uyor* shakllarida ham qo'llanadi: *sU-iyor, yat-iyor, gbr-iiyor, tut-uyor* kabi.

-a, -e tovushlari bilan tugagan fe'l o'zaklariga *-yor* hozirgi zamon qo'shimchasidan oldin *-y-* undoshining ta'sirida *-a, -e* tovushlari *-/-, -i-, -ü-, -u-* ga aylanadi:

<i>dinle-mek</i>	<i>- dinli-yor</i>	<i>izle-mek</i>	<i>- izli-yor</i>
<i>anla-tak</i>	<i>- anli-yor</i>	<i>yasa-tak</i>	<i>- yasi-yor</i>
<i>ozle-tek</i>	<i>- ozli-yor</i>	<i>gozle-tek</i>	<i>- gozlu-yor</i>
<i>otla-tak</i>	<i>- otlu-yor</i>	<i>oksa-tak</i>	<i>- oksu-yor</i>

kabi.

Hozirgi zamonning *-mekte* (*-makta*), *-mede* (*-mada*) shakli

Turk tilida yana bir hozirgi zamon qo'shimchasi mavjud. Bu ikki fe'l nomining lokativiari (o'rin-payt kelishigi shakli) dan yuzaga kelgan hozirgi zamon shaklidir:

<i>bil-mekte-y-im</i>	<i>al-makta-y-im</i>
<i>bd-mekte-sin</i>	<i>al-makta-sm</i>
<i>hil-mekte-dir</i> (<i>bd-mekte</i>)	<i>al-makta-dir</i> (<i>a!-makta</i>)
<i>bil-mekte-y-iz</i>	<i>al-makta-y-iz</i>
<i>bil-mekte-siniz</i>	<i>al-makta-smiz</i>
<i>bil-mekte-(dir)ler</i>	<i>al-makta-(dir)lar</i>

-mekte (*-makta*) qo'shimchasining o'rniga kamdan-kam hol-larda *-mede* (*-mada*) shakli qo'llanadi: *gez-mede-y-im, gez-mede-sin* kabi. Bu ikki xil hozirgi zamon shakli orasidagi farq ham ikki xil:

1. *-mekte* (*-makta*) hozirgi zamon qo'shimchasi og'zaki nutqda kam qo'llanadi. U, asosan, adabiy tilda qo'llanadi. Rasmiy ish yuritish va ilmiy-texnikaviy uslublarda uning muhim o'rni bor. Masalan: *Bu madde gida wet i mimic kullandmaktadir. Aulas ma metni asagi-dakileri iqermektedir* kabi.

2. *-yor* hozirgi zamon qo'shimchasi hah boshlanmagan hozirgi zamon (kelasi zamon)ni ham ifodalaydi: *yarini geliyorum* (*ertaga beluvapman*). *haftava gonderiyoruz* (*kelasi hafta jo'natayapmiz*) kabi.

-mekte, -makta hozirgi zamon qo'shimchasi esa boshlanib boigan, mutlaq hozirgi zamonnifodalaydi. Masalan, *biraz sonra gelmekteyim (bir ozdan keyin kelmoqdaman)* deyish noto'gri. Faqat, *gelmekteyim* deyishning o'zi kifoya. Bu shakl harakatining boshlanib bolganligini bildiradi. Agar *biraz sonra geliyorum (bir ozdan keyin ke/aman)* deyilsa, ifoda noto'g'ri hisoblanmaydi.

Yaqin o'tgan zamon (*gbrulen gecmis zaman*)

Fe'ning yaqin o'tgan zamon shakli turk tilidagi eng eski zamon shakli bo'lib, ish-harakatning nutq vaqtidan oldin bajarilganligini bildiradi. Eski turkchada yaqin o'tgan zamon shakli bir eski sifat doshga egalik olmosh qo'shimchasi qo'shilishi natijasida yuzaga kelgan: *bil-it-um, bil-it-un*). Biroq 3-shaxs qo'shimchasi sifatida kelgan *-i* egalik qo'shimchasi sifatdosh qo'shimchasi bilan payvandlanib *-it-i > -di* bu fe'l shaklining negizini tashkil etgan qo'shimcha sifatida olingan va hozirgi zamon turk tilida yaqin o'tgan zamon shakli quyidagi ko'rinishni olgan: *bil-di-m, bil-di-n, bil-di*. • qo'shimcha turk tilshunosligida *gbrulen gecmis zaman eki (ko'rilgan o'tgan zamon qo'shimchasi)* deyiladi. Shakl nuqtai nazaridan xabar, zamon ma'nosida esa yaqindagina o'tgan, ko'z bilan ko'rilgan, guvohi bo'lingan ish-harakatni o'tgan zamonda[^] ifodalaydi. Bu zamon shakli Turkiyadagi o'rta maktab dasturlarida *belirli gecmis zaman (belgili (aniq) o'tgan zamon)* yoki soddalashtirilgan holda *di'ligecmis zaman* deb ham yuritiladi.

O'tgan zamonning bu shakli ish-harakatning yuz berishiga so'zlayotgan shaxsning guvoh bo'lganligini bildiradi. Agar o'tgan zamondagi ish-harakat so'zlovchining ko'zi o'ngida ro'y bergan bo'lsa, yoki u bundan aniq xabardor bo'lsa, u holda ish-harakat aniq (yaqin) o'tgan zamon shaklida ifoda etiladi: *geldi, yaptik, aldilar, vunddun* kabi. Ilgari fe'ning bu zamon shakli turk tilshunosligida *suhudi mazi* (ya'ni «o'tmishga guvoh bo'lish») deb atalgan.

Hozirgi zamon turk tilidagi *S* yaqin o'tgan zamon qo'shimchasi turkiy singarmonizm qonuniga binoan, *-dt, -dii, -du, -ti, -ti, -tu, -tu* variantlarida qo'llanadi.

O'tgan zamonning ushbu shakli egalik va shaxs qo'shimchalari olib tuslanadi:

<i>bil-di-m</i>	<i>ol-du-m</i>	<i>op-tu-m</i>	<i>deme-di-m</i>
<i>bil-di-n</i>	<i>ol-du-n</i>	<i>op-tii-n</i>	<i>deme-di-n</i>
<i>bil-di</i>	<i>ol-du</i>	<i>op-tii</i>	<i>deme-di</i>
<i>bil-di-k</i>	<i>ol-du-k</i>	<i>op-tii-k</i>	<i>deme-di-k</i>
<i>bil-di-niz</i>	<i>ol-du-nuz</i>	<i>dp-iii-niiz</i>	<i>deme-di-niz</i>
<i>bil-di-ler</i>	<i>ol-du-lar</i>	<i>dp-tu-ler</i>	<i>deme-di-ter</i>

Uzoq o'tgan zamon (*ogrenilen gecmis zaman*)

Ushbu zamon qo'shimchasi shakliga ko'ra xabar (darak). zamon ma'nosida esa eshitib, bilingan, yaqindagina bo'lib o'tgan, lekin ko'z bilan ko'rib, guvohi bo'inmagan ish-harakat, yuz bergan voqeahodisani ifodalaydi. Shu bois, uni *ogrenilen gecmis zaman* (eshitib, bilingan o'tgan zamon) deb atashadi. Bu zamon shakli Turkiyadagi o'rta maktab dasturlarida *belirsiz gecmis zaman* (belgisiz o'tgan zamon) yoki *mis'li gecmis zaman* («*mish*» qo'shimchali o'tgan zamon) deb ham nomlanadi.

Shu tarzda uzoq o'tgan zamondan keyinchalik eshitib, bilingan yoki tushunib yetilgan ish-harakat anglashiladi: *AH gelmis (Ali kelibdi)*. *A, dtigmem kopmus (E, tugmam uzilibdi)*. *Bak, kar yagmis (Quia, qor yog'ibdi)* kabi. Ilgari turk tilshunosligida bu zamon shakli *nakli mazi* (ya'ni «o'tgan zamonning naqli») deb nomlangan.

Uzoq o'tgan zamon ba'zan mazax, shubha ma'nolarini ham ifodalab keladi: *Ayse giyya fakulitenin en basarili dgrencisiyimis (Oysha, go yoki. fakultetda eng a iochi talaba emish)*. *Annesine sorarsaniz. Sibel diinyamn bir numara guzeliyimis (Onasidan so rar bo Isangiz Sibel dunyoning birinchi go zali emish)* kabi.

Hozirgi zamon turk tilidagi *-mis* uzoq o'tgan zamon qo'shimchasi turkiy singarmonizm qonuniga binoan, *-mis, -mus, -mus* variantlariga ega.

O'tgan zamonning ushbu shakli olmosh aslli shaxs-son qo'shimchalari olib tuslanadi:

<i>sev-mis-im</i>	<i>ol-mus-um</i>	<i>op-miis-iim</i>	<i>deme-mis- im</i>
<i>sev-mis-sin</i>	<i>ol-mus-sun</i>	<i>op-mus-sitn</i>	<i>deme-mis- sin</i>
<i>sev-mis</i>	<i>ol-mus</i>	<i>op-miis</i>	<i>deme-mis</i>
<i>sev-mis-iz</i>	<i>ol-mus-uz</i>	<i>op-miis-iiz</i>	<i>deme-mis- iz</i>
<i>sev-mis-siniz</i>	<i>ol-mus-sunuz</i>	<i>dp-mus-sunuz</i>	<i>deme-mis-siniz</i>

Hozirgi paytda turk tilining shevalarida ko'plik 1-shaxslarga *-k (ke)* qo'shib qo'llangan shakllarga ham duch kelinadi: *sev-mis-i-k, ol-mus-u-κ* kabi.

Kelasi zamon (*gelecek zaman*)

Fe'l ifodalayotgan ish-harakatning kelasi zamonda amalga oshirishini bildirgan zamon shakliga fe'lning kelasi zamoni deyiladi. Kelasi zamon qo'shimchasi fe'l negizini kelasi zamonda tuslaydi. TJ shaklan xabami ifodalab, ish-harakatning aniq. ma'lum kelasi zamonda amalga oshirilishini bildiradi.

Hozirgi zamon turk tilidagi kelasi zamon qo'shimchasi *-ecek* va *-acak* dir. Turk tilida ikki unli yonma-yon kelmasligi qoidasiga binonan negizi unli bilan tugagan fe'llarda negiz bilan kelasi zamon qo'shimchasi orasiga ayiruvchi *-y-* tovushi kiradi: *uyu-y-acag-im, gulme-y-eceg-im* kabi.

Turk tili grammatikasi kitoblarida fe'lning kelasi zamon shakliga kelasi zamon sifatdoshi shakli asos bolganligi ta'kidlanadi. Masalan, *gelecek yil* birikmasidagi *gel-ecek* so'zi sifatdosh, *O yann gelecek* gapida esa *gelecek* so'zi fe'lning kelasi zamon shaklidir. Fe'llar kelasi zamonda shaxs-son qo'shimchalari olib tuslanadi:

<i>sev-eceg-im</i>	<i>uyu-y-acag-tm</i>	<i>gulme-y-eceg-im</i>
<i>sev-ecek-sin</i>	<i>uyu-y-acak-sin</i>	<i>gulme-y-ecek-sin</i>
<i>sev-ecek</i>	<i>uyu-y-acak</i>	<i>gulme-y-ecek</i>
<i>sev-eceg-iz</i>	<i>uyu-y-acag-iz</i>	<i>gulme-y-eceg-iz</i>
<i>sev-ecek-siniz</i>	<i>uyu-y-acak-siniz</i>	<i>gulme-y-ecek-siniz</i>
<i>sev-ecek-ler</i>	<i>uyu-y-acak-lar</i>	<i>gulme-y-ecek-ler</i>

Fe'l kelasi zamonda tuslanayotganda o'rta bo'g'inda o'zgarish yuz beradi: *Baş-y-acak (basla-y-acak). giilmu-y-eceg-im (gulme-y-eceg-im)* kabi. Lekin bu yozuvda ko'rsatilmaydi.

Kelasi zamon qo'shimchasidagi *-k* tovushi, ya'ni qalin *-k(a)* va yumshoq *-k(e)* ikki unli orasida qolib, yumshaydi va *g* ga aylanadi: *yapacak - yapacagim. gelecek - gelecegim* kabi.

Fe'l ifodalagan ish-harakatning har doim bajarib kelinganini. bajarilayotganini, kelajakda ham bajarilishini ifodalovchi zamon shakliga hozirgi - kelasi zamon deyiladi. Turk tilshunosligida fe'llarning bunday shakli *genis zaman* («keng zamon») deyiladi. Hozirgi - kelasi zamon qo'shimchalari fe'lning hozirgi kelasi zamon shaklida tuslaydi. Ular shakl sifatida xabar berish. zamon nuqtai nazaridan esa o'lgan, hozirgi va kelasi zamoni qamrab oladi. Sodaroq aytganda, bu qo'shimchalarda uchla zamonning ifodasi mavjud: 1. har zamon, 2. o'tgan va hozirgi zamoni o'z ichiga olgan zamon, 3. kelasi zamon: *her zaman yapanm, bugun yapanm, yann yapanm*. Masalan: *Ben ezelden beri hiir yasadim. hiir yasanm* kabi.

Hozirgi kelasi zamon qo'shimchasi orqali ish-harakatning davomiyigi va amalga oshirila olinishi ifodalanadi: *Ben bu isi yapanm (Men bu ishni qilaman). Ayse tathyi sevmez (Oysha shirinlikni xush ko'rmaydi). Dunya gunesin etraftnda doner (Dunyo c/uyush atrojidani aylanadi)* kabi.

Turk tilida hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasi *-r* dir. Fe'llarning ko'pchiligi ana shu qo'shimchani oladi: *ye-r, de-r, basla-r, acd-t-r, bil-i-r, gor-u-r. ver-i-r, oku-r* va hok.

Turk tilshunosligida hozirgi-kelasi zamonning *-r* dan tashqari *-er (-ar)* qo'shimchasi vositasida yasalishi ham ma'lum. *-er (-ar)* qo'shimchasi, asosan. bir bo'g'inli fe'llarning ko'pchiligiga qo'shiladi: *yap-ar, kac-ar, kos-ar, yaz-ar, kes-er, gid-er, iit-er. don-er* vahok.

Fe'llar olmosh aslli shaxs qo'shimchalari yordamida keng zamonda tuslanadi. Bu tuslanish quyidagicha:

<i>-r</i> bilan		<i>-ar^t-er</i> bilan	
<i>oyna-r-tm</i>	<i>gor-u-r-iim</i>	<i>yaz-ar-tm</i>	<i>kes-er-im</i>
<i>oynu-r-sm</i>	<i>gor-ii-r-sun</i>	<i>yaz-ar-sm</i>	<i>kes-er-sin</i>
<i>oyna-r</i>	<i>gor-H-r</i>	<i>yaz-ar</i>	<i>kes-er</i>
<i>oyna-r-iz</i>	<i>gdr-u-r-uz</i>	<i>yaz-ar-tz</i>	<i>kes-er-iz</i>
<i>oyna-r-stntz</i>	<i>gbr-u-r-siinuz</i>	<i>yaz-ar-stniz</i>	<i>kes-er-siniz</i>
<i>oyna-r-lar</i>	<i>gor-u-r-ler</i>	<i>yaz-ar-lar</i>	<i>kes-er-ler</i>

Hozirgi-kelasi zamonning bo'lishsiz shaklida o'ziga xos bir holat mavjud. Boshqa zamon sakllarida xuddi shu qo'shimcha ham bo'lishli, ham bo'lishsiz fe'llarga qo'shiladi: *gel-di, gel-me-di* kabi. Hozirgi kelasi zamonda esa qo'shimcha faqat bo'lishli fe'llarga qo'shilib, bo'lishsizlik *-maz, -mez* va undagi *-z* ning tushishi natijasida *-ma, -me* bilan yasaladi. Bu tuslanish quyidagicha:

<i>oyna-ma-m</i>	<i>gor-me-m</i>	<i>yaz-ma-m</i>	<i>kes-me-m</i>
<i>oyna-mazsin</i>	<i>gor-mez-sin</i>	<i>yaz-muz-sm</i>	<i>kes-mez-sin</i>
<i>oyna-maz</i>	<i>gor-mez</i>	<i>yaz-maz</i>	<i>kes-mez</i>
<i>oyna-ma-y-iz</i>	<i>gor-me-y-iz</i>	<i>yaz-ma-y-iz</i>	<i>kes-me-y-iz</i>
<i>oyna-maz-simz</i>	<i>gor-mez-siniz</i>	<i>yaz-maz-simz</i>	<i>kes-mez-siniz</i>
<i>oyna-maz-lar</i>	<i>gor-mez-ler</i>	<i>yaz-maz-lar</i>	<i>kes-mez-ler</i>

Misollardan ham ko'rinib turibdiki, hozirgi zamon turk tilida birinchi shaxslarda *-me, -ma* qo'shimchasi qo'llaniladi. Ilgari bu qo'shimcha *mez, -maz* shaklida edi. Undan tashqari, hozirgi paytda turk tilida fe'lning birlik birinchi shaxsga egalik aslli shaxs qo'shimchasi qo'shilib qo'llanilmoqda.

FE'L MAYLLARI (Fillerde kip)

Buyruq mayli (emir kipi)

Turk tilida fe'llar buyruq mayli qo'shimchalari va birlik 3-shaxs, ko'plik 2- va 3-shaxslarda shaxs-son qo'shimchasi olgan holda o'zgaradi. Buyruq mayli qo'shimchalari fe'lning buyruq shaklini yasovchi qo'shimchalar bo'lib, ularda zamon ifodasi bo'lmaydi, faqat buyruq ma'nosi ifodalanadi. Buyruq maylining yasalish shakli quyidagicha:

Birlik	1-shaxs:	
	2-shaxs:	
	3-shaxs:	<i>-sin (sin, -sun, sun)</i>
Ko'plik	1-shaxs:	
	2-shaxs:	<i>-in (-in, -iin,-un); -iniz (~iniz, -uniizr unuz);</i>
	3-shaxs:	<i>-sinter (sitor, siinler, -suntar)</i>

Ba'zi turk tilshunoslari buyruq maylining birlik va ko'plik 1-shaxsining ham borligini ta'kidlaydilar. Ularga ko'ra buyruq maylining tuslanishi quyidagicha:

Birlik	1-shaxs:	<i>-eyim (-ayun);</i>
	2-shaxs:	-
	3-shaxs:	<i>sin (sin, sun, sun)</i>
Ko'plik	1-shaxs:	<i>-elim (-aim);</i>
	2-shaxs:	<i>-in (-in, -un,-un); -iniz (-iniz, -uniizr unuz);</i>
	3-shaxs:	<i>sinter (sinlar, -siinler,sunlar)</i>

Lekin tilshunoslarning ko'pchiligi birlik va ko'plik 1-shaxs qo'shimchalari (*-eyim, -ayim,-elim,-alim*) ni istak mayli qo'shimchalari deb alashadi.

Hozirgi turk tilida buyruq maylida fe'lning 2-shaxsi qo'shimcha olmaydi, ya'ni fe'l masdaridagi *-mek* va *-mak* olib tashlansa, qolgan qismi buyruq maylining ikkinchi shaxsiga to'g'ri keladi: *sit-, si I me-, otur-, oturma-* kabi.

Eski turkchada fe'llarning buyruq mayli birlik 2-shaxsda *-gil, -gil* qo'shimchasini olar edi: *gel-gil, ol-gil* kabi. Hozirgi paytda bu qo'shimcha turk tilining shevalarida uchraydi. Hatto shevada *-ginen, -ginan* shakllari ham uchrab turadi: *al-ginan, ver-ginen* kabi.

Ko'plik ikkinchi shaxsda qo'shimchaning ikki shakli mavjud: *gel-in, gel-iniz; otur-un, otur-unuz* kabi.

Fe'llarning buyruq maylida tuslanish shakli quyidagicha:

<i>Ben</i>	-		
<i>Sen</i>	<i>yap</i>	<i>gor</i>	<i>durma</i>
<i>O</i>	<i>vapsin</i>	<i>gorsun</i>	<i>durmasin</i>
<i>Biz</i>			
<i>Siz</i>	<i>yapin (iz)</i>	<i>gorun (uz)</i>	<i>durmayin (iz)</i>
<i>Onlar</i>	<i>yapsin(lar)</i>	<i>gdrsun(ler)</i>	<i>durmastn(lar)</i>

Shart mayli (sort kipi)

Shart mayli fe'lga shart ma'nosini yuklaydi. Shart mayli turk tilshunosligida *sort kipi*, ba'zan esa *dilek-kosul kipi* deb nomlanadi. Shart mayli qo'shimchasi *-se. -sa* bo'lib, fe'lning zamonini

ko'rsatmaydi, faqat shart ma'nosini ifodalaydi. Fe'lning shart shakli zamoni ifoda etmagani uchun shart ergash gapli qo'shma gaplar tarkibidagi ergash gapning ichida keladi.

Turk tilidagi fe'llar ilgari faqat olmosh aslli shaxs-son qo'shimchalari yordamida shart maylida tuslanar edi. Keyinchalik ular yaqin o'tgan zamon tuslanish shaklini ham oladigan bo'lgan.

Hozirgi zamon turk tilida shart mayli tuslanishi shakli quyida-gicha:

<i>Ben</i>	<i>git-se-m</i>	<i>yap-sa-m</i>	<i>yiiru-se-m</i>	<i>duyma-sam</i>
<i>Sen</i>	<i>git-se-n</i>	<i>yap-sa-n</i>	<i>yuru-se-n</i>	<i>duyma-san</i>
<i>O</i>	<i>git-se</i>	<i>yap-sa</i>	<i>yiiiri-se</i>	<i>duyma-su</i>
<i>Biz</i>	<i>git-se-k</i>	<i>yap-sak</i>	<i>yuru-sek</i>	<i>duyma-sak</i>
<i>Siz</i>	<i>git-se-niz</i>	<i>yap-sa-niz</i>	<i>yurii-se-niz</i>	<i>duyma-saniz</i>
<i>Onlar</i>	<i>git-se-ler</i>	<i>yap-sa-lar</i>	<i>yurti-se-ler</i>	<i>duyma-salar</i>

Shart qo'shimchasi ba'zan istak ma'nosini ifodalash uchun qo'llanadi. Bunda fe'llar shartdan ko'ra ko'proq orzu, istak, tilakni ifodalaydi: *Bari yann hava guizel olsa (Mabodo ertaga havo yaxshi bo 'Isa), biraz uyitsan (bir ozgina uxlasang), dizinde aglasam (liz-zanga bosh qo'yib yig'lasam), ah bir zengin olsam (qaniydi, bir boyib ketsam)* misollarida bo'lgani kabi.

Ba'zan shart shakli ning oxiriga xitob unsuri ham qo'llanishi mumkin: *gelsene (gel-se-n-e!), otursana (otur-sa-n-a!), baksamza (bak-sa-mz-a!)* kabi. Bu shaklda ham buyruq va istak o'rtasidagi oraliq bir ifoda mavjud.

Istak mayli (istek kipi)

Istak mayli fe'llarning istak shaklida, shaxs-son qo'shimchalari olib o'zgarishidir. Ish-harakatning istalayotganini, tilakni ifodalaydi. Hozirgi zamon turk tilida istak mayli qo'shimchasi *-e (-a)* dir.

Fe'llar istak ko'rinishida olmosh aslli shaxs-son qo'shimchalari olib tulsansa-da, bu shaklga egalik qo'shimchalarining ham ta'sirini kuzatish mumkin:

<i>Ben</i>	<i>ol-a-y-im</i>	<i>bil-e-y-im</i>	<i>bilme-y-e-y-im</i>
<i>Sen</i>	<i>ol-a-sm</i>	<i>bil-e-sin</i>	<i>bilme-y-e-sin</i>
<i>O</i>	<i>ol-a</i>	<i>bil-e</i>	<i>bilme-y-e</i>

<i>Biz</i>	<i>ol-a-l-im</i>	<i>bil-e-l-im</i>	<i>bdme-y-e-l-im</i>
<i>Siz</i>	<i>ol-a-sm i z</i>	<i>bil-e-siniz</i>	<i>bilme-y-e-siniz</i>
<i>Onlar</i>	<i>ol-a-lar</i>	<i>bil-e-ler</i>	<i>bilme-y-e-ler</i>

Bugungi kunda ba'zi tilshunos olimlar istak shaklining adabiy tilda faqat birlik va ko'plik 1-shaxsi borligini ta'kidlaydilar."

Istak maylining 2-, 3- shaxslari hozirgi zamon turk tilida jonli nutqda juda kam qo'llanadi. Fe'lning ushbu shakli hozirgi paytda turk tilining ba'zi shevalarida qo'llanilmoqda.

Istak shaklining shaxs-son qo'shimchalari bilan turlangan, shevalardagina qo'llanayotgan, tilshunoslikda faqat sheva shakli sifa-tida tan olinayotgan ko'rinishi quyidagicha:

<i>gel-e-m</i>	<i>bul-a-m</i>
<i>gel-e-sin</i>	<i>bul-a-stn</i>
<i>gcl-e-</i>	<i>bid-a-</i>
<i>gel-e-k</i>	<i>bul-a-k</i>
<i>gel-e-siniz</i>	<i>bul-a-sintz</i>
<i>gel-e-ler</i>	<i>bul-a-lar</i>

Adabiy tilda istak shaklining qo'llanishdan chiqib ketishi uning vazifasini buyruq shakliga o'tishiga sabab bo'lgan. Buyruq va istak shaklining aralashib ketganligiga asosiy sabab ham shudir.

Bugun adabiy tilda istak shaklining tuslanishi buyruq va istak aralashmasi sifatida quyidagi shakllarni yuzaga keltirmoqda:

<i>bulun-ayim</i>	<i>guilme-y-eyim</i>
<i>bulun-asin</i>	<i>guilme-y-e-sin</i>
<i>bidun-a</i>	<i>guilme-y-e</i>
<i>bulun-alim</i>	<i>guilme-y-elim</i>
<i>bulun-a-siniz</i>	<i>guilme-y-e-siniz</i>
<i>btun-a-lar</i>	<i>gulme-y-e-ler</i>

Biroq so'zlashuvda bu shakl ham unchalik faol emas. Chunki 2-, 3-shaxslarda ularning o'rniga *bulun, bulunsun* kabi buyruq qo'shimchalari qo'llanilmoqda.

² Ergin Muharrem, *L niwrsiicler if in Turk Dili. Istanbul. Bayrak 2000, s 32*

Istak tuslanishida ham "y" ning ta'sirida o'rta bo'g'in unlisi laffuz chog'ida o'zgarishi mumkin: *dinli-y-e-sin (dinle-y-esin)* kabi. Yozuvda asl shakl saqlanadi.

Keraklilik shakli (*gereklidik kipi*)

Turk tilida fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilishi kerakligini bildiruvchi fe'l shakllariga keraklilik shakli (*gereklidik kipi*) deyiladi. Ushbu mayl qo'shimchasi *-meli*. *-malt* bo'lib, u boshqa fe'l yasovchi qo'shimchalarga nisbatan ancha yangi hisoblanadi. Bu qo'shimcha *-me*, *-ma* fe'ldan ot (harakat nomlari) yasovchi qo'shimcha va *-li*, *-li* sifat yasovchi qo'shimchasi asosida yuzaga kelgan.

Fe'lning ushbu shakli tuslanganda unga olmosh aslli shaxs-son qo'shimchalari qo'shiladi:

<i>git-meli-y-im</i>	<i>yuru-meli-y-im</i>	<i>yap-mali-y-im</i>	<i>gelme-meli-y-im</i>
<i>git-meli-sin</i>	<i>yüzü-meli-sin</i>	<i>yap-mah-sin</i>	<i>gelme-meli-sin</i>
<i>git-meli</i>	<i>yiiru-meli</i>	<i>yap-mali</i>	<i>gelme-meli</i>
<i>git-meli-y-iz</i>	<i>yüzü-meli-y-iz</i>	<i>yap-mali-y-iz</i>	<i>gelme-meli-y-iz</i>
<i>git-meli-siniz</i>	<i>yiiru-meli-siniz</i>	<i>yap-mah-siniz</i>	<i>gelme-meli-siniz</i>
<i>git-meli-ler</i>	<i>yüzü-meli-ler</i>	<i>yap-mali-lar</i>	<i>gelme-meli-ler</i>

-imek yordamchi fe'li (*cevher fiili*)

Yuqorida ko'rib chiqilgan to'qqizta shakl va zamon qo'shimchalari barcha fe'llar bilan qo'llanadi. Faqat turk tilida bir fe'l shakli borki, unga yuqorida sanab o'tilgan qo'shimchalarning hech biri qo'shilmaydi. Bu *imek* fe'lidir.

imek fe'li yoki «i fe'li» turk tilidagi asosiy yordamchi fe'l hisoblanib, uni *cevher fiili* yoki *ekfiil (qo'shimcha fe'l)* ham deyishadi.

Eski turkchada *er-mek*, usmonli turkchada *i-mek*, yangi turkchada esa *-mek* shakliga kelib qolgan, o'zagi «erib», faqat tuslanish qo'shimchasi shaklida saqlangan *-imek* fe'li ma'nosiga ko'ra holatni ifodalaydi va ham otlar bilan, ham fe'llar bilan birga qo'llanadi.

Ushbu fe'lning o'zagi hali ham og'zaki va yozma nutqda ba'zi -ba'zida *i-di*, *i-mis*, *i-se* kabi fe'l negizlarida namoyon bo'lgani uchun uni *i-mek* fe'li deb atashadi. U fe'llarga qo'shilganda qo'shma fe'l shakllari yasaydi: *bdmis idi*, *ge/se kit* kabi.

-imek fe'li otlar bilan qo'llanilganda ularni fe'llashtiradi: *giizel idi*, *iyi imis* va hok.

Ushbu fe'l shaklining barcha shaxslari *er-mek* o'zagidan paydo bo'lmagan. Bu fe'l hozirgi kelasi zamon (*genis zaman*) da murakkab tuslanish shaklini oladi. Bunda fe'l o'zagi *-er* emas. zamon qo'shimchasini olgan butun fe'l negizi «erigan» ko'rinadi (*er-iir*). Aniqlirog'i, ushbu fe'l shakli qo'llanilayotganda undagi - / o'zagi tushib qoladi.

Uning 1- va 2- shaxslari quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

er-iir ben >-im, *er-iir sen >-sin*, *er-iir biz >-iz*, *er-iir siz >-sin-iz*.¹

3-shaxsda eski turkchadan buyon *ermek* fe'lga parallel bir fe'l bo'lish qobiliyatini namoyon etgan *turmak* fe'li o'rin olgan: *tur-ur >dur-ur>-dir tur-ur-lar > dur-ur-4ar >-dirler*. Bu demak, ushbu qo'shimchada fe'l negizidan bir iz qolgan. Faqal quyida ta'kidlanajagi kabi ot-kesimli gaplarda kesim hech qanday qo'shimcha olmasligi mumkin bo'lgani uchun bu shaklning birlik 3-shaxsi nol qo'shimcha, ko'pligi esa *-ler* ko'plik qo'shimchasi bilan yasalgan deb hisoblash mumkin.

Quyidagi jadvalda so'z borayotgan fe'l shakli to'la keltirilgan:

	Hozirgi kelasi zamon	O'tgan zamon	Uzoq o'tgan zamon	Shart mayli shakli

¹ Ushbu shaklni o'zbek mumtoz adabiyotida kop uchratish mumkin: *Odami ersang demagil odami. Onikim yo q xalq g amiding ami* (A.Navoiy).

<i>fii'lik</i>				
1 chaY?	<i>giizel-im</i>	<i>guzel-dim</i>	<i>giizel-misirn</i>	<i>giizel-sem</i>
<i>i -3HANA</i>	<i>yiizel-sin</i>	<i>guzel-din</i>	<i>guzel-missin</i>	<i>guzel-sen</i>
III3	<i>a</i>	<i>giizel-di</i>	<i>giizel-mis</i>	<i>guzel-se</i>
<i>Kn'nlik</i>				
1 -4baxs	<i>viael-iz</i>	<i>guzel-dik</i>	<i>giizel-mis-iz</i>	<i>giizel-sek</i>
<i>L'IIJYC</i>	<i>a</i>	<i>giizel-diniz</i>	<i>giizel-missiniz</i>	<i>guzel-sen iz</i>
3-shaxs	<i>giizel-siniz</i> <i>guzel (dir)-ler</i>	<i>guzel-lerdi</i>	<i>giizel-misler</i>	! <i>guzel-lerse</i>

Hozirgi zamonda ushbu fe'l qo'shimcha olgan. Bu jarayonda *-i* fe'lining jufti hisoblangan *tur-* (*dur-*) yordamchi fe'lining izarini ko'rish mumkin.

Shunday qilib, uning hozirgi zamon shakli qo'yidagicha:

Birlik	1-shaxs:	<i>-im, -im, -urn. -urn</i>
	2-shaxs:	<i>-sin, -stn, -sun, sun</i>
	3-shaxs:	<i>-dir, -dir. -dur, -dur</i>
Ko'plik	1-shaxs:	<i>-iz, -iz, -Hz. -uz</i>
	2-shaxs:	• <i>siniz, -siniz, -siiniiz. -sunuz</i>
	3-shaxs:	<i>-dirler, -dirilar, -diirler, -durlar, -drier,</i>

-Hilar, airier, -turlar.

Qo'shimchalarning ko'pi *-i* fe'l o'zagi tushganidan keyin qolgan shaxs qo'shimchalaridir. Lekin ular hozirgi zamon turk tilida gap borayotgan shakl funksiyasini muhofaza qilgan holda ot kabi qo'llanilmoqda:

<i>yorgun uni</i>	<i>evde-y-im</i>
<i>yorgun -sun</i>	<i>evde-sin</i>
<i>yorgun (-dur)</i>	<i>evde (-dir)</i>
<i>yorgun -uz</i>	<i>evde-y-iz</i>
<i>yorgun -sunuz</i>	<i>evde-siniz</i>
<i>yorgun -(dur)lar</i>	<i>evde-(dir)ler</i>

Bu verda 3-shaxs qo'shimchalari qo'llanish chog'ida U.shib qolishi ham* mumkin: £t *yorgun (yorgun^)*, *hava guzel (guzd dir)*. *ocuklaryorgu, dar(yorgun-durlar)* ^bi.

Ko'plik 3-shaxsda ba'zan ko'plik qo'shimchasi f *m -a** oldin kelishi mumkin: *evde-lerdir. degd-lerdir.*

Bu qo'shimchalar xabar (darak) berish vazifasini bajaradi. Shuning uchun ularni xabar mayli qo'shimchasi deyish mumkin.

imck fe'li shaklining yaqin o'tgan zamon ko'rinishi *i-d-im, i-din, i-di, i-di-k, i-di-niz, i-di-ler* dir. Amalda qo'llanayotganda uning o'zagi tushib qoiishi va qo'shimcha olishi mumkin: *giizel-di (giizel idi)*, *korkttnc-lu (korkunc idi)*, *hastu-y-di (hasta idi)* kabi.

Uzoq o'tgan zamon shakli esa *i-mis-im, i-mis-sin, i-mis, i-m'ts-iz, i-mis-siniz, i-mis-ler* dir. Amalda qo'llanayotganda bu shakllar ham qo'shimcha oladi: *orda-y-mis, degil-mis, oyun-mu* kabi.

Shart mayli shakli ko'rinishi (jiyidagiehadir: *i-se-m, i-se-n, i-se, i-se-k, i-se-niz, i-se-ler.*

Qo'llanishda bu shakllar ham qo'shimcha oladi: *dogru-y-sa. dyle-y-se. yalniz-sa* kabi.

Bo'lishsizlik shakli fe'llar kabi *imentek* shaklidagi bo'lishsizlik qo'shimchasi (*-me-*) olmaydi. Shu bois mavjud tuslanishning bo'lishsizligi *degil* yordamchi so'zi vositasida yasaladi: *giizel degil-im, giizel degil-dir, giizel degil-di, giizel degil-mis, giizel degil-se-niz* kabi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu fe'lning bo'lishsiz shakli eski turkchada boshqa fe'llar singari *er-me-mek* bo'lgan. Faqat sharq lurkchasidagi *er-mez* x *er-mes* ga mos eski og'uz turkchasidagi *tegul* so'zi (hozirgi o'zbek tilida saqlangan *tugul* so'zi) ma'lum.

Fe'llarda so'roq qo'shimchasi

So'roq qo'shimchasi fe'llarga so'roq shakli beruvchi qo'shimchadir. *-imek* fe'lining so'roq shakli fe'lni *mi* so'roq qo'shimchasiga qo'shish yo'li bilan yasaladi. Shu tarzda fe'lning so'roq shakli ham bir qo'shimcha fe'l shaklini oladi. Bu qo'shimcha otlar uchun ham fe'llar uchun ham bir xil: *mi, mi, mu, mu*. So'roq qo'shimchasi odatda fe'llarning tuslanishida fe'l tuslov qo'shimchalaridan keyin, olmosh aslli shaxs-son qo'shimchalaridan esa oldin keladi: *gelir mi-y-im?, gelecek mi-sin?, gelmeli mi-y-iz?, gelsem mi?, geleyim mi?, geldin mi?* kabi.

So'roq qo'shimchasi imloda alohida yozilgani uchun fe'l tuslanish shakllarini ham ikkiga ayrib turadi: *gorecek misiniz? giimeli iniyiz?* kabi. So'roq qo'shimchasi har doim urg'usiz bo'lib. so'z

urg'usi undan oldigi bo'g'inga tushadi. So'roq shakllari alohida yozilgani uchun bunda ham so'roq qo'shimchasidan keyin singarmoniya qonuniga ko'ra qo'shilgan *imek* fe'li ham yaxlit shaklda alohida yoziladi: *güzel miyim?, hasta misin?, deli midir?, bos mitsunuz?, üzgün müydii?. hakh miydik?, ucuz muymu?, yalmz miy-mlarlar?. yok muymuqum?* va hok.

-*imek* fe'lining shart shakli alohida ko'rinishga ega. Shart shaklining o'ta kam qo'llanuvchi so'roq ko'rinishida fe'l qo'shimchasi to'g'ridan-to'g'ri otga qo'shiladi. *mi* so'roq qo'shimchasi undan keyin keladi va alohida yoziladi: *yorgun-sam mi?, issiz-sen mi?, bozuk-sa mi?, memriun-sak mi?* va hok.

Turk tilida fe'llarning kelasi zamon bilan bog'Hq mayl shakllarida *i-mek* fe'lining o'miga *olmak* fe'li qo'llanadi: *iyi-yim. iyi-ydin, iyi olacagim. iyi olasin, iyi olmalisiniz, iyi ol* kabi. Butun shakllar bu ikki holat va «bo'imoq» ma'nosi orasidagi farqni ko'rsatib turadi: *iyi-y-im X iyi oliirum, iyi-y-di-m X iyi oldum, iyi-y-mis-im X iyi olmusum, iyi-y-se-m X iyi olsam* kabi.

i-mek fe'lining hozirgi kelasi zamon (*genis zaman*) shakli yuqorida ta'kidlab o'tilgan sababdan kelasi zamon sari davom eta olmaydi. Undan tashqari uni chegaralangan hozirgi zamon deb ham hisoblash mumkin emas.

i-mek fe'lining shart mayli shakli qo'yidagicha: *Bil-se-m birak-mazdim (Bilsam tashlamasdim). biraz dinlen-se-niz (bir oz dam ot-sangiz), yorgun-sa-n yat (charchagan bo bang yot), ucuz-sa altuz (arzon bo Isa olamiz), hazir-sa-k baslayalim (tayyor bo 'Isak boshlay-lik)* kabi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, otlarga qo'shilib, ularni fe'llashtirgan bu qo'shimchalar fe'llarga qo'shilib ularning murakkab tuslanish shakllarini yasaydi:

Murakkab tuslanishda bir asl fe'lning va bir ot fe'lning ikki tuslanish qo'shimchasi ustma-ust yoki ikki fe'lning ikki tuslanish shakli ketma-ket keladi.

Turk tilida murakkab fe'l tuslanishi uchta: hikoya (*hikaye*), rivoyat (*rivayei*) va shart (*sort*) shakllari. Undan tashqari yana bir tuslanish shakli ham ajratiladiki, u kuchaytiruv (*kuwetlendirme*) va ehtimol (*ihimal*) shakli deyiladi.

Murakkab tuslanishda ko'p hollarda -i o'zagi tushiriladi, lekin ba'zan bu o'zak tushmagan hollarga ham duch kelish mumkin: *gelmis idi (kelgan edi), geldi ise (kelgan bo 'Isa). getiyor imis (kelar emish)* kabi.

Hikoya murakkab zamon shakli (*hikaye birlesik zamani*)

Hikoya murakkab zamon shakli, *i-mek* fe'lining yaqin o'tgan zamon ko'rinishi yordamida yasalgan murakkab tuslanishdir: *geli-yor-du-m, gelmis-ti-m, get-di-y-di* kabi. Bunda *i-mek* fe'lining qo'shimchasi fe'lning murakkab hikoya qo'shimchasi bo'lib, o'tgan zamonning hikoyasini ifodalab keladi.

Buyruq mayli shaklidan boshqa mayliarning barchasida hikoya shakli mavjuddir. Hikoya shaklida asl tuslanish oldin keladi: *hozirgi zaman hikoyasi, shartning hikoyasi* kabi.

Turkiy tillarda nutqda zamonning harakat nuqtasini o'tmishga o'tkazish mumkin. Bu harakat nuqtasidan *gelmek* fe'lining hozirgi zamoni *gecmiste geliyor = geliyordü* bo'ladi. Bu yerda bir qo'shma fe'lga ikkita zamon qo'shimchasi qo'shilgan: biri fe'l o'zagiga qo'shilgan *-iyor* hozirgi zamon qo'shimchasi, ikkinchisi eski bir yordamchi fe'l (*er-di > i-di > -di*) dan qolgan *-di* o'tgan zamon qo'shimchasidir. Ikkinchi qo'shimcha hozirgi zamon fe'lini o'tmishga ko'chirgan va bugungi kunga kelib nisbat (tarz) qo'shimchasiga aylanib qolgan.

Ta'kidlangani kabi, hikoya shakli fe'l ifodalagan ish-harakatning hikoya shaklida anglatilishini ta'minlaydi. Fe'lning barcha xabar mayli shakllari hikoya murakkab zamon shaklida tuslanadi.

Turk tilida *i-mek* fe'li bilan *-di* yaqin o'tgan zamon qo'shimchasining birlashishi natijasida tuslanuvchi va murakkab shakl hosil qiluvchi zamon shakllari yasaladi. Ular quyidagilar:

<i>Hozirgi zamonning hikoyasi</i>	(<i>simdiki zamamn hikayesi</i>)
<i>Yaqin o 'tgan zamonning hikoyasi</i>	(<i>belirli gegmis zamamn hikayesi</i>)
<i>Uzoq o 'tgan zamonning hikoyasi</i>	(<i>belirsiz gecmis zamamn hikayesi</i>)
<i>Hozirgi kelasi zamonning hikoyasi</i>	(<i>genis zamamn hikayesi</i>)

Kelasi zamonning hikoyasi

(gelecek zamamn hi kaye si)

Hozirgi zamonning hikoyasi (simdiki zamamn hikayesi)

Hozirgi zamonning hikoyasi hozirgi zamon qo'shimchasi bo'lgan **-iyor** va **-di** yaqin o'tgan zamon qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sev-iyor-um - sev-iyor-du-m;

oku-yor-um - oku-yor-du-m kabi.

vermek	vermemek
<i>ver-i-yor-du-m</i>	<i>ver-mi-yor-du-m</i>
<i>ver-i-yor-du-n</i>	<i>ver-mi-yor-du-n</i>
<i>ver-i-yor-du</i>	<i>ver-mi-yor-du</i>
<i>ver-i-yor-du-k</i>	<i>ver-mi-yor-du-k</i>
<i>ver-i-yor-du-nuz</i>	<i>ver-mi-yor-du-nuz</i>
<i>ver-i-yor-lar-di</i>	<i>ver-mi-yor-lar-m</i>

Hozirgi zamon hikoyasi shaklining so'roq ko'rinishi quyidagicha yasaladi:

sev-i-yor-mu-y-dum? - sev-mi-yor-mu-y-du-m?

okn-yor-mu-y-dum? - oku-mu-yor-mu-y-du-m? kabi.

Yaqin o'tgan zamonning hikoyasi (betirti gecmis zamamn hikayesi)

Yaqin o'tgan zamonning hikoyasi fe'l negizining **-di** yaqin o'tgan zamon qo'shimchasi olgan shakliga yana bir **-ai** qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sev-di-in - sev-di-y-di-m;

oku-du-m - oku-du-y-du-m kabi.

gelmek

gelmemek

<i>gel-di-y-di-m</i>	<i>gelme-di-y-di-m</i>
<i>gel-di-y-di-n</i>	<i>gelme-di-y-di-n</i>
<i>gel-di-y-di</i>	<i>gelme-di-y-di</i>
<i>gel-di-y-di-k</i>	<i>gelme-di-y-di-k</i>
<i>gel-di-y-di-n iz</i>	<i>gelme-di-y-di-niz</i>
<i>gel-di-y-di-ler</i>	<i>gelme-di- y-di-ler</i>

Yaqin o'tgan zamon hikoyasining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

sev-di mi-y-di-m? - sevme-dimi-y-di-m?

oku-du mu-y-du-m? - okuma-dt mi-y-di-m? kabi.

Uzoq o'tgan zamonning hikoyasi (belirsiz gecmis zamamn hikayesi)

Uzoq o'tgan zamonning hikoyasi fe'l negizining **-mis** uzoq o'tgan zamon qo'shimchasi olgan shakliga **-di** qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sev-mis-im - sev-mis-ti-m;

oku-mus-um - oku-mus-tu-m kabi.

demek

dememek

<i>de-mis-d-m</i>	<i>deme-mis-ti-m</i>
<i>de-mis-ti-n</i>	<i>deme-mis-ti-n</i>
<i>de-mis-ti</i>	<i>deme-mis-ti</i>
<i>de-mis-ti-k</i>	<i>deme-mis-ti-k</i>
<i>de-mis-ti-niz</i>	<i>deme-mis-ti-niz</i>
<i>de-mis-ler-di</i>	<i>deme-mis-ler-di</i>

Uzoq o'tgan zamon hikoyasining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

sev-mis mi-y-di-m? - sevme-mis mi-y-di-m?

ob-mus mu-y-du-m? - okuma-mis mt-y~dt-m? kabi.

Hozirgi - kelasi zamonning hikoyasi
(*genis zamamn hikayesi*)

Hozirgi kelasi zamonning hikoyasi fe'l negizining *r (-ir)* hozirgi kelasi zamon qo'shimchasi olgan shakliga *di* qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sev-er-im - *sev-er-di-m*;
sev-me-m - *sev-mez- di - in* kabi.

Hozirgi kelasi zamon hikoyasi shakli singarmonizm qoidasiga bo'ysunadi: *sev -er -di-rn, hak- ar -di-m, bil- ir -di-m, oku- r -du-m, gor- iir -dii-m* kabi.

<i>gezmek</i>	<i>gezmemek</i>
<i>gez-er-di-m</i>	<i>gez-mez-di-m</i>
<i>gez-er-di-n</i>	<i>gez-mez-di-n</i>
<i>gez-er-di</i>	<i>gez-mez-di</i>
<i>gez-er-di-k</i>	<i>gez-mez-di-k</i>
<i>gez-er-di-niz</i>	<i>gez-mez-di-n iz</i>
<i>gez-er-ler- di</i>	<i>gez-mez-ler- di</i>

Hozirgi kelasi zamon hikoyasining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

sev-er mi-y-di-m? - *sev-mez mi-y-di-m?*
oht-r mu-y-du-m? - *oku-maz mi-y-di-m?* kabi.

Kelasi zamonning hikoyasi (*gelecek zamamn hikayesi*)

Kelasi zamonning hikoyasi fe'l negizining *-ecek* kelasi zamon qo'shimchasi olgan shakliga *-di* qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sev-ecek - *sev-ecek - ti*;
sev-me-y-ecek - *sev-me-y-ecek-ti* kabi.

Kelasi zamon hikoyasi shakli singarmonizm qoidasiga bo'ysunadi: *Sev-ecek-ti-m, bak-acak-ti-m* kabi.

<i>silme_k</i>	<i>silmemek</i>
<i>sd-ecek-ti-m</i>	<i>silme-y-ecek-ti-m</i>
<i>sil-ecek-ti-n</i>	<i>sdme-y-ecek-ti-n</i>
<i>sil-ecek-ti</i>	<i>silme-y-ecek-ti</i>
<i>sil-ecek-ti-k</i>	<i>silme-y-ecek-ti-k</i>
<i>sil-ecek-ti-niz</i>	<i>sdme-y-ecek-ti-niz</i>
<i>sil-ecek-ler-di</i>	<i>silme-y-ecek-ler-di</i>

Kelasi zamon hikoyasining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:
sev-ecek mi-y-di-m? - *sevme-y-ecek mi-y-di-m?*
oku-y-acak mi-y-dt-m? - *okuma-y-acak mi-y-di- m?* kabi.

Rivoyat murakkab zamon shakli
(*rivayet birlasik zamam*)

Fe'llarning rivoyat murakkab zamon shakli *i-mek* fe'lining uzoq o'tgan zamoni qo'shimchasi (*-imis*) vositasida yasalgan murakkab tuslanish ko'rinishidir: *bilir-mis-im, bilmis-mis, bilse-y-mis-iz* kabi.

Yaqin o'tgan zamon fe'llaridan rivoyat murakkab zamon shakli yasalmaydi, shuningdek, uning buyruq mayli shakli ham yo'q. Qolgan barcha fe'l zamon shakllarining rivoyati mavjuddir. Bu tuslanishda *i-mek* fe'lining qo'shimchasi o'tgan zamonning hikoyasini ifodalab keladi.

Turk tilida rivoyat murakkab zamon shakllari *hozirgi zamonning rivoyati, uzoq o'tgan zamonning rivoyati, hozirgi-kelasi zamonning rivoyati, kelasi zamonning rivoyati* o'laroq to'rtga ajratiladi.

Hozirgi zamonning rivoyati (*simdiki zamamn rivayeti*)

Hozirgi zamonning rivoyati shakli hozirgi zamon qo'shimchasi bo'lgan *-iyor* va *-mis* uzoq o'tgan zamon qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

bil-i-yor-un - *bil-i-yor-mus-um*;
oku-yor-un - *oku-yor-mus-um* kabi.

<i>vermek</i>	<i>vermemek</i>
<i>ver-i-yor-mus-um</i>	<i>ver-m i-yor-mus-um</i>
<i>ver-i-yor-mus-sun</i>	<i>ver-mi-yor-mus-sun</i>
<i>ver-i-yor-mus</i>	<i>ver-mi-yor-mus</i>
<i>ver-i-yor-mus-uz</i>	<i>ver-mi-yor-mus-uz</i>
<i>ver-i-yor-mus-su nuz</i>	<i>ver-rni-yor-mus-sunuz</i>
<i>ver-i-yor-lar-mis</i>	<i>ver-mi-yor-lar-mts</i>

Hozirgi zamon rivoyatining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

Bd-i-yor-mus muyum? - *bil-mi-yor-mus muyum?*
Oku-yor-mus muyum? - *okumu-yor-mus muyum?* kabi.

Yaqin o'tgan zamonning rivoyati
(belirli gecmis zamamn rivayeti)

Yaqin o'tgan zamonning rivoyati fe'l negizining *-di* yaqin o'tgan zamon qo'shimchasi olgan shakliga *-mis* uzoq o'tgan zamon qo'shimchasi qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sev-di-m - *sev-di-y-mis-im*;
oku-du-m - *oku-du-y-mus-um* kabi.

<i>gel mek</i>	<i>gelmemek</i>
<i>gel-di-y-mis-im</i>	<i>gelme-di-y-mis-im</i>
<i>gel-di-y-mis-sin</i>	<i>gelme-di-y-mis-sin</i>
<i>gel-di-y-mis</i>	<i>gelme-di-y-mis</i>
<i>gel-di-y-mis-iz</i>	<i>gelme-di-y-mis-iz</i>
<i>gel-di-y-mis-siniz</i>	<i>gelme-di-y-mis-sin iz</i>
<i>gel-di-y-mis-ler</i>	<i>gelme-di-y-mis-ler</i>

Yaqin o'tgan zamon rivoyatining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

sev-di-y-mis miyim? - *sevme-di -y- mis miyim?*
oku-du-y-mus muyum? - *okuma-di-y-mis miyim?* kabi.

Uzoq o'tgan zamonning rivoyati
(belirsiz gecmis zamamn rivayeti)

Uzoq o'tgan zamonning rivoyat shakli fe'l negizining *-mis* uzoq o'tgan zamon qo'shimchasi olgan shakliga yana bir *mis* qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sev-mis - im *sev-mis -mis -im*
oku-mus -urn *oku-mus-mus-um* kabi.

<i>getmek</i>	<i>gelmemek</i>
<i>gel-mis-mis-im</i>	<i>gehne-mis-mis-im</i>
<i>gel-mis-mis-sin</i>	<i>gelme-mis-mis-sin</i>
<i>gel-mis-mi\$</i>	<i>gelme-mis-mis</i>
<i>gel-mis-mis-iz</i>	<i>gelme-mis-mis-iz</i>
<i>gel-mis-mis-siniz</i>	<i>gelme-mis-mis-siniz</i>
<i>gel-mis-ter-mis</i>	<i>gelme-mis-ler-mis</i>

Uzoq o'tgan zamon rivoyatining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

sev-mis-mis miyim? - *sevme-mis-mis miyim?*
oku-mus-mus muyum? - *okuma-mis-mts mtytm?* kabi.

Hozirgi-kelasi zamonning rivoyati *(genis zamamn rivayeti)*

Hozirgi kelasi zamonning rivoyati fe'l negizining *-r (-ir)* hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasi olgan shakliga *-mis* uzoq o'tgan zamon qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sev-er-im - *sev-er - mis-im*
oku-r-um - *oku-maz- mis -im* kabi.

Hozirgi kelasi zamon rivoyati shakli singarmonizm qoidasiga bo'ysunadi: *sev-er - mis-im*, *bak- ar -misim*, *bil- ir -misim*, *oku- r -musum*, *gbr- ur -miisiim* kabi.

gitmek
gid-er-mis-im

gitmemek
git-mez-mis-im

<i>gid-er-mis-sin</i>	<i>git-mez-miss in</i>
<i>gid-er-mis</i>	<i>git-mez-mis</i>
<i>gid-er-mis-iz</i>	<i>git-mez-mis-iz</i>
<i>gid-er-mis-siniz</i>	<i>git-mez-missiniz</i>
<i>gid-er-mis-ler</i>	<i>git-mez-mis-ler</i>
<i>(gid-er-ler-mis)</i>	<i>(git-mez-ler-mis)</i>

Hozirgi kelasi zamon rivoyatining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

severmis miyim? sevmezmis miyim?
oku-r-mus muyum? • oku-maz-mis miyim? kabi.

Kelasi zamonning rivoyati (*gelecek zamann rivayeti*)

Kelasi zamonning rivoyati fe'l negizining *-ecek* kelasi zamon qo'shimchasi olgan shakliga *-mis* uzoq o'tgan zamon qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sev-ecek - sev-ecek - mis
oku-y-acak - okuma-y -acak-mis kabi.

Kelasi zamonning rivoyati shakli turkiy singarmonizm qoidasiga bo'ysunadi: *sev-ecek-mis-im, bak- acak -mis-im* kabi.

<i>bilmek</i>	<i>bilmemek</i>
<i>bil-ecek-mis-im</i>	<i>bilme-y-ecek-mis-im</i>
<i>bil-ecek-mis-sin</i>	<i>bilme-y-ecek-mis-sin</i>
<i>bil-ecek-mis</i>	<i>bilme-y-ecek-mis</i>
<i>bil-ecek-mis-iz</i>	<i>bilme-y-ecek-mis-iz</i>
<i>bil-ecek-mis-siniz</i>	<i>bilme-y-ecek-mis-siniz</i>
<i>bil-ecek-mis-ler</i>	<i>bilme-y-ecek-mis-ler</i>
<i>(bil-ecek-ler-mis)</i>	<i>(bilme-y-ecek-ler-mis)</i>

Kelasi zamon rivoyatining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

Sev-ecek-mis miyim? - sevme-y-ecek-mis miyim?
oku-y-acak-mis mym? - okuma-y-acak-nu miytm? kabi.

Fe'lining shart murakkab zamon shakli (*sort birlesik zaman sekli*)

Fe'lining shart murakkab zamon shakli degani *i-mek* fe'lining shart mayli qo'shimchasi vositasida yasalgan murakkab tuslanish shaklidir: *iciyor-sa-mz, beklemissek, gdrdii-y-miis-se, gelecekler-se* kabi. Bu tuslanishda *i-mek* fe'lining qo'shimchasi shartni ifodalaydi va shart qo'shimchasi deb ataladi.

Buyruq, shart va istak mayllari shakllarining shart murakkab zamon shakli mavjud emas. Qolgan barcha xabar mayli shakllarining shart murakkab zamon shakllari mavjud.

Shart murakkab zamon shakli 6 xil ko'rinishga ega:

hozirgi zamonning sharti (gel-iyor-sa-m);
yaqin o tgan zamonning sharti (gel-di-y-se-m);
uzoq o tgan zamonning sharti (gel-mis-se-m);
hozirgi-kelasi zamonning sharti (gel-ir-se-m);
kelasi zamonning sharti (gel-ecek-se-m);
keraklilik maylining sharti (gel-meli-y-se-m)

Fe'lining shart murakkab zamon shakli shaxs-son qo'shimchalari olib tuslanadi.

Kuchaytiruv (*kuvvetlendirme*) va ehtimol (*ihtimal*) shakllari

Turk tilida kuchaytiruv va ehtimol shakli *i-mek* fe'lining hozirgi zamon qo'shimchasi bilan yasalgan murakkab tuslanish ko'rinishlaridir: *gerqeklestirdecek-tir, gelmis-tir, biliyorsun-dur. gbreceksiniz-dir* kabi. Bu tuslanishda faqat xabar maylining birlik 3-shaxs qo'shimchasi bo'lgan *-dir (-dir. -diir, -dur, -tir, -nr. -air, -tur)* qo'llanadi. Shuning uchun ham ularning shakli 3-shaxslar ko'rinishida bo'ladi (*seviyor-sun-dur, yapiyorlardir*).

Ushbu qo'shimcha qo'shilmaydigan mayl va shaxs shakllari ham mavjud. Shu bois bu shaklni hikoya, rivoyat va shart shakllari kabi to'la murakkab tuslanish shakli deyish qiyin.

Bu tuslanish shaklida **-dir, -dir** qo'shimchasi ham kuchaytiruv, ham ehtimolni ifodalab keladi: (*mudaka*) *gelmis-tir, (belki) gelmis-tir* kabi.

Murakkab tuslanish shakliga **i-mek** fe'li ikki marotaba ham qo'shilishi mumkin. Bunday holatda uch qo'shimchali o4a murakkab tuslanish shakli yuzaga keladi.

Turk tilida «o'ta murakkab tuslanish» deb nomlangan ko'rinish faqat shart mayli qo'shimchasi bilan yasaladi va uning ikki shakli mavjud: *hikoyaning shard (sev-iyor-du-y-sa-m, yap-iyor-du-y-san)* va *rivoyatning shard (sev-iyor-mus-sa-m, yap-tyor-mus-san)*.

Hikoyaning sharti (*hikayenin sartt*)

Hikoya shakli murakkab hikoya tuslanish shakliga **i-mek** fe'lining sharti qo'shimchasi qo'shilib yasalgan o'ta murakkab tuslanish shaklidir:

gel-i-iyor-du-y-sa-n. gel-mis-ti-y-se, yap-acak-mis-sa-niz kabi.

Ben	Bil-i-iyor-du-y-sa-m	Bil-m-i-iyor-du-y-sa-m
Sen	Bil-i-iyor-du-y-sa-n	Bil-m-i-iyor-du-y-sa-n
0	Bil-i-iyor-du-y-sa	Bil-m-i-iyor-du-y-sa
Biz	Bil-i-iyor-du-y-sa-k	Bil-m-i-iyor-du-y-sa-k
Siz	BiUi-iyor-du-y-sa-niz	Bil-m-i-iyor-du-y-sa-mz
Onlar	Bil-i-iyor-lar-di-y-sa	Bil-m-i-iyor-lar-di-y-sa

Tur< tilida shart va istak mayllarining hikoya shakllaridan boshqa barcha hikoya tuslanish shakllarining shart ko'rinishlari yasalishi mumkin.

Rivoyatning sharti (*rivayetin sartt*)

Rivoyat shakli murakkab rivoyat tuslanish shakliga **i-mek** fe'lining sharti qo'shimchasi qo'shilib yasalgan o'ta murakkab tuslanish shaklidir:

bil-i-iyor-mus-sa, gel-ecek-mis-se-n, oku-y-acak-ti-y-se kabi.

Ben	Bil-i-iyor-mus-sa-m	Bil-m-i-iyor-mu§-sa-m
Sen	Bil-i-iyor-mus-sa-n	Bil-m-i-iyor-mus-sa-n

O	Bil-i-iyor-mus-sa	T BiF-m-i-iyor-mus-sa
Biz	Bil-i-iyor-mus-sa-k	Bil-m-i-iyor-mus-sa-k
Siz	Bil-i-iyor-mus-sa-mz	Bil-m-i-iyor-mus-sa-niz
Onlar	<u>Bil-i-iyor-mus-lar-sa</u>	<u>Bil-m-i-iyor-mus-lar-sa</u>

Istak va shart rivoyat shakllarining o'ta murakkab tuslanish ko'rinishi yo'q, qolgan shakllari ham nutqda juda kam qo'llanadi.

Olmak yordamchi fe'li

Turk tilida **olmak** yordamchi fe'li bir tomondan ot va sifatlar bilan birga qo'shma fe'llar yasaydi (*iyi olmak, baba olmak*). ikkinchi tomondan **i-mek** fe'li qo'shimchalariga o'xshash shaklda ba'zi sifat-doshlarga qo'shilib, ish-harakatning zamoni va tarzi bilan bog'liq xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab shakllami yuzaga keltiradi: *dgrenmis olmak, gelir olmak, isitmez olmak, satacak olmak* kabi. Bu shakllar ham tuslanadi va fe'lining turli xil vazifadosh shakllarini yuzaga keltirishi mumkin.

QO'SHMA FE'L SHAKLLARI: KO'MAKCHI FE'LLAR (*tasvirJiilleri*)

Turk tilida **-e** va **-i** ravishdosh qo'shimchalariga ba'zi yarim yordamchi fe'llar qo'shilib yasalgan murakkab fe'l negizlariga ko'makchi fe'llar (*tasvir Jiilleri*) deyiladi. Bu fe'l shakllari birinchi ravishdosh holatida turgan fe'ldan anglashilgan ish-harakat, holatning yuzaga kelishini ifodalaydi. Bunda ravishdosh ma'nosi asos bo'lib xizmat qiladi. Ular xuddi shu xususiyatlari bilan boshqa murakkab fe'llardan alohida ajralib turadi: *yap-abU-mek (qila olmoq), ul-t-ver-mek (olvormoq), yiini-ye-dur-mak (yuraturmoq), dur-a-durmak (turaturmoq). dl-e-yazmak (o'layozmaq)* kabi.

Ko'makchi fe'llar har doim qo'shib yoziladi va ularning ikkinchi qismini tashkil etuvchi qismlari singarmonizm qoidasiga bo'ysunmaydi. Tasvir fe'llari ma'no jihatdan to'rlta turga bo'linadi:

1. Imkoniyat fe'llari (*yetertik fdlteri*);
2. Ko'makchi (tczlik) fe'llar (*teztik fdlteri*);
3. Davom fe'llari (*siirek fdlteri*);

4. Taxmin fe'ilari (*yaklasik fuller*).

1. Imkoniyat fe'ilari (*Yeterlik filleri*)

Imkoniyat fe'ilari⁸ fe'l o'zagiga qo'shilgan *-e* ravishdosh qo'shimchasidan keyin ko'makchi vazifasidagi *bilmek* fe'li qo'shib yasaladi va ish-harakat yoki holatning yuz berishi mumkinligi, ehtimoldan holi emasligini bildiradi: *gor-e-bilmek, dusiin-e-bilmek, yap-a-bilmek, atla-y-a-bilmek* kabi.

Imkoniyat fe'ilari tasvir fe'llarining nutqda eng faol qo'llaniluvchi turi bo'lib, barcha zamon shakllarida tuslanadi va mayllar bo'yicha o'zgaradi: *anlatabildim, gorebilirsiniz, alabilmis, varabdmelisiniz, yuriiyebilyordu, yetisebilseymissin, kaqabilelim* va hok.

Hozirgi turk tilida imkoniyat fe'llarining tuslanmas shakllari ham uchraydi:

Maksat goriisebilmek (Maqsad ko 'risha olmoq).

"Ne mutlu yapabilene " (Buni qila olgan qanday baxtli inson).

Rabat konusabilen kisi (Bemalol gaplasha oladigan kishi).

Verebilecegini vermis (Bern olganichasini beribdi).

Tasiyahildigi kadarmi gotirsin (Tashiy olganichasini olib ket-sin) va hok.

Imkoniyat fe'llarining bo'lishsiz shakli ancha eski bir yordamchi fe'l (eski turkchadagi *u-mak* fe'lning bo'lishsiz shakli bo'lgan *u-ma-mak (kd-a umamak)* asosida yuzaga kelgan. Keyinchalik *u-unlisining* tushishi natijasida hozirda qo'llanayotgan va turkiy singarmonizm qonuniga bo'ysunuvchi *ma-mak (me-mek)* shakli paydo bo'lgan va hozirgacha saqlangan: *gezememek (gezemiyorum), kalkamamak (kalkamadtniz).*

Imkoniyat fe'llarining bo'lishsiz shakli uning bo'lishli shakliga parallel o'laroq barcha tuslanish shakllari va fe'lning vazifadosh shakllari qolipiga kiradi:

Łok insan burnt anlayamaz (Ko 'p odam buni tusuna olmaydi).

Yapamayacagim vaadetme (Qo'lingdan kelmeydigan ishni va 'da berma).

Имконият феълларининг яна бир номя «иктидор феъллари» лир

Biikemedigin eli dp (atasozii) (Buka olmagan qo lingni o p) va

Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, ravishdoshlarning bo'lishsiz shakli ham *-me* qo'shimchasi vositasida yasaladi (*gitmeyebilecegim, kalmayabilirsiniz*). Bu esa shaxsning imkonsizligini emas, ish-harakatni bajarmaslik imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Imkoniyat fe'llarining tuslanishi (*yetvlik eyleminin qekimi*)

Hozirgi zamon (*simdiki zaman*) yaqin o'tgan zamon (*goriden Reqmis zaman*)

<i>yapabiliyorttm</i>	<i>yapamtyorum</i>	<i>yapahildim</i>	<i>yapamadim</i>
<i>yapabiliyorsun</i>	<i>yapamtyorsun</i>	<i>yapabildin</i>	<i>yapamadtn</i>
<i>yapabiliyor</i>	<i>yapamtyor</i>	<i>yapabildi</i>	<i>yapamadi</i>
<i>yapabiliyomz</i>	<i>yapanuyoruz</i>	<i>yapabildik</i>	<i>yapatnadik</i>
<i>vapabiliyorsunuz</i>	<i>yapamiyorsunuz</i>	<i>yapabildiniz</i>	<i>yapamadmtz</i>
<i>yapabiliyorlar</i>	<i>yapanuyorlar</i>	<i>yapabildiler</i>	<i>yapamadlar</i>

Uzoq o'tgan zamon (*duyulan geqmis zaman*) Kelasi zamon (*gelecek zaman*)

<i>yapabilmi^im</i>	<i>yapamanuun</i>	<i>yapabilecegim</i>	<i>yapamayacagim</i>
<i>yapabilmissin</i>	<i>yapamamtssin</i>	<i>yapabileceksin</i>	<i>yapamayacakstn</i>
<i>yapabilmis</i>	<i>yapamanus</i>	<i>yapabilecek</i>	<i>yapantayacak</i>
<i>yapabilmifiz</i>	<i>yapanmmtsiz</i>	<i>yapabilecegiz</i>	<i>yapamayacagtz</i>
<i>yapabilmissiniz</i>	<i>yapamamtssin tz</i>	<i>yapabileceksiniz</i>	<i>yapamayacaksmiz</i>
<i>yapahilmisler</i>	<i>yapamamtslar</i>	<i>yapahilecekler</i>	<i>yapamayacaklar</i>

Hozirgi kelasi zamon (*genis zaman*) Sbart mayli shakli (*sartsekkli*)

<i>yapabilirim</i>	<i>yapamam</i>	<i>yapabilsem</i>	<i>yapan.asam</i>
<i>yapabilirsin</i>	<i>yapamazstn</i>	<i>yapabilsen</i>	<i>yapamasan</i>
<i>yapabilir</i>	<i>yapamaz</i>	<i>yapabilse</i>	<i>yapamasa</i>
<i>yapabiliriz</i>	<i>yapamayiz</i>	<i>yapabilesek</i>	<i>yapamasak</i>
<i>yapabilirsiniz</i>	<i>yapamazstniz</i>	<i>yapabilseniz</i>	<i>yapamasamz</i>
<i>yapabilirlar</i>	<i>yapamazlar</i>	<i>yapabilseler</i>	<i>yapamasalar</i>

2. Ko'makchi fe'llar (tezlikfiili)

Turk tilida ko'makchi fe'llar *tezlik fiili*, yoki *ivedilik Jli/i* deyiladi. Ko'makchi fe'llar fe'l negiziga *-i* ravishdoshi va undan keyin *vermek* yordamchi fe'li qo'shilib yasaladi: *al-i-vermek*, *cek-i-vermek*, *gor-ii-vermek*, *yaz-i-vermek*, *atd-i-vermek* kabi.

Bu fe'llar ish-harakatning tezlik bilan, bir lahzada, osongina va bemalol amalga oshirilishi yoki amalga oshishini ifodalaydi. Uning eski turkchadagi shakllari *tuta bermek*, *eti bermek* bo'lgan va nutqda faol qo'llangan:

*"Doldur doldur, raki ver. Sen de bir tek qakiver
Donerse guizel basin, gbgsiime birakiver"* (qo shiqdan).

Tezlik fe'llari ham imkoniyat fe'llari kabi fe'lning barcha tuslanish shakllarini ola olsa-da ma'no munosabati bo'lmasa, *har* qanday fe'l bilan birga qo'llanavermaydi: *qikariverisen*, *qokiiverdi*, *anlahverin*, *adaytvermeliydiniz*, *sasirivenrsem*, *goriiniiverince* va hok.

Tezlik fe'llari 2- va 3- shaxslardan bir ish-harakatning bajari-lishi, bir narsani iltimos qilish ma'nosida ham qo'llanadi: *Tuzlugu uzanverin*, *Oglutn. bakiversen el Ali sunu gdturiiversin* va hok.

Tezlik fe'llarining bo'lishsiz shakli yordamchi fe'lning bo'lishsiz ko'rinishi bilan yasaladi (*alivermemek*, *inanivermemek*). Bu shakl qo'shma fe'ldagi tezlik ma'nosini bo'lishsizlashtiradi. Undan tashqari, u ravishdoshni ham bo'lishsizlashtirishi mumkin (*al-mayivermek*, *inanmayivermek*). So'zning bunday tuzilishi ish-harakatning kulilmagan holatda bo'lishsiz davom etishini anglatadi: *bakmayiverdim*, *gorunmeyiverir*, *diniemeyiversin* va hok.

3. Davom fe'llari (siirek fiillari)

Bu fe'llar so'zga *-e* ravishdosh qo'shimchasidan keyin *durmak*, *kalmak*, *gbrniek*, *gelmek* kabi yarim yordamchi fe'llar qo'shilib yasaladi. Ular nutqda juda kam qo'llanadi: *yiiruyedurmak*, *hakakal-mak*, *isleyegdrmek*, *ola gel me κ* kabi.

Davom fe'llari ish-harakatning vaqt mobaynida surunkali davom etishini ifodalaydi. Bulardan *durmak* fe'li eski turkchadan boshlab,

yarim yordamchi fe'l bo'lib, avval *turur*, keyinchalik *durur* hozirgi zamon turkchasida esa *dir* ni yuzaga keltirgan. Ikkinchi tomondan esa ish-harakat ma'nosini olib, davomiylik fe'llarini yuzaga keltirgan: *Sen okuyadur*, *O shylenedursun*.

Kalmak fe'li bilan yasalgan davom fe'llari harakatsiz davom etishni anglatadi:

Arkasindan bakakaldi, *Uyuyakalsam uyandirstnlar*, *Hakes sa-sakalmisti*.

Gbrmek fe'li bilan yasalgan davom fe'llari ham harakat ma'nosini ifodalaydi. Bunday fe'llarda «bemalol davom etmoq» ma'no nozikligi mavjud:

Sen isine bakagdrecektin, *"Bayezida siiregbr devranuu "*

Bunday fe'llar ravishdoshlaming bo'lishsiz shakliga qo'shilganda «oxiri yaxshi bo'lmaydi» degan ma'no beradi:

Allah hastalik vermeyegiirsiin, */pin uunu kacirmayagdr*.

Gelmek fe'li bilan yasalgan davom fe'llari ish-harakatning ancha oldindan boshlanib, hozirda davom etayotganini bildiradi:

Olagelmis olagider (*Qanday bo'lib kelgan bo'lsa, shunday bo lib keladi*).

Bunlar her zaman sdylenegelmisdr (*Bular har doim aytib kelingan*).

Boyle yapdagelmisler (*Shunday qilib kelganlar*).

"Mecnun Leylasini bulagelmis" (*"Majnun Laylosini izlab, lopib kelgan "*).

4. Taxmin fe'llari (yaklasik fuller)

Taxmin fe'llari fe'l negiziga *-e* ravishdosh qo'shimchasi va undan keyin *yazmak* yordamchi fe'li qo'shib yasaladi. *Yaimak* yordamchi fe'li eski turkchadagi *yandmak* ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, eski usmonli turkchasidan boshlab taxmin fe'llarida namoyon bo'ladi. Bu fe'llar bugungi kunda yuz berishi xohlanmagan bir ish-harakatning amalga oshishiga bir bahya qolgani, sal bo'lmasa yuz berishi mumkinligini bildiradi va yordamchi fe'lga qo'shib yoziladi: *diiseyazmak*, *yikdayazmak*, *bleyazmak*, *bogulayazmak*, *ka-qirayazmak* kabi.

Taxmin fe'olari turk adabiy tilida unchalik ko'p qo'llanilmaydi. Uni ko'proq turk tilining shevalari, og'zaki nutqda uchramiz: *"Sevkundan adlar a tutusup yanayaznusam". Ayagi kaytp diiseyazmts. Oc gun susuz, ekmeksiz kaldim, actan oleyazdim* va hok.

FE'LNING VAZIFADOSH SHAKLLARI (YATIK FULLER)

Yuqorida fe'llarning turlari haqida so'z yuritilganda, fe'ning shaxs va zamon qo'shimchalari olib tuslanmaydigan shakllari ham borligi, ularning o'zbek tilshunosligida fe'ning vazifadosh (funktional) shakllari deb atalishi ta'kidlangan edi. Fe'llarning xuddi shunday shakllari hozirgi zamon turk tilida ham mavjud. Bu shakllar turk tilshunosligidayatik fuller (yotiq fe'llar) deyiladi.

Bu shakllarning fe'tning vazifadosh shakllari deyilishiga sabab, ular fe'ning biron-bir grammatik kategoriyasiga mansub bo'lmay. turli ma'nolar ifodalash yoki boshqa vazifalarni bajaradi. Turk tilida fe'ning bunday shakllari otlar kabi kelishik qo'shimchalari olib o'zgarishi va tugallanmagan fikrni ifodalovchi gaplarda kesim bo'lishi mumkin. Fe'ning ot, sifat va ravishga o'xshash vazifa bajaruvchi bunday shakllarni fe'ning boshqa shakllaridan ajratib turuvchi xususiyati esa ularning tugallanmagan bir fikrni bildirgan gapga kesim bo'la olishidir:

Aliyi karstmda gbrmek (beni sastrtu). (Alini qarshimda ko fish (muni /uyzoü qoldirdi).

Evi kiralayacak (hamm tekrar geidt). (Uyni icaraga olmoqclu bo Igan (ayol yana keldi).

%ayi gormeden (pacam sivama)" (Soyni ko'rmasdan (pachani shimarma) kabi.

Bunday vaziyatda ular ravish va bog'lovchi vazifasini bajaradi. FeT xarakteriga ega bo'lgan ba'zi vazifadosh shakllar turk tilida zamon, mayl shakllariga negiz bo'lishi ham mumkin. Xususan, bu-lardan bir guruhi - sifatdoshlarni zamon shakllariga ham ega bo'ladi. Ularga fe'l shaxs qo'shimchalari qo'shilib, xabar mayli shakllari yuzaga keladi (*bil-mis-im, bil-ir-sin, bil-ecek-siniz*) va shu tarzda fe'ning vazifadosh shakllari tuslanuvchi fe'l kabi namoyon bo'ladi.

Fe'ning egalik qo'shimchasi olgan vazifadosh shakllari lo'liqsiz gaplarga kesim bo'lib kelganda, ulardagi shaxs olmoshi gapning egasi bo'ladi:

Veliyi birlikte getirmeni isterdim (Valini birga olib kehshingni istardim).

Evden cikisim tatsiz oldu (Uydan chiqib ketishim yaxshi bo 'Imacl).

Manavin verdigi karpuz ham ciktt (Sotuvchi bergan tarvzn lom chiqdi).

Burada olacagimtzi nereden bildin? (Bu yerda bo'l/shimizni qayerdan bilding).

Ankara'ya geldiginizde beni arayin (Anqaraga kelganingizda menga qo 'ng 'iroq qiling).

Fazla yoruldugumden erken yatmtstim (Juda charchaganim uchun erta yotgandim) kabi.

Biroq fe'ning bunday vazifadosh shakllari shaxs va zamon ma'nosiga ega bo'lishi bilan tuslanuvchi fe'l bo'lib qolmaydi. Chunki ular bu egalik olmoshlari bilan birgalikda ot kabi turlanadi.

Fe'ning vazifadosh shakllari uch xil bo'ladi:

1. Harakat nomi (*adfiller*) - fe'ning ot shakllari;
2. Sifatdoshlarni (*sifatfiller*) - fe'ning sifat shakllari;
3. Ravishdoshlarni (*zarffiller*) - fe'ning ravish shakllari.

Quyida ularni birma-bir ko'rib chiqamiz.

HARAKAT NOMI (*adfiller*)

Turk tilshunosligida harakat nomi fe'ning ot shakli, ya'ni ish-harakat, holat yoki bo'lish, yuz berishning nomi, deya ta'riflanadi. Harakat nomi otdosh shakl ham deyiladi. Shu bois fe'larni harakat nomlaridan biri bilan ataymiz (*atmak* fe'li, *istemek* fe'li, *ucurmak* fe'li). Harakat nomining bunday turiga masdar (*mastar, infinitif*) deyiladi.

Turk tilida *-mek, -me, -is* qo'shimchalari qo'shilib yasalgan uch xil harakat nomi mavjud (*bilmek, saimak, gelisme, calisma, giris, cikis*). Undan tashqari, hozirgi zamon turk tilida kamdan-kam hol-larda *-meklik* qo'shimchasi bilan uzaytirilgan holda yasalgan harakat

nomlari ham qo'llanib kelinadi (*sevmeklik, yapmakhk*). Bular barchasi ish-harakatning nomlarini ifodalaydi.

Harakat nomlarida shaxs ma'nosi bo'lmagani kabi, zamon ma'nosi ham yo'q, ammo ularda ozmi-ko'pmi ma'no va qo'llanish farqlari mavjud. Masdar deb atalgan *-mek* harakat nomlari fe'ning grammatik va boshlang'ich shakli fe'ning noaniq shakli hisoblanadi va tola ma'noli ot bo'la olmaydi. Ular, shuningdek, hozirgi zamon turk tilida harakat nomi qatnashgan gapda ham kamdan-kam holdalarda qo'llanadi. Masdarlar egalik va boshqa shakl yasovchi qo'shimchalar ham olmaydi. Boshqacha aytganda, *-mek* harakat nomlari hozirgi zamon turk tilida o'z o'rnini *-me* harakat nomi qo'shimchasiga bo'shatib bergan. Masalan, eski turkchadagi *ybrimegiim, demege, etmegi* shakllari yangi turkchada *yiiriimem, demeye, etmeyi* ko'rinishiga ega.

-mek masdar shakli turli xil harakat nomi kelgan gaplarda qo'llanadi: "*Kisi noksam b'dmek gibi irfan olmaz*" (*Kishi nuqsolini bilmoq kabi irfon bo'lmas*).

-me harakat nomi qo'shimchasi *-mek* qo'shimchasi asosida yuzaga kelgan bo'lib, hozirgi zamon turk tilida asl ish-harakat otlari sifatida faol qo'llanadi. Ular *hafif mastarlar* (yengil masdarlar) ham deyiladi: *gitme, calisma, evlenme, okuma* va hok.

Harakat nomlari egalik va kelishik qo'shimchalari ola olgani uchun qo'shma gaplarda bosh gapning barcha unsurlarining yoki ularga oid so'z birikmalaridagi otlarning o'rnini egallashi mumkin:

Hatir icin konusmayi hie basaramam (*Hurmat uchun gapirishni hech eplay olmayman*).

Sizi rahatsiz etmeleri yersiz olmus (*Sizni bezovta qilishlari to'g'ri bo'4/nabdi*).

Qfliginde avlanmamiza miisaade etmisti (*O'z yerida ov qilishimizga ruxsat bergan edi*) va hok.

Nutqda *-me* harakat nomining egalik qo'shimchasi olib, uzaytirilgan yana bir shakli ham uchraydi: *Buradan karsiya gecmesi o kadar ko'iy degil* (*Bu yerdan narigi tomonga o'tishi unchalik oson emas*).

-is qo'shimchali harakat nomlari ham ish-harakatning tarzini bildiruvchi ot-fe'llardir: *gelis, goriis, anlayis, davranis*. *-is* qo'shimchasi ham *-me* kabi egalik qo'shimchalari va turli kelishik

qo'shimchalari olib turlangan holda harakat nomi qatnashgan gaplarda keng qo'llanadi, lekin, baribir, ular *-me* qo'shimchali harakat nomlariga nisbatan kam tarqalgan: *Sizin araya girisiniz durumu kurtardi* (*Sizning o'rtaga tushishingiz vaziyatdan chiqishga yordam berdi*). *Bunun mutlaka bir ctkis yolu vardir* (*Buning mutlaqo bir iioji bordir*) kabi.

SIFATDOSHLAR (*Sifatfuiller*)

Sifatdoshlar turk tilida *sifatfi'dler* deb nomlanadi. Ba'zi hozirgi zamon turk tili grammatikasi kitoblarida ularning *parasipler* deb atalganini ham ko'rish mumkin. Sifatdoshlar fe'ning ma'nosini zamonga bog'liq shaklda sifatlashtiruvchi shakl belgisidir. Boshqacha aytganda, sifatdoshlar predmetlarning harakat vasfim ifodalaydi. Shu tarzda, ular harakat va zamoni ifoda etadi (*gecmis giinler, oturan adam, satdacak esya*). Sifatdoshlar zamon ma'nosiga ega bo'lishi bilan harakat nomlaridan farq qiladi, faqat fe'ning vazifadosh shakli o'laroq harakat nomlari kabi bo'lishsiz va passiv ko'rinishlar oladi: *pismemis et, kizartdmis ekmek. goriihnemis sey. ydmayanadam, acttacak sergi, tutulmayacak sozler* kabi.

Sifatdoshlar aktiv sifatdoshlar (*etkin sifatfuiller*), passiv sifatdoshlar (*edilen sifatfuiller*) va bo'lishsiz sifatdoshlar (*olumsuz sifatfuiller*) o'laroq uchga bo'linadi. Shu nuqtai nazardan ular fe'ldan yasalgan sifatlar (*kink, keskin, calif kan*) dan farq qiladi.

Aktiv sifatdoshlar sifat so'z birikmalan ichida ko'pinch1 ish-harakatning egasiga (*batmts gemi, bden adam, tasiyacak vosita*), passiv sifatdoshlar esa ish-harakatning mantiqiy vositasiz todiruvchisiga aniqovchi (sifat) bo'lib keladi: *atdmis kagit. cekilen telgraf, ahnacak isci*. Undan tashqari ularning boshqa shakllarda ham qo'llanganini ham ko'rish mumkin: *yakacak. yakitacakodun; gidecek, gidilecek yol* kabi.

Sifatdoshlar, yuqorida fe'ldan yasalgan otlar mavzusida **1mrt** ko'rib o'tganimiz kabi, turkcha lug'atlarda sifat va ot bo'lgan juda ko'p so'zlarni yuzaga keltirgan: *dolmus, tantdik, gelir. bran, satict, yakacak*, verear/kabi. Zamon ma'nosini yo'qotganga o'xshab ko'ringan bu fe'ldan yasalgan otlar sifatdosh vazifasiga o'tishi bilan o'zi qaysi zamonga oid bo'lgan bo'lsa, o'sha zamon ma'nosini

nomlari ham qo'llanib kelinadi (*sevmeklik, yapmakiik*). Bular barchasi ish-harakatning nomlarini ifodalaydi.

Harakat nomlarida shaxs ma'nosi bo'lmagani kabi, zamon ma'nosi ham yo'q, ammo ularda ozmi-ko'pmi ma'no va qo'llanish farqlari mavjud. Masdar deb atalgan *-mex* harakat nomlari fe'lning grammatik va boshlang'ich shakli fe'lning noaniq shakli hisoblanadi va tola ma'noli ot bo'la olmaydi. Ular, shuningdek, hozirgi zamon turk tilida harakat nomi qatnashgan gapda ham kamdan-kam holdalarda qo'llanadi. Masdarlar egalik va boshqa shakl yasovchi qo'shimchalar ham olmaydi. Boshqacha aytganda, *-mex* harakat nomlari hozirgi zamon turk tilida o'z o'rnini *-me* harakat nomi qo'shimchasiga bo'shatib bergan. Masalan, eski turkchadagi *ybrimegiim, demege, etmegi* shakllari yangi turkchada *yiirimem, demeye, etmeyi* ko'rinishiga ega.

-mex masdar shakli turli xil harakat nomi kelgan gaplarda qo'llanadi: "*Kisi noksam bilmek gibi irfan olmaz* " (*Kishi nuqsanini bilmoq kabi irfon bo'lmas*).

-me harakat nomi qo'shimchasi *-mex* qo'shimchasi asosida yuzaga kelgan bo'lib, hozirgi zamon turk tilida asl ish-harakat otlari sifatida faol qo'llanadi. Ular *hafifmasterlar* (yengil masdarlar) ham deyiladi: *gitme, calisma, evlenme, okuma* va hok.

Harakat nomlari egalik va kelishik qo'shimchalari ola olgani uchun qo'shma gaplarda bosh gapning barcha unsurlarining yoki ularga oid so'z birikmalaridagi otlarning o'rnini egallashi mumkin:

Hatir icin konusmayt hie basaramam (*Hurmat uchun gapirishni hech eplay olmayman*).

Sizi rahatsiz etmeleri yersiz olmus (*Sizni bezovta qilishlari to'g'ri bo'lmabdi*).

Qfliginde avlanmamiza miisaade etmisti (*O'z yerida ov qilishimizga ruxsat bergan edi*) va hok.

Nutqda *-me* harakat nomining egalik qo'shimchasi olib, uzaytirilgan yana bir shakli ham uchraydi: *Buradan karsiya gecmesi o kadar kolay degil* (*Bu yerdan narigi tomonga o'tishi unchalik oson emas*).

-is qo'shimchali harakat nomlari ham ish-harakatning tarzini bildiruvchi ot-fe'llardir: *gelis, goriis, anlayis, davranis*. *-is* qo'shimchasi ham *-me* kabi egalik qo'shimchalari va turli kelishik

qo'shimchalari olib turlangan holda harakat nomi qatnashgan gaplarda keng qo'llanadi, lekin, baribir, ular *-me* qo'shimchali harakat nomlariga nisbatan kam tarqalgan: *Sizin araya girisiniz durumu kurtardi* (*Sizning o'rtaga tushishingiz vaziyatdan chiqishga yordam berdi*). *Bunun mutlaka bir ctkis yolu vardir* (*Buning mutlaqo bir dojobordir*) kabi.

SIFATDOSHLAR (*Sifatfuller*)

Sifatdoshlar turk tilida *sifatfuller* deb nomlanadi. Ba'zi hozirgi zamon turk tili grammatikasi kitoblarida ulaming *partsipler* deb atalganini ham ko'rish mumkin. Sifatdoshlar fe'lning ma'nosini zamonga bog'liq shaklda sifatlashtiruvchi shakl belgisidir. Boshqacha aytganda, sifatdoshlar predmetlarning harakat vasfini ifodalaydi. Shu tarzda, ular harakat va zamoni ifoda etadi (*gecmis giinler, oturan adam, satdacak esya*). Sifatdoshlar zamon ma'nosiga ega bo'lishi bilan harakat nomlaridan farq qiladi, faqat fe'lning vazifadosh shakli o'laroq harakat nomlari kabi bo'lishsiz va passiv ko'rinishlar oladi: *pismemis et, kizartdmis ekmek, goruhnemis sey, ydmayanadam, acdacak sergi, tutulmayacak sozler* kabi.

Sifatdoshlar aktiv sifatdoshlar (*etkin sifatfuller*), passiv sifatdoshlar (*edilen sifatfuller*) va bo'lishsiz sifatdoshlar (*olumsuz sifatfuller*) o'laroq uchga bo'linadi. Shu nuqtai nazardan ular fe'ldan yasalgan sifatlar (*kink, keskin, caliskan*) dan farq qiladi.

Aktiv sifatdoshlar sifat so'z birikmalari ichida ko'pinchi ish-harakatning egasiga (*batmts gemi, bilen adam, tastyacak vastta*), passiv sifatdoshlar esa ish-harakatning mantiqiy vositasiz todiruvchisiga aniqlovchi (sifat) bo'lib keladi: *atdmis kagit, cekilen telgraf ahnacak isci*. Undan tashqari ulaming boshqa shakllarda ham qo'llanganini ham ko'rish mumkin: *yakacak, yahlacakodun; gidecek, gidilecekyol* kabi.

Sifatdoshlar, yuqorida fe'ldan yasalgan otlar mavzusida Imm ko'rib o'tganimiz kabi, turkcha lug'atlarda sifat va ot boigan juda ko'p so'zlarni yuzaga keltirgan: *doimus, tanidik, gelir, bran satici, yakacak, veresi* kabi. Zamon ma'nosini yo'qotganga o'xshab ko'ringan bu fe'ldan yasalgan otlar sifatdosh vazifasiga o'tishi bilan o'zi qaysi zamonga oid boigan bo'lsa, o'sha zamon ma'nosini

ko'rsatib turadi. Shu sababdan ularni zamon ma'nosiga ko'ra ham guruhlashtirish mumkin bo'ladi:

1. *O' tgan zamon sifatdoshiari (gecmis sifatfi Ileri).*
2. *Hozirgi zamon sifatdoshiari (simdiki zaman sifatfi/leri);*
3. *Kelasi zamon sifatdoshiari (gelecek sifatfilleri).*

a) O' tgan zamon sifatdoshiari (gecmis sifatfilleri):

O' tgan zamon sifatdoshiari ikki xil shaklda namoyon boladi:
-mis, -dik; (pismis as, tanulik adam).

Sifatdoshlarning bu turi ikkiga bo'linadi:

- 1) *-mis* sifatdoshiari;
- 2) *-dik* sifatdoshiari.

-mis sifatdoshiari ko'pincha o'timsiz va passiv fe'l negizlaridan yasalgan passiv (*edilen*) sifatdoshlar boladi va sifat kabi qo'llanadi: *gecmis. diismiis. kokmus, kurumus, kesilmis. biikulmus, kavrumus, katlanmis, lamnmis* kabi. Bunday sifatdoshlar egalik qo'shimchasi olmaydi va ergash gapning kesimi bo'lgan holda bosh gap unsurlaridan birining sifati (aniqiovchisi) bo'lib keladi: *Butun iilkeyi dolasmis bir gazeteciyle konustum (Butun mamlakatni aylanib chiqqan bir jurnalist bilan gplashdim).*

Shuningdek, ular ergash gap ichida olmoshlar kabi kelishik qo'shimchalari olgan holda qo'llanadi:

Mevlam sabrlar versin, yarinden ayrdmisa "

("Tangrim sabrlar bersin yoridan ayrilganga ").

Tecrube gormiis aldanmaz (Tachribasi bo'lgan kishi uldanmaydi).

-mis sifatdoshiari turk tilida fe'l shaxs qo'shimchalari olib uzoq o' tgan zamon shaklini yuzaga keltirgan: *Qocuk okuldan cikmis ve eve gee donmiis (Bola maktabdan chiqibdi va uyga kech qaytibdi).*

-dik sifatdoshiari turk tilida alohida sifat o'laroq kam qo'llanadi: *bildik arkadas (bilgan, tanish do'st), olmadik is (bo'lmagan ish), duyulmudik seyler (eshitilmagan narsalar)* kabi. Ular boshlang'ich holatda, ko'pincha bo'lishsiz sifatdosh shaklida faol qo'llanadi:

"Devr eylemedik bir nice yildir " (Davr surmadik bir necha yd).

"Qalmadik kapi birakmamis" (Taqqillatmagan eshigi qolmabdi).

"Sac i hi lined: k yetimin hakknu yedi" (Sochi o smagan yet mining haqqini yedi) kabi.

Buning aksi, *-dik* sifatdoshiari egalik qo'shimchasi olgan holda *-me* harakat nomlari kabi keng qo'llanadi: *sattigim araba (men sotgan mashina). acligimz dava (siz qo 'zg'atgan jinoiy ish). bildirdigi haber (u bildirgan xabar)* va hok.

Sifatdosh kesim bo'lib kelgan to'liqsiz gap ham bosh gapdagi bir bo'lakning sifati (aniqiovchisi) bo'lib keladi: *Oguz'un koyden getirdigi haber dogru cikmadi (O 'g 'uzning qishloqdan keltirgan xabari to 'g'ri chiqmadi).*

Shuningdek, egalik qo'shimchasini olgan *-dik* sifatdoshiari boshqa turli vazifalarda ham qo'llanadi: *Oguz'un koyden getirdigi (sey) dogru cikmadi (O 'g'uzning qishloqdan keltirgan (narsasi) to 'g'ri chiqmadi).* Bu qo'llanishda ot xarakteriga ega bo'lgan bu sifatdosh kelishik qo'shimchasi olgan va o'zi kesim bo'lib kelgan to'liqsiz gap esa bosh gap tarkibidagi turli bo'laklarning o'rnini bosadi:

Soyledigimi unutma - Unutma o seyi ki soyledim.

(Aytganimni unutma - Unutmaki u gapni aytdim).

Soyledigimi unutma. = Unutma ki soyledim.

(Aytganimni unutma - Unutmaki aytdim).

-ik va *-Hi* qo'shimchalari vositasida fe'ldan yasalgan otlar ham eskirgan o' tgan zamon sifatdoshlaridir va ular ma'no jihatdan hozirgi zamon turk tilidagi passiv (*edilen*) sifatdoshlarga mos keladi (*kesilmis, kesik. kesili*). Lekin bu oxirgi shakllar turk tilida bo'lishsiz ko'rinishlarini yo'qotgan. Ular sifatdosh vazifasida rivojlanmay qolgan shakl lardir.

Turk tilshunosligida *-di (-di, -dii, -du, -ft, -ft, -ft*, -III)* qo'shimchasi olgan, nutqda juda kam qo'llanadigan sifatdoshlar ham ajratiladi. Ular bir necha so'zda saqlanib qolgan fe'l tuslanishi shakliga egadir: *kiilbas-ti, hegen-di, de-di ko-du (de-di ko-du), gece kon-du (gecekondu), kapti kaqti (kapkac), oldu bitti* kabi. Lekin bu shaklning qoliplashib qolgan fe'l shakllari ekanligi, *-di* qo'shimchasi va variantlarining sof fe'l qo'shimchasi ekanligi unutilmasligi lozim.

b) Hozirgi zamon sifatdoshlari (*simdiki zaman sifatjülleri*)

Hozirgi zamon sifatdoshlari uch xil shaklda namoyon bo'ladi, ya'ni *-en*, *-ci*, *-ir* qo'shimchasini olgan holda yasaladi: *calisan kadin (ishlovchi aval)*, *gecici heves (o'ikinci havas)*, *akar su (oqar suv)* va hok.

Ulardan eng faoli hisoblangan *-en* sifatdoshlari ancha chegaralangan hozirgi zamon ifodasi va sodda ish-harakat ma'nosiga ega. Ulardan sifat va hozirgi zamon sifatdoshlari o'laroq keng qo'llaniladiganlari quyidagilardir: *gecen yd*, *halan giines*. *satdan ev*, *sonmeyen ales* kabi.

-en sifatdoshlari *-mis* sifatdoshlari kabi egalik qo'shimchalari olmaydi va o'zlari kesim bo'lib kelgan ergash gaplarni bosh gapning bo'laklaridan biriga sifat qiladi: *Bu evi yapan usta Bursa'ya gild (Bu uyni qwgan usta Bursaga ketdi)*. Ular gap ichida kelib, kelishik qo'shimchalari oladi: *"Minareyi calan kdifini hazirlar"* (*Minora o'g'irlagan g tofini oldindan tayyorlab qo'yadi*). *"Dogru soyieyeni dokuz kdyden kovarlar"* (*To'g'ri gapirganni to'qqiz qishloqdan quvadilar*).

Hozirgi zamon sifatdosh qo'shimchalaridan *-ici* sifatdoshlari davomiylik, odatiylik va kasb-hunar, mashgulol ma'nosida qo'llanadi: *iiziicu haber*, *yeyici adam*, *yirtia hayvan*, *gecici miidiir* kabi. Ular ma'nolariga ko'ra har doim faol (majhul emas) va bo'lishli ko'rinishga egadir.

- *ici* sifatdoshlari *-en* sifatdoshlari kabi egalik qo'shimchalari olmasdan o'zlari kesim bo'lib kelgan gapga sifat va olmosh xarakteri beradi: *Ikki iinlu arasina bir koruyucu iinsiiz gelir (Ikki unli orasida bir ayiruvchi unli keladi)*. *Isyam kiskirtwi ele gecmedi (Isyonning qo'zg'atuvchisi qo'lga olinmadi)*. *Pesin aliciyi tercih ederiz (Oldindan pulini to'lovchi xaridorni afzal ko'ramiz)* kabi.

Hozirgi zamon sifatdosh qo'shimchalaridan yana biri *-ir* sifatdoshlari (ba'zi o'zaklarda *-er*) bo'lib, ular biroz chegaralangan hozirgi zamon ifodasi va ancha nisbiy ish-harakat ma'nosiga ega. Ularning bo'lishsiz shakli *-mez* qo'shimchasi qo'shilib yasaladi va sifat kabi muayyan otlarni aniqlab, belgilab keladi: *gider yiiz*. *icilir*

SU. olur is. yenir ayva. cikmaz hesap. soz dialer cocuk. saygi deger hamm, saka anlamaz adam kabi.

-ir sifatdoshlari ham egalik qo'shimchasi olmasdan gap ichida kesim vazifasini bajaradi va gapdagi bir so'zning sifati bo'lib keladi: *Emegini karsdar bir iicret vereceksin (Mehnatini qoplaydigan bir baq berasan)*. Ular ham qo'shma gaplar tarkibida boshqa shakllarga nisbatan kamroq qo'llanadi.

-ir sifatdoshlari fe'l shaxs qo'shimchalari olib, hozirgi kelasi zamon shaklini yasaydi (*bil-ir-sin*, *yapd-ir*, *gor-ur-iiz*).

Ba'zi turk tilshunoslari *-en (-an)* qo'shimchasini olgan sifatdoshlarni hozirgi-kelasi zamon (*genis zaman*) sifatdoshi ham deb ataydilar.

c) Kelasi zamon sifatdoshlari (*gelecek sifatfilteri*)

Kelasi zamon sifatdoshlaridan turk tilida mustahkam saqlanib qolgan va nutqda ko'p qo'llanadigani *-ecek* qo'shimchasini olgan sifatdoshlardir: *inecek yolcular*, *verilecek cevap*, *olmayucak teklif* va hok.

-ecek sifatdoshlari kelasi zamon ifodasi va bir maxsuslik ma'nosida keladi (*gelecek konuk*, *qaltmacak kapi*). biroq maxsuslik ma'nosida kelganda *-ecek* sifatdoshlari ko'pincha passiv *-ecek* sifatdoshlari o'rnida qo'llanadi: *yatacak yer*; *iqecek su*; *kaqacak delik*; *yapacak is* kabi.

-ecek sifatdoshlari sintaktik nuqtai nazardan olib qaralganda, *-dik* sifatdoshlariga o'xshaydi va ular kabi amalda keng qo'llanadi. Aytish mumkinki, ular o'tgan zamon sifatdoshlarining kelasi zamon-dagi bir parallel shaklini yuzaga keltiradi. Ular *-dik* sifatdoshlaridan ko'ra ko'proq, o'zlari kelgan gapni sifatlashtirishda keng qo'llanadi: *Bavulu getirecek adama bin lira veriniz (Jomadon (katta sumka)ni keltiradigan kishiga ming lira bering)*.

-ecek sifatdoshlari egalik qo'shimchalari olmasdan olmosh sifattida ham qo'llanadi: *"Ondan gelecek Allah*tan gelsin"* (*Undan keladigan Ollohdan kelsin*). *Karsima cikacagm gdziimi patlatmin (Ro paramdan chiqadiganining ko'zini o'yaman)* kabi.

Kelasi zamon sifatdoshlari egalik qo'shimchasi olgan holda sifat -aniqlovchi bo'lishi mumkin: *odeyecemiz vergi. yapacagi kotulik*,

karsdasacagtm güclilik kabi. Ular o'zi kelgan gapda aniqlovchi vazifasi ni bajaradi: *Bu iste karsdasacagtm guclukleri yenmelivim (Bu ishda duch kelinadigan mashaqqatlarni yengib o 'tishim kerak).*

Egalik qo'shimchalari olgan *-dik* sifatdoshiari ham olmosh va masdar sifatida ikki alohida ifodada qo'llanadi:

Ustaya odeyeceginiz (sey) eski bir is karsdigtdtr.

(Vstaga to'laydiganingiz (narsa) ilgarigi bir ishning evazigadir).

Ustaya odeyeceginiz (bdeme niyeliniz) bana bildirdi.

(Ustaga to 'hvni to 'lashingiz menga ma 'turn qilindi).

Bu oxirgi ikki qo'llanishda ot o'rnini bosuvchi sifatdash kelishik qo'shimchalari olgan va gapda turli bo'laklarning o'rnini egal lagan:

Sbyleyecegimi unutma - Unutma o seyi ki, sbyteyecegim.

(Aytadiganimni - Men senga aytadigan narsani unutma).

Sbyleyecegimi unutma = Unutma ki, sbyteyecegim.

(Aytishimni unutma - Aytaman. unutma).

-ecek sifatdoshiari *-mis* va *-ir* sifatdoshiari kabi shaxs qo'shimchalari olib. *(bd-ecek-siniz)* kelasi zamon shaklini yuzaga keltirgan.

-esi qo'shimchasi bilan yasalgan fe'l aslli otlar ham *(yikdasi, olesiyе. giiresi gelmek)* eski sifatdashlardir va ular ham *-ecek* sifatdashlariga mos keladi, lekin ular turg'unlashib, o'z sintaktik vazifasi dan mahrum bo'lgan:

Annemi goresim geldi (Onamni ko 'rgim keldi).

Senin giilesin tultu (Sening kulging qistadi) kabi.

RAVISHDOSHLAR (*zarffiller*)

Ravishdoshlar turk tilida *zarffiller* (ravish-teilar) deb ataladi. Ba'zi olimlar ravishdoshlarni harakatning holatini ifodalovchi o'ziga xos shakllar - *gerundiumlar* deb ham ataydilar. O'rta maktab dasturlarida ravishdoshlarning *ba% fuller* (bog' fe'llar) deb ham nomlanganiga ham guvoh bo'lish mumkin. Ravishdoshlar, sifatdashlarga teskari o'laroq, fe'lning ot kabi qo'llanilmaydigan, turlanmaydigan, ham fe'llar kabi tuslanmaydigan, sjiakllaridir. Ravishdoshlar holatni ifoda etuvchi fe'l shakllari bo'lib, gapda hoi (*zarftiim/eci*) bo'ladi.

Shuningdek, ba'zi ravishdoshlar davomiylik, payt va sabab ravishi vazifasini bajaradi: *gulerek karsdamak, gelince aramak, alirken diisurmek* kabi.

Ravishdoshlar, har tilda bo'lgani kabi turk tilida ham zamon bilan butunlay bog'liq emas. Shu bois harakat nomlariga o'xshaydi, lekin sifatdashlardan farq qiladi. Ravishdoshlar fe'lning vazifadash shakli bo'lgani uchun harakat nomi va sifatdashlar kabi bo'lishsiz va passiv ko'rinishlarga ega bo'ladi: *bilmeyerek konusmak, bozuldukca yaptirmak, bakdmayah kotidesmek, gelince aramak* kabi.

Ravishdoshlarning sifatdashlar kabi egalik qo'shimchalari olgan (*geldigimizde; yazmayacagimdan*) va olmagan (*oturali; duracakken*) shakllari ham mavjud. Shuningdek, ravishdoshlar harakat nomi va sifatdashlar kabi otlasha olmaydi (*dtiirii; giderek; oldukca*).

Turk tilshunosligida ravishdoshlar ma'nolariga ko'ra 6 kichik guruhga bo'linadi:

1. Bog'lovchi (*-ip* qo'shimchali) ravishdoshlar (*ulama zarffdlleri*):
2. Hoi ravishdoshlari (*hal zarffdlleri*) ;
3. Zidlov ravishdoshlari (*-meden, -cegine, -mektense, -cegi yerde* qo'shimchali) (*karsdlama zarffdlleri*) ;
4. Zamon ravishdoshlari (*zaman zarffdlleri*);
5. Sabab ravishdoshlari (*sebep zarffdlleri*);
6. Qiyoslovchi ravishdoshlar (*karsdastirma zarffdlleri*).

Ravishdoshlar yasalishlariga ko'ra turlichadir. Ularning maxsus qo'shimchalar olib yasalganlari bilan bir qatorda, fe'lning boshqa vazifadash shakllari (harakat nomi va sifatdashlar) dan kelishik qo'shimchalari olib yasalganlari yoki yordamchi so'zlar bilan birikma shaklida bo'lganlari ham bor.

1. Bog'lovchi ravishdoshlar (*ulama zarffdlleri*)

Bu ravishdoshlar *-ip* (*-ip, -up, -up;*) qo'shimchasi olib yasaladi: *bakip, bilip, bulup, goriip; kahp, sevip, olup, diisup; baslayip, okuyup, soyleyip* va hok. Ular ikki ish - harakatning ketma-ket yoki bir vaqtning o'zida bajarilganini bildiradi: *bakip durmak, siiriip gitmek*.

kasip kavurmak. atip lutmak, silip siipiirmek. diisiip kalkmak va hok.

Aytish mumkin, bog'lovchi ravishdoshlar nutqda teng bog'lovchilarning o'rnini bosa olganligi uchun ularning vazifasini ham bajaradiganday ko'rinadi: *Birakip gitti. = Btrakti ve gitti. Kacip kurtulduk. = Kactik da kurtulduk, sdip siipiirdiiler = sdder ve siipiirdiiler* kabi.

Ammo, ravishdoshlarning bu turi har doim ham bog'lovchi vazifasini ado etavermaydi (*Biraktt gitti. Kactik. kurtulduk*).

-ip ravishdoshlari, asosan, bog'langan qo'shma gaplarda qo'llanadi: «*Alton inip esege bindib (Otdan tushib, eshakka mindik)*».

Mektubu postaya atip geri dbnecek (Xatni pochtaga tashlah orqaga qaytadi).

-ip ravishdoshlari faqat ravishdosh bo'lib ham qo'llanadi:

Bitnlan eve gbtiiiripne ydpdcaksm? (Buldrhi uygaolib bbrib nima qilasan?)

«*Papaza kizip onicu hozma!*» ("Popga jahl qilib ro'zangm' huzmaf") kabi.

Ba'zan - *erek* ravishdoshlari ham *-ip* ravishdoshlari o'rnida qo'llanadi: *Bircok da bore alarak ayrdims (Ancha qarz olib. ketib qolihdi)*.

Sbzimu kirmayarak kaldı (So zimni qaytarmasdan qoldi) kabi.

Ba'zi qo'shma gaplarda *-ip* va *-erek* ravishdoshlari birgalikda, ketma-ket qo'llanishi mumkin: *Erken kalkip kahvalti ederek yola ctkmalıyız (Erta turib, nonushta qilib yo'lga chiqishimiz kerak). Sandigi kınp jxırayt alarak kacmisfar (Sandiqni sindirib, pulni olib qochishibdi)* kabi.

2. Hoi ravishdoshlari (hal zarffıilleri)

Hoi ravishdoshlari (*ortaldasa yaptirtnak. yiizerek gecmek, donerken ugramak, yatmısken kalkmak, diisiinmeksizin harcamak, durmadan konusmak*) fe'l o'zak va negiziga quyidagi ravishdosh qo'shimchalari qo'shib yasaladi:

-a, -e. Bu qo'shimcha eng eski ravishdosh qo'shimchalaridan biri bo'lib, hozirgi zamon turk tilida qotib qolgan ravishdosh

shakllari yasaydi: *gide gide, konusa konusa, ala ala. gule giile, geze geze. bagira cagira, ine cika* va hok. Shuningdek, bu qo'shimcha yordamida qo'shma fe'llar va imkoniyat fe'illari shakli yasalgan: *gidedurmak, bleyazmak; dusunehilmek. diisunememek; yapahilmek. vapamamak* kabi.

Hoi ravishdoshlari hozirgi zamon turk tilida qayta jonlangan va keng qo'llanib kelinmoqda:

Agzun dilim kurudu, kiz yalvara yalvara"

(*Og zim-tilim quridi, qiz (senga) yolvora-yolvora*).

Vura vura cbkertecekler (Ura ura bo 'yin egdiradilar).

"*Diise kalka haste-i gam, derd-i lutf-i yare dustii*"

(*Yiqilib, o rnidan turib, hastai g'am dard-u lutf-i yorga tushdij*

(klassik adabiyotdan).

Onu evire cevire kiracabm (Uni u qilib. bu qilib. sindirasan ishqilib).

-arak, -erek. Bu qo'shimcha *-a, -e* ravishdoshlarining *-rak, -rek* kichraytiruv sifat qo'shimchasi qo'shib uzaytirilgan shakli bo'lib, yangi ravishdosh shakli hisoblanadi: *giderek: konusarak. gulerek; alarak, inleyerek; ba\$layarak, dusiinerek; diyerek; severek* kabi.

Bu qo'shimcha asosiy ish-harakatning amalga oshirilishiga hamrohlik qiluvchi yordamchi ish-harakatni ifodalaydi: "*Ve bir zaman bakacaksin semaya aglayarak*" (*Va bir payt samoga yig'lab qaraysan*) (she'rdan). *Basından kanlar akarak eve dondii (Bos in dan qonlar oqib uyga qaytdi)*. kabi.

-arak, -erek ravishdoshlarining bog'lovchi ravishdoshlar (*-ip, -ip, -up, -up*) o'rnida ham qo'llanishini yuqorida aytib o'tdik. Bu ravishdoshlarning chiqish kelishigi qo'shimchasi olib uzaytirilgan shakli hamjonli nutqda qo'llanib kelinadi:

"*Tek tek basaraktan, bade siizerekten. inci dizerekten. gelyarım. gel aman*"

(*Bitta-bitta bosib, boda suzib, inju tizib, kel yorim, kelaqof*) (klassik adabiyotdan).

Eski turkchadan qolgan *-iiben, -uban* qo'shimchasi hozirgi turk tilidagi *-erek, -arak* qo'shimchasining vazifasini bajaradi: *gel-uben. dur-uban* kabi. Bu qo'shimchani o'zbek klassik she'riyati namunalarida ham uchratish mumkin: «*Haz tuning qadr o'lubon. har faming navro z o Bun*» (A.Navoiy).

Turk tilshunosligida «I» Dili fe'li deb nomlangan «j» qo'shimchasidan so'ngra sifatdosh qo'shimchalaridan faqat **-diik** qo'shimchasi keladi va qoliplashgan shaklda qo'llanadi. «j» qo'shimchasining ravishdosh shakli /- **ken** bo'lib, u eski turkchada **er-gen**, keyinchalik **i-ken** bo'lgan va hozirgi zamon turk tilida **-ken** shakliga kelib qolgan. Ushbu qo'shimchani «i» si tushirilgan: **ora-dayken, genqken, ogrenciyken, gelirken. diisiiirken, gelmisken. gidiyorken, yapmaktayken** kabi. Shundan boshqa ravishdosh shakli yo'q. Undan tashqari, misollardan ham ko'rinib turganidek. bu shakl turkcha singarmonizm qoidasiga bo'ysunmaydi.

Bu ravishdoshlarni boshqa bir nuqtai nazardan qo'shma ravishdosh qo'shimchalari bilan yasalgan hoi ravishdoshlari deb ham atash mumkin (**-misken, -irken, -icekken, -iyorken, -meliyken**). Ular bosh gapdagi kesimning boshqa bir zamonga bog'liq boshqa bir ish-harakat ichida yuzaga kelishini ifodalaydi: **Baslamisken bitirmek. verirken saymak, satacakken saymak, altyorken durdurmak** kabi.

Hoi ravishdoshlari ravishlar kabi qo'shma gaplarda bosh gapdagi fe'l (kesim)ning qay tarzda bo'iganligini ta'kidlashga xizmat qiladi.

3. Zidlov ravishdoshlari

(**Karsillama zarffdlteri -meden, -cegene, -mektense, -cegi yerde**)

Turk tilshunosligida qo'shma gap ichida ergash gapni bo'lishsizlik munosabatida bosh gapga bog'laydigan ravishdoshlarga zidlov ravishdoshlari (**karsitlama zaiffulleri**) deyiladi.

Bo'lishsiz ravishdoshlardan biri fe'l, boshqa biri esa ot qo'shimchasini olgan fe'l vazifadosh shakllaridir: **-madan, -meden; -makstzjn, -meksizin**. Har ikki qo'shimcha qo'shma gap ichidagi ergash gapning amalga oshmasligi, faqat bosh gapninggina amalga oshishini bildiradi: **Qekinmeden soyleyebilirsiniz (Tortinmasdan ayrishingiz mumkin). Hie aldrmaksiztn devam ettiler (Hech parvo qilmasdan davom etdilar)** kabi.

Bu ma'noda turk tilshunosligida ularni «yo'qlik ravishdoshlari» ham deyishadi. Faqat **-meden** ravishdoshlari ba'zan fe'lning zamon nuqtai nazaridan oldin kelishi ma'nosida ham qo'llanadi: **"Qanak-**

kale'Ve varmadan koptu kiyamet" (Chanoqqal'aga bormasdan boshlandi qivomat). Giin dogmadan kalkardim (Kun chiqmasdan turar-

^""^Bunday qo'llanish chog'ida **-meden** ravishdoshlarining eski usmoniy turkchasi **-medin** (aslida **-medin** ham uch xil **me- -t- -in** qo'shimchalarining birlashishidan yuzaga kelgan bo'lishi mumkin; shaklidan o'zlashganligi ma'lum bo'ladi: **"Qok alameiler belurdi gelmedin "** (**Ko 'p alomatlar bo Idi kelmasdan**).

-meden ravishdoshlari fe'lning harakat nomi va sifatdosh shakllaridan yasaladi va ikki gap orasida zidlik va qarama-qarshilik ma'nosini ifodalaydi: **oturacagma, beklemehtense. bvecegi yerde, bildigi halde, kizmakla beraber, iisimesine ragmen, anlasa da, istese bile** kabi.

Bulardan egalik olmoshi qo'shimchasi olganlari turlanadi:

Evde oturacagma qahssin (O turgandan ko ra ishlasin).

Onu beklemehtense kendin yap (Uni kutgandan ko ra o zing qd).

Seni bvecegi yerde kbtiiuyor (Seni maqtash o rniga yomonlayapti).

Soruyu bildiginiz halde nicin sustunuz? (Savolni bilib turib nega jimsiz?)

Bahqede iisumemize ragmen biraz daha qalisttk (Boq 'da sovuq gotishimizga qaramay yana ozgina ishladik) va hok.

4. Payt ravishdoshlari (zaman zarffdlteri)

Payt ravishdoshlari o'zlari kesim bo'lib kelgan ergash gapni zamon munosabatida bosh gap bilan bog'lashga xizmat qiladi. Payt ravishdoshlarining ko'pchiligi sifatdoshlardan yuzaga keladi. Payt ravishdoshlaridan eng asosiysi **-dikqe (-dtkqa, -dukca, -diikce, -ttkqa, -tikqe, -tukqa, -tukce)** dir: **yazdikqa, geldikqe, okudukqa, gbrdiikqe, yaptikqa, gittikqe, tuttukqa, diistiikqe; oldukqa. okiikqe, basladikqa** kabi.

Zamon ravishdoshlari bosh gap kesimining yuz berish vaqti nuqtai nazaridan o'zidan keyin (ketma-ket) kelishini ifodalaydi:

Yagmur baslayinca kaqtik (Yomg'ir boshlashi bilan gochdik).

"Basma gelince anlarsm " (Boshinga tushganda tushunib olasan) kabi.

Zamon ravishdoshlari yasovchi qo'shimchalaridan yana biri *-ince (-inca, -unca^t -iince)* dir: *bakinca, bilince. bu lit nca, gbriince; kalinca. sevtince, olunca, diisiince* kabi. Ular bosh gapdagi fikrni tabiiy natija sifatida ko'rsatadi: *"jki gbnii bir olunca samanlik seyraran olur"* (Ikki ko ngil bir bolganda, somonlik sayron bo 'lur). *"Gbz gbrmeyince gbnii katlamr"* ("Ko 'z ko 'nnaguncha ko 'ngil chidavdi" - xalq ogzaki ijodidan).

-ince qo'shimchali zamon ravishdoshlari bitim (tugash, nihoyaga yetish) ma'nosida eskirib qolgan va hozirgi zamon turk tilida ishlatilmaydi. Masalan: *Bu iyitigini oliince unuttmam (Bu vox shdigingni o'lguncha unuUnayman)*. Bu gapdagi *oliince* ravishdoshi hozirgi zamon turk tilida *bliinceye dek; blunceye kadar* shaklida qo'llaniladi.

E'tiborii tarafi shundaki, *-ince* qo'shimchasi vositasida yasalgan zamon ravishdoshlari bitim (tugash, nihoyaga yetish) ma'nosida, *-guncha (-kuncha, quncha)* shaklida hozirgi zamon o'zbek tilida to'la saqlangan: *Buyaxsb.iligingnio'lguncha unuiinayman*.

Sharqiy Onado'lu shevalarida *-ende* ravishdosh qo'shimchasi keng qo'llanadi: *Yaz geiendc ctkam yayla basina*. Bu qo'shimcha ham hozirgi zamon o'zbek tilida to'la saqlangan (*Yoz kelganda chiqaman yaylov boshiga*)

-icek, -icak ravishdosh qo'shimchasi *-ince* qo'shimchasining eskirib qolgan bir turidir. Bu qo'shimcha hozirgi paytda faqat shevalarda saqlanib qolgan: *al-icak. gel-icek. bilme-y-icek*.

-isin (-ism, -iisiin, -usun) qo'shimchasi Onado'lu shevalarida *-ince* qo'shimchasining o'rnida qo'llanadi: *gel-isin, basla-y-isin*,

O'tgan zamon qo'shimchasining so'roq shakli bilan hozirgi kelasi zamon qo'shimchasi bo'lishli-bo'lishsiz ikkilanmasi ham birlashmalar sifatida ketma-kctlik ma'nosidagi ravishdoshlarni yuzaga keltiradi: *Dayun darddi mi selami keser (Tog'am xafa bo'Idi-mi. salom bermay qo vadi). Gelir gelmez beni arasm (Kelar-kelmas menga qo'ng'iroq qilsin)* kabi.

-dikce ravishdosh qo'shimchasi ham eng ko'p qo'llanadigan payt ravishdoshlari yasaydi:

Ankara 'ya geldikce bize ugra (Anqaraga kelganingda biznikiga kirib tur).

Gbrüstiikce daha iyi unlasacakstnz (Bir-biringizni ko rgan sari yanadayaxshi til topishasiz).

Insan kazandikca hirsı arhyor (Inson ko p pul topgan sari hirsı oriadi).

Bu kafayi degisliirmedikce isin diizelmez (Bu miyani o 'zgartirmagunincha ishingyo 'liga tushmaydi).

-dikce ravishdoshining *-digi (-digi, -diigii, -dugu, -tigi, -tigi, -tugii, tugu) muddetce* shakli ham mavjud: *Onu aradigimiz muddetee o da bizi aradt (Biz unga qancha qo ng iroq qilsak, u ham bizga qo'ng'iroq qilib lurdi). Bu kotii aliskanligi birakmadigi muddetqe ona donmem (Buyomon odatini tashlamaguniclia uning yoniga qaytib bormayman).*

Ravishdoshlar gapda har doim hoi (*zarftiimlea*) vazifasini bajaradi. Ular o'ziga aloqador gap bo'laklari bilan birga so'z birikmalari (ravishdosh oborotlar) tashkil etadi va bu birikmalar gapda har doim hoi vazifasini bajaradi: *Bir milletin kultirii yuikseldikce. Jerdi hurriyetin tatbikal sahalan genisler ve qogahr* (Alaturk) - *Bir millatning madaniyati yuksalgan sari.fuqaro erkinliklarining yo nalishlari kengayib va ortib boradi* (Otaturk). Bu gapda kesim bo'lgan *genisler ve cogahr* so'zlari va *bir milletin kultirii yuikseldikce* so'z birikmasi bir ravishdosh shakl va unga bog'liq bo'laklardan yuzaga kelgan hoi birikma (ravishdosh oboroti)dir. Bunday birikmalar gaplarda ravish holi bo'ladi.

Zamon ravishdoshlaridan yana biri turk tilida teng zamon ravishdoshlari (*eszaman zarffilleri*) dir. Ular bosh gapdagi fe'l uchun zamon boshlang'ichini namoyon etadi. Ular *-eli* qo'shimchasi bilan yasaladigan ravishdoshlardir. *-eli* qo'shimchasi *beri* va *-den beri* ning sinonimidir: *gordum gbreli. gideli, konusmayah, gbrmeyeli* va hok.

«Agam sen gideli yedi yd oldun (Og'am sen ketganingdan beri yetti yil o'tdi).

Gbrmeyeli sisanlamissimz (Sizni ko'rmaganimdan beri ancha semiribsiz).

Turk tilida bu ravishdoshlar *beri* yordamchi so'zi qo'shilib ham qo'llanadi:

Bu geqii yapduli beri kazalar azaldi (Bu o tish yo li quilgan-dan beri avtomobil halokatlari kamaydi). Ayrdalidan beri vazmadi (Ajralganidan beri yozmadi) kabi.

Ba'zan *-eli* qo'shimchasi bilan yasaladigan ravishdoshlar fe'lning o'tgan zamon qo'shimchasidan keyin qo'shiladi:

«Bu fani diinyaya geldim geleli, bir all severirn, bir de gbzelh».

(«Bit fold dunyoga kelganimdan beri, bir otni sevdim, bir da go 'zalnbi).

Ko'makchili birikma shaklidagi *-dikten beri, -diginden beri* ravishdosh shakllari ham boshlang'ich ravishdoshlar jumlasiga kiradi:

Bunu farkenikten beri huzursuzdu (Buni sezgunidan beri behuzur edi).

Bunu aldigintzdan beri gbriinmediniz (Buni olganingizdan beri ko rinmay qoldingiz).

Turk tilidagi payt ravishdoshlaridan yana bittasi bitish ravishdoshlari (*bitim zarffdlleri*) dir. Ular bosh gapdagi fe'l uchun zamon nihoyasini ko'rsatadi. Yuqorida *-ince* qo'shimchali ravishdoshlarning eskirgan bituv (tugash) ravishdoshi ma'nostga ham ega bo'lganini ta'kidlab o'tdik: *bliince unutmam, doyunca yemek. gelince hernen aramak* va hok. Keyinchalik *dek (Eve dek dinlenmedim - I vgacha dam olmadim)* va *kadar (Bugiine kadar hie hutiriumamtsim - Bugungucha eslamabman)* ko'makchilari vositasida yasalgan birikmalar keng tarqalgan. Turk tilining shevalarida *degin* ko'makchisiga ham duch kelinadi (*Aksama degin evden cikmadi - Oqshomgacha uydan chiqmadi*). Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi talab etuvchi *-ince, -en, -esi* ravishdosh qo'shimchalari bilan teng qimmatga ega bo'lgan ko'makchili birikmalar yasashdir. Bugungi kunda turk tilida bu shakllardan uchasi sinonim sifatida keng qo'llanib kelinmoqda: *gel-inceve kadar gel-ene kadar gel-esiye kadar.*

Eng ko'p qo'llaniladigan *-inceye* shakli *dek* va *degin* ko'makchilarini ham olgan: *Hava aqincaya kadar yola qikamam (Havo ochilgunga qadar yo'lga q.oqa olmayman). Siz gelinceye dek bckleyecek; aqincaya kadar yola cikamam. Siz kelgunga qadar kurtadi)* kabi.

Nutqda ko'p uchraydigan *-ene* shaklining qo'llanishi ham shunga o'xshaydi: *Sen kalkana kadar ben isi yardarim (Sen o 'rningdan lurguningcha men ishlarning yarmisini qilib qo yaman). Babam gelene degin beklersin (Otam kelgunga qadar kutarsan).*

Ko'makchi olmasdan qo'llanuvchi *-esiye* shakli aslida qiyoslovchi ravishdoshlar yasaydi: *oldiresiye dovmek x dldwiircesine dbvmek.* Faqat bu yerda ko'makchi olgan holda zamon ravishdoshi bo'lib keladi: *Vstan donesiye degin sen bos oturma (Ustozing qaytgunga qadar sen ho s o 'tirma). Aqlini alasiya kadar qok dayak yer (Aqlini yig 'ib olgunga qadar rosa kallak yeydi)* kabi.

Payt ravishdoshlaridan yana biri bosh gapdagi fe'lning zamon nuqtai nazaridan oldin kelganini ko'rsatuvchi ravishdosh qo'shimchasi (*bncelik zarffdlleri*) ni olib yasaladi. Yuqorida hoi ravishdoshlari deb aytib o'tilgan *-meden* qo'shimchali ravishdoshlarning ayni paytda ish harakatning oldindan ro'y berishini ifodalovchi shaklda qo'llanishini ham ta'kidlash joiz: *Eve gelmeden koptu hyamet (Uyga kelmasdan boshladi qiyomat).*

Hozirgi zamon turk tilida *-me* va *-mez* shakllarining *once* va *ewel* ko'makchilarini olgan shakli ham shu ma'noda qo'llanadi: *Mudir olmazdan ewel boyle konusmuyordu (Mudir bo'lishdan oldin bunday gap! ash mas edi).*

Payt ravishdoshlaridan oxirgisi bosh gapdagi fe'lning zamon nuqtai nazaridan keyin kelganini ko'rsatuvchi «so'ngralik» ni ifodalovchi ravishdosh qo'shimchasi (*sonralik zarffiUleri*) ni olib yasaladi. Ular *-dik* sifatdosh qo'shimchasiga *-soma* ko'makchisi keltirilgan holda yasaladi: *ver-dikten sonra (Emekli olduktan sonra Bursa da yerlejt - Nafaqaga chiqqandan keyin Bursaga kelib joylashdi).*

Bu *-dikten sonra* ravishdosh shakli ba'zi bosh gap ichida kelganida so'roq shaklini oladi: *Parasim verdikten sonra ne der? (Pulini bergandan keyin nima deydi).*

S. Sabab ravishdoshlari (*sebeb zarffidleri*)

O'zlari kesim bo'lib kelgan ergash gapni sabab va natija ma'nosida bosh gapga bog'lovchi ravishdoshlarga sabab ravishdoshlari deyiladi: *olmakla, oldugundun, oldugu iqin, olacagindan dolayi*

kabi. Biroq bu ravishdoshlardan ba'zilari gap ichida farqli ma'nolarda ham kelishi mumkin.

a) *mekle* ravishdoshlari ma'nolari va qo'llamshlariga ko'ra turlichadir. Ular umumiy qo'llanishda *-le* qo'shimchasining vosita, sabab ma'nosini muhofaza qiladi va o'zi kesim bo'lib kelgan gapdagi ish-harakatning amalga oshishi uchun sabab bo'ladi. Yangi turkchada bu qo'shimcha *-meyle* shaklida namoyon bo'ladi: *Haber gondermeyle beni sevindirdiniz (Xabar jo natsh bilan meni xursand qildingiz). Bu dilekceyi imzalamakla bize yardun etmis oluyorsumtz (Bu arizamizni imzolash bilan bizgayordam qilgan bo lasiz)* kabi.

Bu yerda ma'no jihatdan natija oldingi planga chiqqani uchun bu gapni natijani ifodalovchi gap deyish mumkin.

Usmonli turkchasida keng ko'lamda sabab va ulashtiruv ravishdoshlari o'laroq qo'llanilgan *-mekle* va undan ham eski bo'lgan *-megin* shakllari hozirgi zamon turk tilida o'z o'rnini *-diginden* (*digmdan, diigiinden, dugundan*) ravishdoshiga bo'shatib bergan: *Tasvip olunmakla iadeten takdini kdmdı (Ma 'qui la nib, qayta taqdim etildi). Ferman buyurulmagn mucibince amel oluna (Harmon chiqqani sababli amal qilinadi).*

b) *dik* \a *dik* sifaldoshlarining egalik qo'shimchasi olgan chiqish kelishigi shakllari bo'lgan *-diginden* va *-ceginden* ravishdoshlari hozirgi zamon turk tilining eng keng tarqalgan sabab ravishdoshlari bo'lib qolgan. Ular ikki zamon va shaxslarga ko'ra o'zgargan yagona shaklda qo'llanadi: *Misafir geldiginden sinemaya gideniedix (Mehmon kelgan Iigi sababli kinoga bora olmadik). Hu-ytinu bildigimden tsrar etmedim (Fe 'Uni bilganligimdan qattiq turib olmadim). YalniZ olacagimizdan fazla yiyecek almadim (Yolg'iz bo Ushiniiz sababli ortiqcha yeguluk olmadim)* kabi.

Bu ikki fe'l vazifadosh shaklining ravishdosh bo'lmagan qo'lianishlari ham mavjud va ularni aslo aralastirib yubormaslik kerak: *Basaracagimzdan eminim (Eplashimizga ishonaman). Hasta oldugundun haberim yoktu (Xasta bo 'lganidan xabarim yo q edi)* kabi. Onado'lu shevalarida bu ravishdoshlarning jo'nalish kelishigi shaklidagilari ham uchraydi: *Koyde doktor olmadigtna hastaligt anlasdamadi (Qishloqda shifokor bo Imaganiga kasalligining nimaligini bilib bo 'Imadi)* kabi.

c) Xuddi shu sifatdoshlarning egalik qo'shimchalari va ba'zi ko'makchilar olgan holda tashkil etilgan ko'makchili shakli ham sabab ravishdoshlari bo'ladi. Bulardan eng ko'p qo'llaniladiganlari yana zamon va shaxslar bo'yicha tuslanadigan *-digi iqin* va *-ecegi icin* ko'makchili birikmalardir: *Geciktiginiz icin siramzi kaybettiniz (Kechikkaningiz uchun navbatingizdan mahrum ho'idingiz). Alinacagi icin sbylemedim (01 inayotgani uchun aytmadim).* kabi.

d) Xuddi shu tarzda ko'makchili birikmalar yana *-dik* va *-ecek* sifatdoshlariga va *-me* /tarakat nomlariga egalik qo'shimchalari, hamda *dolayi, otiiiri, dolaysiyla. sebebiyle* kabi ko'makchilar olgan holda tashkil etiladi va sabab ravishdoshlari sifatida qo'llanadi: *Sizi rahatsiz ettigimden dolayi oziir d'derim (Sizni bezovta qilganligim uchun kechirim so 'rayman). Ayrdacagindan otiiiri iizgiin gbruniyor (ajralayotganligi uchun xafa ko 'rinadi). Ziyaret etmemizden dolayi memniin oldular (Ko'rgani kelganimiz uchun juda xursand bo'lishdi). Evienmeleri dolaysiyla bir hediye lazim (Vylanayotganlari uchun bir hadya olishimiz lozim). /zinli bulunmamz sebebiyle isler aksadi (Siz ta'tilda bo'lganingiz uchun ishlar oqsadi)* va hok.

6. Qiyoslovchi ravishdoshlar (*karsdastirma zarffülleri*)

O'zlari kesim bo'lib kelgan ergash gapni bosh gap orqali anglashilgan fikr bilan qiyoslovchi ravishdosh shakllariga qiyoslovchi ravishdoshlar deyiladi. Bu ravishdoshlar ma'no jihatdan ikkiga bo'linadi:

1. *haqiqiy qiyoslovchi ravishdoshlar (gerqek karsdastirma zarffülleri);*

2. *yordamchi qiyoslovchi ravishdoshlar (tutmaca karsdastirma zarffülleri).*

Birinchisida ikki ish-harakat to'g'ridan-to'g'ri qiyoslanadi (*bildigi gibi yapmak, istedigi kadar almak*). Ikkinchisida esa qiyos haqiqiy emas, bir farazdir (*kacar gibi yapmak, yemis kadar almak*).

Haqiqiy qiyoslovchi ravishdoshlar *-dik* va *-ecek* sifatdoshlariga egalik qo'shimchalari, hamda *gibi* va *kadar* ko'makchilan qo'shilgan holda tashkil etiladi: *-digigibi, -digi kadar, -ecegigibi, ecegi kadar.*

Bulardan *gibi* ko'makchisi vositasida yasalganlari qiyoslashda o'ziga xoslik namoyon etadi va haqiqiy qiyoslovchi ravishdoshlari bo'ladi: *Hepsi soyledigim gibi cikli (Hammasi aytganimdek bo'lib chiqdi). Yann gbreceginiz gibi bahcemiz bakimsiz (Ertaga o'zingiz ko'rasiz, bog'imiz qarovsiz)* kabi.

Kadar ko'makchisi qo'sh b yasalgan ravishdoshlar esa qiv4 slovdta ko'plikni ifodalaydi va ularni haqiqiy ko'plik qiyoslovchi ravishdoshlari deb nomlash mumkin bo'ladi: *Onun anlattigi kadar genis degil (V aytganichaiik keng emas). Bundan gblirebilecegimiz kadar alalun (Bundan ko tara oiganimizcha olaylik)* kabi.

Haqiqiy qiyoslovchi ravishdoshlar boshqa bir qo'llanishda bosh gapga teng yoki o'xshash ish-harakatni unga ilova sifatida ifodalab keladi: *Zeynep liseyi bitirdigi gibi iiniversite giris sinavlanni da kazandi (Zaynab litseyi bitirgani kabi universitetga kirish imti-lumlanni ham lopshirdi). Qkanmzi gbzettiginiz kadar iilkenizi de diisiinmelisiniz (Manfaatiginizni ko'zda tutganingizchalik mamtakat-ingiz haqida ham o yiashingiz kerak)* kabi.

Usmonli turkchasi yanada kengioq ma'noga ega bo'lgan -*digince* ravishdoshini hozirgi zamon turk tilidagi -*digi nispette* ko'makchili birikma shklida uchratish mumkin. Hozirgi turk tilida bu shakl ham qiyoslovchi, ham payt ravishdoshi sifatida qo'llaniladi: *"Veli gussa yediiklerince biter". "Dilin tutugunca kisi dine olur"* (*Kisii tilini qancha tutsa, shuncha tinch bo ladi*).

Yordamchi qiyoslovchi ravishdoshlar -*mis*, -*ir*, -*ecek*, ba'zan esa -*iyor* fe'l negizlariga -*ce* va -*cesine* qo'shimchalari yoki haqiqiy qiyoslovchi ravishdoshlarida bo'lgani kabi faqat egalik qo'shimchalari olmasdan *gibi*, *kadar* ko'makchilari keltirilib yasaladi: *kudurmusca. gbrmemiscesine. anlamazca. kopanrcastna* kabi.

Bu sifatdosh negizlarining uzaytirilgan va yordamchi ravishdoshlik ifodalari -*mis* qo'shimchasi olgan shakllari ham uchraydi:

Vuracaknuscasma davrandt (Xuddi otadiganday harakat qildi). Bilirmiscesine soze kansma (Xuddi biladiganday gapga aralashma) kabi.

Ko'makchili birikmalar vositasida yasalgan yordamchi qiyoslovchi ravishdoshlar ko'makchilariga ko'ra haqiqiy qiyoslovchi ravishdoshlar kabi asl va ko'plik turiariga bo'linishi mumkin: *Tanii*

mas gibi bakti (Taniganday qaradi). Goriir gibi oldwn (Ko'rganduy ho'ldini) Yerlesmis kadar rahattik (Xuddi joylashganday benudol bo lib oldik) va hok.

Bularning ham negizi -*mis* bilan uzaytirilgan shakllari bor (*Jyuyormus gibi yapti (O'zini uxlaganga soldi). Birakacakmis gibi gbzukiiyor (Tashlaydiganga o xshab ko 'rinadi)* kabi.

Nihoyat, -*esi* sifatlari ham jo'nalish kelishigi bilan yordamchi qiyoslovchi ravishdoshlarini tashkil etishi mumkin: *patlayasiya. oldiresiye. cildirasiya* va hok. *Delikanliyi oldiresiye dbvmiislerdi (Yigitni o'gudek do'pposlashgan edilar). Ahmet bu yaramaz kizi cddirasiva seviyordu (Ahmad bu shumtaka qizni devonalardek sevardi)* kabi.

Turk tilida qiyoslovchi ravishdoshlarning ba'zi boshqa ko'makchili birikmalar bilan yasalgan shakllari ham uchraydi: *soyie-digim tarzda. verdigim olciide, takacagi boyda* va hok.

FE'LLARNING YASALISHI

Ot va sifatdan fe'l yasalishi

Turk tilida fe'llar ot, sifat va fe'llarning o'zak va negizlaridan yasaladi. Negizga qo'shilib so'z yasalishi hollari kam uchraydi. Ot va sifatdan fe'l yasash uchun xizmat qiluvchi qo'shimchalar qo'shilib yasalgan so'zlarning faqat o'zagi ma'no kasb etadi. Shunda bu qo'shimchalar ot yoki sifat bilan uzviy bog'liq fe'llar yasaydi. Ot va sifatlardan fe'l yasovchi qo'shimchalardan asosiylari quy^dagi-lardir:

-a- (-e-). Bu qo'shimcha vositasida lurk tilida ko'p so'z (fe'l) yasalmagan. U otdan bo'lish va ish bajarish ma'nolarini ifodalovchi fe'llar yasaydi: *yas-a-. kap-a-, don-a-. kan-a-, ad-a-, dil-e-. bos-a-, oyun-a-(oyin-a), tiir-e-, tiin-e-. goz-e-, beniz-e-(benz~e), gevis-e (gevs-e), yumus-a-, ugur-a- (ugr-a~)* kabi. Bu fe'llar tuslanar ekan, o'rta bo'g'lnnda qolib, "u" tovushi ta'sirida o'zgaradi : y<*is-i-iyor. kan-i-yan* kabi.

-al- (-el-). Bu qo'shimchanning qo'llanish sohasi juda tor. Uni turk tilida bir nechta so'zdragina uchratish mumkin: *bos-al-. diiz-el-. 4z-al-, cog-al- (cok-al-). yon-el-, dar-al-. bun-al-* va hok. Bu 4°shimchani sifatdan fe'l yasovchi qo'shimcha deb atash to'g'riroq

bo'ladi. Bu yasovchining yana bir varianti -I- bo'lib, u ham kam qo'llanadi: *ince-l-, sivri-l-, egri-l-, kisa-l-, dogra-l-, duru-l-, kara-l-* va hok. Yuqoridagi misollardan ushbu yasovchi qo'shimchani faqat unli tovush bilan tugagan so'zlarga qo'shilgani ko'rinib turibdi. Bu qo'shimchani turk tilidagi *koca-l-, ufa-l-, küccii-l-, eksi-l-, tdca-/-, yukse-l-* kabi fe'ldan fe'l yasovchi -I- qo'shimchasi bilan adashtirmaslik kerak.

-ar- (-er-). Bu qo'shimcha tilda ko'p uchraydi: *ag-ar-. yes-er- (yas-ar-), boz-ar-, kiz-ar-, bu-az-, mor-ar-. sar-ar-, ev-er-, gog-er-, on-ar-, kar-ar- (kara-ar-)* kabi. Og'zaki nutqda bu qo'shimchani «l»lashgan shaklini uchratish mumkin: *sar-al-. kar-al-* kabi.

-da- (-de-, -ta-, -te-). Bu qo'shimcha boshqa otdan fe'l yasovchi qo'shimchalardan farqli o'laroq, taqlidiy so'zlardan fe'l yasashda ko'proq ishlatiladi: *al-da (al-da-t-), soil-da-, bond-da-, bag-da- (bag-da-s-). nuni-da-, fird-da-. is-te- (iz-de-). viztr-da-, guriil-de-. fisd-da-. calir-da-. kiitir-de-. isd-da-. pird-da-. fingir-de-* kabi. Taqlidiy so'zlar /, z. y undoshlari bilan tugagani uchun ushbu qo'shimchani «d» li shakli nisbatan ko'proq uchraydi.

-i- (-i-, -u-, -6-). Bu qo'shimcha yordamida yasalgan fe'llar kam uchraydi: *uz-u- (uz-u-n). tas-t-. agir-i- (agn-). sak-i-* kabi.

-irga- (-irge-). Bu qo'shimcha *yad-trga-. es-irge-. az-irga-* sozlarining yasashida ishlatilgan.

-k- (ka), -k- (ke). Bu qo'shimcha hozirgi turkchada ko'p ishlatilmaydi. Uni bir nechta so'zda ko'rish mumkin: *ac-i-k-. gec-i-k-, bir-i-k-, gdz-ii-k-. kan-i-k-. dar-i-k-* kabi.

-kir- (-kir-, -kur-, -kur-). Bu qo'shimcha ham tovushga taqlid so'zlarda ko'p ishlatiladi: *bay-kir-. kts-ku-, siim-kiir-. fis-kir-. piis-kiir-. cem-kir-, hic-kir, tii-kiir-* kabi.

-la- (-le-). Bu qo'shimcha turk tilida eng ko'p ishlatiladigan va fe'l yasovchi qo'shimchalarning asosi hisoblanadi. Bu qo'shimcha vositasida ish-harakat va boMish (yuz berish)ni ifodalovchi fe'llar yasaladi: *bas-la-. su-la-. temiz-le-, fas-la-, karsi-la-. gece-le-, sap-la . demir-le-, hafif-le-, agir-la-, el-le-, iif-le-* va hok. Bu qo'shimcha yordamida yasalgan fe'llarning negiziga fe'ldan fe'l yasovchi qo'shimchalar qo'shilib, yana qator yangi so'zlar yasalishi mumkin: *can-la-n-, el-le-n-, dar-la-t-. hos-la-n-. hasta-la-n-, kir-le-t-. kiij-le-n-. bir-k-s-* kabi. Ushbu qo'shimcha o'rta bo'g'ida

joylashgani sababli tuslanganida. ba'zan unli o'zgaradi: *has-li-yor (bas-la-yor), bek-li-y-en (bek-le-y-en)* kabi.

-msa- (-mse-). Bu qo'shimcha ham turk tilida kam uchraydi. Uni *az-i-insa-, ben-i-mse-, kuqu-mse-. iyi-mse- (iyimse-r). kotu-nise-. (kotiimse-r)* kabi so'zlar tarkibida uchratish mumkin. Uni fe'ldan fe'l yasovchi -msa- (-mse-) qo'shimchasi bilan adashtirmaslik kerak (masalan: *giil-u-mse-*).

-r-. Bu qo'shimcha *deli-r-, beli-r-(belgi-r-). tif-ur* kabi bir necha fe'llarda kuzatiladi. U ovozga taqlid so'zlardan fe'l yasashda ham qo'llangan: *bag-t-r-, geg-i-r-. aksi-r-, cag-i-r-. an-i-r-. tiksi-r-. bg-ii-r-. bapsi-r-, oksii-r-* kabi.

-sa- (-se-). Bu qo'shimcha turk tilidagi *su-sa-, garip-se-. umur-sa-. midum-se-, yuk-se-(yukse-k), kantk-sa* so'zlarida uchraydi.

Fe'ldan fe'l yasalishi

Fe'lning o'zak va negizlariga qo'shilib, ulardan yangi so'z yasovchi, qo'llanish darajasi shakl yasovchi qo'shimchalar kabi keng bo'lgan qo'shimchalarga fe'ldan fe'l yasovchi qo'shimchalar deyiladi.

Turk tilida fe'ldan fe'l yasovchi qo'shimchalarning asosiylari quyidagilardir:

-ma- (-me-). Bu yasovchi qo'shimchani vazifasi bo'lishli fe'ldan bo'lishsiz fe'l yasashdir: *yap-ma-, gul-me-, kacird-ma-, ol-ma-, de-me-, yararlan-ma-, otur-ma-, siir-me-. goster-me-, karsdas-ma-, ogret-me-, sevimsizles-me-* va hok.

-n-. Ushbu qo'shimcha turk tilidagi fe'ldan fe'l yasovchi eng samarador qo'shimchalardan biridir. Bu qo'shimcha yordamida yasalgan fe'llar ish-harakatning o'z-o'zidan bajarilganini. voqea-hodisaning o'z-o'zidan yuz berganligini ifodalaydi: *gez-i-n-. sev-i-n-. koru-n-. soy-u-n-, giy-i-n* va hok.

Bu yasovchi qo'shimcha o'timli va o'timsiz fe'llarga qo'shilib yangi so'zlar yasaydi. *al-i-n-, tika-n-, tut-u-n-, sal-i-n-, bul-u-n-. dov-w-i- gez-i-n-. ac-i-n-, soyle-n-, dola-n-. ogre-n-, mirdda-n-* kabi.

Ushbu qo'shimcha *lni* tovushi bilan tugagan fe'l o'zaklarig.i qo'shilmaydi.

Bu qo'shimcha ham turk tilidagi eng samarador fe'ldan fe'l yasovchi qo'shimchalardandir. Uning yordamida majhul nisbat shakllari va passiv fe'llar yasaladi: *dur-u-l-, yat-i-l-, gid-i-l-, kalk-i-i- . dus-u-i-, kork-u-l-, giris-i-t-, yap-i-l-, gor-u-l-* kabi.

Bunday majhul nisbatdagi fe'llar qatnashgan gaplarda ega bo'lmaydi: *Adaya gidildi (Orolga bordi). Sabaha kadar eglendi (Ertalabgacha ko'ngdxushlik qdindi)* kabi. Ushbu qo'shimcha /A/ tovushi bilan tugagan fe'l o'zaklariga qo'shilmaydi. Bunday vaziyatda fe'l negiziga -I yasovchisi o'rniga -n qo'shiladi: *giil-ii-t-mek* emas *gul-u-tt-mek, ol-u-l-mak* emas *ol-u-n-mak* bo'ladi.

-S-. Bu qo'shimcha ham eng samarador fe'l yasovchi qo'shimchalardan bo'lib, u birgalikni ifodalaydi (fe'ning birgalik nisbati): *vur-u-s-, sozle-s-, dek-l-s-l dbv-ii-s-. kmaklu-s-. gor-ii-s-. at-l-S-, it-i-s-, dayan-i-s-, kon-u-s-, gul-ii-s-, betde-s-, uc-u-s-, agla-s-, dur-u-s-, bbl-ii-s-, kar-i-s-, zorla-s-, bida-s-, iyde-s-, ula-s-, tut-u-s-* kabi.

-dir-. Bu qo'shimcha ish-harakatning bir shaxsning boshqasiga bajartirishini ifodalaydi. Bu qoshimcha unli tovush bilan tugagan bir bo'g'inli va undosh bilan tugagan barcha fe'ilarga qo'shiladi. Uning vositasida ba'zan o'timsiz fe'ldan o'timli fe'llar yasaladi: *bd-dir-, kil-dir-, bl-diir-, dol-dur-, gbr-diir-. Iiit-lw-, yaz-dir-. ye-dir- yag-du-. hid-dur-, akiHtr-, de-dir-, bog-dur-, yak-ttr-, yatis-ttr-. ac-hr-, sbk-tur, dbn-diir-, du\$ur-l-tur-, deg-dir-, gecik-tir-, vurus-tw-. cm-dir- . as-tir-, kos-lur-, sev-dir-, say-dir-* каби.

-r-. Bu qo'shimcha hamma fe'ilarga qo'shilavermaydi. Ularni quyidagi bir bo'g'inli so'zlardan iborat misollarda ko'rish mumkin: *gbc-ü-z-, as-i-r-, yat-i-r-, kbp-ii-r-, gec-i-r-, diis-u-r-, bit-i-r-. duy-u-r-. itc-u-r-, sa's-i-r-, bat-i-r-, doy-u-r-. ic-i-r, pis-i-r-. dog-u-r-* kabi.

-t-. Bu qo'shimcha ham hamma fe'ilarga qo'shilavermaydi. Ularni quyidagi bir ikki va undan orliq bo'g'inli, unli va /, r, A, k, p, c, «i, z undoshlari bilan tugagan so'zlardan iborat misollarda ko'rish mumkin: *uza-t-, sbyle-t-, inci-t-, kizar-l-, dire-l-, yiiirü-l-. diized-t-. sur-t~, aci-t-, ara-t-, yitksel-t-, ak-i-t-, kork-u-t-, iürk-ii-t-, sap-i-t-. dam-i-t-, bddir-t-, gecir-t-. az-i-t-* kabi.

-z-. Bu qo'shimcha turk tilida faqat emzir-(cm-i-z-i-r) so'zida qo'llangan.

Turk tilida bir nechta qo'shimcha borki, ular vositasida yasalgan fe'llar juda kamchilikni tashkil etadi. Shu boisdan ularni umumiy bir guruhga birlashtirish maqsadga muvofiq. Bular quyidagilardir:

-€-. (*lik-a-*);

-i-. (*kaz-i-, siir-ii-, sanc-i-*);

-k-. (*kir-k-, sar-k-*);

-p-. (*ser-p-, kir-p-*);

-y-. (*ko-y-, do-y-* (*to 'doymak'*. *to-k* so'zi shundan kelib chiqqan;,'

se-. (*gbr-se-t-, ya'ni gbrster*);

-mse-. (*gul-ti-mse-*, c<*A'-/i.ve-(cekimsir);

-esi-. (*gor-esi-*);

-eie-. (*kov-ala-, sdk-ele-, ov-ala-, es-ele-. dur-ala-, it-elc-, serpete~, calk-ala, oy-ala-*) va hok.

Fe'ning vazifadosh shakllarining yasalishi.

Harakat nomlarining yasalishi

Harakat nomi yasovchi qo'shimchalar fe'ning o'zak va negiziga qo'shiladi. Turk tilida ularning soni uchta: -mek (-mak), -me (-ma), -i§ (-is, -u§, us).

-mak (-mek). Ko'p qo'llanilishi jihati bilan ushbu qo'shimcha hamma fe'l o'zagi va negizlariga qo'shiladi. Uning vazifasi fe'llarning mavhum harakat nomini yasashdir. Shaxs, zamon va shaklga bog'lanmasdan ham fe'llarning mavhum harakat ifodalari bilan qo'llanishlari zarur emas. Bu qo'llanish *-mak, -mek* qo'shimchalari yordamida ifodalanadi: *ac-mak, gor-mek, baslat-mak, yaz-mak, bekle-mek, vurus-tnak, oku-mak, qekil-mek, sevindir-mek, uyu-mak, diisiin-mek, stiridden-mek, kana-mak, karsi/at-mak, dikle-mek* kabi.

Harakat nomlari kamdan-kam hollarda predmet nomlarini bildiradi (ya'ni kamdan-kam hollarda ot yasaydi): *ye-mek, qak-mak* (predmet nomlari) kabi. Bu qo'shimchaning oxiridagi *-ko* va *-kc* tovushlarining ikki unli orasida jaranglilashib, yumshagan holatda 4° Hanganini ham uchratish mumkin: *almaga, vermege* kabi. Talaffuzda qalin shakli esa «u» lashib *almaya. vermeye* deb talaffuz

qilinadi. Shu bois bu so'zlar bilan ulardan keyin keladigan *-ma*, *-me* qo'shimchali so'zlar otlar singari turlanganda aralastirilib yuboriladi: *al-ma-ya (al-mag-a)*. *al-ma-y-a* kabi.

Bu qo'shimchaning yana bir o'ziga xosligi shundaki, ulardan keyin egalik qo'shimchalari kelmaydi, ya'ni uning *bilmeg-i-m*, *gez-meg-i-n* shakllari uchramaydi (ba'zi eski turkcha matnlarda uchraydigan misollar istisno holatni tashkil etadi).

-ma (-me). Bu qo'shimcha ham *-mak*, *-mek* qo'shimchasi singari fe'lning o'zak va negiziga qo'shilib, ish-harakat nomlarini yasashdir: *yaz-ma*. *yaklas-ma*, *ptiskirt-me*, *oka-ma*, *dard-ma*, *ezdir-me*. *git-me*, *uza-ma*. *aciklan-ma*. *gel-me*, *oyaian-ma* kabi.

-mak, -mek qo'shimchasida jonli ish-harakat ifodasi bor. *-ma*, *-me* esa bu harakat bilan amalga oshirilgan ishni ifodalaydi: *yiiriimek-yiin'ime*, *kapamak-kapama* kabi. Shundan kelib chiqqan holda, *-ma*, *-me* da ot bo'lish xususiyati ham bor, deyish mumkin. Shuning uchun bunday harakat nomlari *-mak*, *-mek* qo'shimchali masdarlardan ko'ra oson predmet nomi bo'la oladi: *dondur-ma*, *yaz-ma*, *kavur-ma*, *dol-ma*, *ic-me* kabi. Harakat nomlari turlanayotganda bu qo'shimcha va bundan oldingisi aralastirilib yuborilishi holatlari ko'p uchraydi: *gez-meg-e*. *gez-me-y-e*; *kaldtr-mag-a*, *kaldir-ma-y-a* kabi. Ushbu misollarning ikkinchisidagi /u/ tovushi yordamchi tovushdir. Faqat bularni adashtirmaslik va harakatni bildirganida ularning yozilishiga ahamiyat berish lozim: *al-ma-ya (al-mag-a)*, *al-ma-y-a* kabi.

-mak. -mek qo'shimchasi yordamida yasalgan so'zlar turk tilida sifat vazifasini ham bajarib kelishi mumkin: *dol-ma kalem*, *siiz-megoz*, *yiiz-me havuzu*, *kar-ma liste*, *yap-ma hareket* kabi.

3. —*is* (-is, -us, -us). Bu qo'shimcha ham, bundan oldingi ikki qo'shimcha singari, eng ko'p qo'llaniladigan fe'ldan harakat nomi yasovchi qo'shimchadir. Bu qo'shimcha ham *-ma*, *-me* kabi ish-harakat nomlari yasaydi: *al-is*, *cekil-is*, *aldu-ts*, *vet-is*, *karsdan-is*, *kidland-is*, *yiirii-y-iis*, *dus-iis*. *otur-us*, *agla-y-is*, *bilme-y-is*, *durdur-us* kabi. Bu qo'shimchaning *-ma*. *-me* dan farqi yanada aniqroq va so'z yasaliş uchun qulayroq qo'shimcha ekanligidadir: *bul-us*, *at-is*. *anla-y-u*, *goster-is*, *giil-us*, *dw-us* kabi.

YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI (EDATLAR)

Yordamchi so'zlar turk tilida *edatlar* yoki *takdur* deyiladi. Ular har tilda bo'lgani kabi turk tilida ham mustaqil emas, ma'lum vazifani bajaruvchi so'zlardir. Agar otlar va fe'llar ma'noli so'zlar bo'lsa, yordamchi so'zlar ma'noga ega bo'lmagan, faqat ma'lum grammatik vazifani bajaruvchi so'zlar hisoblanadi. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlarni bir-biriga bogiab, ular bilan birgalikda ma'no kasb eta oladi: *Ayi gibi adam*, *araba lie geldim*, *Alive gore degil*, *liizgara karsi acik* kabi.

Yordamchi so'zlar shakllariga ko'ra so'zlar, vazifalariga ko'ra esa kelishik qo'shimchalari holatida bo'ladi. Masalan: *Ah icin getirdim*. = *Ah'ye getirdim*. *Hayvan gibi saldtrmis*. - *Hayvanca saldtrmis* kabi.

Turk tilining grammatikasiga oid kitoblarda qadimgi turk tilida yordamchi so'zlar deyarli bo'lmaganligi, ularning keyinchalik o'zlashtirilib, yoki ba'zi mustaqil so'zlarning qoliplashuvi natijasida shakllanganligi va asrlar osha ularning sonlari ortih borganligi ayttladi.

So'z turkumlari ichida eng tor qamrovni tashkil etuvchi yordamchi so'zlar, asosan, ikki manbadan yuzaga kelganligi ma'lum. Bulardan birinchisi - yordamchi so'z sifatida qo'llanadigan ravishlar, ikkinchisi - kelishik qo'shimchasi shaklidagi o'rin-yo'nalish otlari. Yordamchi so'zlar turlanmas, tuslanmas so'zlardir, ya'ni ular qo'shimcha olmaydi.

Yordamchi so'zlarni ravishlarga parallel shaklda tor doirada guruhlashtirish mumkin:

1. / • *O 'zak shaklida bo 'lgan yordamchi so 'zlar*;
2. *Otdan yasalgan yordamchi so 'zlar*;
3. *Fe 'Idan yasalgan yordamchi so 'zlar*;
4. *Joy, yo 'nalish otlaridan yuzaga kelgan yordamchi so 'zlar*.

1. 0⁴ **zak shaklida bo'lgan yordamchi so'zlar.** Ushbu guruhni bir bo'g'inli yoki tahlil qilinishi qiyin bo'lgan va ba'zi o'zlashgan yordamchi so'zlar tashkil etadi: *dek*, *icin*, *beri*, *kadar*. *dair*, *ragmen*, "d kabi.

2. Otdan yasalgan yordamchi so'zlar. Bu guruhni eski va yangi shakl yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan va ko'pchiligi ravish bo'lgan so'zlar tashkil etadi: *iizere, sonra, yukan, baska, degin, yana, nispede, once* kabi.

3. Fe'ldan yasalgan yordamchi so'zlar. Ushbu guruhni eski, yangi ravishdoshlar va ba'zi ravish shakllari tashkil etadi: *dlciyye gore, gdzliik He, camiden bte, vazife diye, giinese karsi, bavadan dolayi, bundan otiirii, sorumlu olarak* kabi.

4. Joy, yo'nalish otlaridan yuzaga kelgan yordamchi so'zlar. Bu guruhni yuqorida ham sanab o'tilgan, yangi turkchada yordamchi so'zlar guruhini kengaytirgan va boyitgan ba'zi shakllar tashkil etadi.

Turk tilshunosligida yordamchi so'zlarning uchta turi ajratiladi: bog'lovchilar (*baglam edatlart*). ko'makchi va yuklamalar (*son cekim edadari*) va undov so'zlar (*iinlem edatlart*).

BOG'LOVCHILAR (*baglam edadari*)

So'zlar, so'z birikmalari, gaplarni shakl va ma'no jihatdan bir-biriga bog'lovchi yordamchi so'zlarga bog'lovchilar (*baglam edatlari*) yoki *baglamlar*, ba'zan *baglaclar*) deyiladi.

Turk tilining tuzilishi boshqa tillarga nisbatan ancha ixcham, gaplarning ko'pi sodda bo'lgani sabab bog'lovchilarning soni juda ko'p emas. Yuqorida ta'kidlanganidek, bog'lovchilar boshqa tillardan o'zlashish va qoliplashish natijasida yuzaga kelgan.

Turk tilida nutqda faol qo'llanuvchi bog'lovchilar, asosan, quyidagilardir: *ve, ama, ciinkii, ya da, fakat, eger, veyay, lakin, oysa, yahut, ancak, oysaki, veyahut, yalniz, balbuki* kabi.

Bog'lovchilar tuzilish va shakl jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga ko'ra ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

Asl bog'lovchilar: *ve, ama, de. eger, lakin. yani, nt&ger, hem...* kabi.

Yasama bog'lovchilar: *iistelik, yalniz, ancak, ornegin. gerceken. actkeast, kisacasi* kabi.

Qo'shma (murakkab) bog'lovchilar: *dyleyse, oysa, neyse, kimbilir, yoksa, veyahut, megerse, nitekim* kabi.

Birikma bog'lovchilar. Ba'zi bog'lovchilar va so'zlar birikib, bog'lovchi birikmalarini hosil qiladi. Ayniqsa, *ki* bog'lovchisi bir qancha so'z va bog'lovchilar bilan birikkan holda qo'shma bog'lovchilar hosil qiladi. Ularning o'zini ham alohida uch guruhga bo'lish mumkin:

1) *ki* bog'lovchisi bilan yasalgan bog'lovchilar: *halbuki, oysaki. mademki, sanki, soyle ki, yeter ki, demek fd.farzset ki, tut ki, su var ki, kaldt ki. ne var ki, degil mi ki* kabi.

2) so'z birikmasi shaklidagi bog'lovchilar: *bunun icin, bundan dolayi. bu yitizden, bu bakimdan, buna gore, o halde, bundan baska, bununla birlikte* kabi.

3) takroriy bog'lovchilar: *ne... ne, hem... hem, gerek... gerek, ya... ya, olsun... olsun, ama... ama, kah...kah, ister... ister* kabi.

Bu bog'lovchilarning anchasi turk tiliga boshqa tillarda o'zlashtirilgan, faqat keyinchalik ba'zilari turkcha so'zlar bilan almashtirilgan yoki yangi turkcha aslli bog'lovchilar yasalgan. Shu bois gapda bir o'zlashgan bog'lovchini sof turkcha bog'lovchi bilan almashirish mumkin bo'ladi.

Turk tilida bog'lovchilarning quyidagi asosiy turlari ajratiladi: *teng bog'lovchilar (siralama baglaclari), ayiruv bog'lovchilar (ayirtlama baglaclari), qiyoslovchi bog'lovchilar (karsdastirma baglaclari)* va *bog'lovchi so'zlar (ciimle bast edatlart)*.

Teng bog'lovchilar (*siralama baglaclari*)

Bu *ve, He, Ha* bog'lovchilari bo'lib, ular ketma-ket kelgan so'z, so'z birikmasi va gaplarni teng («va») bog'laydi, ularni siraiyadi: *sew ve ben, AH He Veli. tie Ha bes* va hok.

ve bog'lovchisining qadimgi turk tilida *ve, u, ti, vu, vii* shakllari ham bo'lgan: *yar u agyar, fakr u zaruret, Leyla vii Mecnun* kabi. Misollar: *O dtirust. namuslu ve iyi bir insandi (U to'grigo'y, ornoinusli va yaxshi inson edi). Ahmet Hukak Fakiiltesi ve Sosyal Bili inter Enstitiisunden mezun ol mus tit (Ahmet Huquq fakulteti ve ijtimoiy fanlar institutini bilirgan edi). Ozgiir gece giindiiz ders ca-*

listi ve sonucla universiteyi kazandi (O'zgnr kecha-kunduz dais qihli va huning natijasida universitetga kirdi. kabi.

ve va *da* bog'lovchilari turk tilida ba'zan bir xil vazifani bajarib keladi. Masalan: *Hiiseyin de Ayse hirlikle sinentuya gittiler. Huseyin ve Ayse birlikte sinemaya gittiler (Husayin ve (He) Ayshe hirga kinoga ketishdi)* kabi.

Ayiruv bog'⁴love hi>ari (*ayirtlama baglaclart*)

Ya, ya da, veyahut. yahut. veyahut, mi ... mi kabi ayiruv bog'lovchilari turk tilida teng bog'lovchilar sirasiga kiritiladi. Bunda bir-biriga teng bo'lgan, bir-birining o'rnini bosa oladigan ikki so'z yoki gap bo'laklari bir-biriga bog'lanadi, taqqoslanadi: *ya olarak ya olmayacak, dun ya da hugiin, elma veyahut armut, hugiin yahut yann, Ahmet mi Mehmet mi* kabi.

Bu guruhga kiritilgan *ya da* bog'lovchieining so'nggi paytlarda teng bog'lovchi emasligi ta'kidlanmoqda. Bu hoi ushbu bog'lovchining *ya bu, ya su, ya da o* misolida bo'lgani kabi qo'llanilishi bilan isbotlanib, bu bog'lovchining ko'proq qiyoslovchi bog'lovchilar sirasiga kiritilishi maqsadga muvofiqligi aytilmoqda.

Qiyoslovchi bog'lovchilar (*karsdastirma baglaclart*)

Qiyoslovchi bog'lovchilar turk tilida *karsdastirma baglaclari* yoki *yinelenen baglaqlar* («ikkilangan bog'lovchilar») deb yuritiladi. Ular ikki yoki undan ortiq so'z, gap bo'lagi yoki sodda gapni, xususan, qarama-qarshi ma'nodagi bo'laklarni bir-biriga bog'lab, gap ichida juft-juft bo'lib qo'llanadi. Qiyoslovchi bog'lovchilar quyidagilardir: *ya ... ya (ya ... ya...ya), ya ... ya da, hem ... hem (hem ... hem... hem de), ne ... ne (ne ... ne... ne de), da ... da (de). gerek... gerek (gerekse), ister...ister (isterse), olsun... olsun* kabi. Misollar: *Ya gelecek, ya gelmeyecek (Yo keladi, yo kelmaydi). Ya bu deveyi giideriz, ya da bu diyardan gideriz (Yo bu luyani boqamiz, yo bu diyardan ketamiz). Hem okuyor, hem yaziyor (Hem okuyor, hem yaziyor. hem de dinliyor). O ne okuyor, ne qahstiyor, evde oturuyor (l na o qiydi. na ishlaydi. uyda o'tiradi). Seni de beni de insan*

sayimyo (Seni ham. meni ham inson hisoblamaydi). Gerek uqakla, gerek(se) otobiisle olsun. o yolculugu qok severdi (Xoh samo/vot bilan, xoh avtobus bilan bo Isin, u sayohat qilishni yaxshi ko tar edi). Ister inan. ister inanma (Istar (xoh) ishon. istar (xoh) ishonma). Zengin olsun, fakir olsun, hepimizi aym Tann yaratmistir (Boy bo Isin, kambag al bo 'Isin, hammamizni yagona tangri yaratgan) kabi.

Qiyoslovchi bog'lovchilar takrorlanib kelganda, undan keyin *da (de)* kelishi ham mumkin: *...yada, ...hem de. ...ne de* va hok.

Qiyoslovchi bog'lovchilar sirasiga quyidagi shakllarni ham kiritish mumkin: *bir ... bir. ha ... ha. bazt ... bazi. kind ... kimi. diler ... diler. bazen ... bazen* kabi. Masalan: *Kadin bir guiler bir aglardi (Ayol bir hilar, bir yig'lardi). Bazen getirir, bazen de geri goluriirdii (Ba zan olib kelar. ba zan esa olib ketar edi). Giine.s ka It bulutlar arasmdan gbriinur. kah kaybolur (Quyosh goh bulullar orasidan ko 'rinar, goh yo 'qolganday bo 'lar edi). O kah bizden yana. kah baskaiarmdan yana olur (V goh biz laraf. gvhida esa boshqalari tarafbo 'lar edi)* va hok.

Qiyoslovchi bog'lovchi laming turk tilidagi yana bir nomi al-mashuv bog'lovchi lar i (*almasma baglaqlari*) dir. Ta'kidlash kerakki, *ne ... ne* bog'lovchisi bo'lishsizlik ifoda etgani uchun u bilan birga qo'llangan fei, asosan, bo'lishli bo'ladi: *Ne beni. ne seni diisiiniiyor (Na meni, na seni o'ylaydi), Ne Tiirkqe bit iyor, ne 6z-bekqe (Na o 'zbekcha, na turkcha biladi)* kabi.

Bog'lovchi so'zlar (*ciimle basi edatlan*)

Bog'lovchi so'zlar sodda gaplami ma'no jihatdan bir-biriga bogiab keladigan yordamchi so'zlardir. Ular gap boshida turganda o'zidan oldingi gap bilan o'zi qatnashgan gapni birlashtiradi. Bog'lovchi so'zlar sirasiga quyidagilar kiradi:

Bulardan birinchisi *YakaΓ* ma'nosini ifodalab keluvchi *fakat, tow, ancak, yalniz, ama (amma)* va eski turkchada qo'llanilgan *ilk, wik, veli* kabi bog'lovchilar. Ular, odatda, bir xil yoki bir-biriga yaqin ma'noda qo'llanadi. *fakat, lakin, ama* bog'lovchilari arab tili-an o'zlashgan, *ancak, yalniz* bog'lovchilari esa sof turkchadir. Bu

bog'lovchilar zid ma'noli gap va birikmalarni bir-biriga bog'laydi va sodda gaplar orasida sabab-natija munosabaUari o'matadi. Misollar:

Evienmek isliyordu, fakat diigHn yapmak iqin parasi yok.

(L'ylanmoqchi edi, lekin to 'y qilish uchun puli yo 'q edi.)

Okula zamamnda gelmek istedim, ama trafik yogun oldugu icin gee kaldim. (Maktabga vaqtida kelmoqchi ho 'Idim, ammo yo 7 tiqi-linch ho 'Igani uchun kech qoldim.)

Ev satin aldik, lakin qok borqlandik.

(Uy sotih oldik, lekin juda qarzga hotdik).

('<>k cahsti. ancak bir tiirlii hasard'i olamad.

(Juda ko p ishladi. lekin hecham ishi o 'ngidun kel mad i>

Bu isi yapacaksin, yalmi qok qalisman gerekir.

(Bu ishni q Hasan, faqat juda ko p ishlaying kerak).

Turk tilida o'nlab bog'lovchilarni sanab o'tish mumkin. Ular sirasiga "eger" ma'nosini ifodalovchi *eger*, *sayet* va eski turkchada qo'llanilgan *get* bog'lovchilarini, "gerqf" ma'nosini ifodalovchi *gerqi*. *vakia*. *her ne kadar* va eski turkchada qo'llanilgan *egerqi* bog'lovchilarini, "qiinkiT" ma'nosini ifodalovchi *qiinku*, *zira* va eski turkchada qo'llanilgan *qiin*, *qii* bog'lovchilarini, "mademki" ma'nosini ifodalovchi *mademki*, *modem* va eski turkchada qo'llanilgan *qunkim*. *qiinki*. *qiin*, *qii*, *madamaki*, *madam* bog'lovchilarini, natija va izohni ifodalovchi *meger* (*meger*). *bina-enaleyh*. *byle ki*, *oysa ki*, *shyleki*, *nitekim*, *halhuki*, *kaldi ki*, *ustelik*, *helki*, *hatta*, *imdi*, *yani*, *mamafth*. *zaten*. *zati*. *bari*, *keza*. *hakeza*, *kezalik*, *kaski*, *haztr*. *bilhassa*. *demek*. *demek ki*, *su halde*. *byleyse*, *ozellikle* bog'lovchilarini kirilish mumkin.

Sanab o'tilgan bog'lovchilardan oxirgi guruhini kuchaytiruv bog'lovchilari ham deyishadi, chunki ulardan biri ikkinchisini kuchaytirib keladi. Undan tashqari, izoh bog'lovchilari vositachilik vazifasini bajaradi.

Bir guruh bog'lovchilar o'xshashlikni ifoda etadi: *adeta*, *sanki*, *nasd ki*. *giiya*, *nitekim* va eski turkchada qo'llanilgan *nite ki*. *nice ki*, *san* bog'lovchilari; shart va daraja ma'nosini ifodalaydi: *tek*. *veter ki*. *meger ki*, *velev*, *vetev ki*, *ta ki*, *ilia*, *ilia ki*.

Turk tilidagi *ta ki* bog'lovchisida *kadar* ifodasi mavjud. Shu bois uning *ta ki oraya gidinceye kadar* (*toki u erga ketgimga qadarj*

kabi birikmada qo'llanishi noto'g'ri hisoblanadi. Bu birikmaning to'g'ri shakli *ta ki oraya gidelim*, *gidilsin* (*toki u yoqqa ketaylik. ketdsin*) dir. *Kadar* bog'lovchisi qo'llanganda *ki* bog'lovchisi qo'shilmaydi.

Turk tilida "aksi halde" ma'nosini ifodalovchi *yoksa*, *aksi halde*. *aksi taktirde* bog'lovchilari va "hele" ma'nosini ifodalovchi *gel hele*, *hele gel* bog'lovchilari ham yozma va og'zaki nutqda keng qo'llanib kelinadi.

Yuqorida keltirilgan bog'lovchilar ichida yordamchi so'z bo'lmagan, faqat ularning o'rnida qo'llanadigan bir nechta so'zdan iborat qoliplashgan birikmalar ham berildi.

Bog'lovchilarning vazifasi nima ekanligi ko'proq ular qo'shma gaplar ichida kelganda namoyon bo'ladi.

Endi yuqorida keltirilgan bog'lovchilarga bir nechta misol keltiramiz:

Bugun sizegelemem, q'unku qok isim var.

(Bugun sizning yoningizga kela olmayman, chunki ishim judo ko'p).

O bugiin geq kalmadi. hatta on dakika erken geldi.

(U bugun kech qolmadi. hatto o 'n daqiqa erta keldi).

Dun qok yorgundwn. ustelik bolim mudUrunden de azar isittim. (Kecha juda charchagandim, uning ustiga bo'lim mudiridan ham gap eshildim).

Paramizyok, yani biz bu arabayi alamayiz.

(Pulimizyo'q, ya'ni biz bu mashinuni ola olmaymiz).

Onu diinist biri sanmisun, meger (megerki) htrsizmis.

(Uni durust biri deb o 'ylagandim, (magar) bir o g ri ekan).

Bu ogrenci basardi biri degil, nitekim iki senedir aym stntfta okuyor.

(Bu talaba a'lochi emas, chunki ikki yildir bir kursda qolib o qiyapti).

Buna sbz vermesine ragmen, borcunu bdemedi.

(Menga soz berganiga qaramay, qarzini to 'lamadi).

Zamuntnda gelmeliyim, yoksa her seyi kaybederim.

(O z vaqtida kel is him kerak. yo'qsa hamma narsadan ma brum^{oo} la man).

Evlenmis de hiq mutlu olamamis.

(Uylanibdi. lekin hecham baxtli bo'la olmabdi).

Bilsem bile, sana bunu soylemem. (Bilsam ham buni senga ayt-mayman).

Bu sorunu biz dahi cbzemeyiz (Bu muammoni biz ham hal qila ol may miz).

Inamyorum ki. gelecek günlerimiz daha iyi olacak.

(Ishonamanki, kelajak kunlarimiz yanada yaxshi bo 4adi).

Yapraklar sararmamis. halbuki (oysa; oysa ki) sonhahar gelmisti.

(Yaproqlar sarg aymabdi. holhuki kuz gelgan edi.

Bu türküyü sanki baska bir yerde de dinlemistim.

(Bu qo shiqni go 'yoki bosqa bir yerde ham eshitgandim).

Smavi kazanmis, demek ki iyi qalimis.

(Smovlardan yaxshi o'tibdi, demak ki yaxshi tayyorlangan ekan).

Turk tilida bog'lovchilarga o'xshash vazifani bajaruvchi yana bir yordamchi so'z turkumi borki, ularni biz ko'makchilar (*son cekim edadari*) deymiz. Ular ishlatilishiga ko'ra bir-biriga juda o'xshash. Ular orasidagi farq shundaki, bog'lovchilar so'z birikmalari, uyushiq bo'laklar va sodda gaplar orasida, ko'makchilar esa faqat so'zlar orasida munosabat o'rnatishga xizmat qiladi. Ba'zi yordamchi so'zlar turk tilida ham bog'lovchi, ham ko'makchi sifatida qo'llanadi. Shu bois ba'zi tilshunoslar orasida bu borada fikr farqliliklari borligi sir emas. Bog'lovchilar va ko'makchilar orasidagi farqni yanada aniqlashtirish uchun quyidagi misollarga murojaat qilish mumkin:

Engin okula bisiklet ilegitti. (ko'makchi)

(Engin maktabga velosiped bUan ketdi).

Engin ile Ayse okula gittiler. (bog'lovchi)

(Engin bilan Oysha maktabga ketishdi).

Bog'lovchilar va ko'makchilar orasidagi farqni aniqlash uchun ularni gap ichidan chiqarib olib tekshirish mumkin ekan. Agar ular chiqarilgandan keyin gap buzilmasa, demak qo'llanilgan yordamchi so'z bog'lovchi bo'lar ekan, buzilsa - ko'makchi bo'lar ekan.

KO'MAKCHILAR (*son cekim edatlart*)

Turk tilida nutqda vosita, sabab, zamon, makon va shu kabi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanadigan yordamchi so'zlarga ko'makchilar deyiladi. Turk tilshunosligida ko'makchilar *son cekim edatlart* deyiladi. Ba'zi grammatika kitoblarida ko'makchilarning *ilgecler* deb atalganini ham ko'rish mumkin.

Hozirgi zamon turk tilidagi asosiy ko'makchilar sirasiga *icin, gibi, kadar, gore, dolayi. btiirü, uzere, degin* yordamchi so'zlari kiritiladi. Undan tashqari, ba'zi ot, sifat, ravish va ba'zi yordamchi so'zlar ham hozirgi zamon turk tilida ko'makchi sifatida qo'llanib kelinadi. Bular *ile, nazaran, ait, üzre, beri, gayri, boyle, once, ewel, sonra, geri, karsi, dogru, diye, sua, yana, taraf, baska, dair, ragmen, dek, ote* kabi so'zlardir. Eski turkcha matnlar, shuningdek, hozirgi zamon turk badiiy adabiyotida uchrab turadigan *nasi, birle, bigi, tek. bndin, sari, icre, ara, iqeri. disan, ozge* kabi so'zlarni ham ko'makchilar sirasiga kiritish mumkin.

Ko'makchilar o'zgarmaydigan (turlanmaydigan va yasalmaydigan) yordamchi so'zlardir. Nutqda qo'llanishlari, otlarning ayrim kelishik shakllarini boshqarishlariga ko'ra ko'makchilar quyidagilarga bo'linadi:

1. Bosh kelishikda turgan otlar va qaratqich kelishikda turgan olmoshlar bilan birga qo'llanadigan ko'makchilar: *ile. icin. gibi. kadar. birle, bigi, tek* kabi (*su ile, bal gibi. Ayse icin. benim gibi*). Masalan: *Ahmet aslan gibi delikanliydi (Ahmad sher kabi yigit edi). Hayatunda senin (onun) kadar guzel kadin gormedim (Hayotimda sendek (uningdek) go'zal ayolni ko'rmadim). Bazi insanlar sadece para icin calisir (Ba'zi kishilar faqat pul uchun ishlaydi). Paketi posta ile gbndeı ecegiz (Paketni pochia orqali jo natamiz)* kabi.

2. Bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan fe'l (harakat nomi) bilan birga qo'llanadigan ko'makchilar: *uzere (üzre), diye, sua. icre, ara* kabi. Masalan: *has üzre, gelmek üzre, cihan icre, mutluluk diye* kabi.

3. Otlarning jo'nalish kelishigi shakli bilan birga qo'llanadigan ko'makchilar: *kadar, gore, nazaran. ait. karsi. dogru. taraf, dair. 'agmen, degin, dek* kabi. Masalan: *eve kadar. bana gore, bize ait,*

subaha karsi, talli dile dair, her seye ragmen, bugiine degin, evimize dek kabi.

4. Otlaming chiqish kelishigi shakli bilan birga qollanuvchi ko'makchilar: *dolayi, otiirii, dtrii, beri, gayri. boyle, once, ewel, sonra. geri, yana. baska. dte* kabM Bu guruhga eski turkchada qo'llanilgan *nasi, sari, iqeri. disart, 6zge%* (*bundan dolayi, benden once*) kabi ko'makchilarini ham kiritish mumkin. Masalan: *gel-memenizden dolayi (kelmaganingiz sabab), gecikmesinden otiirii (kechikkani tufayli), bir aydan beri (bir oydan beri), kahvaltidan once (nonushtadan oldin), yemekten sonra (ovqatdan keyin). ba-basindan yana (otasi tomonida), Ahmet'ten baska (Ahmaddan boshqa)* kabi.

Turk tilida ko'makchilar bajaradigan vazifa va maqsadlariga ko'ra quyidagilarni ifodalaydi:

1. Birgalik: *He. birle;*
2. Sabab: *iqin. uzere.dolayt, otiirii, nasi, diye;*
3. O'xshashlik: *gibi. bigi, tek;*
4. Farqlilik: *baska, dzge. gayri;*
5. Holat: *gore, nazaran, dair, ait. ragmen;*
6. Miqdor: *kadar;*
7. Payt, zamon: *beri. once, ewel boyle. sonra, geri, ondin;*
8. Joy, yo'nalish: *kadar. degin, dek, karsi, dogru, dapa, yana, taraf. sari, sua, iceri. iqre, iizre. ara. dte* kabi.

Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, turk tilshunosligida *hulde. kursdik. mukabil. nisbet. bedel* kabi so'zlar borki, ulami ham ko'makchilar jumlasiga kiritish mumkin: *qalistigi halde, buna mukabil, buna karsdik. buna bedel, ona nisbet* kabi.

Hozirgi zamon turk tilidagi *hakkmda. yiizden. yiiziinden, uterine, yandan, taraftaii, tarafmdan, bakima. bakimdan, bakinundan. ybnden, yonunden. cihelle, siiretle. siiretiyle, veqhile, sebeple, sebebiyle, dolayisiyle* kabi mustaqil so'zlar ham gapda ko'makchilar vazifasida qo'llanib kelinadi.

YUKLAMALAR (*sona gelen edattar*)

Nutqda mustaqil so'zlardan keyin kelib, ularga qo'shimcha ma'no beruvchi yordamchi so'zlarga yuklamalar deyiladi. Yuklamalar turk tilshunosligida alohida yordamchi so'z turkumi sifatida ajratilmaydi. Ular umumiy shaklda yordamchi so'zlar guruhiga kiritilib, *sona gelen edattar* (ya'ni so'zning oxirida keluvchi yordamchi so'zlar) deb o'tiladi. Ba'zi turk tilining grammatikasi kitoblarida yukiamalarning *takilar* (ya'ni "taqinchoq", "bezak so'z" ma'nosida) deb atalganini ham uchratish mumkin.

Yuklamalar, ba'zan, ko'makchilar singari gap ichida bir so'zni undan oldin yoki keyin kelgan unsurlar bilan bog'laydi, hamda ma'noni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois yuklamalarni turk tilshunoslari kuchaytiruvchi yordamchi so'zlar deb ham ataydilar: *dahi, da (de), ise, ki* (eski turkchada qo'llangan *kim*). *bile, degil, fakat, ancak, sadece, yalniz, sanki, tipki* va hok. Masalan: *Bona dahi giivenmiyor (Menga ham (hatto) ishonma\>di). Seni bile unuttum (Seni hatto unutdim)* kabi.

Turk tilidagi yukiamalarning so'zga baxsh etadigan qo'shimcha ma'nolariga ko'ra, so'roq va taajjub, kuchaytiruv va ta'kid, ayiruv va chegaralov, aniqlov, gumon va inkor yuklamalari deya guruhlarga bo'lish mumkin.

So'roq va taajjub yuklamasi, asosan, *mi* va *ya* shaklida bo'lib, ular nutqda so'roqni (*gelecek mi?*), taajjubni (*Acaba, soylemedi mi? ya sunn alsam?*) ifodalaydi. Shuningdek, nutqda buyruq, iitimos, qistashni ifodalovchi *haydi, de (da), -e (a)* yuklamalarini ham ushbu guruhga kiritish mumkin (*haydi, sen gel de, gorelim; soylesen-e, otursan-a*).

Turk tilida *ya* yuklamasi ta'kid, uqtirish ma'nosini ifodalaydi: *Ahmet var ya, iste o senin dayin olur (Ahmad bor-Jcu, ana o'sha senin»g togang bo'ladi)*. Shuningdek, ta'kid va kuchaytiruv ro'lnolarini ifodalashda *zaten, zira* so'zlari ham keng qo'llanadi: *&aten, sen burnt bnceden biliyordun. Zira, o zaman her sey bitmisti.*

Ta'kid va kuchaytiruv ma'nolarini *de(da)* va *ki (kim)* yuklamasi ha m ifodalaydi: *Kaq kere geleceğim dedim de, hiq firsat bulamadim*

(*Necha marta kelaman dedim-u, hech fursat topa olmadim*). *O kadar kurnaz ki (Shunchalik ayyorki)* kabi.

UNDOV SO'ZLAR (*iiniem edartan*)

Tilda his-hayajon, sevinch, alam, iztirob, nafrat, qo'rquv, hayrat va shunga o'xshash insonga xos boshqa ruhiy holatlarni ifodalovchi, shuningdek, birini chaqirish, bildirilgan fikrni tasdiqlash yoki rad elish, so'rash, ko'rsatish, **tabi3tdagi** tovushlarni taqlid shaklida. bir so'z vositasida ifodalash uchun nutqda qo'llanadigan yordamchi so'zlarga undov so'zlar deyiladi.

Nutqda undov so'zlarning ifoda qobiliyati benihoya kuchlidir. Ulardan ba'zilari yakka holda qo'llangan holda, keng ma'no ifodalashi mumkin. Ular nutqda gapdan alohida, mustaqil holda qo'llanganda yozuvda ulaming oxirida undov belgisi qo'yiladi: *Ah! Evtl* kabi. Nutqda, ko'pincha, undov so'zdan keyin u tuyg'u va tilakni izohlovchi bir gap keladi: *Oh! Hava biraz serinledi (Oh. Ilavo hiroz salqin ho'ldi). Hah! tarn istedigim gibi (Ana. xuddi istaganimduy). Haydi! isinize hakin (Qani, hamma o'z ishiga qarasin)* kabi. Undov so'zlarning gap oxirida kelganligini ham uchratish mumkin. Masalan: *Laft uzatmavaltm, haydi! (Gapni cho'zmang), Fazla konusuyorsun, be! (Ko p gapirayapsan)* kabi.

Turk tilshunosligida undov so'zlar besh kichik guruhga ajratiladi: undov so'zlar (*unlemler*), xitob va chaqiriqni ifodalovchi so'zlar (*seslenme edatlart*), so'roqni ifodalovchi undov so'zlar (*sonna edadari*), ko'rsatish, ishorani ifodalovchi undov so'zlar (*gosterme edatlart*), javobni ifodalovchi undov so'zlar (*cevap edatlart*).

Undov so'zlar (*unlemler*)

Undov so'zlar his-hayajonni (*ah, vah, eyvah. ay, oh, heyret, vay, ay, of, piif aferin, hah, sakm. hop, haydi, pist, aman* va hokA atrofimizdagi olam, jonli tabiatdagi tovushlarni (*pat, kiit, cat. miyaf* va hokj taqlid shaklida ifodalovchi so'zlardir.

Undov so'zlar mustaqil so'z turkumlariga juda yaqin turuvchi yordamchi so'zlardir. Buni, ushbu so'zlardan ba'zilarining masdar

kabi qo'llanishi (undov so'zlardan yasalgan fe'llar) misolida ko'rish mumkin: *of-lamak (uflamoq), piif-lemek (puflamoq), cul-lumak (chatnamoq), miyav-lamak (miyovlamoq)* kabi.

Xitob va chaqiriq so'zlar (*seslenme edatlart*)

Xitob va chaqiriqni ifodalovchi so'zlar hech qanday ma'noga ega bo'lmaydi. Ular faqat vosita vazifasini bajaradi: *a. ey. ay, oh, hev. ya, yalm. a be, be, ulan. hit* va hok. Bunday so'zlar har doim kuchli urg'u berib, talaffuz qilinadi.

So'roqni ifodalovchi undov so'zlar (*sorma edatlart*)

Turk tilida so'roqni ifodalovchi undov so'zlarning soni juda kam: *hani, acaba, acep, ha, hah, hi. hih*. Ularga *nasd, neden, nicin* kabi so'roq olmoshlarini ham ilova qilish mumkin. Nutqda bu undov so'zlar ham kuchli urg'u bilan talaffuz qilinadi.

Ko'rsatish, ishorani ifodalovchi undov so'zlar (*gosterme edatlart*)

Bu so'zlar bir shaxsni, bir narsani ko'rsatish uchun qo'llanadi. Ular ham son jihatdan kamchilikni tashkil qiladi. Hozirgi zamon turk tilida ko'rsatishni ifodalovchi, eski turkchadan saqlangan *us* yordamchi so'zining o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi (*-de, -te*) olgan yagona shakli - *iste* so'zi borligi ham ta'kidlanadi.

Hozirgi paytda turk tilining shevalarida saqlanib qolgan *aha. daha, deha, te, nah* kabi undov so'zlami ham ushbu guruhga kiritish mumkin. Shu o'rinda bugungi kunda ham turk tilida qo'llanib kelayotgan, ko'rsatishni ifodalovchi yana bir eski - *ta* undov so'zini aytib o'tmoq joiz. Bu yordamchi so'z o'zbek tilidagi *To uygacha yayov ketdim (Eve kadar yaya (yuriiyerek) geldim)* misolidagi *to* so'ziga mos keladi.

Javobni ifodalovchi undov so'zlar (*cevap edatlari*)

Ushbu turga kiruvchi undov so'zlar lasdiq yoki inkorni ifoda etadi: *evet, haytr, yok. degil. peki, hay hay* kabi. Shuningdek, bu guruhga *he, ejendim, tabii. elbette* kabi so'zlarni ham kiritish mumkin. Bulardan *ejendim* so'zini olsak, ushbu so'z ayni vaqtda nutqda xitob, murojaat, savolni ham ifodalab keladi.

Turk tilida *iyi, giizel, olur, olmaz, oldu* kabi mustaqil so'zlar ham javobni ifodalovchi undov so'z sifatida qo'llanadi. Javob undov so'zlari ham har doim kuchli urg'u bilan aytiladi. Turkcha *gercekten (hakikaten), kuskusuz (stiphesiz), belki. demek* so'zlari turk tilshunosligida undov so'zlar jumlasiga kiritiladi (o'zbek tilshunosligida bu so'zlarni modal so'zlar deb ataymiz).

Turk tilida aslida mustaqil so'z bo'lgan, lekin nutqda undov so'z vazifasida qo'llanib kelinayotgan *aferin; Allah. Allah; Tanrun. Yarabbi, yazik, saktn* so'zlaridan tashqari, *Allah asktna, Atnan Tan-nin, Aman Yarabbi. Allahtnt seversen. hadi camm sen de. hadi oradan* kabi turg'un birikmalar ham nutqda undov ma'nosida, bir so'z kabi qo'llanadi.

Talabalarga tavsiya etiladigan qo'shimcha adabivotlar (KAYNAKLAR)

1. Adiguzef, Htiseyin, *Deyim Hazinemiz, Aqiklamali - Omek I i Turkce Deyimler Sozltigi, Istanbul. 1990.*
2. Aksan. Dogan, *Her Yontiyile Oil; Ana Qzgileriyle Dilbilim 1,2,3, TDK, Ankara. 1990.*
3. Aksoy, O.A. *Alasdzleri ve Deyimler Sozliigi, J. Atasozleri Sdzlugii. Istanbul, ink/lap Yaymevi. 1991, 1994.*
4. Aksoy. O.A.. 2. *Deyimler Sozliigi, 3. Dizin ve Kaynakca 4. Bash, Turk DU Kurumu Yayinlan, Ankara. 1984.*
5. Banguoglu T.. *Tiirkqenin Grameri, Baha Matbaasi, Istanbul. 1974.*
6. Banguoglu T., *Tiirkcenin Grameri, Ankara, 1998.*
7. Buyiik Rusca-Tiirkce Sozltik, Moskva, «Russkiy yazik». *Multilingual. Istanbul, 1995.*
8. Biiyuk Turkce-Rusca Sozltik. Moskva. «Russkiy vazik». *1977, Multilingual, Istanbul. 1994.*
9. Canpolat, M, *Dilinyapisi ve Yapibilgisi. Tiirk Dili. 1980. W.Dilacar, Agor. Devlet Dili Olarak Turkce. TDK. A.O. Basimevi, 1962.*
- U.Dilaqar Agor, *1612'de Avnipa'da yaywdanan ilk Turkce Grameri nin Ozellikleri. Ankara. 1970.*
12. Dizdaroglu, H. *Tiirkcede Fuller, TDK, Ankara, 1963.*
13. Eren, Hasan vb.: *Tiirkqe Sozltik, 2. Cilt.. Ankara. 1988.*
14. Ergin, M., *Universiteler iqin Turk Dili, Bayrak Basimevi. Istanbul. 2000.*
15. Gdker, O., *Uygulamali Tiirkqe Bilgileri, Istanbul. 1998.*
16. Hacieminoglu, M.N.. *Tiirk Dilinde Edallar. M.E.B., Istanbul 1971.*
17. Hengirmen M., *Tiirkqe Dilbilgisi, Engin Yaymevi. Ankara, 1998.*
18. Hengirmen M.. *Koq. Nurettin. Tiirkqe Ogremiyoruz, Turkisch aktiv, 1-4. ciltler, Engin Yaymevi, Ankara. 1992.*
19. G ulomov A.. *Asqarova M, Hozirgi o'zbek adabiy tili T °'qituvchi, 1987.*

20. *hntla Kilavuzu, Yeni Bash, "Sabah". Eskisehir, 1997.*
21. Кононов А.П., *Грамматика турецкого языка. М.-Л., /941.*
22. Кононов А.П., *Грамматика современного турецкого литературного языка. -М.-Л., 1956.*
23. Кононов А.Н., *Грамматика современного узбекского литературного языка. -М.-Л., 1960.*
24. Кононов А.Н., *Гоамматика современного турецкого литературного языка. - М.-Л., 19^0.*
25. Кос, Nurettin, *Yeni Dilhilgisi. Inkilap Kilabevi, Istanbul, 1990.*
26. *Ozbek-Tiirk Atasozleri ve Deyimleri Sozliigii. Doc. Dr. Ibrahim Yoldasev. Tuncay Ozlurk. Yursel Oztiirk. Taskent. 1998.*
27. Ozlurk T., Akcay S., Duru H. Giin S., Ersoy H. Yigit A., *Adim Adim Turkce, Ogretim seti: Ders Kitabi, Alistirmalar Kilabi, Dilbilgisi, Ogretmen Kitabi -1-2-3. Older. Istanbul, 2002.*
28. *Rusca-Tiirkce Isimler ve Fuller Sdzliigu. Multilingual. Istanbul. 1998.*
29. Собинов /<*, X,a.uидов X.. *Худойберганаова З.. Аминова.Л.. Турк шили. Ташкент, 2003.*
30. Sodiqov Q., Hamidov X.. *Xudoyberganova Z. Aminova L, Turk tili. Tashkent, 2005.*
31. Sodiqov K., *Ko 'k turk bitiglari: main va uning tarixiy talqini, Toshkent, 2004.*
32. TC. *Kultiir Bakanligi Kiiltiir Eserleri, . Gib Alim 'Ehiizziya'Tevftk. Hay at, Oil, Edebiyat, Basın, Yayın ve Mat-baaed iga Kathlar", Tiirk TarihKurumu Basimevi, Ankara, 1998.*
33. *Tiirkce Sozliik. Tempo 1-4. Dil Dernegi, Istanbul. 1997.*
34. *Turkce Sozliik, Turk Dil Kurumu. 9. Bash, 1, 2. ciltler, Ankara, 1998.*
35. *Xudoyberganova Z, O'zbek va turk tillarida sodda gapning struktur-funksional xususiyatlari, 1-qism, Toshkent, 2004.*

MUNDARIJA
O&NDEKILER)

SO'Z BOSHI_____	3
ONSOZ_____	5
KIRISH_____	7
SO'Z BOYLIGI (Ketime dagarci_i)_____	11
SO'ZLARNING TUZILISHI (Kelimelerin yapisi)_____	13
SO'Z TURKUMLARI_____ p	16
OI (AD) _____	21
Ot va uning turlari (<i>ad ve cesitleri</i>)_____	21
Otlarning turianishi (<i>adlarin cekimi</i>)_____	26
SIFAT (SIFAT)_____	51
Sifat va uning turlari (<i>sifat ve cesitleri</i>)_____	51
Asl sifatlar (<i>vasiflandirma sifatleri</i>)_____	53
Nisbiy sifatlar (<i>nitelendirme sifatleri</i>)_____	53
SON (SAYISIFATI)_____	60
Son va uning turlari (<i>sayi sifati ve cesitleri</i>)_____	60
OLMOSH (ZAMIRLER)_____	64
Olmosh va uning turlari (<i>zumir ve cesitleri</i>)_____	64
RAVISH (ZARFLAR)_____	72
Ravish va uning turlari (<i>zarfve cesitleri</i>)_____	72
FE'L (Fill)_____	79
Fe'lning ko'rinishlari (<i>filin catisi</i>)_____	82
Fe'llarning tuslanishi (<i>fullerin cekimi</i>)_____	90
Fe'l zamonlari (<i>fillerin zamanlari</i>) _____	96
Fe'l mayllari (<i>filin kipleri</i>)_____	102
Hikoya murakkab zamon shakli (<i>hikaye birllesik zamam</i>)_____	111
Rivoyat murakkab zamon shakli (<i>rivayet birllesik zamam</i>) _____	115
Fe'lning shart murakkab zamon shakli (<i>sari birllesik zaman sekli</i>)_____	119
Qo'shma fe'l shakllari: Ko'makchi fe'llar (<i>tasvir Jiilleri</i>) _____	121
Fe'lning vazifadosh shakllari (<i>yatik fuller</i>)_____	126
YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI (EDATLAR)_____	153
BOG'LOVCHILAR (<i>baglam edatlan</i>)_____	154
KO'MAKCHILAR (<i>son cekim edatlart</i>)_____	161

YUKLAMALAR (*sona gelen edatlar*) _____
UNDOV SO'ZLAR (*Unlem edadari*) _____
TALABALARGA TAVSIYA ETILADIGAN
QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR (**KAYNAKLAR**)